

0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI Q'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

Sh.Z. ABDULLAYEYA

PUL MUOMALASI VA KREDIT

Kasb-hunar kollejlari uchun o 'quv qo 'llanma To'ldirilgan
va qayta ishlangan 4-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2011

УДК: 336.74 (075)

BBK 65.262.6 ya 722+65.262.2ya722

A15

Oliy va o 'rta maxsus, kasb-hunar ta 'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsija etilgan.

Qo'lingizdagи ushbu kitob pul, kredit va banklar haqida o'quv qo'llanma bo'lib, unda pul muomalasi, kredit tizimi va banklar faoliyatini tashkil etish asoslari ko'rsatib o'tilgan. Qo'llanmada, shuningdek, pulning zarurligi, funk- siyalari, milliy valutaning muomalaga kiritilishi, kredit va uning shakllari, kredit tizimi, uning tarkibi, kredit muassasalari, banklarning tashkil topishi, ri- vojlanishi, 0'zbekiston Respublikasi bank tizimining tashMl topishi va rivojla- nishi, bank faoliyati bargarorligi va likvidiligi to'g'risida fikr yuritilgan. Bir qator bank operatsiyalari, shu jumladan, bankning aktiv, passiv va boshqa operatsiyalari nazariy jihatdan hozirgi zamon talablari asosida yoritib berilgan.

Taqrizchilar: S. ARZUMANOV — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;
I. TOYMUHAMEDOV — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Axe

ИHB №

ТошДАУ ТашГАУ

ISBN 978-9943-303-95-9

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2006-y.

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2011-y.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti asosida tovar-pul munosabatlari yotadi. Tovar-pul munosabatlari — tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayriboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarni ifoda qiladi. Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiy monopoliyani inkor qiluvchi, ijtimoiy taraqqiyotga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo‘nalishiga ega bo‘lgan va boshqarilib boriladigan iqtisodiyotdir.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlarini qaror toptirish — dolzarb omillardan bo‘lgan pul, kredit va banklar tizimida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Bozor munosabatlariga o‘tishda iqtisodiy kategoriya sifatida pul, kredit, foiz, soliq va boshqa kategoriyalarning mohiyati hamda ahamiyatiga boshqacha yondashish zarur.

Mamlakatimiz Prezidenti I .A. Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlami yanada chuqurlashtirish va fu-qarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da ta‘kidlanganidek¹, «Izchil yuqori o‘sish sur’atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamotchiligi, shuningdek, Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e’tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mo- baynida O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o’sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daro- madlari 3,8 barobarni tashkil etgani e’tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijti- moiy-gumanitar sohada erishilgan marralar — aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko‘payganligi diqqatga sazovordir».

Bozor munosabatlari sharoitida bank-moliya tizimining ahamiyati tubdan o‘zgarmoqda. Bozor munosabatlarini boshqarish sohasida davlat tomonidan olib boriladigan barcha ishlarning og‘irlik markazi ana shu tizimlarga ko‘chdi. Shu sababli, bank tizimini takomillashtirish, banklar-

¹ I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. T., «0‘zbe- kiston», 2010, 4-bet.

ning mustaqilligini va pul muomalasidagi holat uchun javobgarligini oshi-rish, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish, so‘mnинг barqarorligi va nufuzini ta’minlash borasidagi muammolarni o‘rganish, shuningdek, tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish o‘ta dol-zarb masalalardan hisoblanadi. Ma’lumki, 2008-yilning ikkinchi yarim yilligidan butun dunyo miqyosida avj ola boshlagan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy sabablaridan biri ham moliya, pul, bank tizimi va kreditlash jarayonlarida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hisoblanadi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, «jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri — bu banklar likvidligi, ya’ni to‘lov qobiliyatining zaifligi bilan bogiiq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag‘larining yetishmasligi bilan izohlanadi»¹.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ham hattoki, ko‘pgina rivojlan-gan davlatlar iqtisodiyotida ham jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari, ta’siri sezilib turibdi.

Shunga qaramasdan, «2008—2010-yillarda, ya’ni dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o‘sish sur’atlari sezilarli ravishda tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot- ning o‘sish sur’atlari 2008-yilda 9 foizni, 2009-yilda 8,1 foizni tashkil etgani, 2010-yilda bu ko‘rsatkich 8,5 foizga yetishi kutilayotgani, kelgusi 2011-yilda esa 8,3 foiz darajasida bo‘lishi belgilab berilayotgani ko‘pgina xalqaro tuzilmalar, ekspert va mutaxassislarda katta qiziqish uyg‘otmoqda».

Dunyoda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarz-lari ko‘payib borayotgani jiddiy xavotir tug‘dirayotgan bir paytda O‘zbe- kistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmaydi, davlat budjeti esa so‘nggi besh yilda profitisit bilan bajarilmoqda»².

Bularning barchasi O‘zbekistonning o‘ziga xos va o‘ziga mos «o‘zbek modeli» deb nomlangan mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab olganligi va bu yo‘ldan sobitqadam ilgarilab borayotganligining natijasidir.

Bozor munosabatlarining har tomonlama taraqqiy qilib borishi pul, kredit, moliya, soliq munosabatlarining ham yanada takomillashib bo-rishini taqozo qiladi. Shu sababli bugungi kunda quyidagi savollar ilmiy nuqtayi nazardan o‘z javoblarini kutmoqda:

- Naqd pul va kredit emissiyasining o’sishiga sabab nima?
- Aholi qo‘lidagi pulning harakatsiz turib qolishiga qanday qilib yo‘l qo‘ymaslik mumkin?
- Kredit bahosini qanday qilib arzonlashtirish mumkin?

¹ I.A. Karimov. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartafar etishning yo‘llari va choralar. T., «O‘zbekiston», 2009, 8-bet.

² I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqr- lashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. T., «O‘zbe- kiston», 2010, 5-bet.

• Bank barqarorligini ta'minlash va bank xavf-xatarlaridan qanday himoyalanish mumkin?

• Milliy valuta kursining almashuvi va barqarorlashuvini ta'minlash uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi kerak?

• Inflatsiyaning oldini olish va uni pasaytirish omillari nimalardan iborat?

Bozor munosabatlarni talab darajasida tashkil qilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va shu asosida iqtisodiy taraqqiyotga erishishda kreditdan foydalanish, banklar faoliyatining samaradorligini oshirish, kreditdan foydalanishda salbiy hollar oldi olinishini taqozo qiladi. Hozirgi vaqtida tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning salmog'i va sifati sohasida ba'zi bir muammolar mavjud.

Har bir jamiyatda bank tizimi iqtisodiyotning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarixan tovar ishlab chiqarish va muomala jarayonining rivojlanishi banklarning rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq holda taraqqiy qilib borgan. Banklar xo'jaliklarga kredit berish, korxona, tashkilotlar o'rtasida hisobkitoblarni o'tkazish jarayoni, kapital harakatida vositachi sifatida maydonga chiqadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimida katta tarkibiy o'zgarishlar yuzaga keldi va banklarning tarkibi va ular bajaradigan funksiyalar hamda ularga yuklangan vazifalarning mohiyati va sifati o'zgarib bormoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida ishslash banklardan yangi xizmat turlarini tatbiq qilish, mijozlaming qiziqishlarini hisobga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini bank faoliyatida qo'llash, turli xil kredit institutlarini barpo qilish lozim. Shu bois ham Prezidentimiz «...bank ishini yanada takomiilashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish, bank tizimini rivojlantrish va mustahkamlash, ...banklarning kapitallashuv darajasini, ularning investitsion va kredit faoliyatini kengaytirish ishlari 2009-yilda ustuvor vazifa bo'lib qoladi»¹, deb ta'kidlaganlar.

Bozor iqtisodiyoti banklarning o'rni hamda faoliyatining muhimligi, pul, kredit va bank tizimining takomillashib borishini, shu sohada malakali kadriar tayyorlashni va ma/jud niuammolai yechimini iopishni taqozo qiladi.

«Pul, kredit va banklar» o'quv dasturi asosida yaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalish sohalariga taalluqli bo'lgan mavzularni o'z ichiga oladi. O'quv qo'llanmada bozor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan iqtisodiy kategoriyalar va ularga taalluqli bo'lgan masalalar ko'rib chiqildi. Bu kurs iqtisodiy fanlarning aniq mustaqil yo'nalishlaridan bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarning maxsus bo'limi — pul, kredit, banklar, bijjalar bilan bog'liq sohalardagi iqtisodiy munosabatlarning ifodasini o'zida aks ettiradi.

¹ I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, 0'zbekiston sharoitida uni bartafar etishning yo'llari va choralar. T., «0'zbekiston», 2009, 52—53-bet.

I 6o6. PULNING ZARURLIGI VA MOHIYATI

1.1. Tovar ishlab chiqarish va pulning zarurligi

Har bir iqtisodiy kategoriyaga amal qiluvchi hamda mamlakat rivojlanishining asosiy dastaklaridan biri pul bo'lib, bozor iqtisodiga o'tish va unda ish yuritishda pulning mavqeyi, ahamiyati yanada oshib boradi. Darhaqiqat, pul — «bozor tili», deb bekorga aytishmagan. Har bir iqtisodiy axborot, tovarlar va xizmatlar bahosi, to'lovlar, daromadlar va xarajatlar, moliyaviy talablar va majburiyatlar, iqtisodiy aloqalar makro va mikro darajalarda faqat pulda ifoda qilinadi.

Bozor iqtisodiga o'tish sharoitida pulning ahamiyatining oshishi shundaki, jamiyatimizda mavjud yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati hamda ularning natijasi — daromadi pul bilan bog'liq. Shuning uchun ham pul barcha iqtisodiy rivojlanish pog'onalarida odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan.

Avstraliyalik iqtisodchi olim K. Mengerning fikricha, Arastu va Aflatundan boshlab, XX asrning boshigacha, pul to'g'nsida jahonda besholti mingdan ortiq maxsus ishlar chop qilingan. Agar biz hozirgi kunda pul to'g'risida yozilgan va chop qilingan adabiyotlar soni bir necha bor oshib ketgan, desak mubolag'a bo'limsa kerak. Tadqiqotlar shunchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan, pul va uning xususiyatlari, har bir tizimda ishlatilishi, roli, iqtisodiyotga ta'siri, nega alohida olingan individumlar qo'iida pulning ko'payishi, ular boyligining ortishiga olib keladi-yu, jamiyat miqyosida muomaladagi pul massasining ko'payishi jamiyat boyligi ortib borishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, kabi misollarga hali to'liq javob berilgan emas.

Pul va uning vazifalari to'g'risida mavjud xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining qo'llanmalarini olib qaraydigan bo'lsak, j)ulning kelib chiqishi to'g'risida ikki g'oya mavjudligini ko'rish mumldn. Bular ratsionalistik va evolutsion g'oyalardir.

Ratsionalistik qarashning asoschilaridan biri Arastu bo'lib, u pul kelib chiqishining asosini o'zaro bir-biriga teng qiymatni

harakatga keltiruvchi biron bir maxsus «qurol», kishilar orasida o‘zaro kelishuv natijasida qabul qilingan shartli birlik ekanini aytadi. O‘zaro tovarlarni almashtirishga pul qatnashmaganda, tovarni sotish jarayoni tovarni sotib olish jarayoni sifatida yuzaga kelgan. Tovarlar o‘rtasidagi proporsiya tasodifan, masalan, sotilishi kerak bo‘lgan mahsulotga talab qay darajada va uning miqdori kam- ko‘pligiga bog‘liq holda o‘rnatalgan. Keyinchalik shu tovarlar ichidan umumiy ekvivalent sifatida ba’zi tovarlar ajralib chiqdi. Jamiyatning rivojlanishi muomalaga metallarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

iHRivojlanishning birinchi bosqichida mis, bronza, iemir ishla- tilib, almashinuv $T-P-T$ shaklida olib borilgan. XVIII asrning oxirigacha pul tomonlar o‘rtasidagi *shartnoma vositasi*, deb qarab kelingan. Hozirgi vaqtida ham ba’zi chet el olimlari, masalan, Pol Samuelson pulni *sun’iy ijtimoiy shartlashish belgisi*¹, deb izohlagan. Boshqa amerikalik olim Jon Gelbreit *qimmatbaho metallarning pul vazifasini bajarishi bu kishilar o‘rtasidagi kelishuvning mahsuli ekanligini uqtiradi*.

Pulning kelib chiqishini tadqiq qilish A. Smit, D. Rikardo- larning tadqiqotlariga asoslangan holda pulning mohiyatini ohib berishga harakat qilgan. Shuningdek, pulning o‘zi ham tovar ekanligini, pulning kelib chiqishi bosqichlarini izohlab bera oldi. U *oltin va kumush qazib olish va ishlatalish uchun ma ’lum mehnat sarflanadi, shu mehnat oltin va kumushda gavdalangan holda boshqa tovarlarning qiymatini o ‘Ichaning asosi bo ‘lib xizmat qiladi*, deb ko‘rsatgan. Hozirgi vaqtida yuqoridagiga o‘xshagan real pullar o‘rniga o‘z qiymatiga ega bo‘lmagan qog‘oz va kredit pullar muomalada ishlatilmoqda. Shuning uchun qog‘oz va kredit pullar kelib chiqishi to‘g‘risidagi ratsionalistik konsepsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri isboti bo‘la olmaydi. Qog‘oz pullar yuzaga kelguncha, jamiyat bir necha rivojlanish bosqichini bosib o‘tgan.

Pulning kelib chiqish tarixi uning evolutsion nazariyasi bilan ko‘proq bog‘liq. Tovar muomalasining evolutsion rivojlanish jarayonida umumiy ekvivalent shaklini har xil tovarlar o‘ynagan. Har bir jamoa o‘^fz tovarini ekvivalent sifatida o‘rtaga qo‘yanan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan ikki guruh tovarlarning ajralib chiqishiga olib keldi. Bular: *birinchi ehtiyoj uchun zarur bo ‘Igan tovarlar va zeb-u ziynat tovarlaridir*.

¹ Пол А. Самуэльсон. Экономика. М., 1964, стр. 64.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida dehqonchilik va chovrachilikdagi mehnat taqsimoti, tovar turlarining ko‘payishi almashinuv jarayonining yana rivojlanishini taqozo qildi. Alma-shinuv jarayonida tovar egalari o‘zaro muloqotda bo‘lib, tovarning egasi o‘z mahsuloti (mulki)ni baholagan. Shu baholash jarayoni biror o‘lchov birligi bo‘lishini taqozo qilgan.

1.2. Pulning mohiyati va uning xususiyatlari

O‘tgan asrdagi iqtisodchilar pul, bu — tovarlarning tovari, deb ifodalashgan va uning quyidagi xususiyatlarini izohlab berishgan: *birinchidan*, pulning iste’mol qiymatida boshqa tovarlarning qiymati o‘z ifodasini topadi; *ikkinchidan*, pulda ifodalanadigan aniq mehnat asosini abstrakt mehnat tashkil qiladi; *uchinchidan*, pulda ifodalanuvchi xususiy mehnat ijtimoiy mehnat sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga asoslangan holda pul ham tovar, lekin boshqa tovarlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan maxsus tovar, degan xulosaga kelish mumkin. Uning maxsus tovar sifatida xu-susiyati shundaki, u barcha tovarlarning qiymatini o‘zida ifoda qiluvchi, umumiy ekvivalent hisoblanadi.

Umumiy ekvivalent rolini uzoq yillar davomida oltin bajarib kelgan bo‘lsa-da, tovar xo‘jaligi va pul muomalasining rivojlanishi qog‘oz pullar, boshqa kredit vositalari yuzaga kelishiga, kredit va pul mablag‘larining bankda bir schotdan ikkinchi schotga o‘t-kazilishi kabi jarayonlar bo‘lishiga olib kelgan.

Pul qanday shaklda bolishidan qat‘i nazar, pul bo‘lib qola-veradi. Yuqoridagilarga asoslangan holda pulning mohiyatini quyidagicha ta’riflashimiz mumkin. *Pul* — bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bo‘lib, abstrakt mehnat xarajatlarini o‘zida aks ettiradi va tova>-xo‘jaligidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Bu ta’rif pulning barcha xususiyatlarini o‘zida to‘liq ifodalaydi, deb aytishimiz mumkin. Bular, *birinchidan*, pulning boshqa tovarlardan ajralib turuvchi maxsus tovarligi, *ikkinchidan*, pul bu umumiy ekvivalent yagona tovar bo‘lib, qolgan tovarlarning qiymatini o‘zida ifoda qilishi (boshqa xohlagan bir tovar bu xususiyatga ega bo‘la olmaydi), *uchinchidan*, pulning ekvivalent sifatida tovarni yaratishga ketgan mehnat va boshqa xarajatlarini o‘zida ifoda qilishi, *to‘rtinchidan*, pulning har bir iqtisodiy tizimda, tovar ishlab chiqarishda kishilar o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda qilishi va boshqalar.

Pul to‘g‘risidagi evolutsion nazariya uning o‘lchov birligi va muomala vositasi ekanligini ochib beradi. Chet el iqtisodchilari pulning iqtisodiy kategoriya sifatida mohiyati va zaruriyatiga kam e’tibor qaratishgan. 1857-yilda taniqli ingliz iqtisodchisi U. Jevons iqtisodiy fanlar uchun pul masalasi bu geometriyadagi aylana kvadraturasiga teng demakdir, degan ekan. Shuning uchun xorijiy iqtisodchilar bu bobni chetlab o‘tishgan. XX asrning 50-yillari- dagi darsliklarning mualliflari pulning mohiyatidan ko‘ra, uning iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va bandlik, moddiy resurslar va ulardan foydalanishga ta’sirini o‘rganish muhimroqdir, deb ta’kidlashib, shu yo‘nalishda ish olib borishgan.

Hozirgi vaqtida pul to‘g‘risida bizda mavjud chet el adabiyotlari- da ko‘rilgan masalalar fikrimizning isboti bo‘lishi mumkin. Ha- qiqatan ham, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida pulning zarurligi, mohiyatini tadqiq qilishdan ko‘ra, pulning iqtisodiyotga, ishlab chiqarishga, bandlikka ta’sirini tadqiq qilish jamiyatimiz uchun ahamiyatliroq, deb o‘laymiz.

1.3. Pulning turlari

Pul o‘zining evolutsiyasi jarayonida metall (oltin, kumush, mis), qog‘oz, kredit shaklida ishlatilib kelingan. Qiymatni o‘zida ifodalashiga ko‘ra, pullar ikki turga bo‘linadi:

- haqiqiy pullar;
- haqiqiy pul izdoshlari — qiymat belgilari.

Haqiqiy pullar nominal qiymatini o‘zida ifodalovchi, real qiy- matga ega bo‘lgan metall pullar bo‘lib, ular har xil shakllarda chiqarilgan va keyinchalik amaliyotda qulay bo‘lgan aylana (shu shaklda metall yemirilishi kam bo‘ladi) shaklida chiqarilgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, birinchi tangalar bundan 26 asr oldin Lidiya va Xitoyda, VII asrlarda hozirgi O‘rtta Osiyo davlatlarida, IX—X asr- larda Kiyev Rusida zarb qilingan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida tangalar, asosan, oltindan zerb qilingan, keyinchalik, oltin va boshqa qimmatbaho metallami qazib chiqarish qiyinlashuvi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va to‘lov, muomala vositasiga bo‘lgan ehtiyojning oshishi natijasida muomalaga qiymat belgilarini kiritish zarur bo‘lib qoldi. Oltin va kumush muomaladan yo‘qola bordi.

Qog‘oz pullar. Pulning bu turi haqiqiy pullarning vakili bo‘lib, pulning muomala funksiyasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan.

Qog'oz pullar yuzaga kelishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

- 1-*bosqich* — tangalarning uzoq vaqt muomalada bo'lishi, qo'lidan qo'lg'a o'tishi natijasida yemirilishi;

- 2-*bosqich* — tanganing metall tarkibining buzilishi. Davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalarning metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi. Bu bosqichda tanga tarkibining buzilishiga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarishning qiyinligi, ular zaxiralarining kamligi ham sabab bo'lgan.

3-*bosqich*— davlat tomonidan emission daromad olish maqsadida xazina biletlarining chiqarilishi.

Birinchi qog'oz pullar XII asrda Xitoyda chiqarilgan, deb ko'rsatiladi. Lekin tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, 700-yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar, Buxoroda qog'oz material- lardan pul sifatida foydalilanigan ekan.

Qog'oz pullar Amerika va Yevropada XVII—XVIII asrlarda, Rossiyada esa 1769-yilda muomalaga chiqarilgan. *Qog'ozpullar deb*, hukumat tomonidan budjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, metall pullar almashtirilmaydigan, lekin davlat tomonidan ma'lum kursi o'rnatilgan pul belgilariga aytildi.

To'la oltin va kumushdan bo'limgan tangalar muomalada pul sifatida ishlatsi-da, ularning nominal miqdori real miqdordidan farq qilgan. Shunday bo'lsa ham, bu tangalar ma'lum miqdordagi metallni ifodalagan. Qog'oz pullar esa, muomalaga chiqarilgan vaqtida va keyin ham uzoq vaqt davomida ma'lum bir miqdordagi oltinni o'zida ifoda qilgan. Ammo pulda metalining zarrasi ham bo'limgan, ular qiymatni belgilab bergen, xolos. Qog'oz pullarning emitenti davlat xazinasi yoki emission bank hisoblanadi. Mamlakatimizda muomalaga pul belgilarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki chiqaradi.

Qog'oz pullarning tabiatи, ularning inflatsiyaga moyilligini ko'rsatadi. Qog'oz pullami muomalaga chiqarishda pul muomalasi qonuni talablarini e'tiborga olish kerak. Lekin amaliyotda har doim ham shu talablar e'tiborga olinavermaydi. Pul muomalaga tovar aylanmasi ehtiyojini qoplash uchungina chiqarilishi kerak. Haqi- qatda pul yuqoridagidan tashqari budjet taqchilligini, davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi, ya'ni emissiya miqdori tovar aylanmasi bilan cheklanmasdan davlatning mo-

liyaviy resurslarga bo'Mgan talablariga bog'liq bo'ladi. Bu, albatta, muomaladagi pul massasining o'zgarib turishiga, aksariyat hollarda uning muomalaga keragidan ortiqcha chiqib ketishiga olib keladi. Natijada, pulning barqarorligiga putur yetadi, uning qadri tu-shadi, xalqning davlatga bo'lgan ishonchi pasayadi, to'lov balan-sining barqarorligi yo'qoladi (passiv qoldiq hajmi ortadi), milliy valutaning kursi tushadi va h. k.

Kredit pullar

Ishlab chiqarish va tovar aylanmaning rivojlanishi, metall pullarning yetishmasligi kredit munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Tovar va to'lov aylanmaning ehtiyojini qoplash maqsadida muomalaga oltin, kumush tangalar bilan bir qatorda, kredit vositalari: *chek, veksel, banknotalar* chiqarilgan.

Kredit pullar deb, kredit munosabatlar asosida yuzaga keluvchi, to'lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariga aytildi. Kredit pullar o'zining mustaqil qiymatiga ega emas, chunki ularni yaratish uchun abstrakt zaruriy mehnat sarflanmaydi. Kredit pullar qog'oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o'zida qiy-matni ifodalaydi va u kredit hujjat bo'lib, kreditor va qarz oluvchi o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kredit pullarning asosiy turlaridan biri vekseldir.

Veksel — bu qarzdorning (oddiy veksel) yoki kreditorning (o'tkazma veksel — tratta) ko'rsatilgan summani, ko'rsatilgan vaqtida va joyda toiashto'g'risidagi yozma majburiyati hisoblanadi.

Tijorat veksellarning *oddiy* va *o'tkazma* turlari mavjud. Undan tashqari, ma'lum summani qarzga berish bilan bog'liq bo'lgan *moliyaviy veksellar* mavjud. Moliyaviy vekselning bir turi xazina veksellari bo'lib, ularda davlat qarzdor sifatida ishtirok qiladi. Yana veksellarning *o'rtoqlik, bronza* veksel turlari mavjud.

Banknota — kredit pullarning yetakchi vakillaridan bo'lib, Markaziy bank tomonidan, veksellarni hisobga olish yoii bilan chiqariladi. O'tmishda banknota muddatsiz majburiyat bo'lib, xohlagan vaqtida uni bankka topshirib, o'niga unda ko'rsatilgan summaga oltin yoki kumush olish mumkin bo'lgan.

Veksel banknotadan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- veksel ma'lum muddatni o'zida ifodalaydi (3—6 oy mud-datga ega bo'lgan veksel), banknota ma'lum muddat bilan che-garalanmaydi;

- veksel bo'yicha vekselni bergen tomon uni to'lashni kafo- latlasa, banknotada uni to'lashni davlat (davlat banki) kafolatlaydi.

Banknota qog'oz pullardan quyidagilar bilan farq qiladi:

- kelib chiqishi bo'yicha qog'oz pullar, asosan, muomala vositasi funksiyasini bajarish asosida, banknotalar to'lov vositasi funksiyasi asosida kelib chiqqan;

- almashinuvi bo'yicha, banknotalar oldin oltin va kumushga almashtirilgan, qog'oz pullar esa metallarga hech qachon almash-tirilmagan;

- emissiya qilinishi bo'yicha, qog'oz pullarning banknotalardan farqi bo'lgan (xazina biletlarini Moliya vazirligi, banknotalarni Markaziy bank chiqargan) va h.k.

Hozirgi zamon banknotalari, albatta, oltinga almashilmaydi. Lekin ular quyidagi yo'llar bilan pul muomalasiga kelib tushadi:

- xo'jaliklarni bank tomonidan kreditlash orqali berilgan kreditlarning bir qismi muomalaga kirib keladi;

- davlatni kreditlash. Ya'ni banknotalar davlatning qarz maj- buriyati sifatida muomalaga chiqadi;

- aktiv to'lov balansiga ega bo'lgan davlatlarda rasrniy valuta zaxiralarining o'sishi orqali va boshqalar.

Chek — veksel va banknotadan keyin paydo bo'lgan kredit vositasi hisoblanib, tolovchining o'z bankiga uning schotidan mablag'ni oluvchining schotiga o'tkazib qo'yish to'g'risidagi buy- rug'i. Birinchi cheklar taxminan 1683-yilda Angliyada qo'llanila boshlagan. Chekning quyidagi turlari mavjud:

1. Ismi yozilgan chek — bu chek bir kishi nomiga yoziladi va uni boshqaga berish mumkin emas.

2. Orderli chek — bir kishi nomiga yozilgan va uni indossament bo'yicha boshqa shaxsga berish mumkin.

3. Ko'rsatilganda to'lanishi lozim bo'lgan chek.

4. Hisob cheki — naqd pulsiz hisob-kitoblarda qollaniladigan chek.

5. Akseptlangan chek — bank chekni to'lash bo'yicha rozilik beradi va boshq.

Chek yordamida bankdan naqd pul olish mumkin, u bilan to'lovlarni va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin. Hozirgi vaqtida kredit pullarning zamonaviy turlari — elektron pullar va kredit kartochkalardan foydalanimoqda.

Banklar faoliyatida EHMLardan foydalanish elektron pullar yordamida qarzlarini to'lashni tezlashtiradi. AQSHda pul mab-lag'larini elektron o'tkazish tizimi — EFTS (*Electronie Funds Transfert System*) aylanmaning samarali boiishini ta'minlamoqda. Hozirgi zamон amaliyotida qo'llanilayotgan kredit kartochkalar naqd pullar o'rniga hisob-kitoblarni olib borish uchun chiqarilgan bo lib, ular juda qulay va afzalliklarga ega. Kredit kartochka bo'yicha barcha turdagи chakana savdo uchun va xizmatlar uchun to'lash mumkin. Ayni vaqtida kredit kartochkalar bank, savdo xizmatlarini to'lash uchun mo'ljallangan.

NAZORAT SAYOLLARI

- 1. Pul o'ziga xos tovar sifatida qanday ajralib chiqqan?**
- 2. Pulning mohiyati deganda nimani tushunasiz?**
- 3. Pulning xarid qobiliyati deganda nimani tushunasiz?**
- 4. Pul tovar qiymatining umumiyligini ekvivalenti sifatida.**
- 5. Pulning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning ahamiyati.**

II bob. PULNING FUNKSIYALARI VA ROLI

2.1. Pulning funksiyalari va ularga tavsif

Pul iqtisodiy munosabatlarni o‘zida aks ettira turib, ma’lum funksiyalarini bajaradi. Pulning mohiyati uning bajaradigan funksiyalarida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Pulning funksiyasi to‘g‘risidagi savol bir vaqtning o‘zida ham qiyin va ham juda oson savoldek tuyuladi. Bu savolning soddaligi shundaki, pulning funksiyalari real hayotga yaqin va iqtisodiy amaliyotdagi mavjud jarayonlarni o‘zida ifodalaydi. Qiyinligi shundaki, pulning funksiyalari, ularning mohiyati iqtisodchilar tomonidan har xil talqin qilinadi. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning turli xil funksiyalarini uchratish mumkin.

I Biz pulni iqtisodiy kategoriya deb qarab, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan funksiyalarini tahlil qilib, "jpul asosiy to‘rt funksiyani bajaradi, degan fikmi ta‘kidlamoqchimiz., Bular: *qiymat o‘ Ichovi. muomala vositasi, to‘lov vositasi* va *jamg‘arma vositasi* funksiyalari .M

fPul qiymat o‘ Ichovi sifatida. Pulning birinchi funksiyasi uning qiymat o‘ichovi ekanligidir, ya’ni pul barcha tovarlarning qiymatini o‘lchaydi, ularning bahosini aniqlashda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Qiymat o‘ichovi funksiyasida pul tovar ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy mehnatni ifodalaydi va shu mehnat asosida tovarning qiymatini belgilaydi. Pulning bu funksiyasida naqd pullar emas, *naqdsiz pullar* ishtirok qiladi. Masalan, biz savdo do‘koniga kirib, biron tovarning bahosini ko‘rib, u shu tovarga arziydigani yoki yuqori, aksincha, past qo‘ylganmi — shu to‘g‘rida xulosa qilishimiz mumkin. Shu xulosa asosida pulning *qiymat o‘ Ichovi funksiyasi* yotadi./

Pulning qiymat o‘ichovi funksiyasida bir tovarning qiymati ikkinchi bir tovar qiymati orqali ifoda qilinadi. Agar tarixan olib qaraydigan bo‘lsak, bu vazifani o‘z qiymatiga ega bo‘lgan tovar- oltin yoki oltinni o‘zida ifodalaydigan pul birlklari bajarib kelgan.

Pulning qiymat o‘lchovi funksiyasi qiymat qonuniga asoslanib aniqlanadi. Pulning qiymat o‘lchovi funksiyasi *baholar mashtabini* o‘rnatishni talab qiladi. Baholar masshtabi huquqiy xarakterga ega bo‘lib, u davlat tomonidan o‘matiladi va tovar qiymatiga asoslangan holda uning bahosini ifodalaydi. Baholar masshtabi orqali, fikran namoyish qilingan tovar bahosi *davlat bahosi* yoki *bozor bahosiga* aylanadi va milliy pul birligida ifodalanadi.

XX asrning 80-yillari oxirigacha baholar masshtabi deb, davlat tomonidan tasdiqlangan, tovar qiymatini o‘lchash va baholar belgilash uchun kiritilgan, ma’lum oltin miqdorini o‘ziga ifodalagan pul birligiga aytilgan. Qariyb 30 yil davomida 1961-yildan boshlab, sobiq Ittifoqda baholar masshtabi qilib 1 rubl qabul qilingan va u 0,987412 gramm oltunga tenglashtirilgan edi. XX asrning 80-yillari oxiriga kelib, Ittifoqda pul birligini oltunga tenglash g‘oyasi o‘z kuchini yo‘qotdi. Vaholanki, boshqa ko‘pgina mamlakatlar amaliyotida bu tenglashtirish 70-yillardan boshlab e’tiborga olinmadi. Rivojlangan iqtisodga ega bo‘lgan mamlakatlarda valutani oltunga tenglashtirish hal qiluvchi dastak emasligini ularning iqtisodiy va ijtimoiy taraq- qiyoti isbotlab berdi.

XX asrning 60-yillarida yangi pul islohoti o‘tkazilganda, *devalvatsiya* yoki *revalvatsiyada* davlat qonuniy ravishda baholar masshtabini, pul birligining oltin miqdorini baholarni belgilash uchun o‘rnatib bergen. Pul birligi ma’lum miqdor oltunga tenglashtirilgan bo‘lsa-da, muomalaga chiqarilgan pul birliklari hech qachon oltunga almashtirilgan emas. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda jahondagi biron mamlakat o‘z pulini oltunga almash- tirmaydi. Ba’zi mamlakatlar pul birligini oltunga tenglashtirsa-da, pul birligiga to‘g‘ri kelishi mumkin, deb belgilangan oltin miqdorini muomaladagi pul birligiga almashtirib bermaydi. Shuning uchun bu tenglashtirish o‘zining iqtisodiy mohiyati va kuchini yo‘qotganligi aniq. Chunki oltin oddiy tovarga aylandi va uning qiymati ham pulda ifodalanadigan bo‘ldi. Pulning funksiyalari oltindan ajraldi, o‘zgamvchan valuta kurslari joriy qilindi.

Hozirgi vaqtda baholar masshtabi talab va taklif ta’sirida tashkil topadi va baho orqali tovarlar qiymatini o‘lchashga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, pul yordamida tovarlar tenglashtiriladi. Har ikki tomon uchun ham tenglashtirishning asosi boiib, *abstrakt mehnat* hisoblanadi.

Tovar qiymatining pulda ifodalanishi *baho* deyiladi. *Baho* — bu ideal shaklda ongimizdagi *qiymat o‘lchovi*. Qiymat o‘lchovi

vazifasini fikran ifoda qiladigan pulimiz bajaradi, baho esa to‘la- to‘kis real moddiy boyliklarning qiymatini ifoda qiladi.

Qiymat shakliga ega bo‘lgan tovar, bahoga ham ega bo'ladi. Pul o‘zi o‘z bahosiga ega emas, uning qiymati o‘zi bilan aniqlanishi mumkin emas. Baho o‘rniga pul sotib olish qobiliyatiga ega. Pulning sotib olish qobiliyati deganda, pul birligiga to‘g‘ri keluvchi tovarlar va xizmatlar miqdori tushuniladi. Agar pul birligiga to‘g‘ri keluvchi tovarlar miqdori (soni) qancha ko‘p bo‘lsa, pulning sotib olish qibiliyati ham shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Wuomala vositasi funksiyasi. Muomala vositasi funksiyasida pul yordamida tovar o‘zining pul qiymatiga ayrbosh qilinadi. Bu fimsiyani bajarish uchun naqd pul bo‘lishi lozim. Bu funksiya yordamida tovarlarni bir-biriga *ayrboshlash* — *barter* usuliga chek qo‘yiladi. Tarixiy taraqqiyot ko‘rsatadiki, jamiyat rivojlanishining ilk bosqichlarida barter mehnat mahsulini ayrbosh qilishning yagona yo‘li bo‘lgan. Barterning noqulayligi shundan iborat bo‘l- ganki, A. tovar egasi B. tovarni sotib olish uchun, nafaqat B. tovar ishlab chiqaruvchini, balki B. tovar egasiga zarur bo‘lgan tovarni ham topa olishi kerak edi. Bu juda qiyin jarayon bo‘lib, yuzlab tovarlarni muomalaga jalb qilgan holda ko‘zlagan maqsadga eri- shish mumkin bo‘lgan. Oltinning pul sifatida ishlatila boshlashi natijasida barter usuli tovar ayrboshlashning usuli sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, barter usuli hozirgi kunda ham ba‘zi hollarda jahon amaliyotida qo‘llanilib kelinmoqda.

Tovar defitsiti, inflatsiya sur’atlarining oshib ketishi, mamlakatda siyosiya va iqtisodiy barqarorlikning yo‘qligi sharoitida barter bo‘yicha tovarlar harakatini amalga oshirish tomonlar uchun qulay hisoblanadi.

Pulnring muomala vositasi funksiyasida tovar qo‘ldan qo‘lga o‘tadi va muomaladan chetlashadi, ya’ni iste’molchi egaligiga o‘tadi. Pul va tovarning harakati ($T - P \sim T$) qisqa vaqt ichida tugallanadi.

Qiymatning doimo bir shakldan ikkinchi shaklga (tovar—pul va pul—tovar) o‘tib turishi pulning muomala vositasi funksiyasining asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham bu funksiyani bajarishda naqd pul bo‘lishi, u barqaror, sifati yuqori bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda muomala vositasi funksiyasini Markaziy bank tomonidan chiqarilgan qog‘oz pullar va metall tangalar bajaradi. Muomalaga chiqariladigan naqd pullar miqdori savdo-sotiq hajmiga, ish haqi to‘lashning vaqtiga, aholining bankdan qarzga

mablag'lar olish imkoniyatiga va boshqa omillarga bog'liq. Savdo-sotiq hajmining ko'pligi va ish haqining tez-tez to'lab turilishi muomalaga ko'p pul chiqarish zarurligidan, aholining bankdan ko'proq kredit olish imkoniyatiga ega ekanligi kamroq muomala vositasi kerak ekanligidan dalolat beradi. Shuni aytish kerakki, ishlab chiqarishni *ixtisos/ash tirish, natural xo'jalik, kichik korxona, fermerxojaliklarimng* ko'payishi muomala vositasiga bo'lgan talabni kamaytiradi.

Pulning muomala vositasi sifatida ishlatilishi muomala xarajatlarining barter xarajatlariga nisbatan ancha past bo'lishini ta'minlaydi. Pulning muomala vositasi funksiyasi uning boshqa funksiyalaridan o'zining ma'lum xususiyatlari bilan ajralib turadi. Muomala vositasi funksiyasining xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bu funksiyani real, naqd pullar bajaradi;
- tovar va pul bir-biriga qarama-qarshi, bir trayektoriyada harakat qiladi;
- tovar va pul harakati bir vaqtida yuzaga keladi;
- tovar sotuvchi va tovar sotib oluvchi o'rta sidagi munosabat tugallanadi va tomonlar tovarga yoki pulga ega bo'ladilar;
- pul muomala vositasi bo'lishi uchun, awalambor, qiymat o'Ichovi bo'lishi kerak.

f Pulning to'lov vositasi funksiyasi. Mayjud chet el iqtisodiy adabiyotlarida va keyinchalik¹, Rossiya olimlari tomonidan chop qilingan kitoblarda pulning muomala vositasi funksiyasi uning to'lov vositasi ekanligidan dalolat beradi, chalkash xulosalami uchratish mumkin. Lekin biz yuqorida keltirilgan muomala vositasi funksiyasining xususiyatlari to'lov vositasi funksiyasiga ham mos keladi, deb ayta olmaymiz. Bu xususiyatlар *pulning tq 'lov vositasi funksiyasi muomala vositasi funksiyasidan* tubdan farq qilishini ko'rsatadi. /

\ Tovarlar har doim ham naqd pulga sotilavermaydi. Tovar sotuvchi tovarni sotish uchun muomalaga olib chiqqan vaqtida tovarni sotib olish uchun iste'molchining yetarli naqd puli bo'lmasligi mumkin. Natijada tovarni kreditga sotishga zarurat tug'iladi, ya'ni tovarning pulini to'lash muddati kechiktirilad|. Tovar kreditga sotilganda, pul

¹ Кэмпбелл Р. Макконнелл, Стэнли Л. Брю. Экономикс. Таллин, 1993,

tovarning bahosini aniqlashda qiymat o‘Ichovi fimsiyasini bajaradi, lekin u muomala vositasi bo‘la olmaydi. Iste’molchi sotib olgan tovari uchun uning pulini to‘lov muddati kelgandan keyingina to’laydi. Bu holda tovar va pulning harakati bir trayektoriyada, bir vaqtning o‘zida, bir-biriga qarama-qarshi tura olmaydi.

Tovar harakati amalga oshgandan ma’lum vaqt o‘tgandan keyin *pul harakati* sodir bo‘lib. To‘lov vositasi funksiyasining asosiy xususiyati tovar va pul harakatining bir vaqtda amalga oshmasligi, harakatning bir tomonlamaligi va harakatda bo‘linishlarning mavjudligidadir.

Pulning to‘lov vositasi sifatida ishlatalishi nafaqat tovar kreditga sotilganda sodir bo‘ladi, balki barcha jarayonlarda tovarlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar o‘sha zahotiyoy naqd pulda amalga oshirilmasa, bunday iqtisodiy munosabatlar pulning to‘lov vositasi funksiyasi yuzaga kelishidan dalolat beradi. To‘lov vositasida sotuvchi tovarning pulini olguncha tovar iste’molchi ixtiyoriga kelib tushadi va u o‘z ehtiyojini qondirish uchun tovardan to‘la foydalanishi mumkin.

Agar tovar uchun to‘lov oldindan (avans) amalga oshirila- digan bo‘lsa, tovar ma’lum vaqtdan keyin iste’molchi ixtiyoriga tushishi mumkin. Demak, har ikki holda ham tovar va pul harakati bir vaqtning o‘zida amalga oshmaydi. Chunki, tovar aylanishi ($T-P-T$) uziladi va pul harakati tovar harakatiga nisbiy ravishda mustaqil bo‘ladi. Pulning bu harakati *to‘lov*, deb aytildi va bu yerda pul to‘lov vositasi sifatida ishtirok qiladi. Pulning to‘lov vositasi funksiyasi tovar ishlab chiqarish va muomala rivojlanishining yuqori bosqichlari mahsuli bo‘lib, u pulning qiymat o‘lchovi va muomala vositasi funksiyalaridan keyinroq yuzaga kelgan, deb xulosa qilish mumkin.

To‘lov vosi’asi funksiyasining yana bir xususiyati shundaki, sotuvchi bilan iste’molchi o‘rtasidagi munosabat muomala vosita- sidagiga o‘xshab qisqa muddatlari bo‘lib, tezda tugallanmaydi. To‘lov vositasi funksiyasida iste’molchi tovarga ega bo‘lganidan keyin ham u bilan mol sotuvchi o‘rtasidagi munosabat uzoq vaqt davom etadi. Bu munosabat — *kredit munosabati* hisoblanadi va iste’molchi — *qarzdor*, sotuvchi — *kreditor* sifatida ishtirok qiladi.

Ba’zi iqtisodchilarimiz veksel asosida o‘tkaziladigan jarayonlami ham muomala vositasi funksiyasiga kiritishadi. Bu bizning fikrimizcha to‘g‘ri emas. Chunki veksel ma’lum mablag‘ni to‘lash to‘g‘risida- gi kredit majburiyat, u qiymatga ega emas. Demak, ayrbosh-

lashning ekvivalenti sifatida ishtirok qila olmaydi. A. sotuvchi bir mln so‘mlik tovarni B. iste’molchining vekseliga almashtirdi deylik. B. bir mln so‘mlik tovarga ega bo‘ldi. A. bo‘Isa o‘z qiymatiga ega bo‘lmagan, sotib olish qobiliyati emitent tomonidan belgilana- digan vekselga ega bo‘ladi. Sotuvchi A. qachonki, bir mln so‘mlik vekselni sotsagina pul mablag‘iga ega bo‘lishi mumkin. Shunga asosan, biz veksel jarayonlarini muomala vositasiga kiradi deb to‘liq ishonch bilan uqtira olmaymiz. Bu jarayonlar ko‘proq to‘lov vositasi funksiyasiga taalluqlidir. Pulning *to ‘lov vositasi funksiyasi yana turli qarz va majburiyatlarini to ‘laganda*

- korxona, tashkilotlar o‘rtasida tovar va xizmatlar uchun to‘ - laganda;
- davlat budgetiga va kredit tizimiga to‘lovlami amalga oshirganda (foydadan to‘lanadigan to‘lovlar, kredit bo‘yicha qarz va foizlami to‘lash va boshq.);
 - ishchi-xizmatchilarga ish haqi to‘lash va aholiga boshqa to‘lovlarni to‘lash (nafaqa, stipendiya va boshq.);
 - boshqa har xil qarz va majburiyatlarni to‘lash (masalan, kreditga olinganligi uchun toMov, uy-joy, elektr energiyasi va boshqa xizmatlar uchun to‘lovlar)da amalga oshiriladi.

Pulning to‘lov vositasi funksiyasining yana bir xususiyati shundaki, bu funksiyada to‘lovlar *naqd pullik* yoki *naqd pulsiz* shaklda amalga oshirilishi mumkin. Bu xususiyati bilan ham pulning to‘lov vositasi funksiyasi muomala vositasi funksiyasidan farq qiladi. Pulning bu funksiyasi yordamida amalga oshiriladigan naqd pullik va naqd pulsiz to‘lovlar bирgalikda to‘lov aylanmasini vujudga keltiradi. Pulning to‘lov vositasi funksiyasini biz ikkinchi darajali, deb qarashimiz mumkin emas, chunki bu funksiyaning bajarilmasligi to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshmasligiga, bu esa hozirgi kunda mavjud muammolar debtor-kreditor qarzlarning ko‘payishiga, kredit bo‘yicha va boshqa moliyaviy majburiyatlamning bajarilmas- ligiga, xo‘jalik jarayonlarining normal borishiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

I Pul jamg‘arma vositasi. Pulning bu funksiyasi sotish va sotib olish jarayoniga zarurat boimagan holda yuzaga keladi. Agar tovar ishlab chiqaruvchi tovarni sotgandan keyin uzoq vaqt davomida boshqa tovar sotib olmasa, pul muomala va to‘lov aylanmasidan chetlashadi. Yig‘ilgan pullar jamg‘arma vositasi funksiyasini bajaradi. Tovar ishlab chiqarish va muomala jarayoni pulni jamg‘arishga

imkoniyat yaratadi. Jamg‘arma ikki yo‘nalishda yuzaga kelishi mumkin. *Maqsadli jamg‘arish yoki umuman jamg‘arish*. Shunaqa jamg‘armalar borki, aniq bir mo‘ljal bo‘lmagan holda yig‘ib boriladi, maqsadli jamg‘armada odamlar mashina, asbob-uskuna, uy-joy sotib olish yoki boshqa ma’lum maqsadni amalga oshirish uchun mablag¹ jamg‘aradilar.

Puhiingjamg‘arma vositasi funksiyasi pulning pul aylanmasidan chiqib ketishiga olib keladi. Jamg‘armada pul pul aylanmasining qaysidir kanallarida turib qoladi va natijada u mavjud aylanmadan ajralib, ma’lum vaqtgacha aylanmaga qaytib tushmasligi mumkin.

Pulning jamg‘arma va boylik to‘plash vositasi funksiyasi pul muomalasini stixiyali ravishda boshqarib boradi. Tovar ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o‘zgarib turishi pul massasining doimiy o‘zgarib turishiga olib keladi. Qimmatbaho metallar, buyumlarning muomalaga kelib-ketib turishi, pul massasining hajmini ushlab turishi, pul muomalasi kanallarida pul oqimi ko‘payib ketishining oldini olishi mumkin. Pulning muomala vositasidan chiqib jamg‘armaga aylanishi va jamg‘armaning muomala vositasiga aylanishi pul tizimini muvozanatda ushlab tu- ruvchi zaruriy shart hisoblanadi.

Pulni jamg‘arishga undaydigan omil — uning maxsus tovar, umumiyligi, ya’ni boshqa barcha tovarlarga xohlagan vaqtida almashtirish mumkinligida. Pulga sifat va son jihatdan yondashish mumkin. Chunki pulning sifati, soni bor. Pulning sifati cheksiz bo‘lishi, ya’ni pulni zarur bo‘lganda xohlagan tovarga aylantirish imkoniyati mumkinligida o‘lchansa, son jihatdan, albatta, pul summasi cheklangan bo‘lishi mumkin, chunki unga cheklangan miqdorda tovar sotib olish mumkin. Demak, pulning sifat jihatdan cheklanganligi bilan son jihatdan cheklanmaganligi o‘rtasida qarama-qarshilik bor. Mana shu qarama-qarshilik pulni jamg‘arishga, pul qancha ko‘p bo‘lsa, uni yanada ko‘paytirishga intilishga olib keladi. Jamg‘arma funksiyasi pul muomalasida asosiy bo‘lmasa-da, uni olib borishda katta ahamiyatga ega.

Jamg‘arish, xazina to‘plash qiymatning qotib qolishiga olib keladi. Xazina to‘plash vositasi rolini tarixan oltin, keyinchalik boshqa qimmatbaho metallar, toshlar o‘ynab kelgan va hozirgi kunda ham Shu tovarlar boylik (pul) sifatida jamg‘arilib kelinmoqda. Xazina sifatida oltin yoki boshqa qimmatbaho metall, toshlarning roli rivojlangan mamlakatlarda deyarli yuqori emas, chunki mamlakat iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lsa, pulni biror qimmatbaho metallga

qo‘yib qotirib qo‘ygandan ko‘ra, unga davlat yoki korporatsiya- larning qimmatli qog‘ozlarini sotib olib, ulardan har yili daromad ko‘rgan anche qulay hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 100 ishbilarmondan faqat 4 nafari o‘z pulini to‘g‘ri jamg‘arib boyib ketar ekan. Qolganlari bo‘lsa pulni topadi, lekin qanday jamg‘arish yo‘lini bilmasdan uni yo‘qotarkan.

Bozor iqtisodiyoti yuksak rivojlangan mamlakatlarda pul mab- lag‘ini quyidagi aktivlarga qo‘yish afzal hisoblanadi. *Birinchidan*, davlatning qimmatbaho qog‘ozlari, ya’ni uzoq muddatli obli- gatsiyalar, qisqa muddatli veksellarga qo‘yish. Davlatning qimmatli qog‘ozlari kafolatlangan bo‘ladi va ularning bahosi kamdan kam hollarda o‘zgaradi. O‘zgarganda ham sezilarsiz miqdorda o‘z- garadi. Shuning uchun ham davlat qimmatli qog‘ozlari yuqori lik- vidlikka ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, sanoat korxonalari va korporatsiyalaming qimmatli qog‘ozlari, ya’ni aksiya va obligatsiyalariga qo‘yish. Kor- poratsiya, korxonalarining aksiya, obligatsiyalarining ishonchliligi davlatnikiga nisbatan kam bo‘lishi mumkin. Chunki ularning bahosi u yoki bu sabab bilan tushib ketsa, qo‘yilgan mablag¹ ko‘z- langan natijani bermasligi mumkin. Agar mablag‘ iqtisodiy bar- qaror korxonalarining qimmatli qog‘oziga qo‘yilsa, u davlatning qimmatli qog‘oziga nisbatan yuqori daromad keltirishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida korporatsiya, assotsiatsiya, korxonalarining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish, ularning ikkinchi sotilish bozorini vujudga keltirish va rivojlantirish bo‘yicha anche ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi va bu jarayon O‘zbekiston iqtisodini rivojlantirishning asosiy dastaklaridan biri bo‘lib qoldi.

Uchinchidan, pulni qimmatbaho, noyob buyumlar, san’at asarlari olib qo‘yish yo‘li bilan jamg‘arish. Bu usulda iqtisodning ijobiylar salbiy tomonlarga o‘zgarishiga qaramasdan buyumda ifodalangan qiymat o‘zini yo‘qotmaydi. Agar davlat barqaror iqtisodga ega bo‘lib, bozor munosabatlari yaxshi rivojlangan bo‘lsa, bu aktivlarning likvidliligi uncha yuqori bo‘lib mumkin.

Pul yuqori darajadagi likvidlilikka ega bo‘lgani uchun, uni xohlagan vaqtda, xohlagan tolovni to‘lashga yo‘naltirish mum- kinligi uchun, u nominalini o‘zgartirmasligi uchun pul jamg‘arma va xazina to‘plash funksiyasini bajaradi. Pul jamg‘armasi boylik-

ning bir shakli hisoblanadi. Kishilar boylikni faqat pul shaklida emas, boshqa shakllardan, masalan, uy-joy, yer, mashina, asbob- uskuna, aksiya, obligatsiya va boshqa shaklda ham mujassam- lashtirishi mumkin. Boylikning bu shakllarida likvidlilik darajasi pulga nisbatan (agar inflatsiya bo‘lmasa) past bo‘ladi va ularning narxi ham o‘zgaradi. Yer, uy-joy, asbob-uskuna, qimmatli qog‘oz- larni pulga aylantirmasdan turib biron to‘lovni qoplash uchun yo‘naltirib bo‘lmaydi. Pulni bo‘lsa xohlagan paytda turli to‘lovlarni qoplash uchun yo‘naltirsa bo‘ladi.

Inflatsiya sharoitida pulni jamg‘arish xohlagan rejani amalgalashirishga imkon bermasligi mumkin. Chunki jamg‘ariladigan pullar o‘z qadrini bir necha marta yo‘qotib boradi va unga ishonch yo‘qoladi. Bu sharoitda milliy pul birlklari muomala va to‘lov vositasi hamda baholar mashtabi bo‘ladi, lekin jamg‘arish vositasi bo‘lib barqaror biror chet el valutasi muomalaga kiradi va pul aktivlari shu valutalarga almashtiriladi. Shu holni o‘tgan asrning 50-yillarda Janubiy Koreyada, 70-yillarda Isroilda, hozirgi kun- larda MDH davlatlari amaliyotida ko‘rish mumkin.

Odatda, pul barcha funksiyalarini bir vaqtida ketma-ket baja- rishi mumkin. Ba’zida mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy barqa- rorlikka qarab, pulning funksiyalari bir-biridan ajralib qolishi ham mumkin. Masalan, 40-yillarda Xitoyda tovarlar bahosi AQSH dol- larida aniqlangan, hisob-kitoblarda, tovar sotish va sotib olishda Xitoy valutasi qo‘llanilgan. Xuddi shunday hoi *giperinflatsiya* dav- rida Isroilda, Argentina, Meksika kabi mamlakatlarda joriy qilingan. Bu mamlakatlarning milliy valutasi muomalaga va to‘lov vositasi sifatida ishlatilgan.

Adabiyotlarda¹ pulning jahon puli funksiyasi to‘g‘risidagi g‘oya- ni ham uchratish mumkin. Bu funksiyani biror valutaga bog‘lab qo‘yishni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

Agar biz tarixga e’tibor beradigan bo‘lsak, tashqi savdo, xalqaro aloqlar, kredit munosabatlari rivojlanishi oltinning jahon puli sifatida qo‘llanilishiga olib kelgan. 1867-yilda Pariida qabul qilingan kelishuvga’asosan oltin davlatlar o‘rtasida yagona pul (jahon puli) sifatida qabul qilingan. 1922-yilda Genuyada o‘tkazilgan konfe- rensiyadagi valuta bitimiga asosan AQSH dollari va Angliya funt sterlingi oltinning o‘rinbosari sifatida e’lon qilindi va xalqaro

¹ П.А. Дробозина. Финансы, денежное обращение, кредит. М., «Финансы», 1997, стр. 23.

to‘lovlarda qo‘llanila boshladi. 1944-yildagi Brettonvud konferensiyanidan keyin jahon puli funksiyasi oltinda qoldirilgan holda xalqaro to‘lovlarda AQSH dollaridan ko‘proq foydalanishga imkoniyat berildi. Dollami oltinga almashtirish bo‘yicha dollar kursi belgilandi va 35 dollar 31,1 g oltinga teng, deb qabul qilindi. Keyinchalik har xil valuta bloklari, valuta kliringi tashkil qilindi. XX asrning 70-yillaridan boshlab xalqaro to‘lovlarda XVF tomonidan kiritilgan maxsus hisob va to‘lov birligi SDR (*Special Dzawind Ridts*) qo‘llanila boshlagan.

1971 -yilda SDRning oltin miqdori AQSH dollarinikidek

0, 888 671 g oltinga teng, deb belgilangan. Dollar devalvatsiya bo‘lganidan keyin, 1974-yil 1-iyuldan boshlab, SDR qiymati 16 davlat valutasining o‘rtacha kursi, keyinchalik yetakchi besh mamlakat valutasi kursi bo‘yicha aniqlanadigan bo‘ldi. 1979-yil martdan boshlab, Yevropa valuta tizimiga kiruvchi mamlakat- larda xalqaro hisob-kitoblami olib borish uchun xalqaro hisob birligi — ECU (*Europen Currencu Unit*) qo‘llaydigan bo‘lishdi. ECU — bu a’zo mamlakatlar banklaridagi schotlariga yozib qo‘yila- digan hisob birligi. 1999-yil 1-yanvardan boshlab, yevro muomalaga kiritildi. Mazkur davrda yevrozonaga 11 Yevropa davlati kirgan bois, bugungi kunda yevroning chegarasi kengayib bormoqda.

2.2. Pul funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligi

Bizning fikrimizcha, pul biz yuqorida keltirgan funksiyalarni alohida olinigan davlatda yoki davlatlar o‘rtasida bajarishi mumkin. Bu holda biron mamlakatning valutasi jahon puli funksiyasini bajaradi, deb xulosa qilishga o‘rin qolmaydi. Pulning funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va ular bir-birini to‘ldirgan holda pulning mohiyatini to‘liq ifoda qiladi.

Pulning asosiy bosh funksiyalaridan biri *qiymat o‘Ichovi funksiyasi* hisoblanadi. Ba’zi chet el va rus iqtisodchilari adabiyotla- rida pulning birinchi funksiyasi deb *muomala vositasi funksiyasi*, keyin *qiymat o‘Ichovi funksiyasini* keltiradilar. Bizning fikrimizcha, pulning funksiyalari to‘g‘risida gapirganda, ularning ketma-ketli- giga e’tibor berish zarur. Pul qiymat o‘Ichovi funksiyasini bajar- masdan turib muomala, jamg‘arma vositasi bo‘la olmaydi.

Pulning qiymat o‘Ichovi funksiyasining to‘laqonli bajarilishi, tovarlarni ishlab chiqarish, xizmatlarni ko‘rsatish sohasidagi barcha sarf-xarajatlarni to‘la ifodalash imkonini beradi. Pul qiymat o‘Ichovi

funksiyasini bajarmasdan turib, ishlab chiqarilgan tovar yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar bozor munosabatlарining subyektlari uchun, ularning xo'jalik faoliyati uchun to'liq tatbiq qilina ol- masligi mumkin. Ya'ni pul muomala vositasini bajarishi uchun, muomala vositasining dastagi bo'lgan tovarlar yoki xizmatlarning qiymatini aniqlashi hamda bahosini belgilashi lozim. Qiymati aniqlanib, bahosi belgilangan tovar yoki xizmat muomalaga chiqarilishi yoki havola qilinishi mumkin. Muomala vositasi funksiyasi pulning qachon va qaysi maqsadda ishlatalishiga qarab, pulning keyingi funksiyalarini amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Pulning qiymat o'Ichovi va muomala vositalari uzviy davomi sifatida pulning to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalari amalga oshiriladi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, ba'zi xorijiy mamlakatlar iqtisodchilari, ayniqsa, rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlari pulning to'lov vositasi funksiyasini e'tibordan chetda qoldirishadi yoki muomala vositasi funksiyasiga qo'shib yuborishadi. Albatta, bozor munosabatlari har tomonlama rivojlangan mamlakatlarda naqd va naqdsiz pul o'rtasida tafovut mavjud emas. Shu bois, pul muomalasida keskin o'zgarishlar bo'Imagan sharoitda pulning to'lov vositasi funksiyasi muomala vositasining davomi sifatida qaralishi mumkin. Lekin to'lov vositasi funksiyasining alohida olib qaralishi bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zining maqsadli vazifalarini bajarishga asos yaratadi. Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bu ikki fimksiya orqali, awalambor, muayyan davrda, vaqtida qancha miqdorda naqd pulga talab borligini aniqlash va bu orqali pul muomalasini barqarorlashtirish yo'llarini tanlash mumkin. Muomala vositasi funksiyasida naqd pul aylanishini aniqlash imkoniyati yaratiladi. To'lov vositasi funksiyasi esa subyekt-larning qarz majburiyatları miqdorini aniqlash va ulami amalga oshirishda qancha miqdorda naqd pul yoki qancha miqdordagi mablag'larni naqdsiz o'tkazish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz hamda mazkur aylanmaning samarali va uzlusiz bo'lishini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Muomala va to'lov vositasi funksiyalarining amalga oshirilishi natijasida pulning jamg'arma vositasi funksiyalarining bajarilishiga • zamin yaratiladi. Muomala vositasining bajarilishidan qolgan pullar yoki muomalada bo'Imagan pullar jamg'armaga yo'naltirilishi mumkin. To'lov vositasi funksiyasi yordamida shakllangan, iste'mol uchun yo'naltirilgan mablag'lar jamg'arilishi mumkin. Jismoniy

shaxslar ehtiyoji va iste'molidan ortiqcha pul mablag'larini qoMlarida yoki banklar va boshqa kredit muassasalarida jamg'arishlari mumkin bo'Isa, yuridik shaxslar ehtiyojidan ortiqcha pul mablag'larini o'zlarining banklardagi hisobraqamlarida jamg'arishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pulning barcha ftmksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ular bir-birini to'ldiradi. Pulning funksiyalari ay-nan shunday uzviy bog'liqligi va bir-birini to'ldirishi pul muoma-lasining barqarorligi va samarasini ta'minlashga sharoit yaratadi.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Pulning funksiyalarini sanab bering.**
- 2. Pul qiymat o'Ichovi funksiyasini qanday bajaradi?**
- 3. Pulning muomala vositasi va to'lov vositasi funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.**
- 4. Rivojlangan davlatlarda pulning qanday funksiyalari o'rganiladi?**
- 5. Jamg'arish vositasi funksiyasining hozirgi vaqtdagi dolzarbligi.**

III bob. PUL AYLANMASI VA UNING TUZILISHI

3.1. Pul aylanmasiga tavsifnoma va uning tuzilishi

Naqd pulsiz va naqd pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshrrila- digan to‘lovlarning yig‘indisi pul aylanmasini tashkil qiladi. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida yaratilgan tovarlarning barchasi pul yordamida ayrbosh qilinadi. Pul aylanmasiga tovar aylanishining pul shaklidagi ko‘rinishi, deb qarab bo‘lmaydi. Chunki pul aylanmasi tovar aylanmasidan kengroq bo‘lib, u tovarning sotilishi va sotib olinishidan tashqari, har xil sohalarda mehnatga haq to‘lash jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Pul aylanmasining sodda chizmasini quyidagicha ifoda qilish mumkin, ya’ni pul harakati faqat aholi va korxona, tashkilotlar o‘rtasida bo‘ladi deb qaraymiz. Bunda pul aylanmasining asosiy ikki omili: bir tomondan tovar va resurslar harakati; ikkinchi tomondan pul harakati ko‘rsatilgan. Bu chizmada davlat tashkilotlari, moliyaviy bozor, pul bozorlari, eksport va import va boshqa iqtisodiy munosabatlar yo‘q deb qaralgan. Aholi va korxonalar hech qanday vositachilarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri iqtisodiy munosabatda bo‘lishadi (1-chizma).

1-chizma. Iqtisodiy tizimda tovar va pul aylanishining sodda ko‘rinishi.

Chizmada ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar va tovarlar harakati soat millari harakati bo‘yicha ko‘rsatilgan. Bu ko‘rinishda resurslarning barchasi faqatgina aholining o‘ziga tegishli, deb qaralgan va ular korxonalarining tovar va boshqa mahsulotlariga ayrbosh qilinadi. Bu jarayonning amalga oshishida pul kabi vositachi ishtirok qilmaydi. Ayrboshlash jarayoni pulsiz barter tariqasida namoyon bo‘ladi. Ayrboshlashning oddiy shakli, oldingi boblarda ta’kidlaganimizdek, mazmun jihatdan sodda bo‘lsa-da, amalga oshirish jarayonida ma’lum qiyinchiliklar mavjud.

Shuning uchun tomonlar o‘rtasidagi oldi-sotdi jarayonini tezroq va samaraliroq amalga oshiruvchi vositachi zarur. Bu jarayonning kechishi 2-chizmada soat millari yo‘nalishiga teskari ko‘rsatilgan. Ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslari shu resurslar uchun to‘lovlari — ish haqi, renta to‘- lovlari, foiz daromadlari bilan bog‘langan holda tovar va pul mas- sasini tenglashtiruvchi mustaqil *birinchi aylanmani* yuzaga keltiradi.

Ikkinci aylanma ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish va aholi tomonidan shu tovarlar uchun to‘lash natijasida yuzaga kelgan aylanmadir. Bu aylanmaning bir-biri bilan bog‘lanib ketishi iqtisodiy tizimda daromadlar va mahsulotlarning aylanishini yuzaga keltiradi. Umumlashtirilgan holda jamiyatimizda yuzaga keluvchi pul harakatini quyidagi chizmada ko‘rsatish mumkin:

Ushbu chizma bo'yicha pul aylanmasining quyidagi guruh-larini ifodalab berish mumkin:

- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan to'lovlardan (ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ish haqi to'lash va boshq.);
- xarajatlarni qoplash uchun kelib tushadigan tushumlar va jamg'armalarni tashkil qilish;
- turli xil moliyaviy majburiyat va daromadlardan to'lovlarni amalga oshirish va boshqa to'lovlardan. Korxonalar oladigan daromadlardan budgetga to'lovlardan, ya'ni soliqlar va boshqa to'lovlarning amalga oshirilishi ham pul aylanmasining bir qismini tashkil qiladi.

Tovar va resurslar bozorining yuzaga kelishi mahsulot va milliy daromadning yuzaga kelishiga olib keladi. Milliy daromadning bir qismi aholi tomonidan jamg'arilib, moliyaviy bozorlar orqali investitsiya shaklida korxona, tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadi, bir qismi esa davlat zayomlari orqali budget defitsitini qoplashga yo'naltiriladi. Natijada, pul oqimi o'zining asosiy kanallari orqali korxona, tashkilot, aholi, tovarlar bozori va resurslar bozoridan o'tib, moliya bozori va davlatgacha yetib keladi, ya'ni aholiga kelib tushadigan daromadning bir qismi soliqlar sifatida davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Shuning uchun ham pul aylanmasining salmoqli qismini milliy daromadni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tashkil qiladi. Milliy daromadni yaratishda pul aylanmasi jamiyat a'zolari bilan korxonalar o'rtasidagi to'lovda namoyon bo'ladi.

Pul aylanmasi moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Kapital mablag'lardan foydalanish va ba'zi sohalarda xarajatlarni moliyalashtirish, banklar tomonidan kreditlash jarayonlarining amalga oshirilishi ham pul aylanmasining yuzaga kelishi uchun zarur sharoitdir. Kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslari pulning uzluksiz aylanishi natijasida vujudga keladi. Korxona, tashkilotlar tomonidan moddiy qiymatliklar, materiallar, yoqilg'i va boshqalarni sotib olish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari oldindan avanslashtiriladi. Qiymat pul shaklidan tovar shakliga o'tadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sotiladi va mol yetkazib beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushadi. Shu tariqa korxonalarining puli uzluksiz aylanib turadi. Tovarlar uchun to'lovlardan naqd pulsiz amalga oshirilgani uchun korxona hisobvarag'iga kelib tushgan pul, uni ishlatishga zarurat tug'ilguncha banklarda saqlanadi.

Korxona, tashkilotlarning vaqtincha bo'sh turgan pullari ularning roziligidagi asosan, bank tomonidan kredit resurs sifatida ish-latilishi mumkin. Korxona, tashkilotlarning bo'sh pul mablag'-laridan tashqari, banklar jamoat tashkilotlari, budjet, sug'urta tashkilotlari, aholining banklardagi pul mablag'laridan o'z resurs- lari sifatida foydalanib, iqtisodiyot tarmoqlariga kreditlar beradi. Shunday qilib, banklar tomonidan pul mablag'larining yig'ilish jarayoni pul aylanmasida namoyon bo'ladi.

Korxona, tashkilotlarni kreditlashda pul mablag'lari vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit berish va kredit hisobidan tovar-moddiy boyliklarni sotib olish va uni boshqa ishlab chiqarish xarajatlari uchun sarflash va keyinchalik kreditni to'lash ssuda schotiga mablag' o'tkazish jarayoni pul aylanmasining element- laridan biri hisoblanadi.

Pul aylanmasi investitsiya bilan bog'liq xarajatlarni, sug'urta jarayonlarini amalga oshirilishini, mulkni, hayotni, transport vositalarini, ekin bog'larini, boshqa buyumlarni sug'urta qilish va uni to'lashni o'z ichiga oladi.

Pul aylanmasi aholi tomonidan uy-joy, kommunal xizmatlar, gaz, elektr energiyasi, aloqa xizmatlari uchun to'lovlar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalariga to'lovlar, transport uchun va boshqa to'lovlarini, a'zolik badallarini va paylarni to'lashni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, pulning ayrim kanallarida harakatini ko'rib chiga turib, pul aylanmasining mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin/*Pul aylanmasi* — bu naqd pullik va pul o'tkazish yo'li bilan olib boriladigan hisob-kitoblaming yig'indisi. Pul aylanmasini ikki asosiy belgiga qarab, *birinchidan, yalpi ichki majisulot* ishlab chiqarish, *ikkinchidan*, *pulni.ug* funksivalariga qarab tarkibiy qismlarga bo'lish mumkiiy Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda pul aylanmasi: tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital qurilish bilan bog'liq aylanmaga hamda tovar va ularning harakati bilan bog'liq bo'lмаган аylanmaga bo'linadi.

Pul aylanmasining birinchi turiga 2-chizmada keltirilganidek, ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur jami resurslar — mehnat qurollari, mehnat vositalari, ish kuchi sotib olish va, aksincha aholi tomonidan davlat, kooperativ-savdo tashkilotlaridan, deh-qon bozorlaridan, fuqarolardan iste'mol uchun zarur tovarlarni sotib olish hamda aholi tomonidan yuqoridaqи subyektlarga tovarlar sotish, kapital qurilish va ta'minlash sohaşidagi hisob-kitoblar va boshqalar kiradi.

Pul aylanmasining ikkinchi turiga ishchi, xizmatchilarga ish haqi to'lash, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq to'lovlар, kreditlash jarayoni bilan bog'liq to'lovlар va boshqa tovar harakati bilan bog'liq bo'lman to'lovlар kiradi. Pul funksiyalariga va to'lov turiga ko'ra, pul aylanmasi *naqd pullik* va *naqd pulsiz* aylanmaga bo'linadi.

Pul aylanmasining asosiy qismini naqd pulsiz aylanma, ya'ni korxona, tashkilotlar o'rtasidagi, ularning davlat budjeti, kredit tashkilotlari bilan naqd pulsiz bir schotdan ikkinchi schotga mablag¹ o'tkazish yoii bilan amalgalashdigan aylanma tashkil qiladi. Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz aylanma salmog'ining yuqori bo'lishining sababi, awalambor, korxona va tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishni yuksaltirish zarurligi, ba'zi bir tarmoqlaming ixtisoslashuvi, kredit tizimining takomillashuvi va boshqalar bilan bog'liq. Tovarlarni sotish jarayonidagi hisob-kitoblar moddiy boy- liklar aylanishi bilan bog'liq bo'lib, ular, asosan, korxona va tashkilotlar o'rtasida olib boriladi.

Notovar xarakterdagi hisob-kitoblarga milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar, da- romaddan to'lovlar, har xil badal soliqlari, kreditlarni to'lash, uy-joy, har xil xizmatlar uchun toMovlar va boshqalar kiradi.

Tovarlar harakati bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblaming naqd pulsiz o'tkazilishi, moddiy boyliklarni yetkazish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov muddatini yaqinlashtirishga yordam beradi. Tovar-moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida otkazilmasligi korxonalar mablag'larining xo'jalik aylan- masidan chiqib ketishiga, ko'zlangan rejalami bajarishga mablag'lar- ning yetishmasligiga olib keladi. To'lovning tovarlarni olishdan oldin amalgalashdigan mol sotib oluvchi korxona mablag'larining xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishiga olib keladi. Shuning uchun tovarlar harakati va to'lovlar bir-biriga mos kelishi katta ahamiyatga ega.

Pul aylanmasini ko'rib chiqishda, to'lov aylanmasi bilan naqd pulsiz aylanmalar o'rtasida farq mavjudligini ta'kidlamoqchimiz. *To 'lov aylanmasi deb, pulning to 'lov vositasi sifatida harakati tufayli vujudga kelgan pul aylanmasiga aytiladi.* To'lov aylanmasining tarkibiy qismi bo'lib to'Miq naqd pulsiz aylanma va naqd pul aylanmasining pulning to'lov vositasi funksiyasi tufayli yuzaga keluvchi qismi hisoblanadi (3-chizma).

3-chima. Pul aylanmasining tarkibiy qismlari.

3.2. Naqd pulsiz pul aylanmasi, uni tashkil qilish tamoyillari va naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari

Pul aylanmasining asosiy qismini naqd pulsiz aylanma, ya’ni korxona, tashkilotlar o‘rtasidagi, ularning davlat budjeti, kredit tashkilotlari bilan naqd pulsiz bir schotdan ikkinchi schyotga mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladigan aylanma tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri — pul aylanishini to‘g‘ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Korxona va tashkilotlar o‘zlarining xo‘jalik faoliyati jarayonida doimo bir-birlari bilan aloqada bo‘ladi. Ular o‘rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o‘zi esa pul aylanishining moddiy asosi hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar, jumladan, pensiya fondi, sug‘urta fondi, soliq idoralari, bank muassasalari bilan bo‘ladigan pulli munosabatlar vujudga keladi.

Pulli munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va toiov usullariga ko‘ra, pul aylanishi naqd pulli va naqd pulsiz aylanishiga bo‘linadi. Chakana savdo va aholiga pulli xizmat ko‘rsatish, asosan, naqd pulda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, naqd pul aylanishiga kommunal-maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar, ishchi-xizmatchilarga ish haqi va shunga tenglashtirilgan

to‘lovlarni to‘lash, sug‘urta tashkilotlariga badallar to‘lash, uy- joy va boshqa maqsadlar uchun aholi tomonidan olingan kreditni naqd pul ko‘rinishida qaytarish bilan bog‘liq to‘lovlarning to‘la- nishi kiradi.

Iqtisodiyotda bo‘ladigan pul aylanishining 70—80 % ini naqdsiz pul aylanishi tashkil etadi. Naqdsiz pul aylanishi naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqdsiz pul hisob-ki- toblarning keng ishlatalishiga ko‘p tarmoqli bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiyjarayonlarni o‘rganish va uni tartibga solish nuqtayi nazaridan davlatning qiziqishi, mulk- chilik shakllarining ko‘payishi va turli mulkchilik shakllariga te- gishli bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi munosa- batlarning kengayib borishi asos bo‘ladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko‘rsatish va tovarsiz operatsiyalari bo'yicha bir-biriga bo‘lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ish- latmasdan pul mablag‘larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisob- varaqqa o‘tkazish orqali amalga oshirish tushuniladi.

Iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ma’lum tizim asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi o‘z ichiga hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari, shakllari, usullari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish oldiga qo‘yilgan talablarni oladi.

0‘tgan asrning 30—32-yillarida o‘tkazilgan kredit islohoti dav- rida kiritilgan va sobiq Ittifoq davrida mavjud bo‘lgan naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi iqtisodiyotni boshqarishning ma’muriy buy- ruqbozlik usullariga asoslangan edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va sotish rejalarini bajarish nuqtayi nazaridan mahsulot sotuvchi korxona qiziqish- lariga xizmat qilar edi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari korxonalarining shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun iqtisodiy qiziqishlari va javobgarligini chegaralab, qat’iy qilib belgilangan edi.

Bu tamoyillar quyidagicha belgilangan:

- bank naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qiladi va ularning bajarilishi ustidan nazorat qiladi;
- to‘lov vaqtি qat’iy belgilangan, ya’ni barcha to‘lovlar tovarlar jo‘natilgandan keyin yoki xizmat bajarilgandan so‘ng o‘tkaziladi. Avans to‘lovlarini tijorat kreditiga ruxsat etilmas edi;
- to‘lovchining roziligi to‘lov o‘tkazilishining asosi sifatida tan olingan;

• qaysi sohada qaysi hollarda naqd pulsiz hisob-kitob shakllari- ning ishlatalishi, ularni tashkil qilish tamoyillari to‘lovchining to‘lovga va kreditga layoqatlilik qobiliyatini hisobga olmas edi.

Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblarning birinchi tamoyi- li mulkchilik shaklidan qat’i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z mablag‘larini bankdagi hisobvaraqlarda saqlashlari va barcha operatsiyalarni bank orqali o‘tkazishlari lozimligini bildiradi. Bozor munosabatlari sharoitida hisob-kitoblarning bank orqali o‘tkazilishi bozor ishtirokchilarining iqtisodiy mustaqilligi bilan qo‘sib olib borilishi kerak.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning ikkinchi tamo- yili shundan iboratki, mijozlarning hisobvaraqlaridan pul mab- lag‘larini ko‘chirish, ularning topshirig‘i yoki roziligiga asosan, hisobvaraqdagi mablag‘lar miqyosida bajariladi.

0‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi ishlab chiqi- lishi va joriy etilishi munosabati bilan Markaziy bank tomonidan mijozlarning hisobraqamlari bo‘yicha operatsiyalar o‘tkazish tartibi belgilangan. Hisobvaraqlardan mablag‘larni o‘tkazish hisobvaraq egasining topshirig‘iga binoan bajariladi. Mijozlarning buyrug‘isiz hisobvaraqlardagi pul mablag‘lari faqat sud qaroriga binoan, qo- nunda belgilangan tartibda bank va mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan ko‘chirilishi mumkin.

Fuqarolik kodeksiga asosan, mijozlarning hisobvaraqlarida barcha talablarni bajarishga pul mablag‘lari yetarli bo‘lgan hollarda pul ko‘chirish bo‘yicha mijozning topshirig‘i va boshqa hujjatlar- ning kelib tushishi tartibida hujjatlar to‘lanishi lozim. Mijoz hisobvaraqdagi barcha talablarnitoiashga mablag‘lar yetarli bo‘lmagan taqdirda, hujjatlarning to‘lanishi 0‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Xo‘jalik subyektlarining bankdagi hisobvaraqlaridan pul mablag‘lariri ko‘chirir>h to‘g‘risda»gi 615-yo‘riqnomasi- siga asosan amalga oshiriladi.

Agar mijoz bilan bank o‘rtasida kredit shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, to‘lovlar bank krediti hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning uchinchi tamoyili shundan iboratki, mablag‘lar to‘lovchining hisobvarag‘idan o‘chi- rilgandan so‘ng oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Tijorat bank- larining hisob cheklari bo‘yicha pul o‘tkazish bundan mustasno.

Hisob-kitoblar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasi- dagi o‘zaro e’tirozlar belgilangan tartibda, bank ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi hisob-kitoblarni tashkil qilishning to‘rtinchi tamoyilidir.

Banklar o‘z vaqtida to‘lanmagan hujoatlar bo‘yicha penalarni hisob- lash va undirishga javobgar emas. To‘lovchi yuklab jo‘natilgan mah- sulotlar uchun o‘z vaqtida to‘lanmagan summaga hisoblangan penani to‘lovchi va mahsulot yetkazib beruvchi o‘rtasida tuzilgan xo‘jalik shartnomasida ko‘zda tutilgan tartibda to‘laydi. Agar bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomada pena hisoblash va undirish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, bu holda bank o‘z vaqtida to‘lanmagan hu- jjatlar bo‘yicha pena hisoblashi va mahsulot sotuvchi korxona foy- dasiga undirib berishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borishning beshinchi tamoyi- li hisob-kitob shakllarini tanlash bilan bog‘liq. Mulkchilik shakl- larining xilma-xilligi sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati tovar-pul munosabatlari rivojlanishi sharoitida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish xo‘jalik organlari tomonidan hisob-kitobni erkin tanlash tamoyilidan kelib chiqadi va ular shart- nomalarda mustahkamlanadi. Xo‘jalik organlarining shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi. Bu tamoyil hisob-kitob ishti- rokchilari o‘zaro munosabatlarining ijobiy natijalari uchun moddiy javobgarligini oshirishga, hisob-kitob va shartnomaviy munosabatlarini tashkil qilishda iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning oltinchi tamoyili to‘loving muddatliligidir. Bu tamoyil katta amaliy ahamiyatga egadir. Xo‘ja- lik yurituvchi subyektlar to‘loving qanday muddatga kelib tushi- shi to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lgan holda xususiy mablag‘larining aylanishini oqilona tashkil etish, qarz mablag‘lariga boigan zaru- ratni hisoblab ko‘rishi, shu bilan birga, o‘z balansining likvidli- gini boshqarib borishi mumkin bo‘ladi. Mahsulot sotuvchi va oluvchi tomonlar kelishuviga ko‘ra, to‘lovlar muddatli, muddatidan oldin hamda muddati kechiktirilgan bo‘lishi mumkin.

Muddatli to‘lovlar quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- tovarlar jo‘natilmasdan yoki xizmatlar bajarilmasdan oldin, bunday to‘lovlar avans to‘lovlarini yoki oldindan to‘lov ko‘rinishida amalga oshiriladi;
- tovar jo‘natilgandan keyin, ya’ni tovarni bevosita aksept qilish yo‘li bilan;
- yirik summada tuzilgan shartnomalarda ko‘rsatilgan summa- larni bo‘lib-bo‘lib to‘flash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Muddati uzaytirilgan to‘lovlar belgilangan muddatda tolovni amalga oshi- rolmay qolgan hollarda, toMov muddatini muayyan muddatga

cho‘zish, ya’ni yangi to‘lov muddatini belgilashni bildiradi. Muddati uzaytirilgan to‘lovlar tomonlarning moliyaviy ahvoliga zarar yetkazmagan holda shartnomaviy munosabatlar doirasida bo‘lishi lozim.

Muddati kechiktirilgan to‘lovlar to‘lovchi korxonaning hisobvarag‘ida hujjatda ko‘rsatilgan summani to‘lash uchun pul mab- lag‘lari bo‘limgan holatda yuzaga keladi. Agar korxona bankdan kredit olish huquqiga ega bo‘lmasa, hujjat korxona hisobvarag‘iga pul kelib tushgandan so‘nggina belgilangan tartibda to‘lanadi.

Yuqorida korxona va tashkilotlar o‘z pul mablag‘larini bankdagi hisobvaraqlarida saqlashi lozimligini ta’kidlagan edik. Banklarda mijozlarga bir qator hisobvaraqlar ochiladi. Bular talab qilingun- cha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar, jamg‘armalı depozitlar va muddatli depozitlar bo‘yicha hisobvaraqdır. Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlar ilga- rgi hisob-kitob varaqlariga tenglashtirilgan bo‘lib, xo‘jaliklarning barcha operatsiyalari aynan mana shu hisobvaraqlardan o‘tkazi- ladi. Jamg‘armalı va muddatli daromad olish yoki pul mablag‘la- rini asta-sekin ko‘paytirib, yig‘ib borish maqsadida ochiladi.

Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar bo‘yicha hisobvaraq ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraq ochish uchun ariza;
- davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risida hujjat;
- soliq idoralaridan ro‘yxatdan o‘tganligi va korxonaga identifikasiya kodi berilganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarning imzolari va korxona muhri tushirilgan ikki nusxadagi ariza.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha hujjatlar ma’lum maqsadlarda tuzilib, hammasi birgalikda bank yuristi yoki bosh buxgalteriga topshiriladi. Bu hujjatlar tegishli ekspertiza va tekshiruvdan o‘tka- zilgandan so‘ng, bank boshqaruvchisi tomonidan korxonaga hisobvaraq ochish uchun ruxsat beriladi. Korxona tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida mijoz to‘g‘risidagi barcha zaruriy ma’lu- motlar — rekvizitlar Markaziy bank qoshida ochilgan Bank de- pozitorlarining milliy axborot bazasiga «O‘zbekiston Respublikasi Bank depozitorlarining milliy axborot bazasi to‘g‘risida»gi Ni- zomga asosan taqdim etiladi. BDMABda mijoz ro‘yxatga olinib, unga maxsus xosraqam (unikal kod) beriladi. Yuridik shaxsning u ro‘yxatga olingan joyda birinchi marta ochilgan «Talab qilinguncha

saqlanadigan depozit» hisobvarag'i uning asosiy hisobvarag'i hisoblanadi. Mijozga berilgan xosraqam «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i ichida ko'rsatiladi. «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'ining tuzilishi ham boshqa bank hisobvaraqlari kabi 20 razryaddan iborat.

O'zbekiston Respublikasi banklarida axborotlarga kompyu- terlarda ishlov berish, hisob yuritish va hisobot ishlarini soddalash- tirish maqsadida shaxsiy hisobvaraqlarga raqamlar yagona qoidalar asosida belgilanadi. Banklarda mijozlarga hisobvaraqlar ochilishi mijoz va bank o'rtasidagi shartnoma bilan mustahkamlab qo'yiladi. Shartnoma mijoz hisobvarag'ini yuritish bo'yicha shartnoma, deb yuritiladi. Shartnomada depozit shartlari, depozitdan foydalanish tartibi, bank tomonidan to'lanadigan foizlar miqdori, bank tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar, shu xizmatlar uchun korxona tomonidan to'lanadigan to'lovlar miqdori, bank mijo- zining huquqlari, majburiyatları, javobgarligi va boshqalar ko'rsa- tilib, korxona rahbarlarining imzolari va muhrlari qo'yiladi.

Korxonaga hisobvaraq ochishda bank tomonidan belgilangan miqdorda to'lov undiriladi. Banklarda yuridik shaxslarga «Talab qilinguncha saqlanadigan depozit» hisobvarag'i bilan birgalikda jamg'armali yoki muddatli depozit hisobvaraqlari ochiladi. Bun- day hisobvaraqlarining ochilishini rasmiylashtirish uchun yuridik shaxslar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- hisobvaraq ochish uchun ariza;
- soliq to'lovchiga berilgan raqamning ro'yxatga olinganligi to'g'risida bildirishnoma;
- imzolar va muhr izi namunalari qo'yilib, notarius tasdiq- lagan kartochka (varaqcha).

Sanab o'tilgan hujjatlar korxona ushbu bankda ilgari hisobvaraq ochmagan taqdirda taqdim etiladi. Agar korxona ilgari shu bankda biror hisobvaraq ochgan va tegishli hujjatlarni bankka taqdim etgan bo'lsa, u holda faqat hisobvaraq ochish uchun ariza rasmiy- lashtirilib topshiriladi. Arizada qanday depozit bo'yicha hisobvaraq ochish lozimligi ko'rsatiladi va belgilangan tartibda korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi. Budget muassasalari uchun jamg'armali va muddatli depozitlar bo'yicha hisobvaraqlari faqat ularning budgetdan tashqari mablag'lari uchun ochiladi.

Jamg'armali va muddatli depozitlardan yuridik shaxslar bilan bir qatorda jismoniy shaxslar ham foydalanishlari mumkin. Bu-

ning uchun jismoniy shaxs tomonidan hisobvaraq ochish to‘g‘ri- sidagi ariza, imzo namunasi qo‘yilgan varaqcha hamda hisobvaraq ochishni so‘ragan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjat topshiri- ladi. Hujjatlar ko‘rib chiqilib, tegishli nazorat o‘tkazilgandan so‘ng, bank bilan mijoz o‘rtasida bank hisobvarag‘ini ochish bo‘yicha shartnoma imzolanib, unda shartnoma shartlari belgilab qo‘yiladi. Ayni paytda shartnomada depozitlarning hisobvaraq ochilayotganda jamg‘arma yoki muddatli depozit shartlari bilan tanishtirilishi ko‘zda tutiladi hamda depozitor dastlabki hisob shakllari bo‘lgan hujjat- larga tegishli yozuv kiritib imzo qo‘yadi.

Umuman, hisobvaraq ochish uchun mijozlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar ularning «yuridik hujjati» hisoblanib, alohida papkaga tikiladi va bosh buxgalterda saqlanadi. Imzo va muhr namunasi tushirilgan varaqchalar mas‘ul ijrochi va bankning so‘nggi nazorat xodimiga topshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning amaldagi shakllari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy asosi, bu — moddiy ishlab chiqarish. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida jo‘natilgan tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun toMovlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, korxona va tashkilotlarning budjet bilan hisob- kitoblar, davlat, ijtimoiy sug‘urta muassasalari, sud, arbitraj idora- lari bilan ham hisob-kitoblari yuritiladi. Yuqoridagi hisob-kitoblar- ning asosiy qismi naqd pulsiz hisob- kitoblar asosini tashkil etadi.

Naqd pulsiz pul aylanishi pulli munosabatlar ishtirokchilari- ning hududiy joylashuviga ko‘ra, bir shahar ichidagi va shahar- lararo pul aylanishiga bo‘linadi. Bir shahar ichidagi bir yoki turli banklar xizmatidan foydalananadigan korxona va tashkilotlar o‘rtasida yuzaga keladigan naqdsiz pul aylanishi bir shahar ichidagi naqd pul aylanishi deyiladi. Turli shaharlarda joylashgan banklarning xizmatidan foydalanuvehi korxona va tashkilotlar o‘rtasida yuz?ga keladigan pul aylanishi shaharlararo naqdsiz pul aylanishi deyiladi.

Tovar operatsiyalari hamda notovar operatsiyalari bo‘yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblarning turli shakllari yordamida amalga oshiriladi. Bu shakllarning har biri hujjatlar aylanishi, mazmuni jihatdan alohida xususiyatlarga ega. O‘zbekistonning amaldagi qonunchiligiga ko‘ra, ishlab chiqilgan va 2002-yil 15-aprelda 1122-raqam bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2002-yil 12-yanvardagi 1/4-qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi naqd pul-

siz hisob-kitoblar to‘g‘risida»gi Nizom (yangi tahriri)ga muvofiq xo‘jaliklar o‘rtasidagi o‘zaro naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi shakllari asosida amalga oshiriladi:

- to‘lov topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar;
- akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar;
- inkassa bo‘yicha hisob-kitoblar;
- cheklar bilan hisob-kitoblar.

Ko‘rsatilgan shakljar bo‘yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi pul hisob-kitob hujjatlaridan foydalaniлади:

- memorial order;
- to‘lov topshiriqnomasi;
- to‘lov talabnomasi;
- inkassa topshiriqnomasi;
- akkreditivga ariza;
- tijorat bankning hisob-kitob cheki.

Shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar plastik kartochkalar- dan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

ToMovchi va mablag‘ oluvchi tomonlar orasidagi hisob-kitob qilish uchun tanlangan shakl xo‘jalik shartnomasi asosida belgila- nadi. Hisob-kitob shakllari bu huquqiy me’yorlarda ko‘zda tutilgan, hisob-kitob hujjatining turi, hujjatlar aylanish tartibi, mab- lag‘larni mol sotuvchi korxona hisobvarag‘iga o‘tkazish va yozish usuli bir-biridan farq qiluvchi hisob-kitob turlaridir.

Naqd pulsiz hisob-kitob hujjatlarining har biri belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandagina bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi. Har bir hujjat shakli talablarga javob beradigan holda rasmiylashtirilib, unda quyidagi rekvizitlar bo‘lishi shart:

- hisob-kitob hujjatining nomi;
- hujjatning nomeri va rasmiylashtirilgan sana;
- to‘lovchi korxonaning nomi, bankdagi hisobvaraq raqami, unga xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi va bank kodi;
- pul oluvchi korxona yoki tashkilot nomi, uning bankdagi hisobvaraq raqami, unga xizmat ko‘rsatuvchi bank nomi va bank kodi;
- to‘lov summasi;
- to‘lov maqsadi.

Hujjatlar korxona rahbari va bosh buxgalteri tomonidan im- zolangan va korxona muhri tushirilgan bo‘lishi shart. Hujjatlar bank tomonidan bank operatsion kuni davomida ijro uchun qabul qilinadi va shu kuni balansdan o‘tkaziladi.

To'lov topshiriqnomasi, bu — to'lovchi korxonaning uning bankdagi hisobvarag'idan pul mablag'larining ma'lum bir sum- masini boshqa mijozning hisobvarag'iga o'tkazish haqida o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka bergen yozma topshirig'i. To'lov topshiriqnomasi 0505411002 shakldagi standart blankda to'lovchi tomonidan rasmiylashtirilib, bankka topshiriladi. To'lov topshiriqnomalari orqali quyidagi to'lovlardan amalgalashadi:

- tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar;
- notovar operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar;
- Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'l-sa, bank ssudalari unga qo'shilgan foizlarni qoplash uchun mablag' o'tkazish;
- hukumat qarorlari va bank qoidalarida belgilangan hollardagi bank to'lovlari.

Ilgari to'lov topshiriqnomalari rasmiylashtirilgan kundan boshlab, 10 kun ichida bankka topshirilishi mumkin bo'lib, shu davr ichida haqiqiy hisoblanar edi. Hozir esa topshiriqnomaning sanasi uni bankka taqdim etilgan kun bilan bir xil bo'lishi kerak, mos kelmagan holda to'lov topshiriqnomasi ijro uchun qabul qilinmaydi. Lekin budjet va budjetdan tashqari fondlar bo'yicha to'lovlardan mustasno.

To'lov topshiriqnomalarining bankka topshiradigan nusxalar soni to'lovchi va mablag' oluvchilar qaysi bankda joylashganligiga bog'liq. Toiovchi va mahsulot sotuvchi korxonalar bir bank bo'limi xizmti- tidan foydalinishsa, topshiriqnomalar bankka uch nusxada taqdim etiladi. Topshiriqnomalarining har biri quyidagicha ishlataladi:

- *birinchi* nusxasi to'lovlardan amalgalashadi keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhri tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi;

• *ikkinci* nusxasi to'lovni oluvchining hisobvarag'iga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhri tushirilgan holda to'lovni oluvchi korxona vakiliga beriladi;

• *uchinchi* nusxasi operatsiya bajarilgandan so'ng, bank bo'li-mining to'rtburchak muhri tushirilgan, mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lovni amalga oshirish va topshiriqnomani qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lovchi korxona vakiliga ularning depozit hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda beriladi.

Lekin har doim ham bir-biri bilan munosabatda bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar bir bank xizmatidan foydalanmaydilar. Agar to‘lovchi va mablag‘ oluvchi korxonalarga bir hudud ichidagi yoki boshqa hududda joylashgan turli bank bo‘limlari tomonidan xizmat ko‘rsatilsa, to‘lov topshiriqnomalari bankka ikki nusxada taqdim etiladi:

- *birinchi* nusxasi to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin, bank mas‘ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning muhri tushirilgan, qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;
- *ikkinci* nusxasi bank bo‘Mimining muhri tushirilgan, bank mas‘ul ijrochisining imzosi, toMov amalga oshirilgan sana va top-shiriqnomani qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovchi korxona vakiliga beriladi.

To‘lov topshirig‘ida quyidagi rekvizitlar ko‘rsatilishi lozim:

- a) to lov topshirig‘ining nomi va raqami;
- b) to‘lov topshirig‘i to‘ldirilgan sana, ya’ni kun, oy va yil;
- d) to‘lovchining nomi, to‘lovchi bankining nomi va kodi;
- e) to‘lovchining hisobvaraq raqami va identifikatsiya kodi;
- f) mablag‘larni oluvchi korxona nomi, unga xizmat ko‘rsa-tuvchi bank nomi va kodi;
- g) mablag‘ oluvchining hisobvaraq raqami;
- h) to‘lovlarning summasi raqam va yozuvlarda ko‘rsatiladi;
- i) to‘loving maqsadi.

To‘lov topshirig‘ining barcha rekvizitlari to‘ldirilgandan so‘ng, topshiriqnomaning alohida ajratilgan pastki qismiga to‘love hi korxona rahbari va bosh buxgalterining imzosi hamda muhri. qo‘yi- ladi. Ushbu muhr va imzolar to‘lov toshirig‘ining faqat birinchi asl nusxasiga qo‘yiladi.

Korxonalaridan hujjatlar qabul qilish, shartnomada boshqa narsa ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, butun kun davomida bankning mijoz bilan ishslash vaqtidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda operatsion kun davomida bank tomonidan korxonalaridan olingan hujjatlar shu kunning o‘zida ijro qilinadi. Agar to‘lov topshirig‘i to‘liq rasmiylashtirilib, uni to‘lashga yetarli pul mablag‘lari bo‘lsa, mas‘ul ijrochi topshiriqnomadagi barcha ma’lumotlarni dasturiy yo‘l bilan kompyuter orqali bankning elektron to‘lovlарini amalga oshiruvchi hisoblash markaziga o‘tkazadi. Ertasi kuni ertalabdan kechikmagan muddatda bank balansi chiqarilgandan keyin huj-

jatning birinchi nusxasi bankning kundalik yig‘ma jildiga tikiladi va belgilangan tartibda awal joriy arxivga, bir yil o‘tgandan so‘ng umumiy bank arxiviga topshiriladi. To‘lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi esa mijozning hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan bir- galikda operatsiyalar o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mijozga beriladi.

Shunday qilib, tijorat bankining hisoblash markazidan das- turiy yo‘l orqali *modem usuli* bilan elektron to‘lov o‘tkaziladi, ya’ni elektron to‘lov tizimi orqali elektron to‘lov topshirig‘i Markaziy bank qoshidagi hisob-kitob kassa markaziga o‘tkaziladi. Markaziy bank qoshida ochilgan hisob-kitob kassa markazi to‘lovchi korxonaga xizmat qiluvchi tijorat bankdan olingan ma’lumotlar asosida elektron to‘lov topshirig‘ini modem orqali mablag‘ oluvchi korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat bankiga o‘tkazadi.

Elektron to‘lovlar tizimi orqali olingan elektron to‘lov topshiriqnomalari mablag‘larni oluvchi bankda ikki nusxada qog‘ozga chiqariladi. Topshiriqnomaning birinchi nusxasi bank mas‘ul ijrochisining imzosi va bank muhri qo‘yilib, kunlik hujjatlar yig‘ma- jildiga tikiladi. Ikkinchi nusxasi esa bank mas‘ul ijrochisining imzosi va bank muhri qo‘yilgan holda mijoz hisobvarag‘iga ilova sifatida mijozga beriladi.

Ta’mnotchilar tomonidan mahsulot yetkazib berish va xizmatlar ko‘rsatish transport xizmati bilan birqalikda bir tgkisda amalga oshirilsa, o‘zaro hisob-kitoblar doimiy to‘lovlar tartibida o‘tkazilishi mumkin. Bunday hisob-kitoblar har bir alohida savdo bitimi, ya’ni mahsulot ortish, jo‘natish yoki xizmat ko‘rsatish bo‘yicha emas, barcha tomonlar oldindan kelishib olgan muddatlar va hajmlarda to‘lov topshiriqnomalarida foydalangan holda mab- lag‘larni davriy ravishda ko‘chirish yo‘li bilan bajariladi. Tomonlar davriy ravishda, lekin har oyda kamida bi² marta mahsulotning amalda jo‘natilishi yoki xizmatlar ko‘rsatilishi asosida o‘tgan davr uchun qiyoslashni bajarish va shartnomada belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilishlari lozim. Aniqlangan farqlar alohida top- shiriqnomalar bilan o‘tkazilishi yoki navbatdagi to‘lovda hisobga oli- nishi mumkin. O‘zaro qarzlar eng kam miqdorda bo‘lishi uchun hisob-kitoblarga oyning oxirida aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda respublikamizda banklar orqali o‘tkazilayotgan barcha to‘lovlarning 65—75 % i to‘lov topshiriqnomalari yordamida amalga oshirilmoqda, bu uning afzalliliklari bilan bog‘liqdir. Bu afzalliliklar quyidagilardan iboratdir:

• *birinchidan*, hujjatlar aylanishining oddiyligi va tezligi, ya’ni hisob-kitoblarni amalga oshirishning texnik jihatdan qulayligi. Bu esa, o’z navbatida, xo’jalik yurituvchi subyektlar va bank xodimlari mehnat sarfini kamaytiradi;

• *ikkinchidan*, pul mablaglari harakatining tezligi, ya’ni to’lov talabnomasiga nisbatan to’lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarda hujjatlarning aylanish harakati qisqaligi so‘zsiz xo’jalik aylanma mablaglari aylanish tezligini oshiradi;

• *uchinchidan*, tovar sotib oluvchining qabul qilgan tovarlari yoki xizmatlar sifatining oldindan aniqlab olinishi hisob-kitoblarning bu shaklida to’lov talabnomasi orqali hisob-kitoblarda bo‘lgani kabi bankka rad arizasi topshirilmaydi, chunki to’lovchining o‘zi to’lovni to’lashga rozi bo‘lsa, topshiriqnomani bankka topshiradi;

• *to’rtinchidan*, to’lov topshiriqnomasining barcha tovarsiz ope-ratsiyalarda qo‘llanishi, bu esa ushbu shakl bo‘yicha hisob-kitoblarning ahamiyatini yanada yaqqol aks ettiradi.

To’lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar afzalliklar bilan bir qatorda, kamchiliklarga ham ega. Kamchiliklar shundan iboratki, mol jo‘natuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxona uchun to’lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi to‘la kafolatlanmagan. Chunki to’lovning o‘z vaqtida o‘tkazilishi to’lovchi korxonaning depozit hisobvarag‘idagi mablaglari miqdoriga bog‘liq. To’lovning to‘liq o‘tkazilishiga yetarli pul mablaglaring yetishmasligi pul aylanishini sekinlashtiradi va mahsulot jo‘natuvchi yoki xizmat ko‘r- satuvchi korxonaning moliyaviy holatini yomonlashtiradi.

Lekin ko‘rsatilgan kamchilik to’lov topshiriqnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarning naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari oldidagi ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, hozirgi davrda xo’jalik subyektlari o‘rtasida to’lov topshiriqnomalarining qo‘llanilish doirasini yanada kengayib bormoqda, chunki¹ old’ngi yillarda to’lov topshiriqnomalari bo‘yicha to’lovlar faqat mahsulot jo‘natilgandan va xizmatlar ko‘rsatilgandan keyingina amalga oshirilar edi. Bunday holat bozor munosabatlari sharoitida o‘zini oqlamadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarining oshib ketishiga olib keldi, bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotda qarzdorlik zanjirini keltirib chiqardi.

Yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning oldini olish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qaror va farmoyishlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 5-may-dagi «Korxona va tashkilotlar rahbarlarining xalq xo’jaligidagi hisob-kitoblarni o‘z vaqtida o‘tkazishni ta’minlash bo‘yicha javob-

garligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga mu- vofiq, mulk shaklidan qat‘i nazar, har bir xo‘jalik subyekti agar mol oluvchi korxona bo‘lsa, u, albatta, o‘sha mahsulot qiymati- ning kamida 15 % summasini oldindan to‘lashi talab etiladi. Tabiiyki, bu to‘lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

Oldindan to‘lov o‘tkazish ilgari yoqilg‘i-moylash mahsulot- lari va boshqa ba’zi hollarda Davlat bankining ruxsati bilan amalgalashadi. Lekin hozirgi paytda xo‘jaliklar o‘zlarini o‘zarlo xo‘jalik shartnomalari orqali oldindan to‘lovlar o‘tkazishni kelishib oli- shadi. Yuqorida ko‘rsatilgan mexanizm esa, har ikki tomon o‘rtasida shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlamining bajarilishini oldindan nazorat qilishga yordam beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 24-yanvardagi «Hisob-kitoblar tizimi hamda to‘lov intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida korxona va tashkilotlar tomonidan bankka topshiriladi- gan to‘lov topshiriqnomasida qat‘iy ravishda shartnoma nomeri, to‘lov tartibi, 15 % dan kam bo‘lmagan avans to‘lovi miqdori ko‘rsatilishi shart qilib belgilandi. Demak, naqd pulsiz hisob- kitoblarning qoidasi shaklidan foydalanishdan qat‘i nazar, xo‘jaliklar, awalo, to‘lov summasining 15 % dan kam bo‘lmagan miqdorini to‘lay oluvchi korxona hisobvarag‘iga aynan to‘lov top- shirig‘i yordamida o‘tkazadilar. Bu esa to‘lov topshirig‘ining iqtisodiyotning hamma sohalarini qamrab olayotganidan dalolat beradi. Umuman, iqtisodiyotda xususiy sektoming o‘rnini kengayib, kichik va xususiy korxonalar sonining oshishi to‘lov topshiriqnomalari bo‘yicha hisob- ldtoblar hajmining kengayishiga yo‘l ochib beradi.

To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar

Naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan biri to‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar bo‘lib, ular o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtasigacha qariyb 45 % ni tashkil etar edi. O‘zbekiston iqtisodiyot tida hisob-kitoblarni tartibga solish, holatini yaxshilash, jahon an- dozalariga moslashtirish maqsadida, 1999-yildan boshlab, mulk- chilik shaklidan qat‘i nazar, barcha korxona va tashkilot uchun to‘lov talabnomalarining o‘rniga to‘lov talabnomatopshiriqno- masi bo‘yicha hisob-kitoblar amaliyotga kiritildi. Shu bilan birga, 1995-yil avgustgacha to‘lov talabnomalarining muomalada bo‘lishiga ruxsat etildi. Lekin korxona va tashkilotlar to‘lov talabnomasi orqali amalgalashadi. Hisob-kitoblarga o‘rganib qolganliklari sababli,

Markaziy bankka to‘lov talabnomasini amaliyotga qaytadan tatbiq etish bo‘yicha ko‘plab talab va takliflar kelib tushayotganligini hisobga olgan holda bu masala qayta ko‘rib chiqilib, 1996-yil 29-fevraldagi xatiga asosan, qayta muomalaga kiritildi.

To‘lov talabnomasi, bu — mahsulot yetkazib beruvchi va mab- lag‘ oluvchilarning belgilangan summani to‘lovchi bank orqali to‘lashi to‘g‘risidagi talabnomani o‘z ichiga olgan hisob-kitob shakli. To‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar «Aksept» shaklidagi hisob-kitoblar ham, deb yuritiladi. «Aksept» so‘zi lotin tilidan olingen bo‘lib, rozilik ma’nosini anglatadi, ya’ni bu to‘lovchining to‘lovni amalga oshirish uchun bankka bergan roziligidir. Aksept shakli asosiy inkassa hisob-kitob shakli hisoblanadi. «Inkasso» ata- masi italyan tilidan olingen bo‘lib, bank o‘z mijozи taqdim etgan hujjatga asosan, yetkazib berilgan mahsulot uchun unda ko‘rsatilgan summani to‘lovchidan uning banki orqali olib berish bo‘yicha majburiyat hisoblanadi. Rozilik bildirish usuliga ko‘ra, aksept ijo- biy va salbiy bo‘lishi mumkin. To‘lovchi korxonaning roziligi ham, noroziligi ham yozma ravishda bildirilishi ijobiy aksept hisoblanadi. Salbiy aksept esa sukut saqlash orqali bildiriladi. Agar to‘lovga norozilik xati yozma ravishda kelib tushmasa, bank tomonidan to‘lov amalga oshiriladi.

Salbiy akseptning o‘zi to‘lovni amalga oshirish muddatiga ko‘ra, oldindan aksept va so‘nggi akseptga bo‘linadi. Talabnomani oldindan akseptlash usulida hisob-kitoblar o‘tkazilganda, talabnomalari ning puli akseptlash muddati tugagandan keyin, akseptlashning so‘nggi to‘rt to‘lov talabnomasi bankka kelib tushganida to‘lanadi, lekin to‘lov o‘tkazilgandan keyingi 3 kun ichida to‘lovdan bosh tortish huquqi saqlanib qoladi. Belgilangan muddat o‘tgandan so‘ng to‘lovchi tomonidan raddiya arizasi kelib tushmasa, to‘lov to‘langanligicha amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblarning aksept, ya’ni to‘lov talabnomalari orqali o‘tkaziladigan shaklida ishlatiladigan asosiy hujjat bu — to‘lov talabnomasi. To‘lov talabnomalari mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan belgilangan shakldagi blanklarda bankka taqdim etiladi. To‘lov talabnomalari quyidagi hollarda ishlatilishi mumkin:

- a) yuklab jo‘natilgan tovarlar uchun;
- b) bajarilgan ishlar uchun;
- c) ko‘rsatilgan xizmatlar uchun;
- d) amaldagi qonunchilikda, me’yoriy hujjatda yoki shartno- mada ko‘zda tutilgan boshqa to‘lovlar uchun.

To'lov talabnomasida mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan talabnama raqami, jo'natilgan sana, shu korxona nomi, uning hisobvaraq raqami, xizmat ko'rsatuvchi bank nomi, kodi, to'lovchi korxonaning nomi, uning bankidagi hisobvaraq raqami, to'lov- chiga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi va kodi, to'lov summasi va to'lov maqsadi ko'rsatiladi. Hujjatlarda ko'rsatilishi lozim bo'lgan umumiy rekvizitlardan tashqari to'lov talabnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- a) shartnoma sanasi va raqami;
- b) mahsulotlarni yuklab jo'natish sanasi va tovar-transport yoki qabul qilish hujjatlari va transport turining, tovarlar pochta va telekommunikatsiya agentligi orqali jo'natilganda esa, pochta kvitansiylarining raqami.

Agar mahsulot, uni sotib oluvchining transport vositasi bilan olib ketilsa, talabnomaning alohida ajratilgan joyida yuk uni sotib oluvchining o'z transporti bilan olib chiqib ketilgani hamda ishonchnomaning raqami ko'rsatiladi. Shunday hollar ham bo'la- diki, mahsulot kontraktatsiya shartnomalari asosida realizatsiya qilinadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha mahsulot yetkazib berishda to'lov talabnomasining yuqori qismida «Kontraktatsiya shartnomasi» deb ko'rsatilishi lozim. To'lov talabnomasining past- ki, alohida ajratilgan qismida mahsulot jo'natuvchi korxona rah- bari va bosh buxgalteri imzosi va muhr qo'yiladi.

To'lov talabnomalari 2 yoki 3 nusxada to'ldiriladi. Agar mahsulot yetkazib beruvchi va to'lovchi tomonlarga bir bank bo'limi xizmat ko'rsatsa, talabnama 3 nusxada taqdim etiladi. Bu holda to'lov talabnomalarning har bir nusxasi quyidagicha ishlataladi:

- *birinchi nusxasi* to'lovlar amalga oshirilgandan keyin bank mas'ul ijrochisi tomonidan imzo, to'lovni amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhri tushirilgan va qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda kunlik hujjatlarga tikiladi;

- *ikkinci nusxasi* to'lovni oluvchining hisobvarag'iga ilova sifatida mas'ul ijrochi tomonidan imzo, to'lov amalga oshirilgan sana, bankning to'rtburchak muhri qo'yilgan va qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda beriladi;

- *uchinchi nusxasi* qabul qilish sanasi, to'lovni amalga oshirish sanasi, mas'ul ijrochining imzosi va bank to'rtburchak muhri qo'yilgan holda to'lovchiga uning hisobvarag'idan ko'chirma bilan birgalikda beriladi.

Agar to'lovchi va mahsulot yetkazib beruvchi bir hudud ichidagi yoki turli hududlarda joylashgan turli bank bo'Mimlari xizmatidan foydalanishsa, bu holda to'lov talabnomalari 2 nusxada bankka taqdim etiladi. Har ikki nusxa pochta aloqasi yoki kuryerlar orqali to'lovchi bankigajo'natiladi.

To'lovchi korxona bankiga mahsulot yetkazib beruvchi korxona bankidan birinchi va ikkinchi nusxa to'lov talabnomasi pochta yoki kuryer orqali kelib tushadi. To'lov talabnomalari tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan, akseptlash tartibida yoki akseptlamasdan to'lanishi mumkin. Bank tomonidan talabnoma- larni akseptlash uchun 3 kun muhlat beriladi. Lekin korxonaning iltimosiga ko'ra, bank bu muddatni bir ish kunigacha cho'zishi mumkin. Akseptlash tartibida to'lanadigan talabnomalarning birinchi nusxasi to'lov uchun akseptlanishni kutayotgan hisob- kitob hujjatlari kartotekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka bankda 1-kartoteka deb yuritiladi. Talabnomaning ikkinchi nusxasi tovar- transport hujjatlari bilan birga, keyingi ish kunitdan kechiktiril- masdan, hujjatni akseptlash uchun qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda to'lovchiga beriladi.

To'lovchi to'lov talabnomasining ikkinchi nusxasini olgan- dan keyin, uning to'g'ri rasmiy lashtirilgani, shartnomalar shartla- rigato'g'ri kelishini tekshirib chiqadi. To'lovchi belgilangan mud- datda tovar-moddiy qiymatliklarni jo'natishda, xizmatlar ko'rsa- tishda amaldagi qonuniy hujjat talablariga hamda shartnomalar shart - lariga amal qilinmagan hollarda talabnomani qisman yoki to'liq to'lashdan bosh tortishi mumkin. Buning uchun bankka yozma ravishda raddiya arizasi topshirilishi lozim. Agar belgilangan mud- datda bankka raddiya arizasi topshirilmasa, talabnoma akseptlan- gan hisoblanadi. Akseptlashni rad etish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar doirasini bank bo'limi boshqaru^chis' belgi- laydi. Banldar akseptlarni rad qilish mohiyati bo'yicha kelib chiqqan bahs va nizolarga aralashmaydi.

To'lov talabnomasini to'lashdan bosh tortib yozilgan raddiya arizasining haqi to'lovchi tomonidan bankka topshirilganda, talabnomalar shu kunning o'zidayoq 1-kartotekadan olinadi hamda tovar-transport shartlari va boshqa ilovalar bilan birga, mahsulot yetkazib bergen korxona bankiga ijrosiz qaytarib yuboriladi. To'lovchi talabnomanini akseptlashdan qisman bosh tortganda, to'lovchi tomonidan aksentlangan summa bo'yicha to'lovlar o't- kaziladi. Mahsulot to'lovchi hisobvarag'ida talabnomaning aksept-

langan summani to'lashga yetarli pul mablag'lari bo'lmaganda, talabnama muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari karto- tekasiga joylashtiriladi. Bu kartoteka bankda 2-kartoteka deb yuri- tiladi. Bunda talabnomaning dastlabki summasi o'chiriladi va yonida to'lovchi akseptlagan summa yozib qo'yiladi. Kartotekaga kirim qilingan summa to'lovchi korxona hisobvarag'iga pul mab- lag'lari kelib tushgandan so'ng to'lanadi.

Agar i-kartotekaga joylashtirilgan to'lov talabnomasi bo'yicha to'Movchi tomonidan raddiya arizasi kelib tushmasa, to'lov talabnomasi akseptlash uchun berilgan 3 kun muhlat o'tgandan so'ng to'lanadi. To'lov talabnomasini to'lashdan awal to'lovchi korxonaning depozit hisobvarag'ini yurituvchi mas'ul ijrochi talabnomani to'lash uchun yetarli pul mablag'larining to'lovchi hisobvarag'ida mavjudligini tekshiradi. Agar depozit hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lari bo'lsa, talabnama to'lanadi.

Balans ichidagi hisobvaraqlar bo'yicha bajarilgan buxgalteriya yozuvlari bilan bir qatorda, balansdan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha ham buxgalteriya yozuvlari bajariladi, 1-kartotekadagi to'lov talabnomasining o'zi kartotekadan olinadi va hisobdan chiqariladi. To'langan talabnama elektron to'lovlar tizimi yordamida Markaziy bank qoshidagi hisob-kitob kassa markazi orqali mahsulot sotuvchi korxona bankiga o'tkaziladi. Talabnomaning ushbu nusxasi bankning kundalik hujjatlar yig'- majildiga tikilib, belgilangan tartibda saqlanadi.

Lekin har doim ham to'lovchi korxonaning hisobvarag'ida to'lov talabnomasini to'lashga yetarli pul mablag'lari bo'lmaganda mumkin. To'lovchining hisobvarag'ida mablag¹ bo'lmaganda, talab- nomalar 2-kartotekada to'lovnvi kutayotgan hujjatlari qatoriga joylashtiriladi. Bu haqda mahsulot yetkazib beruvchi bankiga xabar beriladi. To'lov talabnomasi 2-kartotekada to'lovchi korxonaning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga talabnomani to'lashga yetarli pul mablag'lari kelib tushguncha saqlanadi. Pul kelib tushgandan so'ng, kelib tushgan mablag¹lar doirasida me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan tartibda to'lov amalga oshiriladi.

Ba'zi vaqtida to'lov talabnomasini to'lash uchun to'lovchi korxonaning roziligi, ya'ni akseptlashi talab etilmaydi. To'lovchilaming hisobvaraqlaridan mablag¹ larni, akseptlamasdan hisobdan chiqarish tomonlar o'ttasida tuzilgan shartnomaga asosan, kommunal xizmatlar, telefon, kanalizatsiya, pochta-telegraf xarajatlari hamda tashilgan chiqindi uchun amalga oshiriladi. Kommunal xizmat

to‘Iovlari amaldagi tarif o‘Ichov asboblari asosida gaz, suv, issiqlik va elektr energiyasi uchun hisoblanadi. Bunda akseptsiz to‘lovlarni amalgalashirish uchun bankka taqdim qilingan to‘lov talabnomaning yuqori qismiga «akseptsiz» hamda «hisoblash asboblari asosida» so‘zlari ko‘rsatib qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Ushbu yozuvlar bo‘lmagan taqdirda, talabnomalar umumiy asosda akseptlanadi va to‘lanadi. Talabnomada mas’ul to‘lovlarni akseptlamasdan hisobdan chiqarish huquqiga ega bo‘lgan qonuniy hujjat yoki shart-nomaning sanasi, raqami va to‘lovning maqsadi ko‘rsatilishi shart. Bunda bank ilova qilingan hujjatlarni talabnomada ko‘rsatilgan ularning rekvizitlariga mosligini tekshirib ko‘radi.

Bank operatsion kuni kelib tushgan akseptsiz to‘lanadigan talabnomalar shu kunning o‘zida to‘lanadi. To‘lovchi korxonaning depozit hisobvarag‘ida talabnomanini to‘lashi uchun mablag‘i yo‘qligi yoki kamligi aniqlansa hamda ularni to‘lash uchun bank kredit berish imkoniyati bo‘lmaganida, to‘lanmagan summa hozirgi «mud-datida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari» kartotekasi bo‘yicha alohida hisobvaraqqqa o‘tkaziladi, talabnomaning o‘zi esa 2-kartotekaga joylashtiriladi. Operatsion kun tugaganidan so‘ng bankka kelib tushgan to‘lov talabnomalari keyingi ish kuni to‘lanadi. Bunday talabnomalarga «Kechki» belgisi qo‘yiladi.

To‘lovchi korxona bankida to‘langan to‘lov talabnomasi elektron tizimi orqali Markaziy bank qoshidagi hisob markaziga uza-tildi. Hisob markazida to‘lovchi korxona bankning korrespondensiya hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Elektron to‘lov tizimi orqali olingan elektron talabnomalar mablag‘larni oluvchi bankda ikki nusxada qog‘ozga chiqariladi. Uning birinchi nusxasi mas’ul ijrochisining imzosi va bank muhri qo‘yilib, kundalik hujjatlar yig‘majildiga tikilib, belgilangan tartibda saqlanadi. Talabnomaning ikkinchi nusxasi bank mas’ul ijrochisining imzosi va muhr qo‘yilgan holda mahsulot yetkazib bergen korxonaning depozit hisobvarag‘iga ilova sifatida qo‘shib beriladi. Shu bilan birga, bu korxonaga hisobvaraqqadan ko‘chirma ham beriladi. Mahsulot yetkazib beruvchiga tegishli bankda to‘lovchi bankdan kelib tushgan to‘lov summasi mablag‘⁴ oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazib qo‘yiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning boshqa shakllari kabi to‘lov talabnomasi bo‘yicha hisob-kitoblar ham ma‘lum afzallik va kam-chiliklarga ega:

1) mahsulot sotuvchi bilan mahsulot oluvchi tomonidan bir- birini o'zaro nazorat qilish;

2) mahsulot oluvchiga tovari jo'natish kechiktirilmaydi;

3) mol jo'natuvchi bilan hisob-kitob qilish uchun mahsulot oluvchining mablag'ini alohida hisobvaraqda deponent qilib qo'yish talab etilmaydi, ya'ni to'lovchining mablag'lari biror muddatga aylanmadan tashqariga chiqib ketmaydi;

4) tolovchiga taqdim etilgan hujjatlar asosida mol yetkazib beruvchining shartnoma shartlarini qay darajada bajarilishini tekshirish huquqi beriladi. Shu bilan birga, shartnoma shartlaridan biri bo'Mgan holda to'lov to'lashdan bosh tortish huquqiga ega bo'ladi;

5) mol oluvchi hisobvarag'idan akseptlangan talabnomalar bo'yicha mablag'larning majburiy olinishi mahsulot yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tomon manfaatlariga mos keladi.

To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning kamchiliklari quyidagi lar:

1. Mahsulot sotuvchi korxonaga to'Moving o'z vaqtida o'tkazi- lishi kafolatlanmaydi.

2. To'lov o'tkazilishi bilan tovar jo'natilishi vaqtining bir-biriga mos kelmasligi. Tovar kelib tushgandan so'ng korxona hisob-varag'ida pul bo'lmasa, to'lov o'tkazilmaganiga qaramay, shu korxonaning kreditor qarzdorligi oshishi va aylanma mablag'lari sama- radorligi pasayishiga olib keladi.

3. To'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarga hujjatlar aylanishi to'lov topshirig'iga nisbatan uzoqroq davom etadi.

Umuman, to'lov talabnomasi bo'yicha hisob-kitoblarning ish- latilishi ko'p hollarda o'z vaqtida to'lanmagan to'lov talabnomalarining ko'payishiga sharoit yaratadi, chunki talabnoma bankka to'lov uchun kelib tushgan vaqtida to'lovchining hisobvarag'ida har doim ham to'lovni amalga oshirish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmasligi, kartotekaga qo'yilgan har bir to'lov talabnomasi debtorlik va kreditorlik qarzları oshganligidan dalolat beradi. Shu sababli respublika banklari o'z mijozlarining kartotekadagi hujjatlari va ularni to'lash bo'yicha qanday ishlar olib borilayotganligini nazorat qilib turadi.

Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli to'lov aylanmasida juda kichik ulushni tashkil etadi. Jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni kafolatlash oldida akkreditiv shakldan

foydalanimi. Akkreditiv mijozning topshirig‘iga ko‘ra, shartnoma bo‘yicha uning kontragenti foydasiga berilayotgan bankning shartli pul majburiyatidir. Unga ko‘ra, akkreditiv ochgan bank mahsulot yetkazib beruvchi to‘lovni bajarishi yoki boshqa banklar tomonidan akkreditivda ko‘zda tutilgan hujjatlar taqdim qilib, uning boshqa shartlari bajarilganda, to‘lovlarni bajarish uchun vakolat berishi mumkin.

Akkreditivlar ochilganda, uni ochgan bank to‘lovchining shax-siy mablag‘idan yoki unga berilgan kredit hisobidan mol yetkazib beruvchining banki tasarrufidan alohida «Akkreditivlar», balans hisobvarag‘i va mablag‘larni yetkazib bersa, bunday akkreditivlar qoplangan akkreditivlar deyiladi. Akkreditiv ochgan bank xalqaro qabul qilingan andozalar asosida bank emitent deb yuritiladi.

Akkreditivlarning ikkinchi turi qoplanmagan akkreditiv bo‘lib, bank va boshqa korxonalar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilgan xo‘jaliklarga ulardan foydalinishga ruxsat etiladi. Qoplanmagan akkreditivning qoplanidan farqi shundaki, bunda to‘love hi korxonaning pul mablag‘lari alohida hisobvaraqqo o‘tkazib qo‘yilishini talab qiladi. Bank to‘lovchi hisobvarag‘ida to‘lov hujjatlari kelib tushgach, pul bo‘lmagan taqdirda, bank mablag‘lari hisobidan to‘lab berishni kafolatlaydi. Akkreditiv bu turining qulayligi shundaki, mol sotib oluvchining mablag‘lari aylanmada tarqalib ketmaydi, ikkinchi tomonidan mol jo‘natuvchi korxona uchun ham to‘lov kafolatlangan, faqat bo‘sh mablag‘lar hisobidan to‘lov amalga oshirilganda shartnomada kelishilgan miqdorda haq to‘lanadi.

Qoplanan-qoplanmagan akkreditivlar chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan bo‘lishi mumkin. Agar akkreditiv bo‘yicha hujjatlarda bu haqda belgi mavjud bo‘lmasa, bunday akkreditivlar chaqirib olinuvchi hisoblanadi. Chaqirib olinuvchi akkreditiv bank emitent tomonidan mablag‘larni oluvchi bilan oldindan kelishib olinmasdan ham o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Masalan, shartnomada ko‘zda tutilgan shartlarga rioya etilmaganda, bank emitent akkreditiv bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash muddatidan awalroq voz kechganda va boshqa hollarda akkreditiv chaqirib olinadigan akkreditivning shartlarini o‘zgartirishi (bekor qilinishi) to‘g‘risidagi farmoyishni faqat bank emitent orqali berishi mumkin. Mahsulot yetkazib beruvchining banki mahsulot o‘tkazib

beruvchi korxonani xabardor qiladi. Bajaruvchi bank mahsulot yetkazib beruvchi taqdim etgan va mahsulot yetkazib beruvchining banki tomonidan qabul qilingan, akkreditiv shartlariga oid bo‘lgan hujjatlar bo‘yicha to‘lovlarini mazkur bank akkreditivni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi xabarnomani olgunga qadar to‘lashi shart. Mahsulot yetkazib beruvchining roziliginisiz, uning foydasiga ochilgan chaqirib olinmaydigan akkreditiv o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Mahsulot yetkazib beruvchi korxona akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan hollarda akkreditivdan foydalanishdan muddatidan oldin voz kechishi mumkin.

Bir vaqtning o‘zida akkreditiv summasi akkreditivlarni hisob- ga oluvchi ko‘zda tutilmagan hollar hisobvarag‘iga kiritiladi. To‘lov o‘tkazilgandan so‘ng arizaning ikkinchi nusxasi bank mas’ul ijrochisining imzosi, to‘rtburchak muhr, amalga oshirilgan hamda qabul qilish sanasi qo‘yilgan holda to‘lovchiga ko‘chirma bilan bir- galikda beriladi.

Akkreditiv faqat bir ta’mintonchi bilan hisob-kitob qilishga moijallangan bo‘lishi mumkin. Akkreditivning muddati va hisob- kitob qilish tartibi tomonlar o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi. Shartnomada:

- bank emitentning nomi;
- akkreditiv turi va uni bajarish muddati usullari;
- mol yetkazib beruvchining akkreditiv bo‘yicha mablag¹ olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar ro‘yxati;
- tovarlarni yetkazgandan keyin hujjatlarning taqdim qilinish muddati;
- mol yetkazib beruvchi va oluvchi tomonlar nomi, ularning yuridik manzillari;
- bajaruvchi ban’k nomi va. boshqalar korsatiladi.

Akkreditiv sana uchun xaridor o‘z bankiga — bank emitentga 2 nusxada taqdim etadi. Arizada akkreditiv ochish uchun asos bo‘lgan shartnomaga akkreditivning amal qilish muddati, akkreditivni bajaradigan bankning nomi hamda to‘lov hujjatlarida ko‘rsatiladigan barcha rekvizitlar ko‘rsatiladi.

Bankda ushbu korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi mas’ul ijrochi akkreditiv ochish haqidagi arizani olib, uning to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilganligi, barcha kerakli rekvizitlaming to‘g‘riligini tek- shiradi. Qabul qilingan akkreditiv ochish haqidagi arizaning bi-

rinchi nusxasiga o‘z imzosi, bankning to‘rtburchak muhri, ariza- ni qabul qilish sanasi va to‘lov o‘tkazish sanasini qo‘yadi. Arizaning birinchi nusxasida ko‘rsatilgan barcha rekvizitlar kompyuterga kiritilib, elektron to‘lovlar tizimi Markaziy bankning hisoblash Markazi orqali, mahsulot jo‘natuvchi korxona muhr izi qo‘yil- gan holda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Mahsulot yetkazib beruvchi akkreditiv bo‘yicha kelib tushgan mablag‘larni o‘zining talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish uchun unga xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuklab jo‘natish va akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Akkreditiv bo‘yicha to‘lovlarni tas- diqlovchi boshqa hujjatlar akkreditiv muddati kelgunga qadar, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan bankka taqdim etilishi va akkreditivning barcha shartlarini bajarilganini tasdiqlashi shart. Akkreditiv bo‘yicha tolovlardaga mahsulot yetkazib beruvchining banki mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan akkreditivning barcha shartlariga rioya qilinganini hamda tasdiqlovchi hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi tekshirilishi lozim. Ushbu shartlar- ning birortasi buzilganda yoki bajarilmaganda, bank akkreditivlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazishi mumkin emas. Bir tomonidan mahsulot yetkazib beruvchining akkreditivlar bo‘yicha hisobvara- g‘idagi mablag‘¹ larni uning talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga memorial order orqali o‘tkaziladi. Memorial order mas’ul ijrochi tomonidan 4 nusxada to‘ldirilib, unda to‘lov bo‘- yicha shartnoma raqami, sanasi, to‘loving mazmuni, hisobvaraqlar raqami ko‘rsatiladi. Memorial orderning alohida nusxalari quyidagicha ishlataladi:

- memorial orderning birinchi nusxasi buxgalter imzosi, bank Lo‘rtburchak muhri tushirilib, tasdiqlovchi hujjatning bir nusxasi bilan birgalikda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;

- memorial orderning ikkinchi nusxasi mas’ul ijrochining imzosi va to‘rtburchak muhri qo‘yilib, tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda bank emitentga jo‘natiladi;

- memorial orderning to‘rtinchi nusxasi mas’ul ijrochi imzosi, bankning to‘rtburchak muhri qo‘yilib, mahsulot yetkazib beruvchi korxona hisobvarag‘iga ilova sifatida beriladi.

Shunday qilib, akkreditiv mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga boshqa xizmat qiluvchi bankda quyidagicha yopiladi:

a) akkreditiv muddati tugagandan keyin bajaruvchi bank akkreditiv yopilganligi to‘g‘risida bank emitentga xabar beradi;

b) mahsulot yetkazib beruvchining muddatdan oldin akkreditivni ishlatalishdan voz kechish to‘g‘risidagi arizasiga ko‘ra, mahsulot yetkazib beruvchining keyingi akkreditivdan foydalanish- dan voz kechganlik to‘g‘risidagi arizasiga asosan, bank emitentga ko‘chirilganligi to‘g‘risidagi bildirishnoma yuboriladi;

d) sotib oluvchining akkrediti qisman yoki to‘la chaqirib olish to‘g‘risidagi arizasiga ko‘ra, agar akkreditiv shartlarida ko‘zda tutilgan boMsa, akkreditivlar emitenti bankdan xabar yetib kelgan kuni 22602—«Mijozlarning akkreditivlar bo‘yicha depozitlari» hisobvarag‘idagi mavjud mablag‘lar doirasida to‘liq yoki qisman qoplanadi.

Akkreditivlar bo‘yicha depozit hisobvaraqlardan naqd pul beri- lishi akkreditivlari boshqa korxonalar nomiga o‘tkazilishi va qayta rasmiylashtirilishiga ruxsat etilmaydi.

Bank emitent akkreditivni ishlatganligi to‘g‘risida bajaruvchi bankdan hujjatlarni olgandan keyin memorial orderga asosan, ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘idan to‘liq hisobdan chiqadi va tasdiqlovchi hujjatlarni memorial orderning nusxasi bilan birgalikda to‘lovchi korxonaga beradi. Ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvarag‘i akkreditiv to‘liq ishlatilmagan va u sotib oluvchi banki - dagi hisobvaraqqqa qaytarilganda ham yopiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning akkreditiv shaklining o‘z af- zalligi, shu bilan birga, bir qator kamchiliklari mavjud. Akkreditiv shakllari bo‘yicha hisob-kitob qilishning afzal tomoni shundaki, mahsulot yetkazib beruvchi uchun toMov to‘liq, kafolatlan- gan bo‘ladi. Akkreditiv shaklining kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- akkreditiv shakli bo‘yicha hujjatlar aylanishi texnik jihatdan birmuncha qiyinroq;

- transportga qulay emas, akkreditiv ochilgan paytda yukni jo‘natish uchun tayyor transport bo‘lmasligi mumkin, bu esa yuk jo‘natishning kechikishiga olib keladi;

- bu shaklda to‘lovchining mablag‘lari aylanmadan qisman chet- lashadi, boshqa hisob-kitoblar bo‘yicha bu mablag‘lardan foy- dalanishga ruxsat etilmaydi;

- akkreditiv bo‘yicha, odatda, faqat bir mol yetkazib beruvchi bilan hisob-kitob qilinadi.

Inkasso topshiriqnomasi — ushbu topshiriqnomani bergen bankka mijozning bank emitentga to‘lovchining hisobvarag‘idan so‘zsiz tartibda mablag‘ chiqarish to‘g‘risidagi talabi. Inkasso topshiriq- lari quyidagi hollarda taqdim etiladi:

- *birinchidan*, o‘z vaqtida to‘lanmagan soliqlarni undirish uchun;
- *ikkinchidan*, davlat budgetiga o‘tkaziladigan soliqlardan tash- qari to‘lovlar, jumladan, penalar, jarimalarni undirib olish to‘g‘- risidagi soliq organlarining farmoyishiga ko‘ra;
- *uchinchidan*, budgetdan tashqari fondlardan to‘lovlarni undirib olishda, agar bu qonuniy hujjatlarda ko‘zda tutilgan bo‘lsa;
- *to rtinchidan*, bojxona organlari ishining qaroriga ko‘ra, o‘z vaqtida to‘lanmagan bojxona to‘lovlarni undirish uchun.

Bulardan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan taqdim hujjatlari, shuningdek, xo‘jalil< sudining ijro vara- qalari va unga tenglashtirilgan hujjatlari uchun inkasso topshiriq- larini rasmiylashtirib, bankka topshirish uchun asos bo‘la oladi. Ijro hujjatlarga xo‘jalik sudining buyruqlari, sudlar tomonidan berilgan ijro varaqlari hamda notariuslar tomonidan buzilgan ustxatlarni kiritish mumkin.

Budget bojxona va huquqni muhofaza qilish organlari to‘lovni undiruvchi hisoblanadi. Tolovni undiruvchilar inkasso topshiriqlar ijro hujjatlarini ilova qilayotgan holda to‘lovni undirish uchun bankka taqdim qilishadi. Agar to‘lovni undiruvchi va to‘lovchi tomonlar bir shahar ichidagi bank xizmatidan foydalanishsa, inkasso topshirig‘i to‘lovchining hisobvarag‘i topshiriladigan shaxs bo‘limiga topshiradi. Agar inkasso topshirig‘i boshqa shahar to‘lovchilari nomiga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, bu holda hujjat undirib oluvchiga xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘limiga topshirilishi lozim.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar foydasiga mablag‘larni hisobdan chiqarish bo‘yicha hujjatlar qonunda belgilangan muddatdan o‘tkazib taqdim etilgan bo‘lsa, bank bo‘limlari ushbu hujjatlarni inkasso uchun qabul qilishmaydi. Ijro hujjatlarining bajarilishi muddatlari quyidagicha belgilangan:

- sudlar tomonidan berilgan ijro varaqlari bo‘yicha — 3 yil;
- ijro ustxatlari bo‘yicha, agar qonunchilik tomonidan boshqa muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa — 3 yil;

- xo‘jalik sudlarining ijro varaqlari bo‘yicha — 3 yil;
- xo‘jalik sudi tomonidan berilgan sud buyrug‘i bo‘yicha un- dirib olib, buyruq berilgan kundan boshlab 10 kun muddat davomida amalgalashiriladi.

Davlat sug‘urtasi, ijtimoiy sug‘urta idoralari, davlat budgeti foydasiga mablag'larni o‘tkazib berish uchun hujjatlar bank tomonidan cheklanmagan holda qabul qilinadi. Inkasso topshiriqnomasi bank bo‘limiga undirib oluvchi tomondan uch nusxada top-shiriladi. Undirib oluvchi va to‘lovchi tomonlarga bitta bank bo‘limida xizmat ko‘rsatilsa, inkasso topshiriqnomalarining alohida nus-Xalari quyidagicha ishlataladi:

- *birinchi nusxasi* toiovlar amalgalashirilgandan keyin bank mas’ul ijrochisi tomonidan imzo, to‘rtburchak muhr, to‘lov amalga oshirilgan va qabul qilingan sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi;
- *ikkinchi nusxasi* ijro hujjatlari bilan birga to‘lovchining hisobvarag‘iga va sifatida mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning muhr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovchiga beriladi;
- *uchinchi nusxasi* bank bo‘limining to‘rtburchak muhri tushirilgan mas’ul bajaruvchi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan sana va qabul qilingan sanasi ko‘rsatilgan holda to‘lovni oluv-chiga beriladi.

Undirib oluvchi va to‘lovchiga bir shahar ichidagi turli bank dan xizmat ko‘rsatganda ham inkasso topshiriqnomasi 3 nusxada rasmiylashtirilib, undirib oluvchi tomonidan bevosita beruvchi korxona bankiga topshiriladi. Inkasso topshiriqnomasining alohida nusxalari quyidagicha ishlataladi:

- *birinchi nusxasi* to‘lovli amalga oshirilgandan keyin, bank mas’ul ijrochisining imzosi, bankning muhri tushirilgan holda to‘lov amalga oshirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilib, bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi;
- *ikkinchi nusxasi* ijro hujjatlari bilan birgalikda to‘lovchining hisobvarag‘iga ilova sifatida mas’ul ijrochi tomonidan imzo, to‘lov amalga oshirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan hamda bankning muhri tushirilgan holda to‘lovchiga beriladi;
- *uchinchi nusxasi* bosh bo‘limining mas’ul ijrochi imzosi, to‘rtburchak muhri tushirilgan, to‘lov amalga oshirilgan va qabul

qilish sanasi ko'rsatilgan holda to'lov oluvchining o'ziga inkasso topshiriqnomasi uchun bank tomonidan qabul qilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida qaytariladi.

Amaliyotda shunday hollar ham bo'ladi, bunda to'lovni undiruvchi va to'lov to'lovchi turli shaharlarda joylashgan bo'lib, ularga turli banklar xizmat ko'rsatadi. Bunda shaharlararo yoxud hududlararo operatsiyalar banklararo hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Shaharlararo hisob-kitoblarda inkasso topshiriqlari un- diruvchilardan xizmat ko'rsatuvchi bank bo'limlariga undiruvchi tomonidan topshiriladi. Bu holda inkasso topshirig'i ikki nusxada rasmiylashtirilib bankka topshiriladi. Uning birinchi va ikkinchi nusxalari ijro hujjatlari bilan birga pochta orqali to'lovchining bankiga jo'nataladi. Topshiriqnomanijo'natishdan awalunga mas'ul ijrochi tomonidan imzo, hujjatning qabul qilinish sanasi qo'yiladi hamda bankning to'rburchak muhr izi tushiriladi. Inkasso topshiriqnomasining uchinchi nusxasi bank to'rburchak muhri tushirilib, mas'ul ijrochining imzosi, qabul qilish sanasi qo'yilgan holda un- diruvchiga qaytariladi.

Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblarda bajariladi. Bunda buxgalteriya yozuvlari undiruvchi va to'lov to'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi banklarning joylashuviga bog'liq.

To'lov to'lovchi va undiruvchi tomonlar bir shahar ichidagi turli banklar xizmatidan foydalanishsa, undiruvchi tomon inkasso topshirig'ini to'lovchi banklar uch nusxada topshiradi. Top-shiriqnomaning to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilganligi, uning barcha rekvizitlarining mavjudligi, shu bilan birga, to'lovchining hisob- varag'ida ushbu topshiriqnomani to'lash uchun pul mablag'larining yetarliliqi bank mas'ul ijrochisi tomonidan nazorat qilinadi. Shundan so'ng birinchi nusxa asosida buxgalteriya yozushi amalga oshiriladi. To'lov elektron f'olov tizimi orqali h'sob markaziga o'tk?ziladi. Inkasso topshiriqnomalarining boshqa nusxalari yuqorida ko'rsatib o'tilganga muvofiq ishlataladi.

To'lov to'lovchi va undiruvchi tomonlarga turli shahardagi turli banklar xizmat ko'rsatsa, undiruvchiga xizmat ko'rsatuvchi bank inkasso topshirig'ini ijro hujjatlari bilan birgalikda pochta orqali to'lovchiga xizmat ko'rsatib turli bankka jo'nataladi. To'lovchi- ning bankiga kelib tushgan hujjatlar to'lanishi mumkinligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib, yuqoridagi buxgalteriya yozuvini o'tkazadi, elektron to'lov tizimi orqali hisob markaziga to'lovni jo'natish hisob markazi orqali to'lov undiruvchiga xiz-

mat ko'rsatuvchi bankning korrespondent hisobvarag'iga kelib tushadi. Bir vaqtning o'zida kelib tushgan pul mablag'lari undi- ruvchi tomonning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Undiruvchi bankida elektron to'lov tizimi orqali qabul qilingan elektron inkasso topshiriqnomasi ikki nusxada qog'ozga chiqariladi. Ularning birinchi nusxasi bankning muhri va mas'ul ijro- chining imzosi qo'yilib, kunlik hujjatlar yig'masiga tikiladi. Ikkinci nusxasi esa bank mUhri va mas'ul ijrochining imzosi qo'yilgan holda undiruvchi hisobvarag'iga ilova qilib beriladi.

Hisoblanayotgan mablag'lar hisobiga yoki topshirilgan naqd pul summasiga beriladi, hisob-kitob cheki ikki qismidan iborat:

- birinchi qismi hisob-kitob cheki;
- ikkinchi qismi chek koreshogi.

Chekning koreshok qismi chekning birinchi qismida ko'rsatilgan summalarini tasdiqlash uchun belgilangan nazorat raqamlarini o'z ichiga oladi. Bank xodimi chekni berishda quyidagi rekvizitlarni to'ldirib berishi lozim:

- chek berilgan sana;
- chek bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summani raqamlar va so'z bilan;
- hisob-kitob chekiga nomi yozib berilayotgan shaxsning fa- miliyasi, ismi, otasining ismi;
- uning pasportining seriyasi va raqami;
- chek beruvchining depozit hisobvarag'i raqami;
- chek bergen bank bo'limining nomi va kodi;
- chekning amal qilish muddati.

Ko'rsatib o'tilgan barcha rekvizitlar to'ldiri!gandan so'ng, bankning mas'ul xodimi hisob-kitob cheki va koreshok qismlariga imzo qo'yib, hisob-kitob cheidning hisob-kitob cheki' summasiga mos kelishi uchun hisob-kitob cheki nazorat sonlar hoshiyasi bo'yicha koreshokni ajratadi hamda muhr bilan mustahkamlaydi. Shundan so'ng chek mijozga beriladi. Chek oluvchi mijoz chekni olganligi haqida koreshokka imzo qo'yadi.

Bankning mas'ul xodimi alohida daftarga hisob-kitob cheki- ning seriya raqamini, nomiga chek yozib berilgan shaxsning fa- miliyasi, ismi, otasining ismi va chek summasini yozib qo'yishi lozim. Bunda ushbu chek omonat bo'yicha hisobvaraqanda saqlangan mablag'lар yoki depozit hisobvaraqdan ko'chirilgan yoxud naqd

pullarda qo'yilgan mablag'lar hisobidan berilganligini alohida ko'rsatib o'tishi shart.

Bank chek berganda, jismoniy shaxsning arizasiga ko'ra, chekning summasiga 20206—«Jismoniy shaxslarning talab qilinguncha saqlandigan depozitlari» alohida hisobvarag'in ochadi va to'lovlar mana shu hisobvaraqlardan amalga oshiriladi. Bank xodimi barcha rasmiylashtirish ishlarini bajargandan so'ng chekni koreshogi bilan birgalikda kassirga beradi. Kassir barcha zaruriy hujjatlarni ol-gandan so'ng, awalo, hujjatlarda bajarilgan yozuvlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi va ularni imzolaydi. Agar hisob-kitob cheki naqd pul hisobidan rasmiylashtirilayotgan bo'lsa, chek oluvchidan naqd pul va chek uchun to'lovni qabul qiladi. Pulning to'g'riligiga ishonch hosil qilgach, chek va omonat daftarchasining alohida belgilangan joyiga imzo qo'yib, chekni omonat daftarchasi bilan birgalikda hisob-kitob chekini oluvchiga topshiradi. Chekning koreshok qismi esa operatsion kun oxiriga qadar kassirning o'zida qoladi.

Operatsion kun oxirida bank kassiri banderollardagi hisob-ki-tob cheklari koreshoklarida belgilangan rekvizitlar bilan birga, naqd pullarda qabul qilingan va omonatlar bo'yicha hisobvaraqlardan hisobdan chiqarilgan summani ko'rsatadi. Shundan so'ng chek koreshogini mas'ul ijrochiga topshiradi.

Hisob-kitob chekini rasmiylashtirish davrida xatoga yo'l qo'yilishi ehtimoldan xoli emas. Agarda hisob-kitob chekini to'ldirishda xatoga yo'l qo'yilsa, unda ushbu chek varaqasi buzilgan deb hisoblanadi va uning o'rniga hisob-kitob yangi varaqasi to'ldiriladi. Bunday hollarda hisob-kitob cheki quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

- harflar bilan yozilgan «hisob-kitob» so'zidan bir qismi qir-qib olinadi;
- chek varaqasining o'ftasiga «buzilgan» aegan dastxat yoziladi va ushbu yozuv yozilgan sana ko'rsatiladi;
- chek varag'iga kassir va bosh buxgalter imzo qo'yadi.

Tijorat banklarida qabul qilingan cheklarning hisobi qimmatbaho blanklarning harakati hisobini kiritishga doir daftarda olib boriladi va balansdan tashqari ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha 93609—«Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar» hisobvarag'ida hisobga olib boriladi. Ish kuni davomida ishlataligan chek varaqlar chiqim orderi bo'yicha 93609—«Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar» hisobvarag'idan hisobdan chiqariladi.

Chekni olgan jismoniy shaxs sotib olayotgan tovari yoki ko‘r- satilgan xizmat uchun hisob-kitob cheki bilan hisob-kitob qilishi mumkin. Hisob-kitob chekini qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan savdo tashkiloti xodimi mahsulot to‘lovi uchun chekni qabul qi- layotganda chek belgilangan namunadagi blankda rasmiylashtiril- ganligini, nazorat raqamlarning yozilgan summaga muvofiqligini, chek muddati o‘tkazib yuborilmaganini, unda bank bo‘limi muhri- ning aniq izi mavjudligini tekshirib ko‘radi. Shu bilan birga, chek beruvchining pasportini ham olib chekda ko‘rsatilgan pasport seriya- si va raqamlari bilan solishtirib ko‘radi. Chek bo‘yicha tekshiruv- dan so‘ng hisob-kitob chekining orqa tomoniga savdo xodimi savdo tashkilotining belgisini qo‘yadi. Chek mahsulot uchun to‘lov sifatida qabul qilingan hisoblanadi. Hisob-kitob cheki savdo tashkilotlari tomonidan naqd pulga almashtirilmaydigan chekni sotib olinayotgan mahsulot qiymati cheklarda ham ko‘rsatilgan summadan kam bo‘Isa, tashkilot ushbu chek summasining 25 % dan oshmagan miqdordagi qiymatini qaytim sifatida qaytib beradi.

Mahsulot uchun to‘lov sifatida qabul qilingan cheklar savdo tashkilotlari tomonidan ularga xizmat ko‘rsatuvchi bank bo‘limla- riga pul tushumi bilan birga, inkassatorlar orqali topshiriladi, ya’ni inkassatorlar belgilangan vaqtida bankka kelib savdo tashkiloti xodimlari tomonidan tayyorlab qo‘ylgan inkassatorlik xalta yoki sumkalarini olib ketishadi. Ushbu sumkalarga oldingi pul tushumi bilan birga hisob-kitob cheklari joylashtirilgan bo‘ladi. Bank tomonidan qabul qilingan cheklar bo‘yicha toMovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Chek egasi va chek beruvchiga bitta bank bo‘limida xizmat ko‘rsatilganda:

- chek summasi savdo tashkilotining hisobvarag‘i krediii va m-kassatsiya qilingan pul tushumlari va hisobvarag‘i orqali chek beruvchi hisobvarag‘ining debetidan o‘tkaziladi. Chekning asl nusxasi bank mas‘ul ijrochisining imzosi, to‘rburchak muhri tushirilgan va qabul qilingan sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi.

2. Chek egasi va chek beruvchiga turli bank bo‘limlari xizmat ko‘rsatsa:

- chek egasining banki chekda ko‘rsatilgan summani qabul qilingan chekka asosan beruvchining hisobvarag‘iga o‘tkazib beradi. Bir

vaqtning o‘zida tijorat banklarining elektron hisob cheklari elektron to‘lov tizimi orqali chek beruvchining bankiga jo‘natiladi. Chekning asl nusxasi mas‘ul ijrochi tomonidan imzo qo‘yilgan, to‘lov amalga oshirilgan sana, bankning to‘rtburchak muhr izi tushirilgan va qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi.

Chek beruvchi banki elektron to‘lov tizimi orqali elektron hisob-kitob chekining qabul qilib oladigan bankda chek summasi elektron hisob-kitob cheki asosida davriy yo‘l bilan avtomatlash- tirligan tarzda chek beruvchining hisobvarag‘idan hisoblab chiqariladi. Elektron chek bank mas‘ul ijrochisi tomonidan imzo qo‘yilgan, bankning to‘rtburchak muhr izi tushirilgan hamda to‘lov amalga oshirilgan sana ko‘rsatilgan holda bankning kunlik hujjatlar yig‘masiga tikiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

Foydalanimagan hisob-kitob cheki qaytib bankka topshirilishi mumkin. Foydalanimagan hisob-kitob cheklarini bankka taqdim qilinganda, bankning mas‘ul ijrochisi, awalo, chekning haqiqiyligi va hujjatni ko‘rsatuvchi shaxsning pasporti bilan tekshirib ko‘radi.

Bank bosh buxgalterining ruxsati asosida chekda ko‘rsatilgan summa bank buxgalteriyasida chekda ko‘rsatilgan hisobvaraqqqa o‘tkazib beriladi.

3.3. Naqd pul aylanmasi va uning xususiyatlari

Naqd pulli aylanma — naqd pul yordamida amalga oshiriladigan to‘lovlardan yig‘indisi. Bu aylanma pul o‘zining to‘lov va muomala vositasi funksiyalarini bajarishida yuzaga keladi. Naqd pullar muomala vositasi sifatida aholi bilan korxona, tashkilotlar o‘rtasida, aholi bilan aholi o‘rtasidagi tovarlar sotib olishda va sotishda qo‘llaniladi. Pul to‘lov vositasi sifatida ish haqi, nafaqalar, mukofotlar, yakka tartibdagi qurilish uchun beriladigan kreditlar, sug‘urta to‘lovlarni to‘lashda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari naqd pullik aylanmaga:

- kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar;
- maishiy xizmatlar uchun to‘lovlar;
- sug‘urta tashkilotlariga paylarni to‘lash;
- soliqning ba’zi turlarini to‘lash;
- bank kreditini to‘lash;
- matbuot ijtimoiy paylarini to‘lash;
- aksionerlik jamiyatlari bilan a‘zolari o‘rtasidagi to‘lovlar va boshqa to‘lovlardan kiradi.

Ba'zi iqtisodchilar pul aylanmasini naqd pullik va naqd pulsiz aylanmalarga bo'lib o'rganishga zaruratyoyq, deb hisoblashadi. Biz chet el iqtisodchilarining tadqiqotlarini olib qaraydigan bo'lsak, albatta, ularda yuqoridagidek pul aylanmasini ikkiga bo'lib o'rganishmaydi. Buning asosiy sababi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda hisob-kitoblar, asosan, naqd pulsiz olib boriladi. Hisob-kitoblarni bu turlarda olib borish qulay va sharoitga mos keladi. Lekin, hali rivojlangan iqtisodga ega bo'lmasdan turib, xorijiy davlatlarning hozirgi hisob-kitoblarining mavqeyi bilan o'z hisob- kitob tizimimizni tenglashtira olmaymiz. Bundan tashqari, bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish, milliy pul birligini barqaror- lashtirish, muomaladagi pul massasini va pul emissiyasini kamaytirish masalalari dolzarb bo'lib turgan bir sharoitda biz pul aylanmasini naqd pullik va naqd pulsiz aylanmalarga bo'lib o'rganishimiz, ularning tarkibini takomillashtirishimiz, samarali yo'llarni qo'liab jamiyatimizda to'laqonli pul aylanmasini yara- tishimiz va uni jamiyat rivojlanishi uchun xizmat qildirishimiz zarur. Shundagina rivojlangan malakatlarga o'xshab, pul aylanmasini tarkibiy qismalarga bo'lmasdan tahlil qilishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, pul aylanmasining ikki qismi bir-biri bilan uzviy bog'liq, chunki pul naqd pul aylanmasidan naqd pulsiz aylanmaga o'tadi va aksincha, aylanib doimiy harakatda bo'lib, umumiy pul aylanmasini yuzaga keltiradi.

Korxona, tashkilotlarning bankdagi hisobraqamidagi pul mablag'lari quyidagi yo'llar bilan naqd pulga aylanadi:

- ishchi, xizmatchilarga ish haqi berish;
- ko'rsatilgan xizmatlar, mehnat uchun to'lovlar;
- nafaqalar to'lash;
- har xil mukofotlar;
- aholidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tovarlar 30tib olishda;
- davlat zayomlari va lotereya biletlari bo'yicha to'lovlar;
- aholi banklardan jamg'armalarini olganda;
- aholiga sug'urta to'Movlarini to'laganda va h.k.

Naqd pullar cheklangan miqdorda muomalaga chiqariladi. Naqd pullarning muomalaga chiqarilishi ustidan bank nazorat olib boradi.

- Naqd pullar quyidagi yo'llar bilan naqd pulsiz aylanmaga tushadi:
- uy-joy va kommunal xizmatlar uchun to'laganda;
 - aloqa tashkilotlariga tolaganda;

- har xil soliqlar va paylar to‘laganda;
- davlat zayomlari va lotereya biletlari sotib olingandagi tu- shumlar orqali;
- yakka tartibdagi qurilish uchun olingen kreditlarni to‘la- ganda;
- har xil bojlar va jarimalarni to‘laganda;
- bolalar bog‘chalari va bog‘cha muassasalari uchun to‘laganda;
- dam olish uylari va boshqa sog‘lomlashtirish muassasalarining yo‘llanmalari uchun to‘laganda va boshqa hollarda.

Pulning naqd pulsiz aylanmaga o‘tganidan naqd pullik aylanmaga ko‘proq o‘tishi pul muomalasi uchun xatarliroq hisoblanadi. Shuning uchun ham pulning naqd pullik aylanmaga o‘tish jarayoni davlatning Markaziy banki tomonidan nazorat qilib bori- lishi kerak.

Pul aylanmasi bo‘limlari o‘rtasida yuzaga keladigan nomuta- nosiblik iqtisodiy choralar ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan yo‘qotilishi kerak. Buning uchun muomalaga xalq ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va muassasalar sonini va xizmat turlarini yaxshilash naqd pullarning naqd pulsiz aylanmaga o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Bu, o‘z navbatida, bu mablag‘lar hisobidan ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga imkon beradi.

Ba’zi adabiyotlarda naqd pul aylanmasi va pul muomalasi tushunchalari bir xil mohiyatga ega kabi xato fikrlarni ham uchra- tish mumkin. Pul muomalasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bir pul belgisi bir necha marta to‘lovlarini amalga oshirishda ishlatilishi mumkin. Muomalada bo‘lgan naqd pul massasi ma’lum bir davr (oy, chorak, yil)da o‘zgarmas bo‘lib turgan holda naqd pul aylanmasi pul birligining aylanish tezligiga qarab, muomaladagi naqd pul miqdoridan bir necha marta ko‘p bo‘lishi mumkin va aksincha.

O‘zbekistonda muomalaga pul Markaziy bank tomonidan chiqariladi. Aholi tomonidan ish haqi va boshqa to‘lovlar shaklida olingen pullarning bir qismi dehqon bozorlardidan tovarlar sotib olishga sarflanadi. Aholi bu pullarga savdo tashkilotlardan tovarlar sotib oladi. Savdoga tushgan pullar savdo tushumi sifatida banklarga topshiriladi. Ko‘rinib turibdiki, bankdan chiqqan pullar bir necha to‘lovlariga ishlatiladi, naqd pul aylanmasining hajmi to‘lovlarini amalga oshirish uchun muomalaga chiqarilgan pullar miqdoridan

bir necha marta ko‘pdir. Naqd pul aylanmasi naqd pullar bilan amalgam shiriladigan to‘lovlarig‘indisi bo‘lib, u sonlarda ifodalanadi. ^{/i⁵}ul muomalasi — muomaladagi pul massasini, bank tomonidan muomalaga chiqarilgan pullarning bankka qaytib kelishi tezligini

Qiymat qonuni va uning muomala doirasida yuzaga chiqish shakli — pul muomalasi qonuni tovar-pul munosabati mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy formatsiyalarga xosdir. Qiymat shakllari va pul muomalasi taraqqiyot yo‘lini tahlil qilayotib, K. Marks pul muomalasining qonunini ochdi. Bu qonunga asosan, muomala vositasi funksiyasini amalgma oshirish uchun kerak bo‘lgan pul miqdori aniqlanadi.

Metall pul muomalasida muomaladagi pul miqdori stixiyali tarzda, pullarning xazina funksiyasi yordamida tartibga solib turilgan: agar pulga ehtiyoj kamaysa, ortiqcha pullar (oltin tanga) muoma- ladan xazinaga oqib o‘tishi kuzatilgan va aksincha. Shunday qilib, muomaladagi pul miqdori kerakli darajada ushlab turilgan. Keyinchalik muomalaga banknotalar chiqarilishi va ularning metallar (oltin yoki kumush)ga erkin almashinishi ham muomalada pulning ortiqcha miqdori boiishini inkor etadi. Agar muomalada oltunga almashinmaydigan banknotalar yoki qog‘oz pullar (xazina biletlari) amal qilsa, u holda naqd pul muomalasi pul muomalasi qonuniga asosan amalgma oshadi.

Qog‘oz pullar miqdori muomala uchun kerak bo‘lgan oltin pullarning nazariy miqdoriga teng bo‘lganda pul muomalasida hech qanday salbiy jarayonlar yuz bermaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan talab pulning barqarorligini ta‘minlaydi, shuningdek, pul muomalasi mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy formats iyalard a o‘z kuchiga ega. , Pul muomalasi aonuni muomaladagi tovarlar massasi, ularning narx darajasi va pul aylanishi tezligi orasidagi iqtisodiy aloqadorlikni aks ettiradi. Bu qonunga asosan, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini quyidagicha ifodalash mumkin:

Realizatsiya qilinadigan tovarlar narxi summasi	Kreditga sotilgan — tovarlar narxi summasi	Majburiyatlar bo‘yicha + toMovlar summasi	Bir-birini qoplaydigan — toMovlar summasi
--	---	--	--

Pulning muomala va to‘lov vositasi sifatida o‘rtacha aylanish tezligi

Shunday qilib, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdoriga ishlab chiqarish rivoji va shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan turli xil omillar ta’sir ko‘rsatadi. «Muomala uchun zarur boigan pul miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi *asosiy omil*, bu — tovarlar va xizmatlar bahosi. Pul miqdori tovarlar va xizmatlar bahosiga to‘g‘ri proporsional, ya’ni tovarlar va xizmatlar bahosining oshishi muomalaga ko‘p pul chiqarishni talab qiladi. Pul miqdoriga ta’sir qiluvchi *ikkinchi omil*, bu — pulning aylanish tezligi. Bu omil pul miqdoriga teskari ta’sir ko‘rsatadi. Odatda, pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zaair bo‘lgan pul miqdori shuncha kam talab qilinadi va aksincha.

Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini boshqarishda shu muhim omillarga alohida e’tibor berilishi zarur.

Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini kamaytirish uchun quyidagi choralarни amalga oshirish muhimdir. Bular:

- iste’mol kreditini rivojlantirish;
- kreditga qanchalik ko‘p tovar sotilsa, shuncha kam miqdorda pul muomalada kerak bo‘ladi;
- naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi;
- pullarning muomala tezligini oshirishga erishish va boshq.

Har bir jamiyat pul muomalasi qonuni talablarini hisobga olgan holda ish yuritishi zarur. Chunki pul muomalasi qonunining buzi- lishi pul barqarorligiga putur yetkazadi. Bu holda muomalaga chiqarilgan pul miqdori muomaladagi tovarlar bahosidan oshib ketishi, ya’ni inflatsiya bo‘lishiga yoki pul tanqisligi (yetish- movchiligi)ga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pul muomalasini ushlab turish shart-sharoitlari va qonuniyatları ikki omilning o‘zaro ta’siri bilan, ya’ni *xojalikning pulga boigan ehtiyoji va amalda pullarning muomalaga borib tushishi* bilan belgilanadi. Amaliyotda ko‘proq uchraydigan hoi bu aylanmada xo‘jalikka kerak bo‘lganidan ko‘proq pulning bo‘lishidir. Bu, albatta, *pulning qadrsizlanishiga* — pul xarid qobi- liyatining tushishiga olib keladi.



Pul agregatlari va pulni tartibga solishning amaliyotda qo‘Mlanilishi

Pul muomalasining muhim ko‘rsatkichi pul massasi hisoblanadi. Pul massasi xo‘jalik aylanmasidagi naqd pullik hisob-kitoblarni aholi, korxonalar, davlat tashkilot va muassasalariga tegishli xarid hamda to‘lov vositalarining yalpi hajmini o‘zida ifodalaydi.

Pul muomalasining belgilangan muddat va belgilangan davr uchun miqdoriy o‘zgarishlarini bilish uchun, shuningdek, pul massasi hajmi va o‘sish sur’atlarini tartibga solish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqarish uchun turli xil ko‘rsatkichlar (pul agregatlari)dan foydalaniadi.

Rivojlangan mamlakatlarning moliya statistikasida pul massasini aniqlashda quyidagi asosiy pul agregatlari to‘plami (guruhi)dan foydalaniadi:

fM_1 agregati — muomaladagi naqd pullar (banknotalar, tangalar) va joriy bank schotlaridagi mablag‘larni o‘z ichiga oladi;

M_2 agregati — M_1 agregati va tijorat banklaridagi muddatli va jamg‘arma qo‘yilmalaridan (to‘rt yilgacha) tarkib topgan;

M_3 agregati — o‘z ichiga M_2 agregati va ixtisoslashgan kredit muassasalaridagi jamg‘arma qo‘yilmalarini kiritgan;

M_4 agregati — M_3 agregati hamda yillik tijoriy banklarining depozitli sertifikatlaridan iborat./

AQSHda pul massasini aniqlash uchun 4 ta pul agregati, Yaponiya va Germaniyada — uchta, Angliya va Fransiyada ikkita pul agregatidan foydalaniadi. Pul massasi tarkibi va dinamikasini tahlil qilish Markaziy bankjomonidan to‘g‘ri pul-kredit siyosati olib borishdctnruhim ahamiyat kasb etadi.y

Rossiya Federatsiyasida muomaladagi jami pul massasi hisob- kitobi uchun quyidagi pul agregatlari qo‘llaniladi:

M_0 agregati — naqd pullar;

M_j agregati — M_0 agregati va hisob-kitob, joriy va boshqa schotlar (maxsus schotlar, kapital qo‘yilmalar schotlari, akkreditiv va chek schotlari, mahalliy budjet schotlari, kasaba uyushmalari, jamoat va boshqa tashkilotlarning schotlari, davlat sug‘urta mab- lag‘lari, uzoq muddatga kreditlash fondi)dagi mablag‘lar tijorai; banklariga qo‘yilmalar va jamg‘arma banklaridagi talab qilib olinadigan depozitlarning yig‘indisiga teng;

M_2 agregati — M_1 agregati va tijorat banklaridagi muddatli qo‘yilmalardan iborat;

M_3 agregati — M_2 agregati hamda depozit sertifikatlar va davlat zayom obligatsiyalari yig‘indisidan iborat.

Pul massasi tarkibini uning harakatiga qarab ikkiga bo‘lish mumkin, ya’ni pul massasining aktiv qismi, bu — pul mablag‘- larining xo‘jalik faoliyatidagi turli xil shakldagi hisob-kitoblarni

olib borish bilan bog'liq qismi va(ikkinchisi passiv qism — jamg‘armadagi pullar va hisobraqamlardagi qoldiqlar hisoblanadi.

Pul massasi naqd pullardan tashqari muddatli schotdagi mablag⁴ va jamg‘armalarni, depozit sertifikatlari, investitsion fondlar- ning aksiyalarini o‘z ichiga oladi. Pul massasining yuqoridagi elementlari «kvazi» — *qariyb pullar*, deb ham yuritiladi. Kvazi pullar likvid aktivlar bo‘lib, ular tez orada pulga aylanishi mumkin.

O‘zbekistonda pul massasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

M_0 — naqd pullar;

$M_1 - M_0$ va schotlardagi pul qoldig‘i, budjet mablag‘lari, ja- moa va boshqa tashkilot mablag‘lari;

$M_2 - M_j$ va tijorat banklaridagi muddatli depozitlar;

$M_3 = M_2 +$ sertifikatlar + maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlar.

Pul agregatları M_j va M_2 ning bir-biridan farqi M_2 ning o‘z tarkibiga yaqin orada pulga aylanishi mumkin bo‘lgan «kvazi» — qariyb pullarni olishidadir.

Pul massasining turli ko‘rsatkichlarini ishlatish pul muomalasi holatini tahlil qilishga har xil tomonlardan yondashishga imkon beradi. Mamlakat miqyosida pul massasi hajmining o‘zgarishi muomaladagi pul massasining o‘zgarishi natijasi va pulning aylanishi tezlashganligining natijasi bo‘lishi mumkin.

Pulning aylanish tezligi — pul muomala vositasi va to‘lov vositasi sifatida amal qilgandagi uning harakat ko‘rsatkichi. Uning miqdorini hisoblash qiyin, shuning uchun uni hisob-kitob qilishda bilvosita ma’lumotlardan foydalilanildi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda, asosan, pul aylanish tezligi o‘sishining ikki ko‘rsatkichi hisoblanadi:

- daromadlar aylanmasi pulning muomalada bo‘lish tezligi ko‘rsatkichi. Bu ko‘rsatkich yalpi milliy mahsulot (YMM) yoki milliy daromadning pul massasiga, aniqrog‘i M_1 yoki M_2 pul agregatiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich pul muomalasi va iqtisodiy rivojlanish jarayoni orasidagi o‘zaro aloqadorlikni ko‘rsatadi;

- to‘lov aylanmasida pulning aylanuvchanlik ko‘rsatkichi. Bu ko‘rsatkich joriy bank schotlari bo‘yicha o‘tkazilgan mablag‘-lar yig‘indisining pul massasi o‘rtacha qiymatiga nisbatida aniqlanadi.

Pul aylanish tezligining o‘zgarishi umumiqtisodiy (iqtiso- diyotning davriy rivojlanishi, iqtisodiy o’sish, narxlar sur’atlari) ham to‘la monetar (to‘lov aylanmasi tarkibi, kredit operatsiyalari va o‘zaro hisob-kitoblarning rivojlanishi, pul bozorida foiz stavkalaming darajasi va h.k.lar) omillarga bog’liq. Pul aylanishining tezlashuviga metall pullarning kredit pullar bilan almashtirilishi, o‘zaro hisob-kitoblar tizimining rivojlanishi, banklar ishiga EHMning kiritilishi, pulli hisob-kitoblarda elektron vositalaming ishlatalishi yordam beradi.

Pul qadrsizlangan hollarda iste’molchilar pullarining to‘lov qobiliyatini saqlab qolish uchun ko’proq tovarlar xarid qilishadi. Bu esa pul aylanishini tezlashtiradi. Boshqa ko‘rsatkichlar o‘zgarmas bo‘lganida, pul aylanishining tezlashishi pul massasi oshishini bildiradi.

NAZORAT SAYOLLARI

1. Pul aylanmasi deganda nimani tushunasiz?
2. Naqd pul aylanmasi nima va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Naqd pulsiz pul aylanmasi va uni ishlatalish ko‘lami.
4. Elektron pul tizimining mazmuni va uning ahamiyati.
5. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning alohida shakllariga tavsif bering.
6. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillarini sanab o’ting.
7. Pul muomalasi qonuni nima?

IV bob. PUL NAZARIYASI

4.1. Pul nazariyasi to‘g‘risida umumiy tushuncha

I Pul nazariyalari — pul tabiatи va pulning ishlab chiqarishni shakllantirishga ta’siri haqidagi nazariyalar/ Bu nazariyalar kapi- talistik ishlab chiqarish usuligacha bo‘lgan davrda vujudga keldi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli davrida, pul-tovar munosabatlari xo‘jalik sohasining hamma tarmoqlarini qamrab olgan davrda- gina pul nazariyasi keng tarqaldi.

Pul va uning sotib olish quwati orasidagi munosabat pul nazariyalarining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Xul- las, fiftisodchilarning pul mohiyati, uning funksiyalari va pul muo- malasiga bo‘lgan qarashlari pul nazariyalarini keltirib chiqardi.¹

IIIk tarixiy pul nazariyaları sıfatida nominallik va metallik naza- riyalarni keltirish mumkin J Kapitalizm taraqqiyoti bilan birga bu nazariyalar ham o‘zgarib yangi, miqdoriy nazariyaning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi.

‘Hozirgi kunda monetarizm va iqtisodiyotni pul-kredit munosabatlari orqali tartiblashtirish nazariyaları ham mavjud,} Ammo eng asosiy pul nazariyaları sıfatida metall, nominal va miqdoriy pul nazariyaları tadqiqot qilib kelinmoqda. Pul nazariyalarining kelib chiqishiga asosiy sabab, ishlab chiqarish taraqqiy etishi va pul muomalasining taraqqiyotdan ma’lum darajada oqsashining oldini olish va uni rivojlantirish masalasi hisoblanadi.

Qo‘l mehnatidan manufakturaga, manufakturadan sanoat ishlab chiqarishiga o‘tilishi bilan xalq xo‘jaligida mehnatning integratsiyalashuvi ham kuchaydi. Buning natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar orasidagi pulli munosabatlari ham murakkablasha bosh- ladi. ‘Feodalizmgacha bo‘lgan naqd pullik munosabatlari bu davr talablariga javob bera olmay qoldi. Buni biz Yevropadagi XV asr- dagi «pul tanqisligi»dan ko‘rishimiz mumkin./Xuddi shu davrdan boshlab, pul nazariyaları to‘g‘risidagi ilk fikrlar yuzaga keldi. Bu nazariyalarining o‘sha davrdagi muammolarni yechishda o‘rnı be- qiyos boldi. IIIk bor vujudga kelgan pul nazariyaları bu — metallik va nominallik pul nazariyaları hisoblanadi.j

4.2. Pulning metallik nazariyasi

Pulning metallik nazariyasi kapital harakatining dastlabki davrida taraqqiy etdi va moneta tarkibini buzish (monetaning og'irlik miqdorini kamaytirish)ga qarshi kurashda muhim rol o'ynadi. Bu nazariyalar o'sha davr ruhi va tuzilayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks ettirib, merkantilistlar baquwat metall pullar tarafdori bo'lib chiqishdi. Bu nazariya o'sha davr kapitalizmining eng rivojlangan Angliyada maydonga keldi. Metallik nazariyaning asoschilaridan biri U. Stefford (1554—1612) edi. U o'z qarashlarini Londonda 1581-yili chop etilgan «Vatandoshlarimizning ba'zi odatiy arizalarining qisqartmasi» asarida bayon etdi. Bu oqim tarafdorlari Angliyada T. Men (1571 — 1641), D. Nors (1641—1691), Fransiyada bu ta'lilotni A. Monkreten (1575—1621), Italiyada F. Tamani (1728—1787) va boshqalar rivojlantirdi. Ularning fikricha, barqaror metall valuta jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biri — dir. Jamiyat a'zolarining jamg'arishga bo'lgan intilishi iqtisodchi-larning boylik manbayini o'rganishlariga sabab bo'ladi. Bu manba-ni ular savdodan izlashdi. Olimlarning e'tirof etishicha, aktiv savdo balansi mamlakatga oltin va kumushning kelishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ilk metallik nazariya tarafdorlari jamiyat boyligini qimmatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funksiyalarini bajaradi, deb hisoblashgan. Ilk metallik nazariya taraf-dorlarining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat edi:

- ilk metallchilar haqiqiy puliami qiymat belgilari bilan almash-tirish zarurligi maqsadga muvofiq kelishini tushunib yetishmadi;
- ilk metallchilar pulning jamiyat taraqqiyotida tovar muomalasi asosida yuzaga kelgan tarixiy kategoriya ekanligini tushu-nishmadi;
- ular jamiya,: boyligi deb qimmatbaho metallarni jamg'arishni tushundilar va «bunday boylik manbayi savdodir» degan noo'rin fikrga kelishdi.

Ular jamiyat boyligi mehnat natijasida vujudga keladigan moddiy va ruhiy qadriyatlar yig'indisi ekanligini tushuna olishmadi. Ilk metallik nazariya targ'ibotchilarini savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib chiqqan edi.

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmiga kelib, sanoat burjuaziyasi manfaatlarini qondira olmagan metallik nazariya o'z mavqeyini yo'qtdi. Ammo XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib,

nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab vakili K. Knis (1821—1898) bu nazariyani himoya qilib chiqdi. Bu g‘oyaning qayta tiklanishiga 1871—1873-yillarda Germaniyaga kiritilgan oltin tanga standard sabab bo‘ldi. K. Knis targ‘iboti metallchilar nazariyalarini yangi sharoitga moslashtirdi. K. Knis pul sifatida faqatgina metallni emas, balki Markaziy bank banknotalarini ham e’tirof etdi. Bu paytga kelib, xo‘jalikda kredit asosiy mavqega ega bo‘la boshladi va u oltin monetalar bilan birga muomalada bo‘lib, ularga almashtiriladigan banknota emissiyasining asosini tashkil etdi. K. Knis banknota-larni tan olgan holda hech nima bilan ta’milanmagan qog‘oz pullarga qarshi chiqdi. Uning fikricha, pul muomalasi metall bilan ta’milangan banknotalar va metall monetalarga asoslanishi shart. Qog‘oz pullar xuddi «qog‘oz bulka» kabi ma’nosiz narsa. K. Knis ta’kidlashicha, oltin o‘z tabiatiga ko‘ra puldir.

I jahon urushidan so‘ng metallizm tarafdoqlari oltin moneta standartini qayta tiklash mumkin emasligini tan olib, o‘z nazariyalarini himoya qilish maqsadida oltin quyma standart va oltin deviz standartga asoslangan banknota ishlab chiqarishni yoqlab chiqishdi.

1. *Oltin tanga standarti*. Oltin standard birinchi marta XVIII asrda Angliyada va XIX asrning oxirlarida boshqa mamlakatlarda joriy etildi. Bu standart oltin monometalizmi, deb ham ataldi. Oltin tanga standarti oltin standartining ilk ko‘rinishidir. Bu standart I jahon urushi boshlanishiga qadar hukm surdi.

Oltin tanga standartiga xos bo‘lgan belgilari quyidagilardan iborat bo‘lgan: tovarlarning baholari faqatgina oltinda o‘lchanishi; oltin tanganing muomalada bo‘lishi; davlat xazinasi tomonidan cheklanmagan miqdorda moneta zarb qilinishi; kredit pullarni ularning nominali bo‘yicha oltinga erkin almashtirilishi; oltinni olib kirish yoki olib chiqishning taqiqilanmaganligi; ichki bozorda okin moneta va banknota ar bUan birga haqiqiy qiymatga (ya’n¹ to‘la haqiqiy qiymatga) ega bo‘lmagan chaqalar va ma’lum kursga ega bo‘lgan davlat qog‘oz pullarining muomalada bo‘lishi.

Bu t(zim mustahkam pul tizimi bo‘lib, inflatsiyani inkor etar edi. Muomala uchun zarur bo‘limgan oltin miqdori yana xazina ko‘rinishiga qaytar edi. Ammo kapitalizmning krizisi davrida bu muvozanat izdan chiqdi. I jahon urushi davrida AQSHdan boshqa urushayotgan davlatlar banknotalarni oltunga almashtirishni va oltinni chetga olib chiqishni bekor qilishdi. Oltin muomaladan surib chiqarilib xazinaga aylantirildi. AQSHda esa oltin monetalar 1934-yilga qadar muomalada bo‘ldi.

2. *Oltin quyma standarti.* I jahon urushidan keyin, 20-yillarda ba'zi mamlakatlarda oltin quyma standarti joriy qilindi. Bu standart- ning oltin tanga standartdan asosiy farqi shunda ediki, muomaladagi banknotalar 12—12,5 kg atrofidagi oltin quymalarga almash- tirildi. 12,5 kg.li quymaga banknotani almashtirish uchun Angliyada 1700 ft. St., Fransiyada 215 ming fr. talab qilinar edi. Bu bilan oltin muomaladan xalqaro aylanmaga chiqarildi. Ichki ay- lanmada esa bunday imkoniyatga faqatgina yirik firmalar va puldor- lar ega bo'lib qoldilar, xolos.

3. *Oltin deviz standarti.* Oltin quyma standartga kirmagan mamlakatlarda banknotalarni bevosita oltingga almashtirish tiklanmadni. Bu mamlakatlar o'z kredit pullarini oltin quyma standartga kiruv- chi mamlakatlarning devizlariga (ya'ni valutalariga) almashtirish- ni mo'ljallagan edilar. Bu bir mamlakat valutasining ikkinchi davlat valutasiga bog'liqligini keltirib chiqarar edi. Pul tizimining bu ko'rinishi oltin deviz standarti nomini oldi.

1929—1933-yillardagi inqirozdan keyin barcha mamlakatlarda oltin deviz standartining ba'zi elementlarini oltin dollar standarti o'zida olib qoldi. Bu standartning o'ziga xos xususiyati shunda ediki, *birinchidan*, bu standartdan foydalanish huquqi faqatgina chet el emission banklari uchungina saqlab qolingga edi, *ikkinchidan*, bu standartda faqatgina AQSH dollarigina oltin bilan aloqasini saqlab qolgan edi, xolos. 1971-yil dekabr oyidan boshlab dollarning oltin pariteti bekor qilinishi bilan oltin standartining barcha ko'rinishlari o'z kuchini yo'qotdi.

Oltin standarti barbod bo'lishi va iqtisodiyot davlat ishtirokida boshqarilishiga o'tilishi bilan metall pul nazariyasi boshqa nazariya bilan almashtiriladi. Neometalizmoimining asosiy kamchiligi shundaki, ular iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi bilan oltingga almashtirilmaydigan kredit pullar orasida ichki bog'liqlikni e'tiborga olishmaai.

4.3. Pulning nominallik nazariyasi

Nominalizm quldorlik tizimi davridagi faylasuflar ta'limotida yuzaga kelgan bo'lib, bu ilk nominalizmdir. Birinchi nominalistlar tanga tarkibini buzish (tanganing og'irlik miqdorini kamaytirish)ni ko'r-ko'rona madh etuvchilar bo'lishgan. Yemirilib ketgan tan- galarni teng qiymatli tangalar bilan muomalada bir xilda yurgan- ligiga asoslanib, ular pulning metall miqdori emas, balki nomi- nali muhimdir, deb da'vo qilib chiqishdi.

Nominalizm XVII—XVIII asrlarda pul muomalasi to‘la qim- matga ega bo‘lмаган tangalar bilan to‘lgan davrda shakllandı. Xud- di shu to‘la qimmatga ega bo‘lмаган tangalar (qog’oz pullar emas) ilk nominalizm asosida yotar edi. Xuddi metallizm nazariyasi sin- gari ilk burjua nominalizm vakillari ham Angliyadan chiqdi. Bular yepiskop, faylasuf idealist J. Berkli (1683—1753) va iqtisodchi J. Styuart (1712—1780) lardir.

Nominalistlar quyidagicha xulosaga keldilar: pulni davlat bunyodga keltiradi, pulning qiymati uning ko‘rsatilgan nominali bilan aniqlanadi. Yangi paydo bo‘lgan bu nazariya *nominalizm* deb atala boshlandi. Nominaiizmning asosiy xatosi shundaki, bu nazariya bo‘yicha pulning qiymati davlat tomonidan aniqlanar edi. J. Berkli pul aslini olganda marka, uning qanday materialdan yasalganligi gining va nimani aks ettirishining qanaqa ahamiyati bor, degan g‘oyani oldinga surdi. U mehnat qiymat nazariyasini va pulning tovarlik tabiatini rad etdi. Pulning umumiy qiymat ekvivalenti sifatida obyektiv ravishda paydo bo‘lish mohiyatini tushunmay, nominalistlar uning qiymati davlatning subyektiv xohishi va iro- dasiga bog‘liqligini ilgari surishdi.

Nominalistlar pulning qiymat o‘lchovini va baholar masshtabini aralashtirib yuborishdi. J. Styuart pulni teng bo‘lgan bo‘laklardan iborat masshtab sifatida aniqladi. Shu bilan birga, agar buning asosida masofa mavjud bo‘lsa, geografik masshtabni tushunish va ishlatish mumkin. Agar u qandaydir og‘irlilikka ega bo‘lsa, mahsulot og‘irligini o‘lchash mumkin. Shu kabi pul ham qiymat o‘lchovi funksiyasini bajarishi uchun tovar bilan qandaydir jinsdoshlikka ega bo‘lishi kerakligini qayd qilib o‘tdi.

Nominaiizmning keyingi rivojlanishi (asosan, Germaniyada) XIX asr oxiri va XX asr boshiga to‘g‘ri keladi. Bu davr nominal- listlarining asosiy namoyandalaridan biri G. Knap (1842—1926) edi. G. Knap o‘zining «Davlat pul nazariyasi» (1905) asarida aytishicha, pulning davlat tomonidan belgilanadigan sotib olish qobiliyati mavjud. Shu sababli ham, pul davlat tomonidan yaratiladi. Bu nazariyani esa davlat *pul nazariyasi* deb ataydi.

G. Knap va uning izdoshlari oldingi nominalistlardan farqli o‘laroq, o‘z nazariyalarini to‘la qimmatga ega bo‘lмаган tangalarga emas, balki qog’oz pullarga asoslagan edi. G. Knap pul massasini tahlil qilishda davlat xazina biletlari va almashinadigan tangalarni-

gina e'tiborga oldi. Kredit pullari (veksel, chek, banknota)ni alohida tushuncha deb qarab, ularni o'z tadqiqotlari doirasidan chiqarib tashlaydi. Bu ularning katta xatosi edi. Nominalistlarning asosiy kamchiligi shundaki, ular pulning mohiyatini uning huquqiy asosidan izladilar.

4.4. Pulning miqdoriy nazariyasi

Miqdoriy nazariya XVI—XVIII asrlarda merkantilistlarning konsepsiyasiga javoban paydo bo‘ldi. Bu nazariyaning asoschisi fransuz iqtisodchisi J. Boden (1530—1596) edi. U birinchi bo‘lib, Yevropada o‘sha davrda yuz bergen «baholar revolutsiyasi»ni ochib berishga harakat qildi. Baholarning sakrashiga sabab, Yevropaga Amerika qit’asidan oqib kelgan qimmatbaho metallar bo‘lganligini tushuntirdi. XVI—XVIII asrlarda Yevropada oltin miqdori 1500-yilda bo‘lgan oltin miqdoridan 16 marta ko‘payib ketgan edi. J. Boden baholarning o‘zgarishi muomaladagi pul miqdori bilan aniqlanadi deb tushuntirdi. Shu sababli ham, bu nazariya miqdoriy nazariya degan nom oldi. Ammo ilk miqdoriy nazariya tarafdlari pul miq-dorining bahoga bo‘ladigan ta’sirini qanday yoMlar bilan ya qavsi hollarda bo‘lishini aniq ochib bera olmadilar.

XVII asrga kelib, bu nazariyani inglizlar D. Yum (1711 — 1726) va J. Mill (1773—1836) hamda fransuz Shari Monaskyo (1689—1755) rivojlantirishdi. Ingliz iqtisodchisi, faylasuf, ruh-shunos va tarixchi D. Yum o‘zining subyektiv idealistik qarash-lari bilan qiymat substansiysi tushunchasini rad etdi. Amerika- dan qimmatbaho metallarning oqib kelishi va baholarning oshishi orasidagi to‘g‘ri proporsional bogianishni ko‘rsatmoqchi bo‘lib, «pul qiymatini uning miqdori belgilaydi» fikrini ilgari surdi. D. Yumning fikricha, tovarlarning bahosi va pulning qiymati muomalada bo‘lgan tovar va pul hajmi bilan aniqlanadi. Muomaladagi pulning ko‘payishi dastlab bir tovar bahosining oshishiga, so‘ngra ikkinchi tovarning va oxir-oqibatda barcha tovarlar bahosining muomaladagi pul miqdoriga proporsional ravishda oshishiga olib keladi. Mana shu pulning miqdoriy nazariyadagi pul massasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi:

Pul massasining _ Baholar darajasining
o'sish sur'atlari o'sish sur'atlari

Demak, tovarlar bahosi hamisha pul miqdoriga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. Haqiqatda esa, yangi oltin va kumush konlari- ning ochilishi bilan bu metallar kamroq ijtimoiy mehnatni o‘zlarida aks ettira boshladи. Shunday qilib, miqdoriy nazariya vakillarining fikrlari shunda ediki, pulning sotib olish qobiliyati xuddi baho kabi (yangi tovar bahosi kabi) bozorda aniqlanadi; muomalada barcha chiqarilgan pullar bo‘ladi; pulning sotib olish qibiliyati pul miqdoriga teskarı proporsional va baholar o‘zgarishi pul miqdoriga to‘g‘ri proporsional tarzda gavdalanadi.

Miqdoriy nazariya tarafdlari pulning faqat muomala vositasi ekanligini ko‘ra oldi, xolos. Ularning ta’kidlashicha, pul va tovar massalarining to‘qnashishi natijasida baholar belgilanadi hamda pulning qiymati aniqlanadi. K. Marks D. Yumni tanqid qilib: «Uning asosiy xatosi shundaki, u «pul muomalaga kirayot- ganda qiymatga ega emas, tovar esa bahoga ega emas» degan noto‘g‘ri taxminda edi», deb yozgan edi.

Ularning ikkinchi xatosi shunda ediki, hamma pul massasi faqat muomalada bo‘ladi, deb qarashgan. Aslida, qiymat qonuniga muvofiq, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdorini aniqlovchi iqtisodiy qonun mayjud. Muomalada bo‘lgan haqiqiy naqd pulga, har qanday pul miqdori emas, balki shu davr uchun zarur bo‘lgan, to‘lov muddati uzaytirilgan, hisob-kitoblar va pul birik- malarining aylanishida band bo‘lgan pullar kiradi.

Miqdoriy nazariya xazinaning metall pul muomalasida stixiyali regulator ekanligini rad etadi.

4.5. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi

Zamonaviy miqdoriy nazariya qog‘oz pullar muomalasiga asoslanadi. Bu nazariya A. Marshall, amerikalik I. Fisher, shved- lar G. Nassel va B. Xansen, iqtisodchi A. Pigu, monetarist M. Fridman tadqiqotlarida o‘z aksini topdi. Amerikalik iqtisodchi, statistik va matematik I. Fisher (1867—1942) pulning miqdoriy nazariya- siga yangi sifat kiritdi. U pulning mehnat qiymatini rad etdi va pulning «sotib olish quwati»ga asoslandi.

Miqdoriy nazariyani matematik yo‘l bilan isbotlamoqchi bo‘lgan I. Fisher pulning «sotib olish quwatiga» ta’sir etuvchi olti omil- ni ko‘rsatdi:

M — muomaladagi naqd pul massasi;
 V — pulning aylanish tezligi;

R - o‘rta (tortilgan) baho;

Q — tovarlar miqdori;

M'— bank depozitlari yig‘indisi;

V'— depozit-chek muomalasi tezligi.

Tovarlar uchun to‘langan pul yig‘indisi tovarlar yig‘indisining tovarlar bahosiga ko‘paytmasiga teng:

$$MV - RQ.$$

Bu tenglamani I. Fisher «almashinuv tenglamasi», deb atadi. Yuqoridagi formula asosida muomaladagi pul massasini topish mumkin:

Endi, I. Fisher nazariyasining ba’zi kamchiliklarini ko‘rib chiqsak. *Birinchidan*, u tovarlar baholari yig‘indisi o‘rniga, barcha tovarlar miqdorining o‘rtacha tortilgan baholarini oladi (*RQ*). Uning fikricha, tovarlar bozorga bahoga ega bo‘lmagan holda kirib keladi. Qiymat nazariyasiga ko‘ra esa, tovar bozorga baho bilan kiradi. Demak, bahoni tovardan ajratish mumkin emas. *Ikkinchidan*, I. Fisher uzoq vaqt oralig‘idagi Fva *Q* o‘zgaruvchilarni o‘zgarmas (bir maromli) deb oldi. Buning natijasida esa ikkita erk- siz o‘zgaruvchi — pul miqdori va baho qoladi.

Uchinchidan, bu ikki o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqib, I. Fisher baholar ko‘لامи natija bo‘lib, u boshqa omillar o‘zgarishiga sabab bo‘ла olmaydi, degan bir tomonlama xulosa chiqaradi. Pulning miqdoriy nazariyalaridan biri Kembrij yoki kassa qoldiqlari nazariyasidir. Bu nazariyani A. Marshall, A. Pigu, keyinchalik J. Reyns targ‘ib qilgan. Bu g‘oya bo‘yicha pul haraka- tining boshi bo‘lib jismoniy va huquqiy shaxslarning xo‘jalik ay- lanmada bo‘lgan pullari (kassa qoldiq pullari) hisoblanadi. Kassa qoldiqlaridan A. Pigu fikri bo‘yicha, iste’mol fondlaridan tashqari sug‘urta fondi, investitsiya bo‘yicha jamg‘arma fondi tashkil qilini- shi kerak. Pigu tenglamasi «almashuv tenglamasi»dan farq qiladi. Ya’ni unda yangi ko‘rsatkich «jamg‘arma koeffitsiyenti» qo‘llanigan bo‘lib, quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$M = K \bullet R \blacksquare P \text{ bir qismi (pul shaklida),}$$

bu yerda, *K*— koeffitsiyent yoki *R*ning bir qismi (pul shaklida), kassa qoldig‘i; *R* — ma’lum davr ichida ishlab chiqarilga

mahsulot hajmi. Masalan, *RP* — 800 mldr dollar bo'lsa, *K* uning 1/8 qismini tashkil qiladi. U vaqtda *MQ* — 800 mldr : 8 = 100 mldr dollar. Demak, yaratilgan yalpi mahsulotni ko'rsatilgan bahoda joylashtirish uchun *RP*dan 8 marta kam bo'lgan pul massasi zarur.

Hozirgi zamon monetarizmi. Vlonetarizm pul nazariyasi o'tgan asrning 50-yillari o'rtasida paydo bo'lgan. Bu oqimning ko'zga ko'ringan namoyandasi M. Fridman hisoblanadi, u Chikago universitetining professori, iqtisod sohasi bo'yicha Nobel mukofoti sohibi. Bu oqimga M. Fridmandan tashqari, K. Brunner, A. Molser, D. Leydler, F. Keygen va boshqa iqtisodchilar kiradi. |

Pul nazariyasida katta muvaffaqiyat qozongan g'oya — Fridmanning pulning miqdoriy nazariyasi bo'lib, u muomaladagi pul miqdori o'zgarishi bilan tovar baholari o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni, monetar siyosat nazariyasi, ya'ni jamiyatda bo'lgan iqtisodiy tebranishlar pul massasining o'zgarishi tufayli bo'lishi, pulning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kabilarni yoqlab chiqadi. ((Hozirgi zamon monetarizmiga bir guruh iqtisodchilar qalamiga mansub «Pulning miqdoriy nazariyasiga oid tadqiqotlar» (1956) deb nomlangan asar bilan asos solindi| Uning bosh g'oyasi iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu mexanizmning asosiy vositasi pul hisoblanadi, degan xulosadan iborat. Monetarizm pulni olqishlovchi nazariyadir.)|Monetaristlar iqtisodiy o'sishning eng muhim sharti inflatsiyani daf etish va pulni sog'lom-lashtirish, pulni xo'jalik muomalasi vositasiga aylantirish, deb qarashadi. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiyotga aralashishi pul muoma-lasini tartibga solish bilan cheklanishi kerak.

^vlonetaristlar ilgaridan ma'lum bo'lgan pulning miqdoriy nazariyasiga borib tutashadigan «barqaror pul» nazariyasini olg'a sunshadi. Ular pul va iqtisodiy faollik o'rtasida uzviy bog'lanish borligini qayd qilib, iqtisodiy krizislarning sababini pul muoma-lasidagi buzilishlardan axtarishdi.ji Pulning yetishmay qolishi iqtisodiy o'sishni susaytira borib, turg'unlik holatini keltirib chiqaradi, bu esa awal yuzaroq tanglikka, so'ngra esa chuqur iqtisodiy tanglikka olib keladi. Binobarin^iqtisodiy sikk pul miqdoriga bog'liq, bu, o'z navbatida, pul emitenti bo'lgan Markaziy bank faoliyatiga bog'liq. Pul-kredit siyosatini o'zgartirib, tanglikdan chiqish va iqtisodni rivojlantirish mumkini Monetaristlar iqtisodiyotda bosh masala ishlab chiqarish va pul massasining tengligi bo'lib, shu orqali makroiqtisodiy muvozanat hosil etish mumkinJ deb hisoblashadi.

M. Fridman kassa qoldig'i talabi milliy daromad, depozitlar, qimmatli qog'ozlar, tovarlar bahosining o'sishi va boshqa omillar- ga bog'liq ekanligini ko'rsatadi va uni quyidagicha ifodalaydi:

$$Ms - f(Y \cdot X),$$

bu yerda, Ms — rejalashtirilayotgan kassa qoldig'i; f - Y , X lar- ning o'zgaruvchan funksiyasi; Y - milliy daromad; X —yuqorida keltirilgan jami omillar; formulada keltirilgandan tashqari boshqa ta'sir etuvchi omillar ham bo'lishi mumkin.

Faqat monetarizm emas, baiki boshqa nazariyalar ham pul massasi bilan ishlab chiqarish o'rtasida bog'lanish mavjudligini tan oladi. Farqi shundaki, monetarizm bu bog'lanishni bosh ma-sala, deb qaraydi. Uning namoyandalari pul massasiga ta'sir etuvchi chora-tadbirlar davlat investitsiyasidan farqliroq, darhol iqtisodiy vaziyatga ta'sir etadi, deb qaraydilar.

Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib, pul massasini yiliga o'rtacha 3 % oshirishni tavsiya etishadi. Ammo monetaristlar keyingi paytlarda iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarish- larni inobatga olib, pul massasini doimiy ravishda va bir me'yorda olib borishni ma'qul deb bildilar. Bu me'yor shundayki, pul miqdorining o'sishi mehnat unumdarligi o'sishi sur'atiga nisbatan 1—2 % yuqori bo'lishi kerak. Buning bir me'yorda o'sib borishi iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va davriy tebranishlami cheklashga imkon beradi. Monetaristlar tavsiyalariga binoan bir qator mamlakatlarda qonun yo'li bilan pul massasi aniq belgilanadi yoki yuqori, quyi chegarasi ko'rsatiladi. Monetarizm uchun bosh masala antiin- flatsion siyosatni asoslashdir. Monetarizm tavsiyasiga asoslangan ba'zi mamlakatlarda pul miqdori ustidan qattiq nazorat o'rnatish, inflatsiyaning oldini olish iqtisodiy o'sishga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1. Pul nazariyasining kelib chiqish sabablari qaysilar?
2. Metallik nazariyaning vujudga kelishi va ularning namoyandalari qanday g'oyani ilgari surishgan?
3. Metallik pul tizimi qanday ko'rinishlarda yuzaga kelgan?
4. Pulning nominallik nazariysi va uning o'ziga xos xususiyatlari nimalar- dan iborat?
5. Pulning nominallik nazariysi asoschilari kimlar?
6. Pulning miqdoriylik nazariysi va uning namoyandalari.
7. Hozirgi zamon pul nazariyalaridan qaysilarini bilasiz?
8. M. Fridman va J. Keyns g'oyalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

V bob. INFLATSIYA YA PUL MUOMALASINI BARQARORLASHTIRISH USULLARI

5.1. Inflatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari

Inflatsiya lotincha «*inflation*» so'zidan olingan bo‘Iib «ish», «bo‘rtish», «ko‘pchish» iruTKoiarini anglatadi. Bu so‘z XIX asrning o‘rtalaridan boshlab, iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatalgunga qadar, u tibbiyotda xavfli o‘sma kasalini ifodalashda qo‘llanilgan.

Tarix haqiqatda ham bu so‘zning har tomonlama xavfli ekanligini ko‘rsatdi. Chunki inflatsiya qandaydir alohida olingan bozorda tovarlar va xizmatlar narxining o‘sishidangina iborat bo‘lmasdan, bu umumiqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflatsiya so‘zining iqtisodiy o‘girmasi — muomalada mavjud bo‘lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko‘p pul chiqarish ma’nosini anglatadi.

Iqtisodiyotda inflatsiyaning yakuni tovarlar bahosining o‘sishiga, qoniqtirilmagan, lekin qisman to‘lanishi mumkin bo‘lgan talablarning vujudga kelishiga olib keladi. Odatda, inflatsiyaning bu turi *klassik inflatsiya*, deb yuritiladi.

Inflatsiya so‘zi AQSHning Shimoliy va Janubiy shtatlari o‘rtasida fuqarolar urushi bo‘lganda muomalaga juda ko‘p miqdorda (450 mln grin bek) qog‘oz dollar chiqarilgan vaqtidan boshlab qo‘Uanila boshlagan. Ularning sotib olish qobiliyati ikki yildan keyin 50 % gacha tushib ketgan. ^vgar tarixga e’tibor beradigan bo‘lsak, urush va boshqa ofatlar sababli davlat xarajatlarining oshib ketishi inflatsiya bilan uzviy bog‘liq^| Masalan, Angliyada kuchli inflatsiya

XIX asrning boshida Napoleon urushi davrida, Fransiyada — fransuz inqilobi davrida, Rossiyada XIX asrning o‘rtalarida namoyon bo‘lgan. Germaniyada juda yuqori sur’atlardagi inflatsiya 1923-yilda bo‘lib, muomaladagi pul massasi 496 kvin-trillion markagacha yetgan va pul birligi trillion marta qadrsizlangan. Bu tarixiy misollar shuni ko‘rsatadiki, inflatsiya hozirgi davr jarayoni bo‘lmasdan, tarixan mavjud boigan jarayondir.

Hozirgi davr inflatsiyasi, o‘tgan davr inflatsiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Oldingi inflatsiyalar vaqtinchalik bo‘lib, ular,

odatda, urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Biror daromad olmasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish va tovar aylanma sur'atlarini oshir- masdan yoki bu ko'rsatkichlar kamayib ketgan holda davlat tomonidan bo'ladigan xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy yo'llaridan biri qog'oz pullami muomalaga chiqarishdan iborat bo'lган. Natijada muomalaga chiqarilgan pullar, muomala uchun zarur bo'lган oltin miqdoridan oshib ketgan va pulning real qiymati uning nominal qiymatidan tushib ketgan, ya'ni haqiqatda pul birligi o'zida ko'rsatilganidan kam oltin miqdorini ifoda qila boshlagan.

Oldingi inflatsiyalarning yana bir xususiyati shundaki, ular ma'lum davrda namoyon bo'lган. Hozirgi davr inflatsiyasi esa, odatda, doimiy (xronik) xarakterga ega bo'lib, xo'jalik hayotining barcha sohalarini qamrab olishi bilan, pul omillaridan tashqari boshqa iqtisodiy omillarga ta'sir qilishi bilan farqlanadi.

Oxirgi yillarda inflatsiya tez-tez uchrab turadigan jarayon bo'lib, sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflatsiya: *birinchidan*, uzlusiz baholarning oshishiga; *ikkinchidan*, pul muomalasi qonunining buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. XX asr inflatsiyasining asosiy sababi, tovar kamyobligigina bo'lib qolmas- dan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda krizislar mavjudligi bilan ifodalanadi. Hozirgi davr inflatsiyasi *birinchidan*, pul talabi- ning tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonuni buzilishi; *ikkinchidan*, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog'i- ning o'^sishi" natijasida tovarlar bahosi oshishi va shu sababli pul massasi ortib borishi bilan ifodalanadi.

Inflatsiyaning asosiy sabaBb— bu xalq xo'jaligining turli sohalari o'rtasida vujudga kelgan nomutanosiblik. Bu, awalambor, jamg'arma va iste'mol o'rt^sidagi, talab va taklif, davlatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muomaladagi pul massasi va xo'jaliklaming naqd pulga bo'lган talabi o'rtasidagi nomutanosibliklardan iboratdir.

Inflatsiyani yuzaga keltiruvchi omillarga qarab uni *ichki* va *tashqi* sabablarga bo'mish mumkin. Inflatsiyaning ichki omillari *monetarpulsiyosati* va xo'jalikfaoliyati bilan bog'liq turlarga bo'linadi. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq omillar xo'jalikdagi va iqtisoddagi mutanatosiblikning buzilishi, ishlab chiqarishda yakka hukmronlikka yo'l qo'yish, iqtisodning davriy rivojlanishi, investitsiyalashda nomutanosiblik, baholarni tashkil qilishda davlatning yakkahokimligi, kredit siyosatining noto'g'ri olib borilishi va boshqalar hisoblansa,

b) davlat qarzlarining o'sishi va budget defitsitining mavjudligi. Budget defitsiti, odatda, zayomlar chiqarish yoki banknotalarni emissiya qilish yo'li bilan qoplanadi. Bu, o'z navbatida, qo'shimcha muomala vositalari bo'lishiga, qo'shimcha talab yuzaga kelishiga olib keladi. O'zbekistonda budget defitsitini qoplash yuqorilarda- gidan tashqari, 1996-yildan boshlab davlat qisqa muddatli obligatsiyalari ni (DQMO) sotish orqali ham qoplanmoqda;

d) xalq xo'jaligiga ortiqcha kreditlar chiqarish natijasida muomalada kredit bilan bog'liq muomala vositalari yuzaga keladi. Bular tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi;

e) chet el valutasining mamlakatga kirib kelishi va uning milliy valutaga almashinuvni natijasida, muomalada pul massasi ortib boradi, milliy pulga nisbatan chet el valutasining qadri oshadi;

f) xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlarini keragidan ortiqcha investitsiyalash ham aylanmaga qo'shimcha pul ekvivalentlarinf chiqarishga olib keladi.

Shunday qilib, talab inflatsiyasi umumiy talabning o'sishi natijasida baholar o'sishi bilan namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan bogTiq (taklif) inflatsiyasi

..... ^

Bu inflatsiyaning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar tufayli mehnat unumdarligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Umuman, iqtisodiyot bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, binobarin, tovarlar bo'yicha taklif qisqaradi va tovarlar bahosi oshadi. Korxonalarining foyda hajmi qisqaradi;

b) har xil yangi xizmat turlari paydo bo'ladi, ishlab chiqarishga nisbatan kam mehnat unumdarligida yuqori ish haqi olishga imkoniyat tug'iladi. Natijada tovar va xizmatlarga bo'lgan baho oshib boradi;

d) aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash maqsadida ish haqi oshishi, tovarlar bahosi oshishiga olib keladi va yana ish haqi oshadi va h.k., bu zanjir uzluksiz davom etishi mumkin.

Inflatsiyada nafaqat chakana baho, balki ulgurji baho ham oshib boradi. G'arb mamlakatlarda inflatsiyaning asosiy ko'rsatkichi qilib, chakana baholarning o'zgarishi (oshishi) qabul qilingan. Agar ma'lum davrda baholar ikki marta oshsa, muomaladagi pul ham ikki marta qadrsizlangan hisoblanadi.

Chakana baholar o'sishini hisoblash maxsus davlat organlari tomonidan aniqlanadigan baholar indeksiga asoslanadi. Baholar indeksini hisoblashning boshlang'ich nuqtasi sifatida (yuz foiz deb) *bazis yili* olinadi va *joriy yilda* baholar o'zgarishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati hisoblanishi mumkin. Baholar indeksi joriy yildagi tovarlar va xizmatlar bahosi yig'indisi, ya'ni tovarlar bozor savati bahosining shu tovar va xizmatlarning bazis yildagi umumiy bahosi, *bozor savati* bahosiga nisbatan sifatida aniqlanishi mumkin. Yuqoridagi fikrni quyidagicha formula ifoda qilishi mumkin:

Joriy (2007) yilda = Joriy (2007) yilda bozor savati bahosi :Q0 baholar indeksi

Bazis yildagi bozor savati bahosi
(masalan, 2006-yil)

Baholar indeksini hisoblashda iste'mol tovarlar bahosining indeksi katta ahamiyatga ega. Baholar indeksi turli usullarda baholar darajasini solishtirishga imkon beradi. Joriy yildagi baholar indeksining bazis yildagi baholar indeksiga nisbatan oshishi — *inflatsiya* — «baholar darajasining oshishi»dan, baholar indeksining kamayishi — *deflatsiya* — «baholar darajasining kamayishi» dan dalolat beradi.

Aytaylik, bazis yili 1990-yil bo'lsin (baholar darajasini 100 % deb olamiz) va 1997-yilda baho darajasi 350. Demak, 1990—1997-yillarda baholar 3,5 marta yoki 250 % ga oshgan yoki 1990-yilda biron tovar 100 so'm turgan bo'lsa, 1997-yilda shu tovar 350 so'm turadi.

Iste'mol tovarlar bahosi indeksidan tashqari, ba'zi guruh tovarlar va xizmatlar, masalan, kiyim, oyoq kiyimlar, transport, uy-joy xizmatlari va boshqalar bo'yicha baholar indekslarini hisoblash mumkin.

Baholar indeksiga asoslanib inflatsiya sur'atlari aniqlash mumkin. Buning uchun joriy yil baholar indeksidan bazis davr baholar indeksini chegirib, bazis yili baholar indeksiga bo'lamiz. Masalan, 2005-yilda iste'mol tovarlarning baho indeksi 110, 2007-yilda 140 bo'lsa, 2007-yilda inflatsiya sur'ati quyidagicha aniqlanadi:

Inflatsiya = $\frac{140-110}{110} \cdot 100$ % = surati
110

Demak, 2007-yilda inflatsyaning o'sish sur'atlari taxminan 27,3 % ga teng bo'ladi. Inflatsyaning o'sish sur'atlari to'g'risida flkr yuritganda, uning rivojlanishini son jihatdan aniqlashning boshqa

yo‘li ham mavjud. Bu usul «70 lar qoidasi» deb ataladi. Agar har yili inflatsiya darajasi ma’lum bo‘lsa, baholar ikki karra oshishi uchun necha yil kerak ekanligini aniqlash mumkin. Buning uchun «70» ni har yilgi inflatsiya darajasiga bo‘lish kerak. Masalan, inflatsiyaning har yillik darajasi 5 % boisila, baholar darajasi 14 yildan keyin, ikki karra oshishi kerak. Agar har yillik inflatsiya darajasi 20 % bo‘lsa, baholar darajasi 3 yildan keyin ikki karra oshishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, bu usul hamma vaqt ham, masalan, inflatsiyaning o‘sish sur’atlari yuqori (har kuni, oyda o‘zgarib boradigan) bo‘lsa, qulay hisoblanmaydi. «70 lar qoidasi» aholi jamg‘armalarining, real yoki milliy mahsulot hajmining ikki marta oshishi uchun necha yil kerak ekanligini to‘g‘ri aniqlab berishga imkon beradi.

Pulning qadrsizlanish darajasi alohida olingan mamlakatda har xil bolishi mumkin. Inflatsiya darajasi rivojlangan mamlakatlarda pastroq va u tez o‘tishi, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda uning darajasi yuqori, surunkali va «davolash» ham ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin. Masalan, 1971—1984-yillarda baholar o‘sishi sur’atlarini olsak, u rivojlangan mamlakatlarda 4,9 % dan (Germaniya), 71 % (Jazoir)gacha bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 8,5 % dan (Hindiston), 153 % ga (Argentina) yetgan. Inflatsiyaning namoyon bo‘lishi har bir mamlakat iqtisodining rivojlanish darajasiga, milliy xo‘jalik faoliyatiga va xususiyatiga, milliy an‘analariga, mintaqaviy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish xususiyatlariga bog‘liq.

Rivojlangan mamlakatlarda inflatsiyaning sharoit va omillari har xillagini hisobga olib uni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga rivojlanayotgan Lotin Amerikasi, Afrika mam-lakatlari kiradi. Bu davlatlarga surunkali budjet taqchilligi, iqtisodiy muvozanatning yo‘qligi asosiy va aylanma fondlar qiyma-tining doimo indeksatsiya qilinishi, milliy valuta kursining chet el valutasiga nisbatan tushib borishi pul qadrsizlanishining omillari hisoblanadi. Bu mamlakatlarda surunkali budjet defitsitini emissiya yo‘li bilan moliyalashtirish natijasida yillik pul qadrsizlanishi bir necha ming foizga yetishi kuzatilgan.

Argentina, Chili kabi mamlakatlarda inflatsiya pul qadrini yemirib tashlashi natijasida oddiy biror tovarni sotib olish uchun bir necha million pul birligi zarur bo‘lgan. 1983-yilda iyungacha, ya’ni muomalada eski peso boUganda Argentinada bir juft tuqli yetti million peso, yengil mashina sotib olish uchun bir necha milliard peso kerak bo‘lgan. Bu hoi hisob-kitoblarni olib borishda,

pul muomalasida juda katta qiyinchilik tug‘dirgan. Bir necha marta o‘tkazilgan denominatsiyalar pul qadrsizlanishini to‘xtatishga asos bo‘la olmagan. Lotin Amerikasi mamlakatlarda bo‘lgan inflatsiya darajasini baholar indeksidan ham ko‘rish mumkin. Bu mamlakatlarda baholar indekslari bir necha sonlardan iborat bo‘l-gan. Masalan, Chilida 1971—1984-yillarda baholar indeksi 842162 yoki bu ko‘rsatkich shu yillarda baholar 8,4 ming marta oshganini, Argentina uchun shu indeks 436432250, bu baholar 436 ming marta oshganini bildiradi. Yuqoridagi jadval ma‘lumotlari ko‘r-satib turibdiki, 1990-yilda Nikaraguada tovarlar bahosi 8500 %, Peruda — 8291,5 %, Braziliyada 2359,9 % ga oshgan.

Ikkinci guruh mamlakatlar — Kolumbiya, Ekvador, Vene-suela, Eron, Suriyada ham iqtisodiy muvozanatning yo‘qligi, moliyaviy siyosatdagi kamchiliklar — taqchillikni moliyalashtirish, iqtisodiyotga ko‘p kreditlar ajratish inflatsiyaning bo‘lishini ta’min- lamoqda. Bu mamlakatlarda inflatsiya shiddatli xarakterga ega bo‘lib, baholarning yillik o’sishi 30—40 % atrofida, ba’zida undan yuqori bo‘ladi. Inflatsiya sur’atiga qarab jamg‘armalar, toMovlar bo‘yicha indeksatsiya o‘tkazib boriladi, ishsizlik oshib boradi.

Uchinchi guruhga: Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Tailand, Filippin kiradi. Bu mamlakatlarda cheklangan iqtisodiy muvozanat mayjud bo‘lib, eksportdan valuta tushumi ancha yuqori. Yillik inflatsiya sur’ati 5—20 % atrofida va qisman indeksatsiya o‘tkazilib turiladi.

To‘rtinchi guruh davlatlar — Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Baxrayn, Arabistonda iqtisodiy muvozanatning mayjudligi inflatsiya sur’atlarining sustligini ko‘rsatadi. Bu mamlakatlardagi inflatsiya 2—6 % ni tashkil qiladi va uni *sudraluvchi inflatsiya*, deb qarash mumkin. Bu mamlakatlarda tovarlar va xizmatlar bahosi oshishi ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Ishsizlik boshqa mam'a- katlarga nisbatan kam, iqtisodi rivojlangan bozor sharoitida bosh-qariladi. Eksport hajmi va chet el valutasi tushumining yuqoriligi, inflatsiyaning oldini olishda katta rol o‘ynaydigan omil hisoblanadi.

Albatta, jahon moliyaviy-iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda inqiroz darajasining oshib ketishiga olib keldi.

2010-yilning yanvar-fevral oyalarida inflatsiya darjasи Ukrainada 3,7 %, Turkiyada 3,3 %, Rossiyada 2,5 %, Qozog‘istonda 2,3 % ni tashkil etdi. Yevropa davlatlarida iste’mol tovarlarining bahosi Italiyada 1,5 %, Ispaniyada 1,2 %, Gretsiyada 1,4 % ga kamaygan bo‘lsa-da, bugungi kunda inflatsiya ko‘rsatkichi oshib bormoqda.

Rossiya Federatsiyasida inflatsiya sur'atlari

Yillar	Inflatsiyaning joriy darajasi, % da
2005-yil	11,0
2006-yil	9,0
2007-yil	12,0
2008-yil	13,3
2009-yil	8,1
2010-yil	8,3

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, Rossiya Federatsiyasida inflatsiya keyingi yillarda pasayish ko'rsatkichiga ega bo'lib, o'rtacha darajasi 9—10 % ni tashkil qilmoqda.

0'zbekistondagi inflatsiya mustaqil 0'zbekiston zaminida vujudga kelgan emas. Tarixan u sobiq Ittifoqda yuzaga kelgan. Bu inflatsiyaning umumiyligi iqtisodiy sababi davlat boshqaruvida iqtisodga nisbatan siyosatga ko'p e'tibor berilganidadir. Natijada ishlab chiqarish sur'atlari tushib ketgan. Tovar kamyoobligi yashirin jarayon bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish uchun ko'p xarajat qilinsa-da (xomashyolarning narxi yuqoriligi tufayli), tovarlar past bahoda sotilgan. Farq davlat budgetidan qoplama borgan. 1992-yilning boshidan erkin baholarga o'tish natijasida (oziq-ovqat va yoqilg'i resurslaridan tashqari) inflatsiya yuzaga otilib chiqdi va tez sur'atlar bilan rivojlanib ketdi. Shu tufayli 0'zbe-kistondagi inflatsiya sobiq Ittifoq davrida yuzaga kelgan inflatsiyaning qoldig'i deyish mumkin. Sobiq Ittifoqda, jumladan, 0'zbekiston tonda o'tgan asrning 90-yillardagi inflatsiyaning asosiy sabablari:

- iqtisodiy muvozanatning yo'qligi, ishlab chiqarish sur'atlari tushib ketishi;
- mahsulotlar sifati hamda mehnat unumtdorligi pastligi;
- ishlab chiqarishda xarajatlar salmog'inining oshib ketishi, behuda sarflar, iqtisod prinsiplariga rioya qilmaslik va boshqalar hisoblanadi.

Bundan tashqari, rivojlangan bozor sharoitiga o'tmasdan turib baholarning erkinlashuvi, tovar massasi ustidan ba'zi bo'limlarning yakka hukmronlik o'rnatishi, baholarni xohlagancha boshqarish, kredit, moliya siyosatlarini noto'g'ri olib borish, iqtisodning «dollar-lashuvi», «milliy valuta hududi»ning yemirilishi, valuta tushumlari va milliy boylikning chetga oqib ketishi va boshqalar inflatsiya jarayonining yanada rivojlanishiga olib kelgan. Inflatsiya jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Mamlakat iqtisodiy ahvolini tang holga olib keladi:

- ishlab chiqarish hajmi tushib ketadi, baholarning oshib bo‘rishi ishlab chiqarish istiqbollariga to‘g‘anoq bo‘ladi;
- kapitalning asosiy qismi ishlab chiqarishdan savdo (muomala) sohasiga, vositachilik sohasiga oqib o‘tadi. Chunki ishlab chiqarishdan ko‘ra savdo sohasidagi kapital tezroq va ko‘proq foyda keltiradi;
- baholarning o‘zgarib turishi olibsotarlikni rivojlantiradi, ar-zon vaqtida olib, qimmat bo‘lganda sotish jarayoni, tovar zaxira-larini yashirish jarayonlari avj oladi;
- kredit berish jarayonlari cheklangan bo‘ladi. Qarz oluvchilar ko‘payadi-yu, qarz beruvchilar soni qisqaradi, chunki qarz bergen yutqazishi mumkin;
- davlatning moliya resurslari qadrsizlanadi va h.k.

2. Aholining kam daromad oluvchi qismining ijtimoiy jihatdan ahvoliyomonlashadi. Ularning real daromadlari kamayadi. Nominal daromadning baholar o‘sishidan tushib ketishi natijasida aholining hayot darajasi pasayadi. Ayniqsa, nafaqa, davlat tashkilot-laridan maosh oluvchilaming ahvoli qiyinlashishi mumkin. Inflatsiya aholi jamg‘armalarining qadrsizlanishiga olib keladi. Ba’zida inflatsiya aholi ba’zi qatlamlarining (savdo-sotiq sohasida) boyishiga olib keladi.

Davlat aholining daromadlar darajasini tenglashtirish maqsadida daromad va soliqlarni indeksatsiya qilib boradi.

5.3. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflatsiyani bartaraf qilish yo‘llari

Inflatsiyaning har tomonlama avj olib ketishi mamlakatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qarama-qarshiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun davlat inflatsiyaning oldini olish, pul muomalasini barqarorlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Inflatsiyaga qarshi kurashning asosiy shakllari *in-flatsiyaga qarshi siyosat* va *pul islohoti* hisoblanadi. Har davlatda pul muomalasi ma’lum qonun-qoidalar asosida tartibga solib turiladi.

Awalgi markazlashgan, rejali boshqaruvga asoslangan iqtisodiy tizimda pul muomalasi rejalashtirish asosida boshqarib kelingan. Aholining daromadi va xarajatlarini davlat tomonidan muvofiq-lashtirib turilgan. Barcha jarayonlar davlat tomonidan boshqarilgani

uchun pul muomalasi qonuni buzilganda, davlat o‘z vakolati doirasida narxlarni o‘zgartirish va islohot yo‘li bilan pul muomalasini tartibga solib kelgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasi ma’lum usullar yordamida tartibga solib turiladi. Pul muomalasini tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi usullardan foydalanadi:

1. Majburiy zaxira stavkasi normasini belgilash.
2. Tijorat banklarining ochiq bozorda qatnashishi.
3. Markazlashgan kreditlar uchun qayta moliyalashtirish stav- kasini o‘rnatish.

«O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunga ko‘ra, Markaziy bank tijorat banklariga minimal majburiy zaxira bo‘yicha mablag‘larni maxsus schotda saqlab turish maj- buriyatini yuklash huquqiga ega. Bunday zaxiralar normalari bankning majburiyatlari turiga, omonat va muddatiga qarab bel- gilanadi. Bu mexanizm, asosan, tijorat banklarining likvid mab- lag‘lari hajmini muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Bu bilan Markaziy bank tijorat banklarining kredit berish qobiliyatiga ta’sir etiladi. Kredit, ma’lumki, o‘z navbatida, pul massasining ko‘payishiga, baholarning o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun majburiy norma tez-tez o‘zgartirilmaydi, chunki u muomalada pul massasining tebranib turishiga va oxiri iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Majburiy zaxira ajratmalari foizlari oldingi yillarda quyidagicha belgilangan:

02.09.1992-	yildan - 15 %
01.01.1993-	yildan - 20 %
01.05.1994-	yildan - 30 %
01.01.1995-	yildan - 30 %
01.07.1996-	yildan - 25 %
01.12.1997-	viLdan - 20 %
02.02.2005-yildan	- 15 %
01.09.2007-	yildan - 13 %
01.11.2008-	yildan - 15 %
01.09.2009-	yildan — 15 %'.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy rezervlar bo‘yicha me’yorlarini yuridik shaxslarning depozit- larining muddatlariga qarab, ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u depozitlar muddatiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin (2-jadval).

‘2-jadvalda kengroq ma’lumotlar keltirilgan.

Majburiy rezervlar me'yirlari

**Manba*: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Markaziy bank tijorat banklarga kreditlar bo‘yicha qayta moliyalashtirish stavkasini belgilab beradi. Bu stavka tijorat banklari beradigan kreditning bahosini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Qayta moliyalashtirish siyosati tijorat banklarining boshqa manbalaridan mablag‘lar jalb qilishiga ta’sir etmaydi. Markaziy bank oqilona qayta moliyalashtirish stavkalarini o‘rnatib tijorat banklarini likvidlik darajasini muvofiqlashtirib turadi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati iqtisodiyotning hal qiluvchi bo‘g‘inlarini kreditlash va undan ratsional foydalanishga qaratilgan qayta moliyalashtirish stavkasi oldingi yillarda quyidagicha belgilangan:

01.01.1994-	yildan - 40 % (oyiga 3,3 %)
01.10.1994-	yildan - 225 % (oyiga 18,7 %)
01.03.1995-	yildan - 300 % (oyiga 10 %)
01.07.1995-	yildan - 120 % (oyiga 10 %)
01.08.1995-	yildan — 84 % (oyiga 7 %)
01.07.1996-	yildan - 60 % (oyiga 5 %)
01.08.1996-	yildan — 48 % (oyiga 4 %)
01.08.1997-	yildan — 39,6 % (oyiga 3,3 %)
16.07.2003-	yildan — 24 % (oyiga 2 %)
10.09.2003-	yildan — 20 % (oyiga 1,66 %)
05.07.2004-	yildan - 18 % (oyiga 1,5 %)
21.12.2004-	yildan — 16 % (oyiga 1,33 %)
15.06.2006-yildan —	14 % (oyiga 1,167 %)
2009-yildan —	14 % (oyiga 1,167 %).
2011-	yildan — 12 % (oyiga 1 %).

3-jadval

0“zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasi”*

Amal qilish muddati	Foizda
2011-yil 1-yanvar	12
2006-yil 15-iyul — 2010-yil 31-dekabr	14
2006-yil 1-yanvar — 2006-yil 14-iyul	16
2004-yil 21 dekabr — 2005-yil 31 dekabr	16
2004-yil 5-iyul — 2004-yil 20-dekabr	18
2003-yil 10-sentabr — 2004-yil 4-iyul	20

2003-yil 16-iyul — 2003-yil 9-sentabr	24
2002-yil 1-yanvar — 2003-yil 15-iyul	30
2000-yil 1-iyul - 2001-yil 31-dekabr	24
2000-yil 1-iyun — 2000-yil 30-iyun	27,6
2000-yil 1-may — 2000-yil 31-may	28,8
2000-yil 1-aprel — 2000-yil 30-aprel	30
1998-yil 1-yanvar — 2000-yil 31-mart	36
1997-yil 1-noyabr — 1997-yil 31-dekabr	30
1997-yil 1-yanvar — 1997-yil 31-oktabr	39,6
1996-yil 1-avgust — 1996-yil 31-dekabr	48
1996-yil 1-iyul — 1996-yil 31-iyul	60
1995-yil 1-avgust — 1996-yil 30-iyun	84
1995-yil 1-iyul — 1995-yil 31-iyul	120
1995-yil 20-mart — 1995-yil 30-iyun	300
1995-yil 1-fevral — 1995-yil 19-mart	250
1994-yil 1-oktabr — 1995-yil 31-yanvar	225
1994-yil 2-may — 1994-yil 30-sentabr	150

* **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Hozir ko'pgina davlatlarda pul muomalasini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalanilmogda. Bu hozirgi ko'p qo'llanadigan *monetar* siyosatning bir usuli hisoblanadi. Usul tijorat banklarining likvidlik darajasiga tezda ta'sir o'tkaza oladigan *eshiluvchan* (moslanuvchan), *amaliy* va *operativ* usul hisoblanadi. Usulning boshqalaridan farqi shundaki, uni zaruriyatga qarab va xohlagan miqdorda o'tkazish mumkin. Bu mexanizm bozoming rivojlanish an'anasiga qarab, pul muomalasini barqarorlashtira olishi mumkin. Markaziy bankning ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish huquqi qonunda belgilangan. Bunda oldisotdi obyekti bo'lib, davlat qimmatli qog'ozlari va Markaziy bank o'zi chiqargan qarz majburiyatlari bo'lishi mumkin.

Foiz stavkalarining o'zgarishi

Davr (yil)	Qayta moliyalash- tavkasi	Qisqa mud- kreditlar olingan stavka, so'mda	Yuridik tezkor olingan stavka, so'mda	shaxslar- depozitlari bo'yicha olingan stavka, so'mda	Jismoni shaxs- larning tezkor de- pozitlari bo'yicha olingan stavka, so'mda
2000	32,3	25,7		12,9	32,2
2001	26,8	28,0		16,0	38,1
2002	34,5	32,2		19,2	40,2
2003	27,1	28,1*		17,1*	36,2*
03/1	34,5	30,9*		19,2*	38,5*
03/11	34,5	31,4*		19,5*	38,3*
04/1	20,0	19,8*		13,0*	33,9*
04/11	20,0	20,6		11,9	32,2
2006	14	14-18		7—10	18-22
2009	14	16-16,4		7-10	19,5-17,4
2011	12	12-14		6-10	20-28

* **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Bundan tashqari, qayta moliyalash stavkasi umuman iqtisodiyotda muayyan darajada foiz stavkalarining *indikatori* bo'lib xizmat qiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tijorat banklari jalb qilingan depozitlar va berilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'zlarini mustaqil ravishda belgilashlari mumkinligiga qaramasdan qayta moliyalash stavkasining kamaytilishi foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini kiritish *birinchidan*, Moliya vazirligiga o'z joriy xarajatlarining bir qismini inflatsiyadan xoli *manba* hisobidan qoplashga, *ikkinchidan*, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining bo'sh mablag'larini foyda olish evaziga *investitsiya* qilish mumkinligiga imkoniyat yaratdi.

DQMOlarning birlamchi bozori Markaziy bank valuta birja-sida tijorat banklari ishtirokida chiqariladi. Zarur bo'lsa obligatsiya egasi ikkilamchi bozorda o'z foydasi evaziga uni sotishi mumkin. Shunday qilib, Markaziy bank pul muomalasini barqarorlashtirish uchun uni tartibga solish borasida barcha vakolat va hu-quqiy me'yorlarga ega.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar ko'pgina mamlakatlarda qo'llaniladi. Davlatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa *selektiv* usullardan ham foydalanish mumkin. Bu usul-larning maqsadi kreditlash hajmiga va umumiyl pul massasiga ta'sir o'tkazib borishdir. Bu usullarni har bir davlat o'zining rivojlanish darajasiga qarab qo'ilashi mumkin. Masalan, rivojlangan davlatlarda, asosan, ochiq bozorda operatsiyalar o'tkazish usulidan foydalilanadi. Yuqoridagilarni tahlil qilsak, har usul u yoki bu yo'l bilan (bevosita yoki bilvosita) muomaladagi pul massasining kamayishiga yoki ko'payishiga ta'sir qildi.

Iqtisodiyotdagagi vaziyatga qarab, Markaziy bank o'zining pul-kredit sohasidagi *strategiyasini* aniqlaydi. Bundan tashqari, mamlakatdagi pul muomalasi hukumat tomonidan chiqarilgan qaror va buyruqlar bilan ham boshqariladi. Bunga misol qilib, korxona tashkilotlarini kassa tushum rejasini bajarishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish, barcha savdo shoxobchalarini inkassatsiyaga tortish, aholini o'z daromadini banklarda saqlashga targ'ib qilish va ishontirish, qimmatli qog'ozlar bozorini kengaytirish, hisob cheklaridan keng foydalanish, bank tizimini takomillashtirish, ya'ni elektron kartochka-larni joriy qilish va boshqalar, bularning hammasi muomaladagi pul massasining kamayishiga, emissiya miqdorining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda mayjud bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlik natijasida 2008-yil yakunlari bo'yicha YIMning real o'sishi 9,0 % ni tashkil qildi. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida o'sishga erishildi. Markaziy bank va hukumat tomonidan narxlар barqarorligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida inflatsiya darjasи 1994-yildagi 1282 foizdan 2008-yilga kelib 7,8 foizgacha pasayishi ta'minlandi. O'z vaqtida ko'rilgan choralar, amalga cshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jahon moliaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarining O'zbekistonga ta'sirining oldini olishga chuqr zamin yaratmoqda.

5.4. Pul islohotlari va uning pul muomalasini barqarorlashtirishdagi o'mi

Pul islohoti deb, pul muomalasini barqarorlashtirish maqsadida davlat tomonidan pul tizimini o'zgartirishga aytildi. Pul islohoti metall pul muomalasi davrida, Ikkinchи jahon urushidan keyin *oltin deviz*, *oltin dollar* muomalasi davrida o'tkazildi. Sobiq Ittifoqda

pul islohoti 1922— 1924-yillar va 1947, 1961-yillarda o‘tkazildi. O‘zbekistonda pul islohoti 1994-yilda o‘tkazildi va respublika mustaqil davlat sifatida o‘zining milliy pul birligiga ega bo‘ldi.

Pul muomalasini barqarorlashtirishga pul islohotini o‘tkaz- masdan ham erishish mumkin. Pul muomalasini barqarorlashti- rishning quyidagi usullari mavjud: *revalvatsiya*, *devalvatsiya*, *deno- minatsiya*. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, iqtiso- diyotning holatiga, pulning qadrsizlanish darajasiga, davlat siyosatiga ko‘ra, davlat pul islohotini o‘tkazishi, pulni revalvatsiya, denominatsiya qilishi mumkin.

Pul kuchli qadrsizlangan sharoitda faqat pul islohotini o‘t- kazish yoii bilan pul tizimini barqarorlashtirish mumkin. Pul islohoti, ya’ni *nullifikatsiyada* kuchli qadrsizlangan pul birligi bekor qilinadi va o‘rniga yangi pul birligi kiritiladi. Masalan, sobiq Ittifoqda 1922— 1924-yillarda sovznaklarning kuchli qadrsizla- nishi natijasida 1 rubl 50 mlrd sovznakka almashtirilgan. Urush- dan keyingi Germaniyada giperinflatsiya natijasida 1924-yilda muomalaga yangi nemis markalari kiritilgan. Eski reyxsmarkalar kuchli qadrsizlanishi natijasida muomalaga chiqarilgan yangi mar- kalar 1 marka : 1 trillion eski reyxsmarka nisbatida almashtirildi. Reyxsmarkalar muomalasi bekor qilindi.

JieyaLvatsiya — bu pul birligining oltin qiymatini tiklashdan iborat. Masalan, I jahon urushidan keyingi 1925—1928-yillarda o‘tkazilgan pul islohoti tufayli funt sterlingning urushgacha bo‘l- gan oltin qiymati belgilandi. II Juhon urushidan keyin revalvatsiya natijasida dollarning valuta kursi ko‘tarildi. Germaniya Federativ Respublikasida 1961, 1969, 1971 -yillarda revalvatsiya o‘tkazilgan.

Devalvatsiya — bu milliy valuta kursining chet el valutasiga nisbatan rasrmy ravishda tushirilishi. Pul birligining oltin miqdori belgilangan sharoitda devalvatsiya pulning oltin miqdorining tushib ketishini anglatgan. Masalan, 1971-yilda AQSH dollarining oltin miqdori 7,89 % ga, 1973-yil fevralda 10 % ga kamaytirilgan. Suzuvchi valuta kurslariga o‘tgandan keyin devalvatsiya boshqarila- digan valuta kurslari asosida olib boriladi.

Denominatsiya — baholar masshtabini yiriklashtirish, ya’ni pul birligidagi «0» larni qisqartirishdan, pul birligida ko‘rsatilgan nominalni kamaytirishdan iborat. Sho‘ro pul tizimi qaror topa boshlagan davr — 1921—1922-yillarda ikki marta denominatsiya o‘tkazilgan. Birinchi denominatsiyada muomalaga «1922-yil pul

birligi» chiqarilgan va ular oldingi pul birliklariga 1000 : 1 nisbatda almashtirilgan. Ikkinci denominatsiyada muomalaga «1923-yil pul birligi» chiqarilgan va «1922-yil pul birligiga» 1000:1 nisbatda almashtirilgan. Pul denominatsiyasi inflatsiya sur'atlari past bo'lган sharoitda qulay bo'lishi mumkin.jfAgar inflatsiya sur'atlari yuqori bo'lsa, denominatsiya o'tkazish hech qanday samara bermasligi mumkin. Faqat pul islohotini o'tkazish yo'li bilan pul tizimini barqarorlashtirish mumkin bo'ladi.

Pul islohotini o'tkazish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- muomaladagi pul massasini kamaytirish maqsadida, *deflatsiya kursi* bo'yicha eski pullami yangi pullarga almashtirish;
- aholi va korxonalarining banklardagi jamg'armalarini vaqtincha (to'liq yoki qisman) harakatsiz ushlab turish (qotirib qo'yish);
- har ikki usulni birgalikda qo'llash yo'li orqali pul islohotini o'tkazish: bu usul xalqaro amaliyotda «shok yo'li» bilan davolash nomi bilan mashhurdir.

Bu usul 1948-yilda G'arbiy Germaniyada harbiy davlat boshqaruvidan bozor iqtisodiga o'tishda qo'llanilgan. «Shok yo'li» bilan davolashda ish haqini toiashni to'xtatib qo'yish, ishlab chiqarishni qisqartirish, pul islohotini o'tkazish, ish o'rinalarini qisqartirish kabi qattiq choralar qo'llanishi mumkin. Masalan, G'arbiy Germaniyada 1948-yilning iyun oyida o'tkazilgan pul islohotida aholining naqd pullari va jamg'armalari 6,5 yangi nemis markasiga 100 eski reyxsmarka qilib almashtirildi. Aholining pul jamg'ar- malarini to'lash vaqtincha to'xtatilgan, keyinchalik faqat 30 % atrofida to'langan va har bir kishiga 60 nemis markasi miqdorida nafaqa ajratilgan. Natijada davlatning reyxsmarkasidagi qarzi, mamlakatda bo'lgan *disbalans* tugatilgan va shu yo'l bilan inflatsiyaning o'sish sur'atlari to'xtatilgan.

«Shok yo'li» bilan davolash Yaponiyada 1949— 1950-yillarda o'tkazilgan va u «Doj rejasi» degan nomni olgan. Bu rejaga asosan, Yaponiyada inflatsiyaga qarshi juda qattiq chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Erkin bahoga o'tish bilan bir vaqtning o'zida yer islohoti o'tkazildi, budjet kamomadini yo'qotish yo'llari ishlab chiqildi. Yaponiyada mavjud zarar bilan ishlovchi korxonalarga davlat tomonidan beriladigan *subsidiya* bekor qilindi, korxona, tashkilot- larga kredit berish shartlari mukammallashtirildi, aholi jamg'ar- malari ishlatilmasdan qotirib qo'yildi.

Iqtisodni «shok yo‘li» bilan davolash Sharqiy Yevropa mamlakatlari — sobiq Yugoslaviya, Polshada ham qo‘llanilgan. «Shok yo‘li» bilan davolash iqtisodiy siyosati 1989-yilning oxirida Polshada qo‘llanilgan bo‘lib, ish haqi vaqtinchalik qotirib qo‘yilgan holda, baholar erkinlashtirilgan. Natijada 1990-yilning boshiga kelib, Polshada tovarlar mo‘l-ko‘lchiligi vujudga kela boshladi va tovarlar bahosining bir necha barobar oshishi natijasida inflatsiya sur’atlari sekinlashishiga erishildi. Polshada bu iqtisodiy tadbir- ning o’tkazilishi aholining yashash sharoitini ancha qiyinlashtirib, ishsizlar sonini ko‘paytirdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Inflatsiya qanday hollarda yuzaga keladi?
2. Pulning qadrsizlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Inflatsyaning qanday turlarini bilasiz?
4. Pul massasini boshqarish usullarini bilasizmi?
5. Inflatsyaning ichki va tashqi omillari deganda nimani tushunasiz?
6. Inflatsyaning namoyon bo‘lish shakllarini keltiring.
7. Inflatsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni sanang.
8. Inflatsiyaga qarshi kurashishning qanday yo‘llari mavjud?
9. Pul muomalasini barqarorlashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Qanday pul islohoti turlarini bilasiz?

VI bob. 0‘ZBEKIST0N RESPUBLIKASINING PUL TIZIMI

6.1. Pul tizimi va uning asosiy elementlari

Pul tizimi — bu mamlakatda tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan tasdiqlangan pul muomalasini tashkil qilish shakli. Pul tizimlari XVI—XVII asrlarda ishlab chiqarish kapita-listik usulining yuzaga kelishi va qaror topishi munosabati bilan shakllangan, biroq shunday bo‘lsa ham, uning ayrim elementlari bundan ancha oldin paydo bo‘lgan. Tovar-pul munosabatlari va ishlab chiqarishning kapitalistik usuli rivojlanishi bilan pul tizi- mida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

Pul tizimi turlari pul qanday shaklda amal qilishiga bog‘liq, ya’ni umumiy ekvivalent — tovar sifatida yoki qiymat belgisi sifatida boiishiga qarab, quyidagicha pul tizimlari mayjud bo‘lgan:

1. Metall pul muomalasi tizimlari.
2. Qog‘oz va kredit pullar muomalasi tizimlari.

Birinchi tizimda metall pul bevosita muomalada bo‘ladi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi, kredit pullar esa metallga al- mashinishi mumkin. Kredit va qog‘oz pullar muomalaga kiritilishi bilan qog‘oz pullar muomalasi tizimi yuzaga kelgan.

Mamlakatda umumiy ekvivalent sifatida qabul qilingan metallga va pul muomalasi bazasiga qarab pul tizimi bimetalizm va monometalizm pul tizimlariga bo‘linadi.

Bimetalizm pul tizimida umumiy ekvivalenti. rolini metall (ko‘pincha oltin va kumush) bajargan, bu tizimda har ikki metall- dan ham tangalarning erkin muomalaga chiqarilishi va ularning cheksiz almashishiga amal qilingan.

Parallel valuta tizimida ikki metalli qiymati stixiyali, metall- ning bozor bahosiga munosib tarzda belgilangan. Bu pul tizimida davlat metallar orasidagi mutanosiblikni o‘rnatib qo‘yan. Oltin va kumush tangalarning chiqarilishi va ularning aholi tomonidan qabul qilinishi ana shu mutanosiblikka muvofiq amalga oshirilgan. Bimetalizm XVI—XVII asrlarda keng tarqalgan bo‘lib, G‘arbiy Yevropaning qator mamlakatlariga XIX asrda yetib kelgan.

1865-yili Fransiya, Belgiya, Shveysariya va Italiya bimetalizm- ni xalqaro sulh — Lotin tanga Ittifoqi yordamida saqlab qolishga urinishgan. Tuzilgan konvensiyada har ikki metalldan ham 5 frank va undan yuqori qiymatli tangalarни chiqarish, oltin va kumush o'rtasida 1:15,5 qiymat mutanosibligini o'rnatish shartlari ko'zda tutilgan.

Biroq bimetallik pul tizimining qo'llanilishi rivojlangan kapi- talistik xo'jalik ehtiyojlariغا mos emas edi, chunki qiymat o'lchovi sifatida bir vaqtning o'zida ikki metall — oltin va kumushning qo'llanilishi pulning ushbu funksiyasi tabiatiga to'g'ri kelmagan. Umumiyligi qiymat o'lchovi sifatida faqat birgina tovar xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, ikki metall orasidagi davlat tomonidan o'rnatiladigan nisbat ularning bozor narxiga to'g'ri kelmas edi. XIX asr oxirida kumush ishlab chiqarishning arzonlashishi va uning qadri yo'qolishi natijasida oltin tangalar muomaladan xazi- naga keta boshladi. Bunda Kopernik-Greshemning qonuni yuzaga chiqqan, ya'ni yomon pullar muomaladan yaxshilarini chiqarib tashlagan. Kapitalizm taraqqiyoti mustahkam pul, yagona umumiyligi ekvivalent bo'lishni talab qildi, shuning uchun bimetalizm o'z o'rnini monometalizmga bo'shatib berdi.

Monometalizm — bu pul tizimida yagona metall (oltin yoki kumush) umumiyligi ekvivalent va pul muomalasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Amal qilayotgan tanga va boshqa qiymat belgilari qimmatbaho metallarga almashiniladi. Kumush monometalizmi Ros- siyada 1843—1852-yillarda, Gollandiyada — 1847— 1875-yillarda mavjud bo'lgan.

Rossiyada kumush monometalizmi tizimi 1839— 1843-yillarda o'tkazilgan pul islohoti natijasida qabul qilingan. Pul birligi kumush rubli bo'lgan. Keyinchalik, muomalaga kredit biletlari ham chiqarilgan, ular kumush tanga bilan teng muomalada qatnash- gan va erkin tarzda metallga almashtirilgan. Lekin bu islohot so'nayotgan krepostnoylik tizimi davlat budjeti va tashqi savdo balansi taqchilligi sharoitida pul muomalasini uzoqroq muddatga tartibga sola olmagan. 1853— 1856-yillardagi Qrim urushi ko'p miqdorda qo'shimcha kredit pullar emissiyasini talab qildi va amalda ular qog'oz pulga aylanib qoldi.

Ilk bor oltin monometalizmi (standart) pul tizimi sifatida Buyuk Britaniyada XVIII asr oxirida qaror topgan va qonun bilan 1816-yilda tasdiqlangan. Ko'pchilik boshqa davlatlarda bu tizim XIX asrning oxirlarida joriy qilingan: Germaniyada — 1871 —1873-yilda,

Shvetsiya, Norvegiya, Daniyada — 1873-yilda, Fransiyada — 1876—1878-yilda, Avstriyada — 1892-yilda, Rossiya va Yaponiyada — 1897-yilda, AQSHda — 1900-yilda.

Qiymat belgilarining oltinga almashinishiga qarab, oltin monometalizmi uch ko'rinishga ajratiladi: oltin tanga standarti, oltin g'isht standarti va oltin valuta standarti. Oltin tanga standarti kapita-lizmning erkin raqobatiga juda mos kelgan: ishlab chiqarish, kredit tizimi, jahon savdo kapitali kelib chiqishining rivojlanishiga yor-dam bergen. Bu standart quyidagi asosiy xususiyatlardan bilan tavsif-lanadi:

- mamlakat ichki muomalasida to'laqonli oltin tanga mavjud bo'madi, oltin pul barcha funksiyalarini bajaradi;
- xususiy shaxslarga tangalarni erkin zarb qilishga ruxsat etiladi (ko'pincha mamlakat zARBxonasi);
- muomaladagi to'la qiymatli bo'limgan pullar (banknota, kredit pullar) erkin va cheksiz tarzda oltin pullarga almashiniladi;
- oltin va chet el valutasini erkin tarzda olib chiqish va olib kirishga hamda erkin oltin bozorlarining amal qilishiga yo'l qo'yiladi.

Oltin tanga standartining amal qilishi Markaziy emissiya bank-larida oltin zaxiralari bo'lishini talab qilgan. Bular tanga muoma-lasining zaxirasi bo'lib xizmat qilgan, banknotalarning oltinga al-mashinishi ta'minlangan va jahon pullari zaxirasi bo'lgan.

1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi natijasida oltin standart barcha mamlakatlarda bekor qilindi (masalan, Buyuk Britaniyada — 1933-yilda, AQSHda — 1933-yilda, Fransiyada — 1936-yilda) va banknotalar muomalasi qaror topdi. 1944-yilda tashkil qilingan Brettonvud Jahon valuta tizimi o'zi bilan davlat-lararo oltin valuta standarti tizimini, boshqacha qilib aytganda, o'z mohiyati bo'yicha erkin konvertatsiyalanadigan valuta asosida davlatlar uchun oltin dollar standarti tizimini qaror toptirgan. Oltin dollar standartining mohiyati shundaki, u faqat markaziy banklar uchun o'rnatilgan va bunda faqat bir valuta — AQSH dollari oltin bilan aloqador bo'lgan. Oltin zaxira salmog'ining susa-yib ketishi sababli qo'yilmalarini dollarga sotish to'xtatildi va oltin dollar standartiga ham yakun yasaldi.

Rivojlangan kapitalizm sharoitida banknotalar kredit tabiatini saqlab qolgan, ular iqtisodiyot, davlatni kreditlash uchun mo'l-jallangan bo'lib, rasmiy chiqariladi va qog'oz pul muomalasi qo-

nuniyatlariga bo‘ysunadi. Pul tizimining holati mamlakat iqtisodiyotiga, ishlab chiqarishning rivojlanishiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Pul tizimi ishlab chiqarish sur’atlarini ushlab turish yoki tez-lashtirishga ta’sir ko‘rsatadi.

6.2. O‘zbekiston Respublikasida pul tizimi va uning rivojlanish tarixi

O‘zbekiston zamini va xalqi oldindan mukammal tarixga, soha-lar bo‘yicha o‘z mustaqil tizimiga ega bo‘lgan. Shuning uchun biz qisqacha pul tizimimizning tarixi to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz. Ba’zi manbalarda keltirilishiga qaraganda, O‘rta Osiyoda birinchi pullar Iskandar Zulqarnayn davrida miloddan awalgi 261—250-yillarda chiqarila boshlangan.

O‘zbekiston Respublikasi zaminida, ya’ni Buxoroda birinchi metall pullar zarb qilingan. Metall pullar zarb qilingunga qadar, Buxoroda savdo-sotiqda pul birligi sifatida bug‘doy va qog‘oz material ishlatalgan.

Birinchi metall pullar Buxoroda 700-yillarda zarb qilingan. Bu pullar kumush tangalar bo‘lib, Buxoro shohi Kana Buxorxudot tomonidan chiqarilgan. Tanga yuqori sifatga ega bo‘lgan toza ku-mushdan zarb qilingan. Tanga o‘rtasida shohning tasviri va uning atrofiga Qur‘on oyatlaridan yozilgan. Bu kumush pullar «dirham» deb atalgan. Buxorxudot 40 yil davlatni boshqargandan keyin, taxtga xalifa Abu Bakr Siddiq o‘tirgan. Abu Bakr, keyinchalik shoh Horun ar-Rashid davrida Buxoroda pul tizimi barqaror bo‘lib, savdo ko‘proq dirhamlarda olib borilgan. Bu orada Xorazm ham o‘zining kumush tangalarini muomalaga kiritgan. Lekin aholi ko‘proq dirhamlar bilan savdo olib borishni afzal ko‘rgan. Dirham-larga bo‘lgan talabning oshishi, Buxo‘oning ko‘pgina boshqa mamlakatlar bilan savdo olib borishi hamda dirhamlarning juda yuqori sifatga ega bo‘lishi asta-sekinlik bilan ularning muomaladan yo‘qolishiga olib kelgan.

801-yilning kuzida taxtga Gidrif kelgan va u pul tizimini barqarorlashtirish maqsadida muomalaga olti turdag‘i oltin, kumush, teri, temir va mis, har xil metall qorishmasidan zarb qilingan pul birliklarini chiqargan. Bu pullar xalq orasida «gidrifl»lar nomini olgan. Kumush gidrifilar dirhamlarga qaraganda sifati past va kumush, temir qorishmasi natijasida qoramitir rangda bo‘lgan. Bu pullar aholi orasida muomalada yaxshi qabul qilinmagan, shu-

ning uchun davlat oldingi pulga nisbatan yangi kumush gidrifi- ning majburiy kursini belgilab qo‘yan, ya’ni 6 gidrifi 1 dirhamga tenglashtirilib, asta-sekinlik bilan soliq va toiovlarni faqat gidrifida olishni joriy qilish orqali 1 gidrifini 1 dirhamga tenglashtirishga erishilgan. Davlat tomonidan har xil soliq va to’lovlarni faqat gidrifida to’lashni joriy qilish natijasida 822-yilga kelib, 100 kumush dirham 70 gidrifiga, 1 gidrifi tillo 7,5 gidrifi kumushga tenglash- tirlgan. Gidrifilar Buxoroda Mahak qasrida zARB qilingan.

Shuni ta’kidlamoqchimizki, birinchi rus davlatida muomalada paydo bo‘lgan metall pullar dirhamlar hisoblanadi. Rus davlatida dirhamlar bir necha bo‘laklarga bo‘linib muomalada ishlatilgan. Topilmalar shuni ko‘rsatganki, rus davlatida IX—X asrda savdoda qo‘llanilgan dirhamlar 40 bo‘lakka bo‘linib, har bir kumush bo‘lakchasi pul birligi sifatida ishlatilgan. Keyinchalik rus davlati- ga, Yevropa davlatlari metall pullari kirib kelgan va faqat X asrning oxiridagina Kiyev knazi Vladimir tomonidan birinchi rus tan- galari — «grivni» zARB qilingan.

X asrning o‘rtalari (943—954-yillar)da Ismoil Somoni davrida Buxoro maydoni kengayib, hozirgi 0‘rta Osiyoni o‘z ichiga olgan va u uch hamda undan ortiq Yevropa mamlakati maydoniga teng kelgan. Somoniylar davrida pul tizimi juda yuqori darajada rivojlangan. Muomalaga yana sifatli kumush tangalar — dirhamlar, oltin pullar kiritilgan. Bu pullar muomalada donalab va og‘irligi o‘lchab, qabul qilingan. Yevropa davlatlari bilan keng savdo-sotiq olib borishi natijasida, yuqori sifatli kumush tangalar Yevropa va Qadimgi Rusga oqib o‘tgani bois, bu dirhamlar bo‘laklarga bo‘linib, pul birligi sifatida muomalada ishlatilgan.

XI asrd[^] somoniylar davlatidan turklarning o‘rin olishi pul muomalasini ham o‘zgartirsa-da, oltin va kumush tangalar pul tizimining asosiy elementi sifatida saqlanib qoldi. XII—XIII asrlarda qoraxoniylar, xorazmshohlar, keyinchalik temuriylar davrida muomalada, asosan, oltin, kumush, mis tangalar ko‘plab zARB qilingan. Shayboniyxon davrida (1507-yilda) pul islohoti o‘tkazilib, cheklangan miqdorda muomalaga oltin, kumush, mis, mis va kumush qorishmasidan tanga pullar chiqarilgan. Oltin tangalar «tillo», kumush tanga «tanga», mis tanga «dinor» deb nomlangan va eng mayda tanga dinorning 1/6 qismiga teng bo‘lib «pul» deb nomlangan. Temuriylar davrida «amiri» dirhamlari muomalaga chiqarilgan. Ularning vazni 5,7—6,0 g atrofida bo‘lgan va keyinchalik

dirhamlarda kumush miqdorini kamaytirilgani uchun tangalar vazni ham kamayib borgan.

O‘zbekiston pul tizimining yana bir muhim sanasi bu 1708—1709-yillarda Buxoroda o‘tkazilgan pul islohotidir. U shoh Ubaydul-laxon tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib, muomalaga past sifatli tangalar chiqarilgan. Tangalardagi kumush miqdori oldingiga nisbatan kam bo‘lgan va ular urush bilan bog‘liq harbiy xarajatlarni qoplash uchun zarb qilingan. Oldingi 1 kumush tanganing og‘irligi 1 misqloga teng bo‘lgan. Pul islohotiga asosan, 1 kumush tanga 4 ga boiniib, endi to‘rt kumush tanga zerb qilingan va ularning har biri- ning vazni 1 misqloga teng bo‘lgan. Natijada kumush tanganing sifati tushgan. Muomaladagi pullar «yaxshi» va «yomon» pullarga bo‘lingan. 1 misql 24 nuxudga tenglashtirilgan, ya’ni 24 nuxud = 1 misql, 1 misql 4,8 g kumushga teng bo‘lgan. Ubaydullaxon o‘tkazgan pul islohotining xususiyati shundaki, u tangadagi kumush miqdorini eng minimal darajagacha kamaytirgan, bunday hoi ungacha va undan keyin amaliyotda qo‘llanilgan emas.

Qariyb yuz yillardan keyin, XVIII asr o‘rtalarida Muhammad Rahimxon davrida tangadagi kumush miqdori 30 % gacha oshirilgan. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlariga kelib, Buxoro yana yuqori sifatli pul tizimiga ega bo‘lgan.

Rossiyaning O‘rtalari Osiyoga yurishi natijasida, 1865-yilda Toshkent ruslar qo‘liga o‘tgan. Keyinchalik O‘ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Urgut Rossiya tasarrufiga o‘tgan. Buxoro amiri Rossiya bilan do‘slik shartnomasini tuzgan va yarim musta- qil davlat bo‘lib o‘zining mustaqil pul tizimini saqlab qolgan hamda mustaqil pul siyosatini olib borgan. O‘sha davrda muomalaga oltin, kumush, mis tangalar chiqarilgan. 1 tillo Rossiyaning 6 rubl 80 kopeekka, 1 tanga (kumush) 15 kopeekka, 1 mis tanga — (mira) 4 kopeekka, pul 1/4 kopeekka tenglashtirilgan. Muomalada ko‘proq kumush tanga ishlatalilib, uning kursi 1 tangaga 12 kopeekdan 20 kopeekkacha o‘zgarib turgan. O‘tgan asrning 90-yillarida Rossiya Toshkent va Qo‘qonda, keyinchalik, Buxoroda o‘z banklarini ochgan. Muomalaga rus oltin, kumush tangalari va kredit biletlari kirib kelgan. Buxoroda oltin, kumush tangadan ko‘ra, kredit biletlari mashhur bo‘lgan. Buxoro beklariga amirga to‘laydigan soliq va boshqa to‘lov, in’omlarini kumush tangada karvonlarda olib kelgandan ko‘ra, kredit biletlarda olib kelish arzon va oson bo‘lgan. Shuning uchun kumushlar rus kredit biletlariga almashтирilган. Rus banklarida kumush tangalar qaytib muomalaga chiqmagan.

Ular Rossiyaga jo‘natilgan va Peterburgdagi zARBxonada qayta ishlatilib, rus kumush tangasi sifatida muomalaga chiqarilgan.

Buxoro tangasi 84 % li probadagi kumushdan tayyorlangani uchun rus kumush tangasidan ancha sifatli bo‘lgan va u qayta ishlanganda bir Buxoro tangasidan bir necha rus tangasi zarb qilingan. Bu esa Rossiya xazinasiga juda katta foyda keltirgan. Hisob- kitoblarni olib borishda, tilloni rubbla aylantirishda qiyinchiliklar boigani uchun chor hukumati Buxoro pul tizimini Rossiyaga birlashtirish to‘g‘risidagi masalani qo‘ygan.

Turkistonning Rossiya tomonidan istilo etilishi natijasida XX asrning boshlarida Turkistonda rus kredit biletlari, mahalliy veksellar, keyinchalik «sovznaklar», «turkbon»lar, chervoneslar muomalada bo‘lgan. 20-yillar o‘rtalaridan boshlab, yagona pul tizimi barpo qilinib, sobiq SSSR hududida rubl pul birligi sifatida qabul qilingan va mustaqillikacha pul muomalasi shu pul birligida olib borilgan.

6.3. O‘zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi

Ma’lumki, har bir davlat o‘zining pul tizimiga ega bo‘ladi. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishi uning mustaqil pul tizimiga ega bo‘lishini taqozo qildi. Mamlakatimiz Prezidenti «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» nomli asarida «Faqat milliy valuta kuchli bo‘lgan taqdirdagina iqtisodiy mustahkam bo‘ladi», deb ta’kidlagan edi. Shu bois, mamlakat mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlab, O‘zbekistonda milliy valutani joriy qilish va uning barqarorligini ta’minalash bo‘rasida qator ishlar olib borildi. Mustaqil pul tizimi joriy qilinishining I bosqichi 1993-yildan boshlab, «so‘m-kupon»larning muomalaga chiqarilishi hisoblanadi. O‘zbekiston pul tizimini qurishning ikkinchi bosqichi — 1994-yil iyuldan boshlab, milliy valuta — «so‘m»ning muomalaga chiqarilishi bo‘lib, u O‘zbekiston tarixida juda katta ahamiyatga ega.

Har bir davlatning pul tizimi ma’lum elementlardan tashkil topadi va qonun asosida yuqori davlat organlari orqali boshqarib boriladi. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari quyida- gilar hisoblanadi:

- pul birligining nomi;
- pul birligining turlari — qog‘oz va metall pullar;

- ularni muomalaga chiqarish qoidalari;
- pul, kredit, valuta boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari;
- naqd pulsiz to'lov aylanmasi va kredit pullar (chek, veksel) muomalasini olib borishda davlat tomonidan belgilangan shartlar;
- milliy valutani chetga olib chiqish va chetdan olib kelish qoidalari;
- xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish asoslari;
- milliy valutani chet el valutasiga almashtirish tartibi va davlat tomonidan o'rnatilgan valuta kursi.

Alohidagi olingan davlatning pul tizimi o'z xususiyallariga ega bo'lib, uning elementlari u yoki bu tomonga o'zgarishi mumkin. Pul tizimi ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi, desak xato bo'lmasa kerak. Shuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni pul tizimini obyektiv talablar, ya'ni pul tizimining yagona bo'li- shi, pul birligi qiyamatining doimiyligi va pul muomalasining talabga qarab o'zgarib turishi kerakligini qo'yadi.

Sobiq SSSRning davlat sifatida tarqab ketishi markazlashgan pul tizimining ham tugashiga olib keldi. Natijada ba'zi respublikalar rublni milliy valutasi sifatida ishlatib turgani holda o'z pul siyosa- tini olib bordi. Estoniya, Latviya, Litva, Ukraina birinchi bo'lib rubl zonasidan chiqqan holda o'z milliy valutasini qabul qilishdi. Keyinchalik, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Moldaviyabuyo'nalishni davom ettirishdi. Rubl tizimida vujudga kelgan tartibsizliklar, milliy valutalarva kuponlarning muomalaga chiqarilishi, yagona pul— rubl zonasining tugashiga, uning har xil kursga ega bo'lishiga olib keldi.

1992-yil oxiriga kelib, Rossiyada tovarlar bahosining oylik o'sishi 25—30 % gacha ko'tarildi. Moskva valuta birjasida rublning nominal qiymati bir.doUarga 125 rubldan, 1992-yil dekabrda 485 rublgacha, 1993-yil martda 1 dollar 660 rublgacha tenglashdi. Pul qadrining tushishi, naqd pul yetishmovchiligiga, oxiri esa ish haqi, nafaqalarni to'lashda qiyinchiliklar bo'lishiga olib keldi. Sobiq SSSR davridagi oxirgi banklar to'g'risidagi qonunga asosan, davlat banki o'rniga Markaziy bank, mustaqil davlatlarda Markaziy (yoki milliy) banklar tashkil qilindi.

Rossiya Markaziy banki pul emissiyasi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarish huquqini o'z qo'Miga oldi. Bundan tashqari, davlat pul belgilarini bosib chiqaruvchi muassasa Rossiyada joy- lashgan edi. Mustaqil davlatlar Markaziy banklarining pul muoma-

lasini olib borish bo'yicha harakatlari cheklagan edi. Natijada pul taqchilligi yuzaga keldi va u alohida olingan respublikalarda har xil darajada namoyon bo'ldi. Masalan, Rossiya Markaziy banki muomalaga chiqqagan pullarda Rossiyaning salmog'i 1991-yil dekabrda 64 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1992-yil iyunga kelib emissiyaning 77 foizi Rossiyan naqd pul bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Qol-gan barcha respublikalarni naqd pul bilan ta'minlash uchun muomalaga chiqarilgan pullarning faqat 23 % gacha sarflangan, ya'ni boshqa respublikalar ehtiyojini pul bilan ta'minlash salmog'i tushib ketgan. Masalan, Belorussiya, Gruziyaning salmog'i 3 % dan 1,5 % gacha, Ukraina va Boltiqbo'yи respublikalarining salmog'i yanada ko'proq qisqargan. O'zbekistonda ham pul resurslari taqchilligi naqd pulga bo'lgan talabning qondirilmaganligida namoyon bo'lgan. Shu iqtisodiy tanglik sharoitida pul tizimini shakllant-irish bo'vicha mustaqil davlatlar oldida ikki muqobil yo'l turardi:

- yagona pul tizimi zonasasi — rubl zonasida qolish va yagona pul siyosatini olib borish;
- o'z milliy valutasini muomalaga chiqarib, o'z pul tizimiga ega bo'lish va qo'shni mamlakatlar inflatsiyasidan o'zini himoya qilish.

Pul taqchilligi davom etilayotgan va Rossiya rubllari barqaror bo'Imagan sharoitda pul taqchilligini yo'qotish maqsadida ko'p-gina respublikalar, jumladan, O'zbekistonda ham mustaqillikning birinchi yillarda pul tizimini shakllantirish loyihasi tuzildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, muomalaga kupon talonlar chiqarildi va keyinchalik O'zbekiston o'zining milliy valutasini muomalaga chiqardi.

O'zbekiston milliy pul tizimining asosiy elementi bo'lmish so'm jahiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Shuning uchun pul tizimining asosiy vazifasi milliy pulimizning qadrini mustahkam- lashdan iborat. Bu juda mas'uliyatli va oson bo'Imagan vazifa. O'zbekistonning o'z iqtisodiyotini bozor talablariga mos ravishda rivojlantirishga qaratishi, bozor iqtisodiyotiga o'tishda mamlaka-timidning o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi milliy valutaning barqaror bo'lishini taqozo qiladi.

Hozirgi kunimiz, iqtisodiyotimizning rivojlanishida amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlar, katta qurilishlar va moliyalashtirishlar O'zbekiston iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun to'g'ri yo'l tanganini ko'rsatib turibdi. Zero, mustaqil pul tizimiga ega bo'lmash-dan iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat barpo etish mumkin emas.

6.4. Pul tizimining barqarorligi va milliy valutaning konvertabelligini ta'minlash yo'llari

Har bir jamiyatda pulga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni rag'batlantiradi, pul qadri- ning tushishi esa tartibsizlikka, jamiyat rivojlanishida boshqa to'sqinliklar bo'lismiga olib kelishi mumkin. Pulning barqarorligi deganda, pulning sotib olish qiymatining o'zgarmasligi va valuta doimiyligi tushuniladi.

Pulning sotib olish qobiliyati shu pul birligiga to'g'ri keluvchi tovar va xizmatlar miqdori bilan ifodalanadi. Binobarin, pulning sotib olish qobiliyatini ifodalovchi «ko'rsatkich» tovarlar va xizmatlar bahosi hisoblanadi. Agar tovar va xizmatlar bahosi barqaror bo'lsa, pulning sotib olish qobiliyati ham barqaror bo'Madi. Agar pul o'zgarmagan sharoitda tovarlar bahosi oshadigan bo'lsa, bu hoi pulning sotib olish qobiliyati tushganini ko'rsatadi va ak-sincha, tovar va xizmatlar bahosining tushishi pulning sotib olish qobiliyatining oshganligidan dalolat beradi. Demak, pulning qadri tovarlar va xizmatlar bahosiga teskari proporsional — narx pasaysa, pul qadri oshadi yoki narx oshsa, pulning qadri tushadi.

Pul tovar bo'lganligi uchun ham unga talab va taklif ta'sir qiladi. Pul taklifi muomalaga chiqarilgan turli shakldagi pullarning yig'indisi bo'lib, u talabdan ortiq yoki kam bo'lishi mumkin. Muomalaga chiqarilgan pul miqdori pulning aylanish tezligiga qarab ham o'zgarib turishi mumkin.

Pulga bo'lgan talab mamlakat pul aylanmasi asosida aniqlanadi. Pul talabi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, aholi, davlat tashkilotlari olib boradigan naqd pullik va naqd pulsiz aylanma uchun zarur pul miqdori asosida aniqlanadi. Pulga bo'lgan ehtiyoj xo'jalik subyektlari — ishlab ch'qamvchilar va iste'molchilar o'rta-sida bo'ladigan pullik jarayonlarning ko'lamiga va tezligiga bog'Miq. Pulni qo'llash yo'lli bilan bajariladigan jarayonlarning ko'lami qancha keng bo'lsa, pulga bo'ladigan talab shuncha ko'p bo'ladi. Agar pul bilan bog'liq operatsiyalar tez bajarilsa, pulga bo'lgan talab shuncha kam bo'ladi, demak, muomalaga kam pul chiqarish kerak bo'ladi.

Pulga bo'lgan taklif va talabning tengligi pul muvozanatini bildiradi. Pulga bo'lgan taklif, unga bo'lgan talabdan oshmasa, pul barqaror, deb xulosa qilish mumkin, aksincha bo'lsa, pulning qadri tushib ketadi va puldan qochish jarayoni boshlanadi. Amaliyotda

pulni jamg‘argandan ko‘ra, uni tovarlarga aylantirib qo'yish yoki boshqa bir qadrliroq valutani jamg‘arish qulay bo‘lib qoladi.

Pulning barqarorligini ta'minlashning asosiy yo‘nalishlaridan yana biri — budget taqchilligining bo‘lmasligi. Davlat budgeti xara- jatlarining daromadlaridan oshib ketishi natijasida yuzaga keladi- gan budget taqchilligi muomalaga tovarlar bilan ta’milangan pullar chiqarish hisobidan qoplanadi. Bu tadbir muomalada ta’milangan pulning ko‘payishiga, oqibatda pul qadrining tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun har bir mamlakat pul taqchilligi bo‘lmas- ligiga yoki uning salmog‘i sezilarsiz bo‘lishiga erishishi kerak. Keyingi yillarda O‘zbekistonda Davlat budgeti ning taqchilligiga barham berili- shi va uning profitsit bilan ijro qilinishi inflatsiya darajasining pasayi- shiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Pulning barqarorligini ta’milashning yana bir yo‘nalishi bu — oltin, valuta zaxiralarining mavjudligi va ularning ko‘payishi. Oltin, valuta zaxiralarining salmog‘i qancha ko‘p bo‘lsa, pul shuncha barqaror bo‘lishi mumkin.

Milliy valutani mustahkamlashning yana bir sharti — in- flatsiyaga qarshi puxta o‘ylangan siyosat yuritish. Muomalaga chiqarilgan har bir so‘m muayyan miqdordagi tovar va xizmatlar bilan ta’milangan bo‘lishi zarur. Ichki bozorni tovarlar bilan to‘l- dirish, aholiga xizmat ko‘rsatishning sifati va turlarini oshirish ham milliy valutaning barqarorligini ta’milashning asosi hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sobiq Ittifoq pul tizimi haqida nimalarни bilasiz?
2. davlatlarining Moskvada bo‘lib o’tgan davlatlararo majlisi (1992-yil 6-sentabr)da qanday masalalar ko‘rilgan edi?
- 3; Rossiya hukumati MDH davlatlarining rubl zonasida quiishi uchun qanday shartlar qo‘yan?**
4. Nima uchun O‘zbekiston o‘z milliy pul tizimiga o‘tishga qaror qildi?
5. O‘zbekistonda pul islohoti necha bosqichda amalga oshirildi?
6. Rublni kuponiga almashtrish qanday tartibda o‘tkazilgan?
7. So‘m-kupon qachon muomalaga kiritilgan?
8. O‘zbekistonning milliy valutasi «so‘m» qachon va qanday tartibda muomalaga kiritilgan?
9. O‘zbekiston Respublikasi pul tizimining asosiy elementlari nimadan iborat?
10. O‘zbekiston milliy valutasining ichki va tashqi konvertatsiyasiga qanday erishish mumkin?

VII bob. KREDITNING ZARURLIGI, MOHIYATI VA FUNKSIYALARI

7.1. Fondlar aylanishining o‘ziga xos xususiyatlari va kredit zarurligining boshqa omillari

O‘zining tarixiy rivojlanishida kredit bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Ilk shakllanish bosqichining asosiy belgisi ssuda kapitali bozorida maxsus vositachilarning yo‘qligi edi. Kredit munosabatlari bo‘sh pul mablag¹ larning egasi va qarz oluvchi o‘rtasida bevosita amalga oshirilar edi. Bu yerda kredit sudxo'rlik kapitali sifatida namoyon bo‘ladi. Uning o‘ziga xos belgiali sifatida quyi-dagilarni belgilab o‘tish mumkin:

1. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi, to‘g‘ridan to‘g‘ri kelishuvga asoslangan qarz munosabatlarining toiq markazlashmaganligi.
2. Mablag‘larni taqsimlashning cheklanganligi.
3. Qarz mablag‘laridan foydalanganligi uchun juda yuqori foiz me’yorlari belgilanganligi va boshqalar.

Bu bosqichning tugallanishi ishlab chiqarish maqsadlari uchun moliyaviy qarz resurslariga bo‘lgan ehtiyojning keskin oshishiga olib kelgan kapitalistik ishlab chiqarish usuli bilan bog‘liq. Alovida olingan sudxo‘rlarning individual kapitallari ko‘rsatilgan talablarni qondirish uchun yetarli emas edi. Bu esa ba’zi mulkdorlar tomonidan boshqa mulkdorlar pul mablag‘larini jalb qilish hisobidan o‘z faoliyatini olib borishga majbur qilardi.

Tarkibi jihatdan rivojlanish. Kredit rivojlanishining bu bosqichi ssuda kapitali bozorida kredit-moliya tashkilotlari ko‘rinishidagi maxsus vositachilarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Katta sudxo‘rlik va sarroflik idoralari zaminida vujudga kelgan dastlabki banklar o‘z zimmasiga ko‘pchilik kredit institutlariga keyinchalik an’anaviy bo‘lib qolgan eng kerakli funksiyalarni oldi. Bular:

- bo‘sh moliyaviy mablag‘larni foiz bilan vaqtida to‘lash majburiyati asosida qarz oluvchiga berishga asoslanib jamg‘arish;
- yuridik va jismoniy shaxslar uchun har xil to‘lov va hisob-kitoblar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish (keyinchalik davlat uchun ham);

- qator maxsus moliyaviy operatsiyalami o'tkazish (masalan, veksel munosabati mexanizmi bo'yicha xizmat ko'rsatish va boshq.).

Maxsus vositachilarga ssuda kapitali bozorida bo'lgan talab, shuningdek, foydaning yuqori me'yori bank tizimining boshqa faoliyat sohalaridan keladigan kapital oqimi hisobiga rivojlanishi- ni aniqlab beradi (yangi vujudga kelayotgan kredit tashkilotlari- ning tuzuvchilar sudxo'r va sarroflar boimay, balki sanoat va savdo kapitalistlari edi). Rivojlanish bosqichida ssuda kapitali bozo- ridagi munosabatlar ma'lum darajada shakliy tus ola boshladi, kreditlashning ma'lum bir turdag'i jarayonlari o'rnatildi, ssuda kapitalining o'rtacha mintaqaviy va milliy me'yorlari o'rnatildi va h.k. Biroq kredit tashkilotlarining faoliyati haligacha markazlash- magan edi. Bu esa ssuda kapitali bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilib, iqtisodiyotning davriy rivojlanish sharoitlarida moliyaviy bo- zoming boshqa bo'g'inlarida nomutanosibliklami keltirib chiqardi.

Hozirgi ahvoli. Bu bosqichning asosiy belgisi — iqtisodiyotda kredit munosabatlarining davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishi. Davlat miqyosida kredit munosabatlarining markaz- lashuvi Markaziy bank yordamida amalga oshiriladi. Dastlabki umummilliy davlat kredit institutlarining paydo bo'lishi naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borish uchun qo'l keldi hamda tijorat banklarining operatsiyalari va xizmat ko'rsatish kolamining kenga- yishiga olib keldi, masalan, fond bozoriga xizmat ko'rsatish bo'yicha. Keyinchalik Markaziy banklar faoliyati bozor iqtisodi- yotini barqarorlashtirishning samarali omili bo'lgan kredit das- taklarini ishlatish bo'yicha yo'naltirildi. Bu esa davlatga qarashli bo'lm^gan kredit tashkilotlarining nazorat qilinishi kuchaytiri- lishini talab qildi. Shuningdek, iqtisodiyotda informatsion texno- logyaning rivojlanishi, global bank tarmoqlarining kompyuter kommunikatsiyalari va ma'lumotlar bazalarining shakllanishi kredit munosabatlarini yangi sifatlari darajaga, ya'ni mijozga xizmat ko'r- satish bilan birga, ularning moliyaviy faoliyatining hamma jabha- lariga, shuningdek, xalqaro bozorga ham tarqalishiga olib keldi.

Jamiyat faoliyatining o'ta muhim jihatni — bu ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi, mahsulot- larvaxizmatlardan iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mehnat omillari ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta'minlanishi muam- modir. Bu muammo o'z yechimini kredit orqali topadi.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagи takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo‘lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini, nafaqat, ichki iste’mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan, balki, asosan, yuridik jihatdan mustaqil, bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi tu- ruvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko‘rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fond- larning bir marta aylanishidagi qiymatning harakati kredit munosabatlari paydo bo‘lishining iqtisodiy asosidir. Bizga ma’lumki, korxonalarining ishlab chiqarish fondlari (qiymat shaklidagi mehnat vositalari va predmetlari) muayyan bir muddatda pul (**P**), ishlab chiqarish va tovar (7) shakllarida bo‘lishi mumkin. Korxona ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishini quyidagicha ifo- dalash mumkin:

$$P — T \dots \text{Ishlab chiqarish} \dots T' — P$$

Fondlar doiraviy aylanishining birinchi bosqichida (**P—T**) pul fondlari ishlab chiqarish fondlariga aylanishi sodir bo‘ladi. Bunda mavjud pul mablag‘lariga mehnat predmetlari va vositalari sotib olinadi. Fondlar aylanishining ikkinchi bosqichida ishlab chiqarish jarayoni sodir bo‘lib, bunda tayyor mahsulotni yaratish ro‘y beradi, mahsulot ko‘rinishi tovar ko‘rinishini oladi, ishlab chiqarish vositalari qiymatiga yangi qiymat qo‘shiladi.

Uchinchi bosqichda (**T — P'**) tayyor mahsulot sotiladi. Tovar o‘zining boshlang‘ich pul shakliga o‘tadi, lekin bunda tovar ham, pul ham o‘zining ishlab chiqarish jarayonidan oldingi ho- latiga nisbatan qiymat jihatdan va miqdor jihatdan ortgan holda bo‘ladi.

Mahsulotni sotgandan keyin olingan pul fondlari, o‘z navbatida, yana xarajat qilinadi, ya’ni yangi ishlab chiqarish jarayoni uchun yangi ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi, ish haqi to‘lanadi va boshqa xarajatlarga sarflanadi. Shunday qilib, aylanma mablag‘ Marning aylanishi qayta-qayta takrorlanaveradi va fondlarning doiraviy aylanishi vujudga keladi.

Fondlarning har bir individual doiraviy aylanishi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning bir qismi sifatida boshqa doiraviy ay- lanishlar bilan uzviy bog‘langan. Ma’lumki, 1-bo‘lim korxona- lari tomonidan yaratilgan mahsulot 2-bo‘lim korxonalarini va noishlab

chiqarish sohasi tomonidan iste'mol qilinadi. 0'z navbatida, 2-bo'lim mahsuloti, nafaqat, o'z iste'molchilar ehtiyojini, shuningdek, 1-bo'lim iste'molchilarining ham ehtiyojini qondirish uchun ishlataladi. Bulaming hammasi aylanma fondlarining doiraviy aylanishi uzluksizligidan va fondlarning individual aylanishlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi.

Asosiy fondlar qiymati harakati jarayonida resurslarning ishlab chiqarishdan bo'shatilishi ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat xizmat qiladi va ularning qiymati tovar mahsuloti qiymatiga asta-sekin o'tib boradi. Asosiy fondlarning asta-sekin eskirish qiymati o'z o'lchami bo'yicha korxonaning yangi vositalar sotib olish hajmini ta'minlay olmaydi.

Fondlarning aylanishida asosiy fondlarning o'zgaruvchan harakati ro'y beradi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bunda ba'zi kor-xonalarda bo'sh pul mablag'lari to'planib qoladi, boshqalarida esa katta xarajatlarga ehtiyoj tufayli mablagMar yetislimovchiligi yuzaga keladi. Xuddi shunday vaziyat aylanma fondlari harakatida ham vujudga keladi. Bu yerda ularning uzluksiz aylanishidagi tebranishlar yanada xilma-xildir. Dastawal bu tebranishlar ishlab chiqarishning mavsumiyligi, mahsulot ishlab chiqarish davri bilan mahsulotni sotish vaqtini bir-biriga mos kelmasligi tufayli vujudga keladi.

MablagMar harakatidagi tebranishlar tovar mahsulotini jo'na-tish bilan bog'liq xarajatlar tufayli ham vujudga keladi. Ma'lumki, mahsulotni jo'natish vaqtini bilan uni sotishdan olinadigan tushumning koixona hisobraqamiga kelib tushish vaqtini ko'p hollarda" to'g'ri kelmaydi. Bu hoi turlicha sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Masalan, mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxona bilan uni iste'mol qiluvchi korxona bir-biridan muayyan maso-fada joylashganligi, mol sotib oluvchi korxonaning ayni vaqtida tovar va xizmatlarga to'lash uchun hisob-kitob raqamlarida pul mablag'larining yetarli emasligi va boshqalar tufayli kelib chiqadi.

Fondlarning doiraviy aylanishidagi tebranishlar zaminida ishlab chiqarish vaqtini bilan mahsulotlarni sotish vaqtining mos kelmay qolishidan vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi munosabatlarning paydo bo'lishi tabiiy holga aylanadi. Bu munosabatlar mablag'larning vaqtincha bekor turib qolishi bilan bu mablag'larga bo'Mgan ehtiyoj o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi. Bunday munosabatlar, odatda, kredit munosabatlar,

deb yuritiladi va kredit munosabatlar asosida iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan ***kredit tushunchasi*** yuzaga keladi.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- ***birinchidan***, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo‘sh qolgan mablag‘lar harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

- ***ikkinchidan***, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Kreditning vujudga kelishi reallikka aylanishi uchun muayyan sharoitlar bo‘lishi zarur. Shu masala bo‘yicha ba’zi iqtisodiy ada-biyotlarda keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, iqtisodchilar tomonidan kredit yuzaga kelishining quyidagi shartlariga ko‘proq e’tibor berilganini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Kredit munosabati bo‘lishi uchun:

- ***birinchidan***, kredit munosabati ishtirokchilari — qarz beruvchi va qarz oluvchi — huquqiy jihatdan mustaqil subyekt bo‘lishi kerak. Mustaqil subyekt sifatida har ikki tomon bir-biri bilan o‘zaro aloqalardan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishini moddiy jihatdan kafolatlay olishi lozim. Majburiyatlarni bajara olish qo- biliyatini hisobga olgan holda mustaqil huquqiy subyekt sifatida tomonlar iqtisodiy munosabatga kirishishlari darkor;

- ***ikkinchidan***, qarz beruvchi va qarz oluvchi manfaatlari bir- biriga mos tushgan taqdirdagina kredit zaruriyatga aylanadi. Bu manfaatlар, awalambor, obyektiv jarayonlar, o‘zaro manfaat- larni taqozo etuvchi aniq vaziyat bilan bog‘liq.

Kreditor (qarz beruvchi) tomonidan pul mablag‘larini qarzga berish bo‘yicha, qarz oluvchi tomonidan esa shu mablag‘larni olish bo‘yicha qiziqish tug‘ilgan taqdirdagina kredit munosabatlari vujudga keladi.

Kreditning vujudga kelishi kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining yo‘nalishiga bog‘liq. Tomonlar manfaatlari- ning mos kelishi kredit shartnomasi tuzilishini ta‘minlaydi. Lekin kredit munosabatlari ishtirokchilari manfaati, nafaqat, vaqt va makon jihatdan, shuningdek, sifat jihatdan ham mos tushgan taqdirdagina bu munosabatlar reallikka aylanadi. Shu bilan birga, kreditning bu muhim sifatlari kredit munosabatlari sodir bo‘li- shining asosiy sababi bo‘lolmaydi. Kredit vujudga kelishi uchun, yuqorida bayon etilganidek, aniq bir iqtisodiy asos — fondlarning doiraviy aylanishi va shunga o‘xshash boshqa aniq sharoitlar bo‘lishi

zarur. Faqatgina ana shu ta'sir etuvchi omillar boigan taqdirdagina, kreditning vujudga kelishi reallikka aylanadi.

Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda kreditning zarurligi xususida bir qator boshqa fikrlar ham uchraydi. Masalan, kredit korxonalar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish uchun zarur, deb ta'kidlanadi. Agar bu fikr to'g'ri deb qaraydigan bo'lsak, kreditning zarurligi faqat kreditor uchun tushunarli bo'ladi, chunki u qarz berish orqali qarz oluvchi faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday sharoitda kreditning chegarasi ishlab chiqarish fondlari doiraviy aylanishiga asoslangan obyektiv jarayonlarga emas, balki bank kredit operatsiyalari orqali qarz oluvchining faoliyatini nazorat qilish istagiga bog'liq bo'lib qoladi. Bu mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytish mumkinki, kreditning obyektiv zarurligi takror ishlab chiqarish jarayonida fondlarning doiraviy aylanishi qonuniyatlariga asoslangandir.

Kreditga zamrat tug'ilganda, quyidagi manbalardagi bo'sh mablag'lardan kredit resurslar sifatida foydalanish mumkin. Bu manbalar asosan quyidagilardir:

- asosiy fondlarni tiklash, kapital ta'mirlash uchun ajrati-ladigan amortizatsiya sifatidagi pul mablaglari;
- tovarlarni sotish va yangi moddiy resurslarni sotib olish vaqtinining bir-biriga mos kelmaganligi tufayli yuzaga kelgan bo'sh pul mablag'lari;
- tovarlar realizatsiyasidan tushgan tushum bilan ish haqini to'lash vaqtлari orasida vaqtincha bo'sh turib qolgan pul mablag'Iari;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida yig'iladi-gariv^fkapitalJashtirish uchun mo'ljallangan qo'shimcha mablag'lar;
- shaxsiy sektor daromadlari, jamg'armalari va boshqa bo'sh pul mablag'lari.

Kreditning zarurligini ifodalovchi omillar mohiyatini ochishda, ularning har birining ahamiyatini kredit shartnomasini tuzish darajasigacha olib kelish xato hisoblanadi. Alovida olingan bir omilning o'zi kredit berilishi uchun u yoki bu darajada yetarli bo'imasligi mumkin. Masalan, aytaylik korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi jarayonida ularda kreditga ehtiyoj tug'iladi. Shunga asosan, kredit takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarurligidan kelib chiqadi, degan shartga asoslangan holda kredit berilishi kerak. Ammo bunda qo'shimcha resurslarga muhtojlik o'z-o'zidan avtomatik tarzda kredit

berilishi darkorligini ifodalamaydi. Buning uchun kreditning zarur- ligini ifodalovchi boshqa sharoitlar ham mavjud bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri kredit munosabatlarini rivojlantirishda banklar kredit uchun xarak- terli muhim shartlar va qonunlarga asoslangan holda kreditlash jarayonini amalga oshirishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarining xo'jalik hisobida ish yuritishida ishlab chiqarish jarayonining uzuksizligini ta'minlash, korxonaning asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishining to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasining maromiyligini saqlash, korxonalar tomonidan tovar mahsulotini sotganda sotilgan tovar uchun to'lov summasini olish obyektiv va subyektiv sabablar tufayli kechiktirilgan holda kreditning zarurligi kelib chiqadi.

Ammo kredit berish uning zarurligi bilangina kifoyalanib qolmasdan, uning maqsadli ishlatilishi shart-sharoitlari bilan ham belgilanadi. Iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanishini ijtimoiy ishlab chiqarish ta'minlaydi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini esa kredit vositasida uzluksiz davom ettirib, bir zum bo'lsa-da, to'xtab qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Demak, kredit iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanishini ta'minlovchi dastaklardan biri degan xu- losaga kelishimiz mumkin.

7.2. Kreditning mohiyati va uning funksiyalari

Bizga ma'lumki, pul mablag'lariga ko'pincha kreditlar, korxonalarining hisobvaraqdagi mablag'lari va naqd pullar, aylanma mablag'lari va moliyaviy resurslarni kiritadilar. Bu iqtisodiy kategoriylar tashqi tomonidan o'xshagani bilan ularning ichki xususiyatlari juda x'lima-xil v? bir-biriga o'xshamaydi.

Kredit — bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. Kredit yordamida tovar-moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste'mol- chilar mablag'lari yetarli bo'lmagan sharoitda to'lovnini kechiktirib, tovarlar sotib olishlari va boshqa har xil to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'Madilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Kredit har qanday ijti-

moiy munosabat emas, ballci ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiyamatning harakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalidir. Kreditning mohiyati uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish — bu uning sifatlarini, muhim tomonlarini, iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarini bilish demak.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan va ular tomonidan kreditning mohiyati bo'yicha turlicha fikr bildirilgan. Masalan, E. Voznesenskiy, A. Zverev, D. Allaxverdyan kabi olimlar kredit maxsus kategoriya hisoblansa-da, u moliya tarkibiga kiradi, deb hisoblashadi. V. Zaxarov, O. Lavrushin, M. Pessel, I. Levchuk, V. Ribin, A. Qodirov, T. Qoraliyevlar esa kreditni moliya bilan parallel ravishda faoliyat ko'rsatuvchi alohida mustaqil iqtisodiy kategoriya, deb hisoblashadi.

Kreditning mustaqil kategoriya sifatida mohiyatini aniqlash murakkab savollardan biridir. Kreditni qarzga beriladigan qiyamatning harakati sifatida tushunish mumkin.

V. Zaxarov «Kredit vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qiyamat bo'yicha bo'ladijan ijtimoiy munosabatdir», deb xulosa qilgan bo'lsa, A. Qodirov, M. Pessel esa kredit iqtisodiy kategoriya bo'Mih unda ishlab chiqarish munosabatlari o'z aksini topadi va davlat, xo'jalik tashkilotlari, korxonalar, muassasalar bir-biriga qiymatni ma'lum vaqtga qaytarib berish va to'lash sharti bilan beradilar, deb uqtirishadi.

Yuqorida fikrlarga asoslangan holda kreditning ba'zi muhim tomonlari aniqlanadi:

- **birinchidan**, uning ijtimoiy mahsulot yaratish, milliy daromad va pul resurslarini qayta taqsimlashga bog'liqligi;
- **ikkinchidan**, kreditning harakat shakliga (tovar yoki pul tar-zida) ega ekanligi;
- **uchinchidan**, takror ishlab chiqarishdagi harakatning asosiy hal etuvchi belgisi (qarz) ekanligi va h.k.

Berilgan kredit qaytuvchanlik xarakteriga ega. U xuddi shu sifati bilan moliyadan farq qiladi. Ssuda kapitali manbalarining tah-lili kreditning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini aniqlashga asos bo'lib xizmat qildi. Bir qator iqtisodchilarning fikricha, kredit jamiyatdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni taqsimlash shaklidir. Bu nuqtayi nazardan, kredit vaqtincha bo'sh

pul mablag‘larini qarzga berish bo‘lib, muayyan belgilangan mud-datdan so‘ng bu mablag‘lar o‘z manbasiga qaytib kelishi kerak.

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tar- kibili, harakat bosqichlarini, iqtisodiy tushuncha sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy-iqtisodiy xarakteristikasini ko‘rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun, awalambor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo‘lishi uchun uning zarur elementlari — kreditning obyekti va subyekti bo‘lishi zarur.

Kredit munosabatlarda subyektlar ikki xil bo‘ladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi).
2. Qarz oluvchi.

Bundan tashqari, kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning obyekti yuzaga keladi.

Kredit munosabatlarining obyektlari va subyektlari

Kredit obyekti — bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluv- chiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytiD beriladigan qiymat. Bunda qarzga berilgan mabiag‘ o‘z qiymatini saqlab qolishi kreditning asosiy sifati hisoblanadi. Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning harakat bosqichlari ham uning muhim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$p_k - q_k \sim h - \kappa \dots Q_k = F_{ks}$$

bu yerda, B_k — kreditning berilishi; O_k — kreditning qarz oluvchi tomonidan vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun oli-

nishi; I_k — kreditning ishlatalishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olganligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi; V_r — qarz oluvchining xo'jaligida qarzga olingen qiymat aylanmasi tugallanishini, resurslarning aylanmadan chiqarilishini ifodalaydi; Q_k — kreditni qaytarish; F_{ks} — vaqtinchalik berilgan qiymatning kreditor qo'liga qaytib kelishi (% bilan).

Kreditning mohiyatini ma'lum vaqtidan keyin qavtarib berish va foiz bilan qaytarish sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikki shartdan tashqari, kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy-iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur. Kredit mohiyati- ning tahlili uzlucksiz jarayon. Tahlil jarayonida yangidan yangi belgi- lar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining funksiyalariga ega bo'lgani kabi kredit ham o'zining bir qator funksiyalariga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va ahamiyati bajarayot- gan funksiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funksiyasi — bu kreditning iqtisodiyotdagि faoliyati konkret ravishda namoyon bo'lishi. Kreditni tahlil qilishda, funksiya, uning mohiyati va ahamiyati o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida ko'rib chiqiladi.

Kreditning funksiyalari haqida olimlar o'rtasida yagona izchil-lil^yo'q. I. Lavrushinning fikricha, kredit funksiyalarini tahlil qilishda, ikki yechilmagan muammo mavjud:

1. Funksiyani tushunishning uslubiy asoslari.
2. Funksiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy qismidan kelib chiqqan holda unga quyidagi munosabatlarga xos funksiyalar taalluqli:

- a) kreditorning qarz oluvchi va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- b) qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi qiymat bilan munosabati orqali;
- d) qarzga beriluvchi qiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

Kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabat shunday aniq- lanadiki, bunda kreditor qarz oluvchiga resurslarni taklif qiladi, qarz oluvchi bu resurslarni ishlataadi va bunda qarzga beriluvchi qiymat kreditor va qarz oluvchi o'rtasida aylanadi. Bu yerdan kreditning birinchi funksiyasi kelib chiqadi:

1. Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funksiyasi. Kredit va pul mablag‘lari o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda kreditning haqiqiy pullarni kredit pullari bilan almashtirish funksiyasi oldinga surilgan. Lekin bu funksiya hozirgi kunda iqtisodiy munosabatlar «sahnasidan» chiqib ketgan. Kreditning tashqi muhit bilan aloqasi uning ikkinchi funksiyasini keltirib chiqaradi.

2. Qayta taqsimlash funksiyasi. Kredit takror ishlab chiqarish jarayonining barcha fazalariga — ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste’molga xizmat ko‘rsatadi. Takror ishlab chiqarish jarayoni bilan bogMiq holda kredit, ishlab chiqarish, taqsimlash yoki iste’mol jarayonida kechadigan funksiyalardan farqli o‘laroq qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bo‘sh moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabhasidan boshqasiga yo‘naltiruvchi va natijada yuqori foydani ta’minlovchi o‘ziga xos dastak sifatida namoyon bo‘ladi.

Qayta taqsimlash funksiyasi yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bo‘sh pul mablag‘lari va daromad- lari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga muayyan to‘lov asosida beriladi. Bu funksiya yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali harakati boshqarilib turiladi.

O‘zining turli tarmoqlar va mintaqalarda tabaqaalanish darajasiga tayanib, kredit iqtisodning stixiyali makroboshqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ba’zi hollarda bu funksianing amalga oshirilishi bozor tizimida nomutanosiblikning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday holat MDHda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun kredit tizimini davlat tomonidan boshqarishning muhim vazifalaridan biri, bu — iqtisodiy ustunlikni oqilona tavsiflash va kredit resurslarini u yoki bu tarmoqqa jalg qilishni rag‘batlantirishdan iborat.

3. Muomala xarajatlarini tejash funksiyasi. Kredit vujudga kelish davridan boshlab, haqiqiy pullarni (oltin, kumush) kredit pullari — veksellar, banknotalar, cheklar bilan almashinishini ta’miin- lab kelgan. Lekin, oltinning monetar ahamiyati yo‘qolishi tufay- li, kredit shu funksiyasi yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, hisob-kitoblarning tezligini va kam xarajatligini ta’minlamoqda. Kapitalning muomalada bo‘lish vaqtini iqtisod qilinishi uning ishlab chiqarishda bo‘lish vaqtini oshirib, ishlab chiqarish- ni kengaytirishga, foyda ortishiga olib keladi.

Bu funksiya amalga oshishi kreditning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi. Uning manbayi sanoat va savdo kapitalining doiraviy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'shagan moliyaviy mablag'lar hisoblanadi. Xo'jalik subyektlari pul mablag'larining kelib tushishi va ishlatalishi o'rtasidagi vaqt bo'yicha farq faqatgina ortiqcha mablag¹ lar hajmini emas, balki moliyaviy mablag'larning yetish- movchiligini ham aniqlab beradi. Shuning uchun korxona va tashkilotlarning o'z aylanma mablag'larining vaqtinchalik yetishmovchi- ligini to'ldirish uchun ssudalar berish keng tarqalib borgan.

4. Kapital to'planishining jadallahuvi va konsentratsiyalashuvi funksiyasi. Kapital to'planishi jarayoni iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi va xo'jalik yurituvchi har bir subyektning maqsadga erishishining muhim sharti hisoblanadi. Bu masalani hal qilishga va ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuning bilan birga qo'shimcha foyda olishga qarz mablag¹laridan foydalanish yordam beradi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, iqtisodiy inqiroz davrida bu resurslarning qimmatliligi ko'pchilik xo'jalik faoliyatni jabhalarida kapital to'planishini jadallashtirish masalasini hal qilishga to'sqinlik qiladi. Shunga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan funksiya hozirgi sharoitda rejali iqtisodiyot davrida rivojlanmagan va mablag'lar bilan ta'min- Tanrnagan faoliyat jabhalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'min- lariish jarayonini sezilarli tezlashtirdi.

5. Muomalaga to'lov vositalarini chiqarish funksiyasi. Bu funksiyaning amalga oshishi jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallahuviga, undan naqd pullarni si- qib chiqarib, to'lovlardan aylanishining tezlashuviga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitob- lami naqdsiz operatsiyalar oilan almashtiradi. bu esa ichki va xalqafo bozordagi iqtisodiy munosabatlар mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Ayni masalani hal etishda tijorat krediti zamona- viy tovar almashinuvining kerakli elementi sifatida muhim o'rinn tutadi.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallahuvi ham kredit orqali samaraliroq amalga oshirilishi mumkin. Urushdan keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti har bir mamlakat yoki alohida xo'jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy rivojinining hal qiluvchi omiliga ay- langan. Kreditning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdagi

o‘rnini fan-texnika tashkilotlarining faoliyatini moliyalashtirish jarayoni orqali kuzatish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi markazlarning normal ishlab turishini ta’minlash uchun ham, ular faoliyatini moliyalashtirishda kredit resurslari ishlatali- shi mumkin. Shuningdek, kredit innovatsion jarayonlarda ishlab chiqarishga ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilish va ishlab chiqarish texnologiyasini o‘zgartirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur.

Albatta, korxonalarning mablag¹ lari yetarli bo‘lgani holda bu turdagи xarajatlar dastlab korxonalarning o‘z mablag²lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, o‘z mablag³lari yetarli bo‘l- magan sharoitda bankning maqsadli o‘rta va uzoq muddatli ssu- dalari hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin. Kreditni ishla- tish samaradorligi uni pozitiv ravishda ishlab chiqarish kuch- larini rivojlanтирishga va mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga ta’siri bilan aniqlanadi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, kredit xo‘jalik subyektlari tomonidan ishlab chiqarish va sotuv, to‘lov jarayonidagi mablag⁴lar yetish- movchiligini qoplash uchun olinadi. Agar korxona ishlab chiqarish zaxiralari sotib olish uchun kredit mablag⁵lardan foydalanadigan bo‘lsa, shu kredit fondlar aylanishining barcha bosqichlarini bosib o‘tadi va miqdoriy jihatdan o‘sgan holda aylanishdan chiqarilib, qarz beruvchiga qaytariladi.

Kredit resurslaridan korxona quyidagi hollarda foydalanishi mumkin:

1. Korxona kreditni xarajatlarning biron turini amalga oshirish uchun, masalan, xomashyo, materiallar sotib olish, tugallan- magan ishlab chiqarish uchun yoki jo‘natilgan tovarlar uchun oiishi mumkin.

2. Korxona aylanma fondlar doiraviy aylanishining barcha bosqichlariga kreditni jalb qilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralari sotib olishga, tugallanmagan ishlab chiqarishga, tayyor mahsulotga, jo‘natilgan tovarlarga va boshqa xarajatlar uchun.

3. Korxonani kompleks kreditlashtirish zarur bo‘lganda amalga oshiriladi.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chiqqan holda xo‘jaliklar tomonidan kreditdan foydalanish variantlarini quyidagi ko‘rinishda ifo- dash mumkin:

I variant

kredit qaytariladi

I

P—ICh[^]... TICh ... TM—JT—P aylanishi

V'

korxonananing o‘z pul mablag‘lari yetarli bo‘lmasa, kredit jalb qilinadi

II variant

kredit jalb qilinadi

P—ICh[^]... TICh ... TM—JT—P aylanishi

kredit qaytariladi

III variant

kredit qaytariladi

P—ICh ...TICh... TM—JT—Paylanishi

kredit jalb qilinadi

bu yerda, **P** - dastlabki pul mablag‘lari; **ICh₃** - ishlab chiqarish zaxiralari; **TICh** — tugallanmagan ishlab chiqarish; **TM** - tayyor mahsulot; **JT** - jo‘natilgan tovarlar; **P** - aylanishdan bo‘shagan pul mablag‘lari; **K**—kredit.

Yuqoridagi holatlardan ko‘rinib turibdiki, har bir korxona o‘z faoliyati davomida kredit resurslariga muhtoj bo‘lishi mumkin.

7.3. Kreditlash tamoyillari

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud aniq uslubiy asos- larga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo‘lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma’lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining bиринчи bosqichida ko‘zga tashlangan edi, keyinchalik esa ular umum davlat va xalqaro kredit qonunchiligidagi yaqqol o‘z aksini topdi. Iqtisodiy tushuncha sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning qaytib berilishi, kreditning muddatiligi, ta’minlanganligi, maqsadliligi va to‘lovililik tamoyillaridir.

1. Kreditning qaytib berish tamoyili. Bu tamoyil kreditning mustaqil iqtisodiy tushuncha ekanligining shartidir. Qaytib berish kreditning umumiy belgisi hisoblanadi. Qaytib berish o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo aylanma harakatning tugashi, bu — qaytarib berish emas, faqat qaytarib berish uchun zamin tay- yorlash. Kreditni qaytarish aylanmadan chiqqan mablag’lar qarz oluvchiga pul mablag’larini qaytarish imkoniyatini bergen taqdirda amalga oshiriladi. Qaytarib berish layoqati ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir.

Qiymatning qaytuvchi harakatining huquqiy tomoni ham muhimdir. Muayyan bir muddatga beriladigan qiymatga egalik huquqi kreditordan qarz oluvchiga o‘tmaydi. Qarzga beriladigan qiymat faqat muayyan bir muddatgagina o‘z egasi qo‘lidan uzoqlashadi, lekin egasini o‘zgartirmaydi. Bo‘sh turgan resurslarni akkumu- latsiya qiluvchi banklar bu resurslardan xususiy resurslar sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag’ning egasi bo‘lib, korxona, tashkilot, alohida shaxslar hisoblanadi. Qaytarib berish muayyan shartnomada aks ettiriladi.

Qaytarib berish obyektiv belgi hisoblanadi. Kreditni qaytarib beruvchi tomon uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, jumla- dan, moliyadan farq qilish imkoniyatini beradi.

Kreditdan samarali foydalanish asosida qaytarib berish - bu- tun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergen muassasa hisobiga ko‘chirish yo‘li bilan ifodalanadi. Shu yo‘l bilan banklar kredit resurslarining qayta tiklanishini ta’minlaydilar. Bizning amaliyotimizda markazlashgan rejali iqtisodiyat sharoitida kreditlashning «qaytarilmaydigan ssuda» degan norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalq xo‘ja- ligining ko‘p tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida keng tarqalgan edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy holatini hisobga olmagan holda berilar edi. O‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, qaytarilmaydigan ssudalar budjet sub- sidiyasining qo‘srimcha shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «qaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodiyoti tamoyillari uchun begona hisoblanib, bunday kreditning amaliyotda bo‘lishi iqtisodiyot uchun juda xavflidir.

2. Kreditning muddatliligi. Bu tamoyil kredit beruvchidan olingen kreditni o‘z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya’ni kreditning qanday muddatga berilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda shu mud- datlilik tamoyiliga ko‘ra, kredit uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo‘linadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo‘lgan har qanday vaqtida emas, balki kredit bitimida ko‘rsatilgan ma’lum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikki tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o‘z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o‘z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ish- latib, uni o‘z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartno- madagi jazo choralaridan qutulishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo‘yicha kredit shartnomada ko‘rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo‘yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshq.)ni qo‘llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo‘jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejamli va qayta ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo‘natish, tovarlarni sotish mud- datlariga va pirovard natijada aylanma fondlari doiraviy aylanishining tezligiga bog‘liqdir.

3. Kreditning ta’minlanganlik tamoyili. Bu tamoyil yordamida iqtisodiyotning rivojlanishida qiymat va moddiy ishlab chiqarish o‘rtasida bo‘lishi zarur bo‘lgan proporsiyalarning bir me’yorda bo‘lishi rag’batlantiriladi. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundaki, bunda xo‘jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag‘- larining har b> so‘miga muayyan moddiy boyliklarning hir so‘mi qarama-qarshi turishi lozim. Banklar tomonidan xalq xo‘jaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar to‘liq tovar-moddiy boyliklari va ma’lum xaratjatlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Tarmoqlarga ta’minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka qaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, bankning likvidliligiga va pul muomalasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar-moddiy boyliklar va xaratjatlar bilan ta’minlangan bo‘lishiga muhim e’tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda bu jarayonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxona bankka tovar yoki tovar hujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkni garovga qo'yadi. Agarda bank bergen kredit qarz oluvchi tomonidan o'z vaqtida bankka qaytarilmasa, bank tovarni sotish hisobidan qarz o'rnni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zida kredit varrant asosida ham berilishi mumkin (*var-rant* —garov uchun xizmat qiluvchi hujjat). Bunda kreditor be-rayotgan krediti tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bank ssudalarining tovar-moddiy boyliklar bilan to'liq ta'minlanganligi pul muomalasi barqarorligini ta'minlaydi, chunki bank aylanmasidagi pullar naqd pulga transformatsiyalanib turadi. Xulosa qilib aytganda, kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va kreditni biron garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda o'zining amaliy aksini topadi. Bu umumiqtisodiy barqarorlik davrida, ay-niqsa, muhimdir.

4. *To 'lovilik tamoyili*. Bu tamoyil aylanma fondlarining doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi to'lov resurslari summasini avanslashtirish zaruri- yatidan kelib chiqadi. Unga asosan, korxonalar foydalanilgan qarz mablag'lari uchun kreditorga foiz shaklida to'loymi otkazadi. Kreditni to'lash uni to'liq summada o'z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o'z mablag'larini hech vaqt o'z hajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag'ni qarzga berganligi uchun muayyan to'lov talab qiladi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to'lovi, nafaqat, banklar xo'jalik hisobi maqomi-ga, shu bilan birga, korxonalarning bevosita foydasi bilan bog'liq xo'jalik hisobiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kredit uchun haq to'Mashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingen foydaning taqsim-lanishini qayd qilishda namoyon boiadi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda uch asosiy funksiyasini bajaruvchi bank foizi me'yorini o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi:

- yuridik shaxslar foydasi va jismoniy shaxslar daromadining taqsimlanishi;
- ishlab chiqarishni tartibga solish va ssuda kapitalining taqsim-lanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyosda aylanishi;

- iqtisodiyot rivojining inqirozli bosqichida bank mijozlarining pul mablag‘larini inflatsiyadan himoyalash va boshq.

Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniq- lanib, kredit resurslari bahosi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa tovarlar bahosi belgilanishining an'anaviy mexanizmidan farqli o‘laroq, kreditning bahosi, ssuda kapitali bozoridagi talab va tak- lifning nisbatini o‘zida aks ettiradi va u bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi (inqiroz davrida ssuda foizi o‘sadi, yuksalish davrida esa pasayadi);
- inflatsiya jarayoni sur’atlari (amaliyotda ssuda foizining inflatsiya o‘sish sur’atlaridan orqada qolishi uchrashi mumkin);
- tijorat banklarni kreditlash jarayonini amalga oshiruvchi Markaziy bank orqali davlat kreditini tartibga solishning sama- radorligi;
- xalqaro kredit bozoridagi holat (masalan, biror mamlakatda kredit bo‘yicha foiz stavkasining oshishi shu mamlakatga chet el kapitalining oqib kelishiga olib keladi va bu milliy bozorlar hola- tiga ta’sir ko‘rsatadi);
- jismoniy va huquqiy shaxslar pul jamg‘armalarining dina- rnikasi (ularning hajmi qisqargan holda ssuda foizi o‘sadi);
- potensial qarz oluvchilarning kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlab beruvchi ishlab chiqarish dinamikasi;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligi (chet el amaliyotida banklar mavsum davrida kreditlar bo‘yicha foizlarni oshiradi);
- davlat tomonidan beriladigan kredit miqdori bilan davlatning ichki qarzlar o‘rtasidagi nisbat (ssuda foizi ichki davlat qarz- lari o‘sishi bilan birga o‘sib boradi).

5. Kreditning maqsadli bo ‘lishi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsad- ni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazo aniq obyektga maqsadli yo‘naltirilganligi korxona bilan bank o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko‘rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq obyektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralalariga, tayyor mah-

sulotga, jo‘natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hoka- zolarga beriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo‘lishi va harakat qilishining muhim tomonlarini o‘zida ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning yuqorida keltirilgan tamoyillaridan tashqari, kreditdan oqilona foy-dalanishni ifodalovchi tamoyil — kreditning samaradorligi tamoyi- lini kiritishimiz zarur. Bu tamoyil, nafaqat, kredit va foiz summa- sini bankga qaytarib to‘lashni, bundan tashqari, shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishishini ifodalashi zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida beriladigan kreditlar ma‘lum bir loyihaning bajarilishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishdan oldin loyihani bajarish uchun yo‘nal- tiriladigan mablag‘laming samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur.

Agar biz bozor iqtisodiyoti yuqori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e’tibor bera- digan bo‘lsak, bu mamlakatlarda korxona, tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo‘yiladigan mablag‘larning samaradorligi hisob- kitob qilib chiqiladi. Zero, loyihaga qo‘yiladigan mablag‘lar samara beradigan bo‘lsagina, shu loyiha uchun mablag‘ ajratiladi. Har bir korxona va tashkilot uchun kreditdan foydalanishda uning sa- maradorligiga alohida e’tibor berish foydadan xoli emas, chunki samaradorlik kreditning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Samaradorlik tamoyilining mavjudligi va unga rioya qilish kreditning boshqa tamoyillarining bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi. Shunga asoslangan holda kreditning samaradorligini sodda qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

Sotilgan tovar mahsulot hajmi
Samaradorlik -----
Kredit qo‘yilmalarinmg o‘rtacha qoldig‘i

Bu ko‘rsatkich kredit qo‘yilmalar o‘rtacha qoldig‘ining 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan sotilgan tovar mahsulotning hajmini ko‘rsatadi. Kreditni jalb qilish yordamida ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi, tovarlarni sotish hajmining oshishi kreditning samara-

dorligini belgilab beradi. Korxona kam kredit resurslar hisobiga ko‘p mahsulot sotuviga erishadigan bo‘lsa, kreditning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Kreditlashning yuqori samaradorligi minimal mehnat xara-jatlari orqali maksimal foydaga erishadigan korxonalar uchun xarakterlidir. Agar kredit samaradorligiga ta’sir qiluvchi boshqa omillarni ham hisobga oladigan bo‘lsak, kreditning samaradorligini kengroq olgan holda quyidagicha ifoda qilish mumkin:

$$S = \frac{R}{\kappa O_{fk} - K OF_k - K \square O_{of}} ^{* - n}$$

bu yerda, S_{kr} — kredit qo‘yilmalarining samaradorligi; R — to‘la tannarxida realizatsiya qilingan tovar mahsuloti; O_{fk} — kreditor qarz dorlikni hisobga oлган, lekin qarz mablag‘larini hisobga olma-gan holdagi aylanma fondlarining o‘rtacha qoldig‘i; K — qisqa muddatli kredit qo‘yilmalarining o‘rtacha qoldig‘i; O_{kr} — hisobot davridagi qisqa muddatli kreditning aylanish soni; O_{of} — hisobot davridagi aylanma fondlarining aylanish soni.

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, kredit resurslarning samaradorligi, asosan, ikki omil: sotilgan mahsulotning hajmi va kredit resurslarning aylanish davriga bog‘liq. Savdo hajmi qanchalik katta bo‘lsa va kredit resurslarning aylanish davri qanchalik qisqa bo‘lsa, kredit qo‘yilmalarining samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Bank tomonidan berilgan mablag‘lar xo‘jalik aylanmasida, ishlab chiqarishga tezroq joriy qilinsa va kredit mablag‘lar ishlab chiqarish va muomala jarayonini tezroq bosib o’tsa, ular keltiradigan samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Bank krediti mablag‘lar doiraviy aylanishining biror bosqichida ushlanib qoladigan bo‘lsa, bu hoi kreditni to‘lash muddatining kechiktirilishiga olib keladi. Bu, albatta, kreditning samaradorligi pasayganligidan dalolat berishi mumkin.

Kreditning samaradorligini ta’minlash maqsadida g‘arb mam-latlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi qoidasi qo‘lla-niladi. Bu qoida kreditlashda «5 «C»lar qoidasi» deb yuritiladi. «5 «C» lar qoidasi»ga asosan, har bir «C» bo‘yicha korxonaning faoliyati tahlil qilib chiqilib, talabga javob bersagina kredit beriladi. Qoidaga asosan, «C» harflari korxonalarning xo‘jalik faoliyatining quyidagi jihatlarini ifodalaydi:

Character — qarz oluvchining xarakterini baholash, uning avvalgi qarzlarli, qarzni to‘lay olish qobiliyati hamda bozordagi obro‘yi;

Capacity — qarz oluvchining boshlagan ishni oxiriga yetkaza olish, tegishli daromad olish hamda bank kreditlarini qaytara bilish qobiliyati;

Capital — qarz oluvchi sarmoyasining yetarliligi;

Conditions — shartlar. Bunda iqtisodiy muhim va mazkur biznesning rivojlanishi nazarda tutiladi;

Colateral — garov (kafolat, kafillik, sug‘urta polisi, tovar-moddiy boyliklar) va boshq.

Rejali iqtisodiyot davrida kreditlashning bu tamoyillaridan tashqari, yana bir necha boshqa tamoyillar qo’shimcha ravishda amal qilar edi. Sotsialistik xo’jalik davrida yuqoridagi tamoyillar ikkinchi darajali hisoblanar edi. Quyidagi tamoyillar esa asosiy, birinchi darajali tamoyillar bo‘lib, kreditlash jarayonida banklar ko’proq shu tamoyillarning bajarilishiga e’tibor berar edi.

1. *Kreditni rejaning bajarilganligiga qarab berish.* Bu tamoyilning mohiyati shunda ediki, bank kreditlarining umumiy hajmi va shakllari banklarning kredit rejalarini asosida o‘rnatilgan. Bunda korxona va tashkilotlarga beriladigan kreditlar ularning ishlab chiqarish rejalarini bajarishlariga qarab berilar edi. Undan tashqari, kredit hajmi bo‘yicha muayyan reja tuzilar va shu rejaga asosan, kredit berilishi, uning hajmi va shakli belgilanib, bank tomonidan boshqarilardi.

Ushbu tamoyilga asosan, kredit rejasida ko‘zda tutilgan bank ssudalari kvartal yoki oyiga bir marta emas, balki tovar-moddiy boyliklarini yaratish jarayoniga va ularni ishlab chiqarish maqsad-lariga sarflash yoki sotishning ma’lum bosqichlarida bank tomonidan o‘rnatilgan miqdorda berilar edi.

2. *Differensiyalashtirish (kreditlashda har xil yondashish) tamoyili.* Bu tamoyil ijtimoiy zaruriy me’yorlarga mos holda ishlab chiqarish va mahsulotni realizatsiya qilish asosida korxona va tashkilotlarning qanday moliyaviy natijaga erishganligiga qarab belgilangan. Xo’jalik faoliyatining natijalariga qarab korxonalar «yaxshi ishlaydigan» va «yomon ishlaydigan» korxonalarga bo‘lib kreditlangan. Bu tamoyilga asosan, ijobjiy moliyaviy natijalarga erishgan korxona va tashkilotlarga kreditlash jarayonida ma’lum yengilliklar berilgan. Korxona-larda moliyaviy qiyinchiliklarbo‘lganda, ishchilarga ish haqi to‘lash uchun yoki boshqa to’lovlarni amalga oshirish uchun kreditlar berilgan. Undan tashqari, yaxshi ishlaydigan korxonalarga yengil sharoitda kreditlar berilgan, masalan, kreditning foiz stavkasi

kamaytirilgan, korxona uchun zarur bo‘lganda kreditning mud-dati uzaytirilgan va h.k.

Agar korxona ishlab chiqarish rejasini bajarmasa yoki bankdan olingan kreditlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini vaqtida amalga oshir-masa, bunday korxona yomon ishlovchilar qatoriga kiritilib, bank tomonidan iqtisodiy choralar qo‘llanilgan. Yomon ishlovchi kor-xonalarga kreditlashda bank jiddiy yondashgan, ya’ni kreditlarni juda qisqa muddatga, yuqori foiz stavkalari bo‘yicha bergen. Ba’zida bank oldindan bergen kreditlarini muddatidan ilgari undirib olgan, kor-xona yuqori tashkilotining kafolati asosida kredit bergen yoki ba’zi hollarda kredit berishni umuman to‘xtatib qo‘ygan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tamoyillarning barchasi ham o‘rinli bo‘lmasligi mumkin.

7.4. Kreditning shakllari va turlari, ularning tavsifi

Kreditga bo‘lgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomonidan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha turva shakllarga bo‘linadi. Uzoq davrlardan buyon kreditning quyidagi turlari qo‘llanilib kelinmoqda:

1. Qisqa muddatli kreditlash.

2. Uzoq muddatli kreditlash.

Qisqa muddatli kreditlashda qarzlar bir necha oydan bir yil- gacha boigan muddatga beriladi. Bu turdagи kreditlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va muomala fondlarining doiraviy aylanishining uzlusizligini ta’minlaydi. Bizga ma’lumki, aylanma fondlarning doiraviy aylanishi deyarli barcha ishlab chiqarish soha- larida bir yil va undan kamroq vaqt davom qiladi. Bir yil fondlar aylanishining tabiiy o‘lchovi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham, bir yil qisqa va uzoq muddatli kreditlashning chegarasi bo‘lib xizmat qiladi. Qisqa muddatli kreditlar o‘z tabiatiga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. *Kreditlash obyektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab:*

- tovar-moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar;
- ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o‘z-lashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar) uchun beriladigan kreditlar;
- hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun beriladigan kreditlar (akkreditiv ochilganda, tayyor mahsulotni jo‘natganda va boshqa hollarda).

2. To 'lash muddatiga qarab:

- muddatli, muddati kechiktirilgan va muddati o'tib ketgan kreditlar.

3. Kreditni to 'lash manbalariga qarab:

- qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan;
- grant mablag'lar hisobidan;
- yangi kreditlar jalb qilish hisobidan.

4. Ta 'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga qarab:

- to 'g'ridan to 'g'ri ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;
- egri (biron korxona va tashkilot vositasida) ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;
- ta'minlanmagan kreditlar.

5. To 'lanadigan foiz darajasiga qarab:

- o'rtacha (normal) foiz stavkali;
- yuqori foizli;
- past foiz stavkali;
- foizsiz kreditlarga bo'linadi.

Uzoq muddatli kreditlashda, kreditlar bir yildan ortiq muddatga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar, asosan, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq sohalarni ta'minlashda ishlatiladi. Hozirgi davrda uzoq muddatli kreditlar banklar tomonidan juda kam miqdorda berilsa-da, ular kapital qo'yilmalarini, loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbayi sifatida davlatimiz iqtisodini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq muddatli kreditlar xo'jalik tashkilotlari tomonidan quyidagi obyektlar uchun jalb qilinishi mumkin:

- qayta tiklashga kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- yangi qurilish va qo'shimcha yuqori samarali tadbirlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- yangi fan, ilmiy-texnika sohasida tadqiqotlar olib borish va yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish uchun va boshq.

Kredit munosabatlarining subyektlari va obyektiga, foiz stav- kasiga va kreditning harakat doirasiga qarab, kreditning quyidagi mustaqil shakllari amaliyatda qo'llanilishi mumkin. Bular bank krediti, tijorat krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit. Amaliyatda kreditning har bir shakli ham o'ziga xos xusu- siyatlariga ko'ra, bir necha bo'laklarga bo'linishi mumkin.

Bank krediti iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Uning obyekti pul mablag'larini be- vosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olgan bo'lish- lari zarur. Qarz oluvchi sifatida yuridik shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat mijozlari ishtirok qilishlari mumkin. Kredit munosabatlarining vositasi bo'lib, kredit shartnoma yoki kredit keli- shuvi hisoblanadi. Bu kredit turi bo'yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar bilan kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi ko'rinishida bo'ladi.

Jahon amaliyotida bank kreditidan foydalanishda uning turli xil xususiyatlari hisobga olinadi. Qisqa muddatli bank kreditlari qarz oluvchi korxonaning xo'jalik faoliyatida aylanma mablag'lar yetish- movchiligini to'ldirish uchun qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bunday jarayonning bo'lishi ssuda kapitali bozorida mustaqil segment pul bozorining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqa muddatli kreditlar fond bozorida, savdo va xizmatlar ko'rsatishda, banklararo kreditlash rejimida ko'proq qo'llaniladi.

Hozirgi sharoitda qisqa muddatli kreditlar quyidagi ko'rsat- - kichlar bilan xarakterlanadi:

- kreditlarning juda qisqa muddatlar (ba'zida bir oygacha . muddat)ga berilishi;
- kreditning muddati va foiz stavkasining bir-biriga teskari proporsional (kreditning muddati juda qisqa bo'lsa-da, foiz stavkasi juda yuqori) bo'lishi;
- ishlab chiqarish sohasidan ko'proq muomala sohasiga xizmat ko'rsatish.

Hozirgi vaqtida bir yil muddatga beriladigan kreditlardan tijorat xarakteridagi faoliyatni amalga oshirish, agrar sektordava investitsiyalarini talab qiluvchi innovatsion jarayonlarni kreditlashda keng foydalanimoqda. Uzoq muddatli kreditlar asosiy fondlar harakatini ta'minlaydi va ular kredit resurslarning katta hajmi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli kreditlar 1 yildan ortiq muddatga, davlat tomonidan tegishli moliyaviy kafolatlarni olgan holda, kreditning muddati 10 yil va undan ortiq muddatga u^aytirilishi mumkin.

Qarzni to 'lash usuli. Qarzdor tomonidan to'liq summada to'la- nadigan kreditlar. Bu usul qisqa muddatli kreditlarni qaytarish-

ning an'anaviy usuli hisoblanib, huquqiy jihatdan rasmiylash- tirilishi juda sodda mexanizmga ega bo'ladi, chunki bu usulda tabaqalashtirilgan foiz stavkasini hisoblash mexanizmini qo'llash talab qilinmaydi.

Kreditni to'lashda kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bo'lib to'lanadigan kreditlar bo'lishi mumkin. Qarzni to'lashning bu usulida kreditni qaytarishning aniq shartlari kredit shartnomada keltirilgan bo'ladi. Kreditni bo'lib-bo'lib to'lash usuli ko'pincha uzoq muddatli kreditlarni to'lashda ishlatiladi.

Kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli. Amaliyatda olingen kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini to'lashning bir necha usullari mavjud:

- kreditni to'lash muddati kelganda, foiz stavkasini ham qo'shib to'lash usuli. Bu usul bozor iqtisodiyoti yaxshi taraqqiy qilgan mamlakatlarning xo'jalik tashkilotlari faoliyatida keng qo'llaniladigan an'anaviy usul bo'lib, u hisob-kitob xarakteri jihatidan oddiy bo'ladi. Bu usul ko'proq qisqa muddatli ssudalarni to'lashda qo'llaniladi;

- kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bir tekisda qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli. Amaliyatda bu usul uzoq muddatli kreditlarni to'lashda qo'llaniladigan an'anaviy usuldир va tomonlar kelishgan holda kredit bo'yicha foizlarni to'lashga har xil yondashishlari mumkin. Masalan, kredit uzoq muddatga berilgan bo'lsa, kredit bo'yicha foiz stavkasini to'lashni kreditdan foydalana boshlagani- dan bir yoki ikki yil o'tgandan keyin belgilab berish mumkin;

- qarz oluvchiga kredit berilayotgan vaqtida kredit uchun to'lanadigan foiz bevosita bank tomonidan ushlab qolinadigan kreditlar. Kredit uchun foiz stavkasini bu usulda to'lash rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelmaydi va uning uchun xarakterli emas. Bu usul faqat sudxo'rlik kapitalida ishlatiladi. Mamlakatda iqtisodiy holat nobarqaror bo'lganida, banklar qisqa muddatli kreditlashni va kreditlar bo'yicha foizlar to'lashni shu usulda olib borganlari qulay hisoblanib, amaliyatda shu usuldan keng foy- dalanadilar.

Ta'minlanganlikning mavjudligi. Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan bir garov shakli bevosita kredit shartnomasi hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga

sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatli kreditlash jarayonida qo'llaniladi. Uzoq muddatli kreditlashda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda, sug'urta qilish qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda bu ba'zi hollarda, tijorat banklari tomonidan o'z sho'balarini va muassasalarini kreditlashda qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin. Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib, yetkazilgan zararni qoplash huquqiga ega. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxi- dan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvi natijasida aniqlanadi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, koixonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak.

Uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalar. Kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxona yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarma-sa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida yuridik shaxslar, shuningdek, turli darajadagi davlat hokimiyyati organlari ishtirok qilishlari mumkin.

Bank kreditining maqsadliligi. Jahon amaliyotida umumiy biron ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mayjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'z ixtiyori bo'yicha ishlatiladi. Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo'llaniladi, o'rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo'llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biron maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

Kreditning qaysi maqsad uchun berilayotganligi kredit shartnomasida ko'rsatiladi va bank tomonidan berilgan resurslar qarz

oluvchi tomonidan faqatgina unda ko'rsatilgan masalani hal etish uchun ishlataladi (masalan, olinayotgan tovarlar bo'yicha hisob- lashish, ish haqi to'lash va h.k. uchun). Qarz oluvchi tomonidan ko'rsatilgan majburiyatlarning buzilishida bitimda ko'rsatilgan jari- malar qo'llaniladi.

Qarz oluvchilarining kategoriyalari. O'zining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxona va tashkilotlar bir necha guruhlarga bo'linishi mumkin. Masalan, agrar sohada kredit oluvchilar. Bu sohaning bo'lishi - maxsus kredit muassasalari - agrobanklar- ning, keyinchalik qishloq xo'jaligi sohalariga xizmat ko'rsatuvchi boshqa banklar «Agrobank», «Qishloqqurilishbank» va boshqa shu turdagи banklarning tashkil topishini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Bu banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan mavsumiylikni e'tiborga olgan holda kreditlash hisoblanadi.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo'yicha kreditlar savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiya- tiga ega bo'lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyat-r- ga egadir. Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjası vosi- tachilari: broker, makler, diler firmalariga beriladi.

Ko'chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, hatto ba'zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bizning amaliyotimizda esa bu faqatgina 1996-yildan boshlab keng tarqala boshladi. Xususiyashtirish jarayoni rivojlanishi, mulkka egalik asoslari qonunlashtirilishi ipoteka kreditining yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Banklararo kreditlar - bank kreditining keng tarqalgan shakl- lardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankining boshqa turladagi ssudalar berish siyosatini aniq- lab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu me'yorning aniq miqdori (hisob stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Tijorat krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlari vujudga kelishining birinchi shakllaridan bo'lib, veksel muomalasini vujudga keltirgan va naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishiga yor- dam bergen. Tijorat kreditining subyektlari sifatida yuridik shaxslar: mol yetkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar,

kreditning obyekti sifatida sotilayotgan tovar ishtirok qiladi. Tijorat krediti o'zining amaliy ko'rinishini huquqiy shaxslar o'rtasida tovar va xizmatlarning to'lov muddatini cho'zish orqali sotish shaklidagi moliya xo'jalik munosabatlarida topadi. Bu kredit shaklining asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat.

Tijorat kreditining an'anaviy vositasi bo'lib, qarz oluvchining qarz beruvchiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarini aks ettiruv-chi veksel hisoblanadi. Veksel — bu qarz majburiyati bo'lib, qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzni ko'rsatilgan summada, ko'rsatilgan joyda, belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda vekselning ikki turi qo'llaniladi: oddiy va o'tkazma veksel. Oddiy vekselni qarz oluvchi korxona qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun unga to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'tkazma vekselda kreditor tomonidan belgilangan tovar va xizmatlar summasi uning topshirig'iga asosan uchinchi shaxsga yoki vekselni ko'rsatuvchiga o'tkazilishi zarur. Kreditorning vekselda ko'rsatilgan summani uchinchi shaxsga to'lash to'g'risidagi buyrug'ini ifodalovchi hujjat amaliyotda **tratta**, deb ham yuritiladi.

Tijorat krediti bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi) rovida maxsus kredit-moliya tashkilotlari emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug'ullanuvchi turli yuridik shaxslar ishtirok qiladi.
2. Tijorat krediti faqatgina tovar shaklida beriladi.
3. Tijorat kreditida ssuda kapitali, sanoat va savdo kapitali bilan integratsiyalashgan holda harakat qiladi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ixtisosdagi va faoliyat yo'nalishdagi korxonalarini o'z ichiga oluvchi xolding, moliyaviy kompaniyalarning vujudga keli-sliida o'z aksini topadi.
4. Berilgan vaqt oraliq'ida tijorat kreditining o'rtacha qiymati doimo bank foizining o'rtacha stavkasidan kichik bo'ladi.
5. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi shartnomaga huquqiy rasmiylashtirilganda tijorat krediti bo'yicha to'lov (foiz stavkasi) alohida aniqlanmaydi. Foiz to'lovi tovar bahosiga qo'shilgan holda rasmiylashtiriladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida tijorat krediti keng tarqalgan. MDH davlatlari bank amaliyotida tijorat krediti qo'llanilmaydi.

Sobiq Ittifoq davrida kredit munosabatlarining rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak, 1930— 1932-yillardagi kredit islohotigacha amaliyotda tijorat kreditidan foydalanilgan. Bu kredit tovarlar ishlab chiqarishning mo'l-ko'lchiligi sharoitida tovarlarni sotish jarayonini tezlashtirishda qulay hisoblanadi. O'tgan asrning 30-yillarida kreditning bu shaklidan foydalanishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yilgani uchun kredit islohoti o'tkazish davomida bu kreditdan foydalanish bekor qilindi va xo'jaliklar to'g'rid'an to'g'ri bank tomonidan kreditlashga o'tkazilgan.

Hozirgi sharoitda jahon amaliyotida tijorat kreditining, asosan, uch turi qo'llaniladi:

- qayd qilingan to'lov muddati bo'yicha kredit;
- tovarlarni sotgandan keyingina qarzni to'lash bo'yicha kredit;
- ochiq hisobvaraq bo'yicha kreditlash.

Bunda tijorat krediti shartlari bo'yicha, keyingi tovar partiya-sini jo'natish, oldingi jo'natilgan tovarlar bo'yicha qarzlarni to'fash muddatigacha amalga oshirilishi zarur.

Korxonalar tijorat kreditidan, shuningdek, bank kreditidan foydalanishi inkor qilinmaydi. Tijorat krediti bank kreditidan farq qilsada, ularning harakati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Korxonalar tijorat kreditidan foydalanganda, bank krediti korxona faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan kredit sifatida namoyon bo'la olmaydi. Tijorat kreditida korxonalarning hisobraqamlarida mablag'lari bo'lмаган sharoitda korxonalar tovarlarni kreditga sotib oladi. Shuning uchun iste'molchi korxonalar bank kreditiga ehtiyoj sezmasligi mumkin. Ayni vaqtida moi sotuvchi korxona faoliyatida tovarlarini kreditga sotganligi uchun mablag'ga muhtojlik sezadi. Mana shu sharoitda mol yetkazib beruvchi korxona pul mablag'lariga bo'lган ehtiyojini qoplash maqsadida kredit olish uchun bankka murojaat qiladi. Bu hoi, o'tgan asrning 30-yillari amaliyotida bank tomonidan egri kreditlash deb yuritilgan. Egri kreditlash deb yuritilishining sababi shundaki, kreditni haqiqatda mablag'i yetarli bo'lмаган korxona, mol sotib oluvchi korxona olishi zarur edi. Mol sotib oluvchining xo'jalik faoliyatidagi mablag'lar yetishmovchiligi mol yetkazib beruvchiga bank tomonidan kredit berish yo'li bilan qoplangan.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olmagan holda tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxo-

nalarning aylanma mablag'larini xo'jalik faoliyatidan tezroq bo'shashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Iste'mol krediti. Iste'mol krediti o'zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi jismoniy shaxslami kreditlash hisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga, tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'ladi.

Iste'mol krediti ikki shaklda: pul yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo'lgan davolanishni to'lash, har xil tovarlar va uyjihozlari sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun iste'mol kreditlari beriladi. Pul shaklida iste'mol krediti banklar tomonidan, tovar shaklida esa tovarlar chakana savdosi jarayonida to'lov muddatini cho'zish orqali amalga oshiriladi.

0'zbekistonda hozirgi kunlarda uy-joy sotib olish, uy-joy qu-rish uchun pul shaklidagi, uzoq muddatli iste'mol krediti va tovar shaklida avtomobil krediti berilmoqda.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Bunda davlat bir tomonidan qarz beruvchi va ikkinchi tomonidan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan, Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohalarini kreditlashni o'z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini kreditlash;
- moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezayotgan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar budgetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo'lsa, vaqtincha foydalanishga mablag' ajratilishi mumkin.

Undan tashqari, tijorat banklariga banklararo kreditlar bozorida kredit resurslarni kimoshdi savdosi yo'li bilan yoki to'g'ridan to'g'ri sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Davlatning qarzlari ko'paygan hollarda davlat budgeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlarini joylashtirish jarayonini amalga oshiradi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olingan qarz mablag'lari ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki

moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlataladi.

Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorida qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, zayomlarni chiqarish, sotish yo'li bilan banklar aholining va boshqa moliya-kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi hamda ularni davlat qarzi va budjet kamo- madini qoplash (moliyalashtirish)ga sarflaydi. Shuni ta'kidlash zarurki, o'tish davrida davlat krediti faqatgina moliyaviy resurslarni jalb qilish manbayi sifatida emas, balki iqtisodiyotni markaz- lashgan kredit tizimi orqali tartibga solishning samarali vositasi sifatida ishlatalishi kerak.

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda (davlatlar o'rtaida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Bunga xalqaro miqyosda harakat qiluvchi kredit munosabatlarini to'plash sifatida qarash zarur. Kredit bu shaklining bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit in- stitutlari, tegishli davlat hokimiyati, kredit tashkilotlari va alohida yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to'lovlik asosida beriladigan kredit hisoblanadi. Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valuta) shaklida, tashqi savdo faoliya- tida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat tashkiloti va muassasalarini, banklar, kompaniyalar, xalqaro valuta-kredit tashkilotlari qatnashadi;
- qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlataladi;
- qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbayi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda, fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mamlakatlar o'rtaida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi;

- kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;
- har xil valutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro kreditlar:

- xarakteri bo'yicha — davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;
- shakli bo'yicha — davlat, bank, tijorat;
- tashqi savdo tizimida tutgan o'rni bo'yicha — eksportni kreditlash, importni kreditlashga;
- muddati bo'yicha — qisqa muddatli — 1 yilgacha, uzoq muddatli — 5 yildan ortiq muddatga;
- obyekti bo'yicha — tovar va valuta;
- ta'minlanganligi bo'yicha — tovar-moddiy boyliklar bilan yoki hujjatlar bilan ta'minlangan kreditlarga bo'linadi.

Tovar shaklida beriladigan xalqaro kredit yoki firma kreditlari tijorat kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida qo'llanilishi hisoblanadi va bir mamlakat firmasining tovari ikkinchi mamlakat firmasiga kreditga — to'lov muddati kechiktirilib sotiladi. Bujarayon, odatda, tratta (o'tkazma veksel) bilan rasmiy-lashtiriladi. Eksportni kreditlashda davlat tomonidan subsidiya ajra-tilganligi uchun firma kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini, odatda, foiz stavkalarining bozor bahosidan past bo'ladi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy import qiluvchilarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), yevrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan yevrovaluta bozori resurslari hisobidan yevrovalutada, 2 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga, o'zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud. Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama keiishuv asosida rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga tovar yoki valuta shaklida, foiz to'lash yoki foiz to'lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

Xalqaro valuta-kredit tashkilotlarining kreditlari qisqa muddatli — 1 yilgacha (xalqaro valuta fondining kreditlari), o'rta muddatli — 5 yilgacha (Jahon tiklanish va taraqqiyot banki) va uzoq muddatli — 20 yilgacha (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshq.) kreditlar berishi mumkin. Xalqaro valuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklaridan olingan kredit-

lardan (bu kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yiliga 7—9 % ni tashkil qiladi) arzonga tushadi.

Sudxo 'rlik krediti kreditning o'ziga xos shakli. Xorijda bu tarixan keng tarqalgan kredit hisoblanadi. Amalda sudxo'rlik krediti Markaziy bank tomonidan tegishli litzenziyaga ega bo'limgan jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mablag'lami vaqtincha foydalanishga berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sudxo'rlik krediti ssuda foizining yuqori stavkasi bilan xarak- terlanadi (120—180 %). Milliy kredit tizimi infrastrukturasi rivojlanishi va hamma turdag'i potensial qarz oluvchilarga kredit resurs- lardan foydalanish huquqini ta'minlash natijasida sudxo'rlik krediti ssuda kapitali bozoridan yo'qoladi.

7.5. Kredit va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati

Kreditning ahamiyati uning mohiyati va funksiyalari orqali aniqlanadi. Kreditning ahamiyatini kreditni intensifikatsiyalash dastagi va rag'batlantiruvchisi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda bajaradigan funksiyalarining natijasi sifatida aniqlashti- rish mumkin.

Kredit takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy ishlab chiqarishning uzlusizligini ta'minlaydi. Korxonalarga beriladigan kredit ularning vaqtinchalik moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi va takror ishlab chiqarish jarayonini uzlusiz davom etishini ta'minlaydi.

Pul mablag'lariga ehtiyoj ishlab chiqarishning nafaqat mav- sumiy, shuningdek, boshqa sabablariga ham bog'liq. Barcha hollarda kreditni jalg etish asosiy va aylanma fondlarining uzlusiz — doiraviy aylanishini, ishlab chiqarish jarayoni va tovarlar muomalasini tezlashtirishni ta'minlaydi. Boshqa iqtisodiy kategoriylar singari kredit mahsulot ishlab chiqarish va muomala sohasini rag'- batlantiradi. Shuningdek, kredit ijtimoiy-iqtisodiy maqsadiarni amalga oshirishga, iqtisodiy vazifalarni bajarishga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammolari yechilayotgan bir davrda kreditning ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga jalg etishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Kreditning ilmiy-texnika taraq- qiyotiga ijobjiy ta'siri jahon talablariga mos mahsulot ishlab chiqarish, mehnat xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumдорligini

sezilarli darajada oshirishga imkon beruvchi yangi texnika va texnologiyalarni kiritish jarayonlarini imtiyozli kreditlashda ko'rinoqda.

Hozirgi kunda ko'pgina korxonalarda chuqur tarkibiy o'zga-rishlar tufayli ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yangi texnik asosdagi asosiy fondlar bilan ta'minlash ehtiyojini qondira olmaydi. Bunday sharoitda korxonalar texnik qayta qurollanish uchun kreditga ehtiyoj sezadi. Ko'rinish turibdiki, kreditning paydo bo'lish shart-sharoitlariga, nafaqat, unga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek, bo'sh pul mablag'-larining mavjudligi, ularni vaqtinchalik foydalananishga berish imkoniyatiga bog'liq.

Kredit texnologik jarayonlarni takomillashtirish, asbob-usku-nalarni modernizatsiya qilish, asosiy fondlar parkini yangi mashi-nalar bilan ta'minlash asosida, minimal kapital xarajatlar hiso-biga xalq xo'jaligiga kerak mahsulotning hajmini oshirishda korxonalarning samarali yo'llarni tanlashida ularga iqtisodiy turtki beruvchi vositadir.

Samarali tadbirlami amalga oshirish uchun beriladigan kredit fond qaytimi kapital xarajatlar samaradorligini oshirishga, asosiy fondlar strukturasini yaxshilashga va ishlab chiqarish quwatlarini o'z vaqtida ishga tushirishga yordam beradi.

Kreditning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda mehnat unumdoorligini oshirishga ta'siri fondlar va mehnat unumdoorligi qiymat shakllari o'sish sur'atlarining bir-biriga munosabatini ifodalaydi va o'z navbatida, ishlab chiqarish fondlari samaradorligi darajasini xarakterlaydi. Kredit shunday ishlab chiqarish vositalari sotib olish va kiritishga ishlatilishi kerakki, bunda bu vositalar asosida mehnat unumdoorligini va mehnatning fond bilan qurollanish darajalari oshsin.

Kreditning muhim vazifasi sof daromadni ishlatishda vosita-chilik mexanizmini ta'minlashdan iborat. Sof daromadni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun av-val uni pul ko'rinishida jamg'arish kerak. Kreditning o'rnini to'g'ri aniqlash uchun uni ishlatish maqsadlarini, shu jumladan, umumiylashtirish va xususiy maqsadlarini yoritish kerak.

Kreditning umumiylashtirish maqsadi bu ijtimoiy ishlab chiqarishni dinamik va proporsional rivojlanish asosida aholining moddiy-madaniy turmush darajasi oshishini ta'minlaydi. Kreditning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni rivojlantirish intensiv omillarini qo'l-lash asosida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Kredit davlatning iqtisodiy dastaklaridan biri sifatida butun iqtisodiyotning rivojlanishiga va alohida korxona faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko’rsatadi. Kredit ishlab chiqarishga ijtimoiy xarajatlarni iqtisod qilish yo‘li bilan ta’sir etadi. Ammo kredit tovar-moddiy boyliklardagi jonli yoki buyumlashgan mehnatni bevosita iqtisod qila olmaydi, chunki uning o‘zi ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi.

Kreditning ahamiyati uni xalq xo‘jaligiga ta’sir etish mexa- nizmi va yo‘na!ishida ifodalangan nazariy tushunchadir. Kreditning iqtisodiyot va ilmiy-texnika taraqqiyoti rivojlanishiga ta’siri uning xo‘jalik hisobini mustahkamlanishidagi mavqeyini oshiradi. Xo‘jalik hisobida qarz oluvchi yuridik mustaqil shaxs sifatida kreditor bilan kredit shartnomasi tuza oladiT

Kreditning xo‘jalik hisobiga ta’siri quyidagicha amalga oshiriladi:

- qarz maqsadli yo‘nalishiga ega bo‘ladi;
- qarzni qaytarib berish va muayyan to‘lov to‘lash majbu- riyati qarz oluvchini olingen qarzni samarali ishlatishga undaydi.

Kreditning hozirgi sharoitdagi mavqeyini oshirish uchun banklar kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini ta’minlashlari, likvidlik qobiliyatiga ega bo‘lмаган zaxiralalar va xarajatlarga kreditlar bermasliklari, kreditni muomala xarajatlarini iqtisod qilishda keng qo’llashni hisobga olishlari zarur.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar doirasida kreditning ahamiyati or- tib bormoqda. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida res- publikamiz xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasiga kirib bormoqda va bunda kredit ham muhim ahamiyat kasb etayotir.

Kredit mamlakatlararo o‘zaro hamkorliklarni amalga oshi- rishda, xususan, qo‘shma korxonalar qurishda va ularning faoliyatini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Respublikamizning ichki kredit tizimida kreditning ahamiyati yanada muhimroq bo‘lib ko‘rinadi. Buni respublikamizning kredit tizimiga taalluqli qo- nunlar, qarorlar, me’yoriy hujjatlari orqali ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining «Korxonalar to‘g‘risida»gi, «Fer- mer xo‘jaliklariga kredit berish va ular bilan hisob-kitob qilish qoidalari», «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunlari va boshqa shunga oid normativ hujjatlar davlatimiz olib borayotgan pul- kredit siyosatini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Natijada yildan yilga tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan kreditlar salmog'i oshib bormoqda. Faqatgina 2008-yilda iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar hajmi 34 foizga oshib, 2009-yil 1-yanvar holatiga 6372 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu kreditlarning 78,3 foizi uzoq muddatli kreditlardir. 2008-yilda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar 507 mlrd so'mga oshib, 1250,7 mlrd so'mni, aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari 250,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nima uchun kredit beriladi?
2. Kreditning mohiyati va funksiyalarini izohlang.
3. Kredit tarkibini bayon eting.
4. Kreditning tamoyillarini sanab o'ting.
5. Kreditning shoklari qanday bo'lishi mumkin?
6. Qarzni to'lash usullarini bayon eting.
7. Tijorat kreditti nima?
8. Kreditning bugungi kundagi ahamiyati.

VIII bob. BANKLAR VA BANK TIZIMI

8.1. Banklarning kelib chiqishi va uning mohiyati

Bank deb, pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit- hisob va boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasaga aytildi.

Banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining yuzaga kelishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tu- zumlarda banklarning mayjud bo'lishini taqozo qiladi.

Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'⁴laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan subyektlarga berishgan. Bu hoi pul almashtiruvchi pul- dorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

«Bank» italyancha «*banca*» so'zidan olingen bo'lib, «stol», aniqrog'i, «pulli stol» ma'nosini anglatadi. O'rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlardagi monetalarini stol ustiga qo'yib hisob-kitob qilishgan.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilar «*bancherii*», deb atalgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o'z ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «*banco rotto*», ya'ni **bankrot**, deb atashgan. Demak, bizga ma'lum bo'lgan «bankrot» ham italyancha «*banca*» so'zidan olingen.

Banklar paydo bo'lishining boshlang'ich bosqichi XVI as- rda Florensiya va Venetsiyada tashkil qilingan kichik jirobanklar hisob- lanadi. Keyinchalik shunday banklar Amsterdamda (1605), Gam-burgda (1618), Milanda, Nyurnbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar, asosan, o'z mijozlari — savdogar- larga xizmat qilgan, ular o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borgan. Banklar o'z mijozlarini monetalar tarkibi buzili-

shi tufayli zarar ko‘rishdan himoya qilgan. Ular hisoblarni ma’lum summadagi qimmatbaho metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishgan.

Tarixda birinchi yuzaga kelgan bank Angliya banki hisoblanib, u 1694-yilda aksionerlik banki sifatida tashkil bo‘lgan. Bu bank aksioner-emission bank bo‘lib, unga davlat tomonidan banknotalar chiqarishga ruxsat berilgan. Keyinchalik, sanoat rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil qilinib borgan. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanishi ishlab chiqarish bilan bog‘liq xaratjatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylanishining tezlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Natural xo‘jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pulli hisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo‘l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mehnatni jalg qilishga olib kelgan. Yollanma mehnat uchun haqning pul shaklida to‘lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylanishini esa bank tomonidan boshqarilishi zarur edi. Shunday qilib, banklar mablag‘larni yig‘ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqara boshladi. Ssuda kapi- talistidan farqli o‘laroq, bankir tadbirkor sifatida o‘z ish faoliyatini olib borgan.

Agar sanoat sohasidagi puldor o‘z kapitalini sanoatga, sav- dogar o‘z mablag⁴ini savdoga qo‘ysa, bankir o‘z kapitalini bank ishiga qo‘yadi. Ssuda kapitalisti, asosan, o‘zining bo‘sh kapitalini qarzga bersa, bankirlar chetdan jalg qilingan mablag‘larga tayanadi. Ssudaga mablag‘ beruvchi puldorning daromadi ssuda foizi bo‘lsa, bankirning daromadi bank foydasi hisoblanadi. Banklar korxona, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo‘sh pullarini jalg qilish orqali katta hajmdagi kapitalni o‘z qo‘llarida jamlashadi va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib borishadi. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomil-lashuvi, ularning maxsus korxonalar — kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

Shunday qilib, bank faoliyati xalq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan bo‘sh mablag‘larni jalg qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Bank o‘z faoliyati davomida ma’lum daromadga ega bo‘ladi. Bu daromad bank jalg qilgan resurslarga yo‘nal- tirilgan foiz va joylashtirgan resurslar bo‘yicha oladigan foiz o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘ladi.

Bu bobda biz banklarga taalluqli bo'lgan umumiy funksiyalar to'g'risida fikr yuritmoqchimiz. Keyingi boblarda alohida-alohida olingen holda birinchi va ikkinchi bo'g'in banklarining funksiyalari to'g'risida ma'liik(Ot beriladi.

Shunday qilib, bank tizimi miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, banklar quyidagi funksiyalarini bajaradi:

- vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va kapitalga aylantirish;
- kredit munosabatlarida vositachilik qilish;
- to'lov jarayonlarida vositachilik qilish;
- muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Xalq xo'jaligidagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish — banklarning ilk funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funksiya amalga oshirilishi natijasida bir tomonidan, huquqiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag'lari bo'yicha ma'lum miqdorda daromadga ega bo'ladilar, ikkinchi tomonidan bu mablag'lar banklarning kreditlash salohiyatini tashkil qiladi va shu resurslarga asoslangan holda banklar ssuda operatsiya- larini olib boradi.

Vaqtincha bo'sh pul mablag'lari banklar ishtirokisiz bir korxona (tarmoq) tomonidan ikkinchi korxona (tarmoq)ga vaqtincha foydalanishga beriladigan bo'lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda ma'lum qiyingchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

- **birinchidan**, kreditga so'ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bo'lgan summa o'rtaida nomutanosiblik bo'lishi mumkin;
- **ikkinchidan**, ortiqcha bo'sh mablag'ga ega bo'lgan korxonaning mablag'larni vaqtincha foydalanishga beradigan muddati mablag' zarur bo'lgan korxonani qoniqtirmasligi mumkin;
- **uchinchidan**, banklar ishtirokisiz korxonalamini to'g'ridan to'g'ri kreditlashda qarz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy holatini to'liq o'rgana olmasligi mumkin. Qarz oluvchining to'lovga layoqatsiz bo'lishi kreditor korxonaning ham moliyaviy holatining yomonlashuviga va boshqa salbiy hollarga olib kelishi mumkin.

Xalq xo'jaligidagi barcha bo'sh mablag'larning bank tomonidan yig'iliishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslar hisobi-

dan qarz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatga kredit berishga imkoniyat yaratiladi. Undan tashqari, bank korxonalarining to'lovga layoqatlilagini har tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyavii holatini yaqqolroq baholab bera olishi mumkin.

Iqtisodiyotning o'sishi bank kreditining qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. 0'tgan asrning 60-yillardan boshlab, banklar yirik mijozlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslasha bordi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun banklar mablag'larni jalb qilish miqyosini, iste'mol uchun kreditlar berish ko'lamini kengaytirdi.

To'lovlarda vositachilik funksiyasida banklar o'z mijozlarining topshirig'iga asosan, to'lov jarayonlarini amalga oshiradi, hisob-varaqlariga mablag'larni qabul qiladi, pul tushumlarining hisobi- ni olib boradi, mijozlarga pul mablag'Marini beradi.

Hisob-kitoblarning bank orqali olib borilishi muomala xarakatlarining kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va xori-jiy mamlakat bilan qiyinchiliksiz o'z mablag'larini bank orqali o'z hisobvarag'idan boshqa korxona hisobvarag'iga yoki xorijiy mamlakat bankiga o'tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining rnan- bayi faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmas- dan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'ar- malardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin. Undan tashqari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar — banknotalar chiqariladi.

Bank kredit pullar chiqarish, depozitlar yaratish yo'li bilan to'-laqonli pullar o'mini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi.

8.3. Kredit tizimi va uning tuzilishi

Kredit tizimi deb, kredit munosabatlар majmuasi va kredit munosabatlari tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit insti- tutlari yig'indisiga aytildi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh mablag'lari yig'iladi va korxona, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi.

Kredit tizimi bir necha bo'g'lnlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablag'larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab, kredit tizimi bo'g'lnlari o'z xususiyatlariga ega bo'ldi. Jahon amaliyotida kredit tizimi o'zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Markaziy bank;
- tijorat banklari;
- maxsus kredit institutlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog'onali kredit bank tizimi ko'p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklari;
- investitsiya banklari;
- jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (0'zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha banklar;
- tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan banklar va boshq.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investitsiya kompaniyalari;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Kredit tizimida asosiy o'rinni bank institutlari, bank institutlari tarkibida salmoqli o'rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo'g'inlariga nisbatan ko'proq bo'sh resurslarni jalb qiladi va ko'p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi.

Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to'ldiradi va ular iqtisodiyotning kam rentabellik, kam foydali tarmoqlariga (qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilish, tad-birkorlikni rivojlantirish va boshq.) yengil sharoitda kreditlar berish yo'li bilan ularning faoliyatini rag'batlantirib, rivojlantirib boradi.

Kredit uyushmasi deb, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan kreditlar berish maqsadida ixtiyoriy teng huquqli a'zolik asosida tuziladigan kredit tashkiloti e'tirof etiladi. Kredit uyushmasi O'zbekiston Respublikasi hududida bank hisobvaraqlarini belgilangan tartibda ochishga haqlidir.

Kredit uyushmasi o‘zining firma nomi davlat tilida to‘ 1 iq yozilgan hamda joylashgan manzili ko‘rsatilgan yumaloq muhriga ega bo‘lishi lozim. Muhrda ayni paytning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

Kredit uyushmasining firma nomida «kredit uyushmasi» so‘z birikmasi ifodalanishi va u boshqa kredit uyushmalarining firma nomiga o‘xhash bo‘lmasligi kerak. Qonun talablariga javob ber- maydigan yuridik shaxs o‘z nomida «kredit uyushmasi» so‘z birik- masidan foydalanishga haqli emas.

Mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatini amalga oshiruvchi va qonunga muvofiq, boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxs mikrokredit tashkilotidir.

Mikrokredit tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi hududida bank hisobvaraqlarini belgilangan tartibda ochishga haqli. Mikrokredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug‘urta, savdo-vositachilik va qonun- da nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug‘ullanishga haqli emas.

Lombard tashkilotlari deganda, qimmatbaho metallarni ga- rovga olgan holda kredit beruvchi yuridik shaxs maqomiga ega tashkilotlar tushuniladi. Lombard tashkilotlari jismoniy shaxslar- ga o‘zining moliyaviy xizmatlarini ko‘rsatadi.

Banklar ma’lum belgilariga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi:

- mult shakliga qarab, aksioner, noaksioner, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, xalqaro banklar;
- kredit beruvchi banklar.

Milliy mavqeyi bo‘yicha — milliy va xorijiy banklarga bo‘linadi.

Faoliyat ko‘rsatishi va bajaradigan funksiyalariga ko‘ra — depozit, universal, ixtisoslashgan banklarga bo‘linadi.

Aksioner banklar aksioner kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo‘lib, aksiyalar chiqarish hisobidan ular kapitalining asosiy qismini yuzaga keltiradi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aksioner banklar tashkil qiladi. Noaksioner banklar paychilar mablag‘lari hisobidan tashkil qilingan banklar bo‘lib, ular bir yoki bir necha shaxs ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

Mayda ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlarning faoliyatini qo’llab- quwatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil qilinadi.

Bu banklarning mablag'larini ishtirokchilarning mablag'larini hisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun yengil sharoitda kredit beriladi. Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo'lib, kommunal xo'jalik va uy-joy qurilishini kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ul-lanadi.

Davlat banklari davlat ixtiyorida bo'lgan kredit muassasabo'lib, birinchi marta Qadimgi Rimda, Misrda, keyinchalik XVI—XVII asrlarda Yevropada vujudga kelgan. Davlat banklarining quyidagi turlari amaliyotda bo'lishi mumkin: markaziy, tijorat banklari va maxsus kredit institutlari.

Aralash banklar kapitali davlat tomonidan va bir qismi xususiy kapital tomonidan vujudga keltiriladi. Xalqaro banklar xalqaro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi bank bo'lib, davlatlar o'tasida valuta, kredit va moliya munosabatlarini boshqa-rib boradi. Yirik xalqaro banklar qatoriga Yevropa rivojlanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya korpo-ratsiyasi, Xalqaro hisobkitoblar banki, Yevropa investitsiya banki va boshqalarini kiritish mumkin.

Xorijiy banklar to'liq yoki qisman chet el investorlariga tegishli bo'lgan banklar bo'lib, ular o'z faoliyatini mahalliy qonunlar doirasida olib boradi. Hozirgi vaqtida bunday banklar yirik banklarning sho'balari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ba'zi davlatlarda depozit banklar jalb qilingan depozitlar hisobidan hisob, kredit, ishonch operatsiyalarini olib boradi.

Depozit banklar, asosan, aholi jamg'armalarini jalb qilish va joylashtirish bilan shug'ullanadi. Universal banklar turli xil bank operatsiyalari: depozit, kredit, hisob, foiz, vositachilik va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank hisoblanadi. Germaniya, Shvey-sariya, Avstriya kabi mamlakatlarning tijorat banklari universal banklar hisoblanadi. Ixtisoslashgan banklar xalq xo'jaligining ma'lum sohalariga va aholiga xizmat ko'rsatuvchi banklardir.

Ixtisoslashtirilgan banklarning turlari sifatida investitsiya, jamg'arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin. Kredit tizimining yana bir qismi nobank kredit muassasalari bo'lib, davlat va korxonalarini moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlash bilan shug'ullanadi. Har bir mamlakatning kredit tizimi o'z xususiyatiga ega bo'lib, rivojlangan yirik universal banklar tar-moqlarining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Markaziy bank — kredit tizimining bosh banki boiib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi Markaziy banklar bundan qariyb uch yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668-yilda tashkil qilingan Shved Riks Jiro banki, 1694-yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Yevropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq, asosan, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko'rsata boshlagan.

Banklar paydo boiishining boshlang'ich davrlarida ular markaziy (emissiya) yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya'ni banklar o'rtaasida hozirgidek bo'linish bo'limgan. Bank ishi rivojlanishining birinchi bosqichlarida taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari kapitallarni yig'ish maqsadida muomalaga banknotalar chiqargan. Banldarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chiqarish yirik tijorat banklari qo'liga o'ta borgan va keyinchalik biron yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank, keyinchalik Markaziy bank, deb atalgan. Markaziy bank kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib tu- ruvchi kredit instituti sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon amaliyotida markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo'li mavjud. Birinchi yo'l — bu uzoq davr davomida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida, ularni milliylashtirish yo'li bilan Markaziy banklarning tashkil qilinishi. Bunga misol qilib, Angliya bankini (1844-yil), Fransiya bankini (1848-yil), Ispaniya banki (1874-yil), Germaniya Reyxsbanki (1875-yil), Italiyada (1893-yil), Ispaniyada (1874-yil) mavjud banklarning emission markaz sifatida faoliyat ko'rsatishga moslashganligini keltirish mumkin.

Ikkinci yo'l tashkil qilingandayoq Markaziy bank — emission markaz sifatida qabul qilingan banklar. Bunday banklarga AQSHning Federal banklari, 1913-yillarda ko'pgina Lotin Amerika mamlakatlarida tashkil qilingan banklar, Avstriya banki va boshqalarni misol keltirish mumkin.

AQSHda Markaziy bank funksiyasini 12 ta Federal Zaxira banklaridan iborat Federal Zaxira tizimi bajaradi. Federal Zaxira bank-

lar aksioner banklar bo'lib, bu banklarning aksionerlari sifatida milliy tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi. Tijorat banklar aksioner sifatida dividend olishadi. Markaziy banklar ijrochi tashkilotlar ta'sirisiz o'z faoliyatini olib borishi kerak.

Jahonda o'z faoliyatini olib borishda eng mustaqil bo'lgan banklardan biri bu «Nemis Federal banki» va «Bundes banki» hisoblanadi. Ba'zi bir davlatlarda Markaziy bank Parlamentga hisobot beradi. Ko'pgina hollarda Markaziy banklar o'z faoliyatida mustaqil bo'lsa-da, shu bilan birga, davlat banki hisoblanadi:

Markaziy bank quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi:

- banknotalar (naqd pullar) emissiyasi;
- davlatning oltin-valuta zaxiralarni saqlash;
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodiyotni muvofiqlashtirish;
- kredit institatlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatish;
- to'lov-hisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish;
- valuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahonning barcha mamlakatlarida banknotalami muomalaga chiqarish funksiyasi Markaziy banklarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi va bu sohada monopol huquqga ega. Kredit pullar Markaziy bank tomonidan qonunda belgilangan ravishda chiqariladi va Markaziy bank muomalaga chiqarilgan pullarning qaytib bankka kelib tushishi choralarini ishlab chiqishi zarur.

8.5. Davlatning oltin-valuta zaxiralarni boshqarish funksiyasi

Markaziy bank davlatning oltin, qimmatbaho metall va valuta zaxiralarni boshqaradi. Davlatning rasmiy oltin-valuta zaxiralari xalqaro hisob-kitoblarda aktivlar zaxirasi, hisob-kitoblar bo'yicha davlatning kafolatli sug'urta fondi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda, mamlakat oltin zaxiralarning asosiy qismi Markaziy bank ixtiyoriga berilgan bo'ladi. Ba'zi davlatlarda oltin zaxiralari Moliya vazirligi ixtiyorida bo'lib, Markaziy bank oltin bilan bog'liq opera- tsiyalarni olib boradi.

Markaziy banklar mamlakat valuta zaxiralarni o'zida yig'adi va bu zaxiralarni xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov

balansi taqchilligini qoplash va mamlakat milliy valutasi kursining barqarorligini ta'minlash uchun ishlataladi.

Markaziy bank orqali davlatning iqtisodiy siyosati, yanada aniqrog'i, davlatning pul-kredit siyosati olib boriladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati davlatning iqtisodni boshqarish siyosati- ning bir qismi bo'lib, muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasi, boshqa pul muomalasi va ssuda kapitali bozori ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan chora- tadbirlar yig'indisidan tashkil topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valuta barqarorligini ta'minlash, valuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin. **Birinchi yo 'nalish** — kredit ekspansiyasi bo'lib, bu siyosat pul-kredit emissiyasini rag'batlantirish yo'li bilan olib boriladi, ya'ni ishlab chiqarsh sur'atlari tushib ketgan holda, konyunkturada rivojla- nishga erishish mumkin. **Ikkinci yo'nalish** — kredit restruksiya siyosati bo'lib, u iqtisodiy o'sish davrida pul-kredit emissiyasi- ning qisqarishiga asoslanadi. Markaziy bank «tor» va «keng» ma'noda pul-kredit siyosatini olib borishi mumkin. «Tor» siyosatda valuta bozorida investitsiya, hisob stavkasi va qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi boshqa instrumentlar yordamida valuta kursi maqbulliligiga erishish tushuniladi. «Keng» siyosatda muomaladagi pul massasiga ta'sir qilish orqali inflatsiyaga qarshi kurash olib borish tushuniladi. Pul-kredit siyosatining xalqaro jihatlari valuta kursi, valuta zaxiralari va to'lov balansi kabi masalalarning yechimiga qaratilgan bo'ladi. Markaziy bank ruxsat etilgan instrumentlar yordamida pul muomalasini boshqarib boradi. Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrument- lari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- minimal majburiy zaxira me'yorlarini o'rnatish;
- foiz (diskont) siyosati;
- tijorat banklarini qayta moliyalashtirish, ochiq bozor siyosati;
- targetirlash va boshqalar.

Muomaladagi pul massasining hajmi, banklarning likvidlili- gini muvofiqlashtirish va inflatsiya sur'atlarini tushirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zaxiralalar

me'yorini o'rnatib berish siyosatini amalga oshiradi. Pul muomalasini muvofiqlashtirishning bu usuli birinchi bo'lib 1913-yilda AQSHda qo'llanilgan. Minimal zaxiralar — bu tijorat banklari re-surslarining Markaziy bankda majburiy saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy zaxira miqdori tijorat banking chetdan jalb qilingan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Bu zaxira bevosita banklarning kreditlash imkoniyatini chegaralasa-da, ularning minimal likvidlilagini ta'minlash omili bo'lishi mumkin.

Minimal zaxira me'yori jamg'arma turiga, uning hajmiga, bankning joylashish o'rniga bog'liq bo'lgan holda turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Mavjud manbalar shuni ko'rsatadi, masalan, Yaponiyada minimal zaxiralar stavkasi 2,5 % ni, AQSHda — 12 % ni, Germaniyada - 12,1 % ni, Portugaliyada — 17 % ni, O'zbekistonda — 15 % ni milliy valutada va xorijiy valutada tashkil qiladi.

Markaziy bank tomonidan zaxira miqdori ba'zi bir omillarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Markaziy bankning hisob (diskont) siyosatining mohiyati shundaki, u tijorat banklardan veksellarni sotib oladi. Aytaylik, mol sotib oluvchi korxonaning yetkazib berilgan mol (tovar, xizmat va h.k.)larning haqini to'lash uchun mablag'i yetarli bo'lmasa, u tovar uchun to'lovni ma'lum vaqt o'tgandan keyin amalga oshi-rishi to'g'risida veksel berishi mumkin. Mol sotuvchi korxonaga pul mablag'lari zarur bo'lgan vaqtda, u vekselni tijorat bankiga sotishi mumkin. Tijorat banki vekselni sotib olganda, unda ko'rsatilgan summadan kam summaga (ma'lum foiz ushlab qol-gan holda) sotib oladi.

Zarur bo'lganda, tijorat banki vekselni Markaziy bankda hisobga qo'yishi mumkin. Bu holda Markaziy bank ham o'z foydasiga ma'lum foiz — hisob stavkasi ushlab qolishi mumkin. Markaziy bankning hisob stavkasi turli davlatlarda har xil — 5 % dan 15 % gacha bo'lishi mumkin. Tijorat banklari veksellarni sotib olishda Markaziy bankning hisob stavkasiga tayanadi. Markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklari o'rnatadigan hisob stavkasining eng past chegarasi hisoblanadi. Odatda, tijorat banklarining hisob stavkasi Markaziy bankning hisob stavkasidan yuqori (0,5 % dan — 2 % gacha) bo'ladi.

Tijorat banklarining qayta moliyalashtirish siyosati to'g'ridan to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni garovga olgan holda kreditlar berish va kredit auksionlarini o'tkazish

yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqqan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usul- larda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo‘li bilan kreditlash;

- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog‘ozlarni garovga olish yo‘li bilan kreditlar berish. Bunday kreditlar lombard kreditlar deyiladi. Ularning foiz stavkalari lombardli foiz stavkalar deb yuri- tiladi. Jahan amaliyotida lombard bo‘yicha foiz stavkasi doimo hisob stavkasidan 1—2 % yuqori bo‘ladi;

- to‘g‘ridan to‘g‘ri kredit berish usuli. Kredit tashkilotlari faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklar bo‘lgan hollarda ular Markaziy bankka kredit olish uchun murojaat qilishi va Markaziy bank kreditidan foydalanishi mumkin. Qayta moliyalashtirishning asosiy maqsadi pul muomalasi va kredit munosabatlarining holatiga ta’sir ko‘r- satishdan iborat. Qayta moliyalashtirish siyosatini olib bora turib, Markaziy bank oxirgi kreditor sifatida maydonga chiqadi.

0‘zbekiston Respublikasida Markaziy bank o‘rnatgan qoidalarga asosan, quyidagi aktivlarni garovga olgan holda 3 oygacha boigan muddatda kreditlar berishi mumkin:

- oltin, chet el valutasi, xalqaro zaxiralalar toifasiga kiruvchi valuta boyliklari va boshqa boyliklar;

- davlatning qarz majburiyatları va davlat tomonidan kafolat- langan boshqa qarz vositalari.

Ochiq bozor siyosati deganda, Markaziy bankning ochiq bozorda qimmatli qog‘ozlarni o‘z hisobidan sotib olishi va sotishi tushuniladi. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati, asosan, xazina majburiyatlarini, sanoat kompaniyalari va banklarning obligatsiyalarini, Markaziy bankda hisobga olingan tijorat veksel- larini sotish va sotib olish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati orqali bank tizimining va alohida olingan tijorat banklarining o‘z zaxiralari miqdori oshirilishi (agar qimmatli qog‘ozlar sotib olinsa) yoki kamaytirilishi (agar qimmatli qog‘ozlar sotilsa) mumkin. Ochiq bozor siyosati orqali Markaziy bank kredit bahosining o‘zgarishiga erishishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, pulga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga olib keladi. Odatda, Markaziy bank bu siyosat orqali ortiqcha pullarni muomaladan oladi va pul muomalasini muvofiqlashtirish bo‘yicha aktiv pul-kredit siyosati olib boradi.

Jahon amaliyotida Markaziy bankning ochiq bozor siyosatida asosiy o‘rinni davlatning qisqa muddatli majburiyatlari bilan bo‘ladigan operatsiyalari egallaydi. Bu faoliyat AQSHda, Germaniyada yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, Germaniyada «Nemis Federal banki» pul-valuta siyosatini tartibga solish uchun ochiq bozorda quyidagi qimmatli qog‘ozlarni bozor stavkasida so-tishi va sotib olishi mumkin:

- Federal bank bilan bitim shartlariga yarovchi veksellar;
- Federal bank tomonidan loyiq deb topilgan boshqa qarz majburiyatlari.

Federal bank ochiq bozorda qarz majburiyatlarini emitentning o‘zidan sotib ololmaydi. Bu holda shartnomaga ochiq bozor siyosati emas, aksincha, kreditlash bo‘lib qoladi.

«O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning 25-moddasiga asosan, Markaziy bank o‘zi chiqargan qimmatli qog‘ozlarni, shuningdek, qarz majburiyatlarini ochiq bozorda sotishi va sotib olishi mumkin. Markaziy bank budjetni moliyalashtirish uchun ochiq bozorda operatsiyalar olib borish, qimmatli qog‘ozlarni birinchi joylashtirishda ularni sotib olishga haqli emas.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Banklar ilk davrda qanday vazifalarni bajargan?
2. Bank tizimining rivojlanish bosqichlari haqida nimani bilasiz?
3. Kredit tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Maxsus moliya-kredit institutlariga nimalar kiradi?

IX bob. 0‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI VA UNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

9.1. O‘zbekistonda zamonaviy bank tizimining tashkil qilinishi

Bank tizimi — bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismi. Tovar-pul munosabatlarning keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlar ochib beradi. Shuning uchun ham, respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati -tug‘ildi. 0‘zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon talabiga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega bo‘lish, xo‘jaliklar va aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat.

Bu maqsadga erishishni ta’minlash uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta’minlovchi zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimi barqarorligini ta’minlash, shuningdek, bank nazorati tizimini va banklar faoliyatini bosh- qarish usullarini takomillashtirish, banklarning depozit, kredit va investitsiya faoliyatini yanada rivojlanadirishga erishish va banklar o‘rtasida raqobat bo‘lishini ta’minlashga asos yaratishdan, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlanadirish, moliya-kredit sektorining huquqiy bazasi- ni yaxshilash, ularning moddiy-texnik jihatdan samarali ta’mi- langanligiga erishish kabi choralarни amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bank tizimini qayta tashkil qilishni amalga oshirish quyidagi tamoyillarga asoslangan holda olib boiilishi mumkin.

• xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish;

• bank tizimidagi islohotlar umumiqtisodiy islohotlarning o‘tkazilishi bilan mos kelishi;

• bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo‘li bilan jahon bank tizimiga yaqinlashtirish;

• pul-kredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehti- yojlari va iqtisodiyotning xususiyatini hisobga olish;

• banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun qo‘yish va boshq.

Bizning zaminimizda mavjud bo'lgan banklarning rivojlanishini ikki yirik davrga bo'lib qarash mumkin. ***Birinchi davr***, bu — O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrdagi bank tizimi va ***ikkinchi davr*** O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, banklar tizimining birinchi pog'onasi — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog'onasi — tijorat banklari, ularning sho'balari, chet el banklari sho'balari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi banklar tizimini kengaytirgan holda quyidagicha chizmada keltirish mumkin:

0‘zbekiston Respublikasi Bank tizimi tarkibi

I pog'ona

II pog'ona

0'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, uning rivoj- lanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

- birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930—1932-yillar- gacha bo'lgan davmi o'z ichiga oladi. Bu davr ichida oldingi mavjud bo'lgan banklar zaminida sobiq Ittifoqning kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o'lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko'rsatgan;
- ikkinchi bosqich 1932-yildan 1959-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o'zgarishlar yuz berdi va banklar veksel orqali kreditlashdan (o'sha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to'g'ridan to'g'ri korxonalami kreditiashga o'tkazilgan. Bu davrda xo'jaliklar o'rtasidagi vazifalar taqsimlangan va iqtisodiyot sohalari bo'yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug'ullangan. Davlat banki esa, asosan, qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;
- uchinchi bosqich 1959-yildan 1988-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qilinib, mamlakatdagи barcha kredit munosabatlarini olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki boigan. Davlat banki iqtisodiyotning barcha sohalariga (faqat qishloq xo'jaligining ba'zi ehtiyojlari uchun uzoq muddatli kreditlar berilgan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullangan. Qurilish banki kapital qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog'liq operatsiyalarini bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo'lib, mamlakatning eksport-import bilan bog'liq faoliyatini boshqarib borgan;
- to'rtinchi bosqich — bank tizimini qayta tashkil qilish davri bo'lib, u 1988-yildan 1990-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda bank tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi va Davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi. Bu banklar jumlasiga «Sanoat-qurilish» banki, «Agrosanoat» banki, Uy-joy kommunal xo'jaligi va sotsial rivojlanish banki, Jamg'arma bank va Tashqi iqtisodiy faoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatli tomoni shunda ediki, ular o'zi xizmat

ko'rsatadigan sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edi.

Shu davrdan boshlab, Davlat bankidan kreditlash funksiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko'rsatadigan bo'ldi. 90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko'rsatishni ta'minlash va korxonalar bilan banklar o'rtaсидagi munosabatlarni xo'jalik hisobiga o'tkazish, quyi bank muassasalarining huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Mustaqillikka erishgunga qadar, O'zbekiston hududidagi bank muassasalari sobiq Ittifoq bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. Shu bilan birga bu banklar sobiq Ittifoq bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Sobiq Ittifoq bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalarini bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Davlat banking ham emissiya funksiyalarini, ham hisob-kitoblar va 90-yillargacha kreditlar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarishga monopolashuvi uni davlat boshqaruvi va nazorat organiga aylantirgan edi.

Ma'muriy-buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtiso- diyotni boshqarishda normal xarakterga ega, Davlat banki kredit resurslari bo'yicha cheklanmagan monopol mavqega ega edi. Kredit resurslari harakatini ham boshqarish, ham nazorat qilish Davlat banking monopol ta'siri ostida edi. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos barcha xususiyatlarining inkor etilishi, sobiq Ittifoq bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keldi. Markazlash- tirilgan bank tizimi boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatayotgan res- publika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarar, lekin resurslarni taqsimlash, emission jarayonlarni amalga oshirish va nazorat qilish sobiq Ittifoq Davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq, markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklari ro'yobga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlami amalga oshi- rishni talab etardi. Albatta, bu bozor iqtisodiyotiga ilk qadamlar qayta qurish sharofati bilan bozorga xos ba'zi bir belgilaming totali- tar iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan tushuniladi. Bu jarayonda

bank tizimining tashkiliy strukturasi o‘zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta’sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakka aylantirish ko‘zda tutilgandi.

Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri, asosan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

— mustaqil O‘zbekiston bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichi. Bu 1991—1994-yillami o‘z ichiga oladi. Bu davrda 1992-yilning sentabrigacha O‘zbekiston davlat banki sobiq Ittifoq Davlat banking respublika bo‘limi sifatida faoliyat ko‘rsatdi va u kredit resurslarni davlat korxonalari miqyosida taqsimlash, emission operatsiyalarni olib borish bilan shug‘ullandi. Qolgan tarmoq banklar ham davlat mulkiga asoslangan edi.

O‘zbekistonda ikki pog'onali bank tizimini tashkil qilishga 1988-yildan boshlab kirishilgan bo‘lsa-da, bu maqsadning to‘liq amalga oshirilishiga sharoit 1994-yilda yuzaga keldi. Bu davrga kelib, Markaziy bankning tashkiliy-tarkibiy asosi, faoliyat olib borish uslubi o‘zgardi, tijorat banklarining soni va ular bajaradigan operatsiyalar salmog‘i oshib bordi. Bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichida markazlashgan rejorashtirishda Markaziy bankning mavqeyi hali ham yuqori edi, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O‘zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimi tashkil etilishining tamal toshi 1991-yil 15-fevraldagagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun hisoblanadi. Bu Qonunga binoan, davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak, u faqat Oliy Majlisga hisobot berishi o‘rinli ekanligi belgilab berildi. Bu Qonunni amalga tatbiq etish, asosan, mustaqillik qo‘lga kiriiilganidan so‘ng boshlandi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘lini tanlanganligi bois, birinchi bosqichdagi pul-kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- Markaziy bank boshchiligidagi keng tarmoqli tijorat va xususiy banklarni ikki bosqichli bank tizimi shaklida vujudga keltirish;
- respublika hududida yirik chet el banklarining bo‘limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;
- barqaror pul muomalasini ta’minlash, kredit va naqd pul emissiyasining asossiz o‘sishini keskin cheklash;

- O‘zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda im- koniyatlarni yaratish va boshq.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarining yangi strukturasini tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan banklarni tashkil qilish;
- ixtisoslashgan banklarni to‘laligicha xo‘jalik hisobiga va o‘z- o‘zini moliyalashga o‘tkazish;
- iqtisodiy tizim doirasida huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan kredit munosabatlari uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshq.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida Davlat banki o‘zining kredit tizimidagi markaziy o‘rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob- kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi, ya’ni bankning emission faoliyatini, kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo‘yildi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muas- sasaga aylanadi.

Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: «Sanoat-qurilish» banki, «Uy- joy communal xo‘jaligi va sotsial rivojlanish» banki, «Agrosa- noat» banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg‘arma banki xo‘jaliklar bilan banklar o‘rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlash- tirishda ixtisoslashtirilgan davlat banklari o‘zlarida ma’lum dara- jada boshqaruvchilik mavqeyini saqlab qoladi.

O‘zbekistonda bank tizimini tashkil qilishning ikkinchi bosqichi 1994-yildan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bank tizimining takomillashtirgan faoliyatini belgilab beruvchi 1995-yil 21-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘ri- sida»gi va 1996-yil 25-aprelda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunlar qabul qilindi.

Tijorat banklarining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida bank nazorati va monitoringini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish va xalqaro talablarga moslash, yangi schotlar tizimiga o'tish, chet el banklarining sho'balarini ochish, to'lov tizimini takomillashtirish, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini rivoj- lanlantirish, pul va valuta bozorida banklarning aktiv faoliyatini ta'minlash kabi dolzarb masalalar hozirgi kunda mustaqil bank tizimining rivojlanishi tufayli o'z yechimini topmoqda.

Respublikamizda ikki pog'onaii bank tizimini jahon tajribasida qabul qilingan tamoyillarga muvofiq shakllantirish ko'zda tutilgan. Ixtisoslashish va kredit-investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash respublikamizdagi bank muassasalarining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ularning faoliyati, asosan, ustuvor tarmoqlar — qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ish- lovchi korxonalar, uy-joy qurilishi, avtomobilsozlik, savdo va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan. Hozirgi banklar ak- siyador-tijorat banklari sifatida tashkil qilinib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga moslashgan va ular ixtisoslashgan banklar bo'lsa- da, boshqa tarmoqlardagi mijozlarga ham kredit va hisob-kitoblar bo'yicha xizmat ko'rsatishlari mumkin.

Mustaqil bank tizimini vujudga keltirishning ikkinchi bosqichi xususiyatlaridan biri shundaki, 1995-yildan boshlab, O'zbekistonda maxsus nobank kredit tashkilotlari tashkil qilina boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish, korxona va tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida maxsus moliya-kredit institutlari — «Madad» sug'urta kompaniyasi, «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasi, xususiylashtirish investitsion fondlari va boshqalar tashkil qilinishi iespublika bank-mo'.iya tizimining rivoj lanishini tezlashtirmoqda.

Hozirda respublikadagi keng tarmoqli banklar zamonaviy talablarga javob beradigan shaklda xo'jaliklar, tashkilotlar va aholiga xizmat ko'rsatmoqda. 2008-yilda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari soni 30 ga yetdi. Shundan 3 tasi davlat tijorat banki, 11 tasi xususiy bank va 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Respublikamiz turli hududla- rida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari filiallari soni 800 tani tashkil qiladi.

Oldingi bandda keltirilgan Markaziy bankning vazifalari va funksiyalari to‘g‘risidagi fikrlar O‘zbekiston Markaziy bankiga ham tegishlidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bankning asosiy maqsadi pul-kredit tizimi va milliy valuta barqarorligini ta’minlash asosida iqtisodiy o‘sishga erishishdan iborat.

Pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank pul-kredit siyosatini rivojlantirishning bir yilga mo‘ljalangan asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi. Bu yo‘nalishlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan keyin harakat dasturi sifatida qabul qilinadi. Markaziy bankning vazifalari xilma-xil bo‘lib, bu qonunda aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huquqiy shaxs sifatida, davlat mulkiga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida o‘z xaratjatlarini daromadlari hisobidan qoplashi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘z miqyo-si va faoliyat darajasiga ko‘ra, respublikamizdagi eng yirik bank hisoblanadi. »

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonun asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu Qonunning 3-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta’minlashdir. Valuta barqarorligi pul massasi, narx-navo va milliy valuta kursining barqaror bo‘lish tushunchasini o‘z ichiga oladi. Albatta, pul massasi, valuta kursi, narx-navoga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjud. Milliy valutaning barqarorligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarni hal etadi. Ularning asosiyлари quyidagilardir:

- monetar siyosatni va valutani boshqarish siyosatini shakl-lantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish va ta’minlash;
- banklar faoliyatini tartibga solish va banklar faoliyati ustidan nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valuta zaxirasini saqlash va ularni boshqarish;

- Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat budgetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bankka ayrim bank, korxona va tashkilotlarning kapi-talida qatnashishi, ularga moliyaviy yordam ko'rsatishi, tijorat turi-dagi faoliyatlarni olib borishi man qilinadi. Markaziy bank bosh-qarishning yuqori tashkiloti boshqaruv bo'lib, u monetar siyo-satni hamda o'z zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirishda boshqa davlat tashkilotlarining bevosita va bilvosita ara-lashuvidan xoli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi asosiy funksiyalami bajaradi:

1. Iqtisodiyotni pul-kredit dastaklari yordamida boshqarish.
2. Hisob-kitob va pul o'tkazish operatsiyalarini bajarishni yo'lga qo'yish.
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.
4. Boshqa kredit muassasalarining kassa zaxiralarini saqlash.
5. Rasmiy oltin-valuta zaxiralarini'saqlash.
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalarini bajarish.
7. Tijorat banklariga kredit berish.
8. Pul emissiyasi.

Markaziy bank o'z sarf-xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplovchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklaridan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

Respublika Markaziy bankining nizom kapitali 2 mlrd so'm deb belgilangan. Shuningdek, Markaziy bank «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq, soliqlar va bojlardan ozod. Markaziy bank kelgusi yil uchun 0'zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili bosh-lanishidan 30 kun oldin Oliy Majlisga bu haqda axborot beradi. Markaziy bank pul-kredit, moliya, valuta va narx munosabatlarning ahvoliga asoslanib, muomaladagi pul massasining bitta yoki bir qancha ko'rsatkichlari o'zgarishining aniq maqsadli mo'ljalarni belgilashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati, iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miq-

dorini yillik o'stirish sur'atlarining maqsadli ko'rsatkichlarini, kredit, foiz va valuta siyosatini amalga oshirish yo'nalişlarini o'z ichiga olib muhim makroiqtisodiy jarayonlar: pulning qadrsizlani-shi, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi hamda mehnat resurslarining bandligi, to'lov balansini barqarorlashtrishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'zaro hisob-kitoblarning O'zbekiston tijorat banki tomonidan belgilangan va ham- ma bank hamda mijozlar uchun majburiy bo'lgan qoidalar asosida olib borilishini nazorat qiladi. Chunki belgilangan qoidalarning bir taxlitda qo'llanilishi butun respublika hududida hisob-kitoblarning uzuksizligini ta'minlaydi.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qo-nunning 50-moddasiga muvofiq, banklarni nazorat qilishdan asosiy maqsad bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojini har tomonlama hisobga olib va kuzatib boradi, kapitalning aynan bir xilligi, likvidlilikka doir talablarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy me'yorlarni (52-modda), shuningdek, kreditlash hajmi, limitlarini belgilaydi. Kapitalning yetarliligi, aktivlarining sifati, foydaliligi va likvidliligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valutani tartibga solish va valutani nazorat qilish davlat organidir. Shu bilan birga, Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valutasida operatsiyalar o'tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valutani chet el valutasiga nisbatan kursini aniqlash shartini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro hisob-kitoblarda zaxiradagi aktiv va kafolatli sug'urta fondi vazifasini bajarish bilan birga, dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan mamlakatimizning oltin-valuta zaxiralari qiymatini ham yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valutaga ega bo'lish va valuta operatsiyalari o'tkazish huquqi borligiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valuta zaxiralarini saq-lovchi asosiy depozitari bo'lib qolishi lozim.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining ban-kiri, maslahatchisi va xazina vakili sifatida ish tutadi. «O'zbekiston

Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning 44-modda- siga muvofiq, Markaziy bank hukumat bankiri sifatida hukumat muassasalari va tashkilotlarining hisobvaraqlarini yuritadi, ana shu hisobvaraqlarda mablag‘larni jamg‘aradi va ulardan to‘lovlarni amalga oshiradi; davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalar o‘tkazib turadi; davlatga bevosita qisqa muddatli va uzoq muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi; hukumat idoralarining topshirig‘iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valutada operatsiyalar bajaradi.

0‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning xazina vakili sifatida hukumat hisobvaraqlarini yuritadi, hukumatning moliya operatsiyalariga ko‘maklashadi, budjet daromad va xarajatlari ma- salalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtiradi, ular bo‘yicha hisobvaraqlar yuritadi va davlatning boshqa qarz majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlami amalga oshiradi. Banklar banki sifatida 0‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob- kitob-to‘lov operatsiyalarini o‘tkazish, banklararo to‘lovlarning hisob-kitob-kliring xizmatini uyushtirish tartibini belgilaydi, tijorat banklariga kreditlar, tegishlicha ko‘rsatmalar beradi.

Tijorat banklari 0‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki- dagi o‘z hisobvaraqlaridan o‘zaro hisob-kitoblar uchun foydalana- dilar. Bundan tashqari, ularning o‘z mablag‘lari kamlik qilsa, Markaziy bankdan kredit olishlari, naqd pul bo‘yicha ham Markaziy bankka murojaat qilishlari mumkin. Markaziy bank va u vakolat bergen banklar talabga ko‘ra, bir nominal qiymatdagi banknota va tangalami boshqasiga hech qanday to‘lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag‘larini muomalaga chiqarish va qaytarib olish ni faqat Markaziy bank amalga oshiradi. Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zaxira miqdorini belgilab beradi. Hozirgi kunda bu ko‘rsatkich milliy valutada 15 % va xorijiy valutada 15 % ni tashkil qiladi. U pul muomalasini barqarorlashtirish va banklar likvidligini ta’minlashda ahamiyatga ega.

9.3. Markaziy bank faoliyatining xususiyatlari

Targetirlash. Pul massasi hajmining o‘zgarishini o‘rnatilgan usullar yordamida chegaralash **targetirlash**, deb ataladi. Targetir- lashda ma’lum bir davrda pul massasi hajmining taxminiy yuqori va past darajasi belgilab beriladi.

Jahon amaliyotida pul massasi hajmini chegaralashning tax-miniy darajasi quyidagi maqsadli yo'nalishlar bo'yicha belgilab beriladi. Masalan, Fransiyada bu usul nazorat raqamlari, AQSHda depozit shaklida, Yaponiyada istiqbol shaklida belgilab beriladi.

Markaziy bank targetirlashni pul muomalasini muvofiqlash-tirishning boshqa vositalari bilan birgalikda olib boradi. Targetirlashning ahamiyati shundaki, ma'lum bir davrda haqiqatda muomalaga chiqarilgan pul massasini taxminiy belgilab berilgan pul massasi bilan solishtirish natijasida pul muomalasidagi ahvol to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin va oldindan zaruriy choralar ishlab chiqish hamda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy bank pul-kredit siyosatining samaradorligini ta'minlaydi.

Targetirlashda foydalanimadigan ko'rsatkichlar pul-kredit siyosatini olib borish an'analariga, pul muomalasini muvofiqlashtirish usullariga bog'liq bo'ladi.

Markaziy bankning navbatdagi funksiyalaridan biri, bu —kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat. Tijorat banklari faoliyatining Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida Markaziy bankning muhim mavqega egaligi bilan asoslanadi. Markaziy bank bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot bilan bank tizimi o'rtaida vositachi sifatida faoliyat ko'r-satadi. Bank nazorati ikki maqsadni:

- jamg'armachilar manfaatlarini har xil mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilish;
- tavakkalchiliklarning oldini olish bilan birga, moliyaviy bozorning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish funksiyasini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bank faoliyatini olib borishga litsenziyalar berish;
- banklar hisobotlarini tekshirish;
- joylarda tekshirishlar o'tkazish;
- bank operatsiyalarini bajarishda me'yorlarga rioxha qilishni nazorat qilish.

Bank faoliyatini olib borishga litsenziya (ruxsat) berish orqali Markaziy bank tashkil qilinayotgan kredit institutining bank faoliyatini olib borish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Kredit tashkilotiga litsenziya berishda quyidagi ma'lumotlarga e'tibor beriladi:

- bankning asosiy aksionerlari;
- boshlang'ich kapitalning manbalari;
- bank rahbar xodimlarining malakasi va qobiliyatining mos kelishi;
- ko'rsatiladigan xizmat turlari va bank strategiyasi;
- nizom kapitalining miqdori;
- bank aktivlarining to'g'ri baholanganligi;
- yuzaga keladigan tavakkalchiliklami qoplash maqsadida zaxira fondini tashkil qilish va boshq.

Jahon amaliyotida o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab ko'pgina banklar inqirozga uchraganligi munosabati bilan Markaziy banklar tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish maqsadida banklar va ularning sho'balarini to'g'risida hisobotlar topshirishni belgilab berdi.

Markaziy bank tijorat banklari amalg'a oshiradigan operatsiya- larni tekshirish, ichki audit holatiga baho berish huquqiga ega. Bunda, awalambor, tijorat banklarining aktivlari: kreditlar va qimmatli qog'ozlar holati, banklarning likvidligi va barqarorligi tekshiriladi. Tekshirish o'tkazishdan asosiy maqsad:

- bankning moliyaviy holatiga obyektiv baho berish;
- bankni boshqarish sifatiga va uning rahbari faoliyatiga baho berish;
- bankning moliyaviy holatini va uning bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha choralar ishlab chiqish;
- bank faoliyatining mavjud qonunlar va me'yoriy hujjatlarga muvofiq olib borilishini ta'minlash va boshqalardan iborat.

Markaziy bank, shuningdek, tijorat banklari olib boradigan operatsiyalarining me'yor bo'yicha bajarilishini nazorat qihb boradi. Bu holda Markaziy bank tijorat banklarining quyidagi ko'rsatkich- larini tekshiradi:

- bank kapitalining aktivlariga nisbati;
- bir mijozga to'g'ri keluvchi kreditning limiti;
- likvidlilik koeffitsiyenti me'yorlariga rioya qilish;
- foiz stavkalari o'zgarishi natijasida daromadning o'zgarishi va boshq.

Markaziy bank davlat banki sifatida faoliyat olib boradi va hukumatning moliyaviy maslahatchisi hisoblanadi. Bu funksiyani

bajara turib, Markaziy bank davlat tashkilotlariga hisob xizmatla- rini ko'rsatadi va davlat budgetining cassaviy ijrosini amalga oshiradi. U davlatning xazina to'lovlarini amalga oshiradi va davlatga kreditlar beradi. Davlat xazinasidagi bo'sh pul mablag'¹ lari Markaziy bankda depozit shaklida saqlanadi. Markaziy bank davlatning qisqa va uzoq muddatli qarzlar bo'yicha kassa xizmatini ko'rsatadi.

Markaziy bank to'lov, hisob-kitob munosabatlarini tashkil qilish funksiyasini bajara turib, moliya tizimining barqarorligini ta'minlash, to'lov tizimining samarali bo'lishini ta'minlash, pul- kredit siyosatini o'tkazish kabi masalalarni hal qilishni o'z oldiga qo'yadi. Moliyaviy tizimning samaradorligi, awalambor, to'lov tizimining qay darajada tashkil qilinganligiga bogliq bo'ladi. Iqtisodiyotda toiov mexanizmining yaxshi yo'nga qo'yilishi, banklararo hisob-kitoblarning to'g'ri olib borilishi iqtisodiyotda to'lanmagan qarzlarning kamayishiga olib kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. To'lov tizimida naqd pulsiz hisob- kitoblar shakllarini rivojlantirish, elektron to'lovlar tizimini joriy qilish va rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Markaziy bank valuta kursini boshqarish funksiyasini bajaradi. Markaziy bankning bu funksiyasi bozor iqtisodiyoti tizimini tartibga solishda asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Markaziy bankning asosiy valuta siyosatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Valuta intervensiysi.
2. Deviz siyosati.
3. Svop operatsiyalari.
4. Devalvatsiya.
5. Revalvatsiya.
6. Valuta cheklar siyosati va boshq.

Valuta intervensiysi deb, Markaziy bankning milliy valuta kur- siga ta'sir qilish maqsadida chet el valutasini sotish va sotib olish bo'yicha o'tkazadigan operatsiyalari bilan valuta bozori faoliyatiga aralashuviga aytildi. Milliy valuta kursini oshirish maqsadida Markaziy bank chet el valutasini sotadi va aksincha, milliy valuta kursini tushirmoqchi bo'lganida, u chet el valutasini sotib oladi.

Markaziy bank tomonidan birinchi valuta intervensiysi XIX asrдан qo'llanila boshlangan. XX asrning 30-yillaridan boshlab, bu operatsiyalar rivojlangan mamlakatlarda milliy valuta kursini tushirish va shu asosda eksportni rag'batlantirish maqsadida qo'llanila boshlangan. Brettonvud valuta tizimi doirasida valuta

intervensiysi o'zgarmas valuta kursi va paritetini ta'minlash vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, o'zgaruvchan valuta kursi mayjud bo'lgan mamlakatlarda milliy valuta kursidagi katta o'zgarishlar- ning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Markaziy bank valuta kursining barqarorligini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda xalqaro to'lov vositalari (oltin-valuta zaxiralari, SDR, XVFning zaxira pozitsiyasi) zaxiralariga yoki chet el zayomlariga ega bo'lishi kerak. Valuta zaxiralar bu davlatning Markaziy bankdagi valuta zaxiralar hisoblanadi.

Svop operatsiyalari. Valutaviy svop operatsiyalari va garov evaziga ssudalar berish bilan bog'liq valuta operatsiyalari Germaniya Markaziy bankning valuta siyosatida keng qo'llaniladi. **Svop** — bu bank operatsiyasi bo'lib, valuta ma'lum muddatga naqd sotiladi (sotib olinadi) va bir vaqtning o'zida valutaviy savdo bo'yicha qarshi bitim tuziladi. Masalan, Markaziy bank tijorat banklaridan svop bitimi bo'yicha chet el valutasini sotib oladigan bo'lsa, Markaziy bank ular ixtiyoriga pul mablag'larini ma'lum davrga berib qo'yadi va aksincha.

Markaziy bankning valuta siyosatining muhim jihatlaridan biri shundaki, u orqali kredit instrumentlarining likvidliligiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Ularning likvidliligiga ta'sir ko'rsatishning muhim usullaridan biri garov evaziga ssudalar berish bilan bog'liq valuta operatsiyalarini amalga oshirish. Ushbu operatsiyani amalga oshirish uchun tijorat banklariga Markaziy bankning chet el va-lutasidagi aktivlaridan vaqtinchalik foydalanish huquqi beriladi. Aktivlarning o'zi esa Markaziy bankning mulki bo'lib qolaveradi va shu sababli, unga foiz hisoblab borilaveradi. Jahon amaliyotida, odatda, Markaziy bankning valuta operatsiyalarining asosiy qismi svop operatsiyalariga to'g'ri keladi.

Devalvatsiya (lotincha so'z bo'lib, qadri tushish ma'nosini anglatadi) — milliy valutaning chet el valutasi yoki boshqa xalqaro to'lov vositalariga nisbatan qadrining tushishini anglatadi. OI-dingi boblarda ta'kidlanganidek, devalvatsyaning kelib chiqishiga sabab — inflatsiyaning kuchayishi va mamlakat to'lov balansi- ning salbiy qoldiqqa ega bo'lishi hisoblanadi. Devalvatsiya siyosatini mamlakat to'lov balansida ahvol yomonlashganda va import oqimi kuchayganda amalda qo'llash iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Revalvatsiya (lotincha so'z bo'lib, qadri oshish ma'nosni anglatadi) — milliy valutaning chet el valutasiga nisbatan qadrining oshishi. Revalvatsiya sotib olish qobiliyati kuchli bo'lgan va-

lutalar bo'yicha, masalan, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya kabi mamlakatlarda qo'llaniladi. Bu mamlakatlar uzoq vaqt davomida aktiv to'lov balansiga ega bo'lib kelgan.

Ushbu mamlakatlarning eksport qudrati yuqori bo'lishi, inflatsiya darajasining pastligi ham revalvatsiya o'tkazishga asos hisoblanadi. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jahon amaliyotida kamroq qo'llaniladi. Revalvatsiyaning salbiy tomonlari ham mavjud. Revalvatsiya mamlakatning eksport potensialini kamaytirishi mumkin. Bunga sabab, revalvatsiyadan keyin mamlakat tovarlarining jahon savdo bozorida chet el valutasidagi narxining oshi-shidir. Bu esa mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Revalvatsiya yana ishsizlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Revalvatsiyada chet el valutasida kredit olgan qarz oluvchilar yutadi. Shu bilan birga, import qiluvchilar olib kelgan tovarlari uchun arzonroq chet el valutasini olish imkoniyati tu-g'iladi va import uchun qulay muhit yuzaga keladi.

Valuta cheklavlari deganda, odatda, chet el valutasi oltin va boshqa valuta qiymatliklari bilan bo'ladijan operatsiyalami davlat miqyosida qonun asosida cheklash tushuniladi. Bu chorani amalgalashishdan maqsad to'lov balansining aktivligiga va milliy pul birligi kursini qo'llab-quwatlash hamda uning barqarorligiga erishishdan iborat. Milliy valuta barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank mamlakatga chet el kapitali kelib tushishini ta'minlovchi choralar ishlab chiqadi va amalgalashishdan iborat.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekistonda bank tizimi bosqichlarini bayon eting.
2. Banklar faoliyatiga oid qonunlarni bilasizmi?
3. Markaziy bank kimga hisob beradi?
4. Markaziy bankning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
5. Markaziy bankning pul muomalasi borasidagi faoliyati.

X bob. TIJORAT BANKLARI VA ULARNING FUNKSIYALARI

10.1. Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foy- da olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbayidir.

Bank foydasining o'sib borishiga ta'sir qiladigan bir necha xil omillar mavjud. Ular — bankning rentabelligi, vaqtincha bo'sh mablag'laming samarali ishlatalishi, turli xil pullik xizmatlar doira- sini (faktoring, lizing, trast xizmatlari va h.k.) kengaytirish, foy- da keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktiv- larni ko'paytirish va boshqalar hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri yuqori darajada foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Banklarning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'liq bo'lmasdan, ular faoliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab turishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda banklarning foyda olishi va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori bo'ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi zaxiralarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan tavakkalchilik (zarar ko'rish ehtimoli) bilan bog'liq boiadi.

Tijorat (aksiyali, pay asosida va xususiy tartibda tashkil qilingan) banklari huquqiy va xususiy shaxslarga «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunda nazarda tutilgan operatsiyalami bajarish va xizmatlar ko'rsatish orqali shartnomaga asosida kredit, hisob-kitob va boshqa xil bank xizmatlarini ko'rsatadi. Tijorat banklarining nizom jamg'armasi kimga qarashli ekanligiga va uni tashkil qilish uslubiga qarab, bajarilayotgan operatsiyalaming turi, faoliyat ko'rsatish hududi va tarmoq belgilariga qarab bir-biridan farq qiladi. Respublikada, mintaqalarda ko'zda tutilgan ma'lum dastur- larni bajarish va o'zga faoliyat turlarini pul mablag'lari bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa

hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda maxsus tijorat banklari tashkil etilishi mumkin.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki- dan tegishli litsenziyani oiganlaridan so'ng chet el valutasida opera- tsiyalarni amalga oshiradi. Tijorat banklari o'z nizomlari asosida ish olib boradi. Davlat tijorat bankining nizomi bankni tuzishga qaror qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi. Sherikchilik asosida tuzilgan tijorat bankining nizomi muassislar (qatnashuvchilar) yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Bankning nizomida:

- bankning nomi va uning manzili (aloqa manzili);
- bank amalga oshiradigan operatsiyalarning ro'yxati;
- bank tashkil etadigan fondlarning ro'yxati;
- nizom fondining miqdori;
- bankning huquqiy shaxs ekanligi va o'zini o'zi moliya resurslari bilan ta'minlashi negizida ishlashi to'g'risidagi nizom;
- bankning boshqaruv idoralari, ularning tarkibi va tuzilishi to'g'risidagi nizom;
- bankka qarashli muassasalarining ro'yxati va ularning maqomi;
- bank va uning filiallarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini to'xtatish tartibi;
- faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni matbuotda e'lon qilish majburiyati (tartibi);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan o'zaro munosabatlari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Sherikchilik asosida tuzilgan bankning nizomi yuqorida keltirilgan talablardan tashqari, aksiyali jamiyatlar va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi amaldagi qonunlarda ko'rsatilgan talablarga javob berishi lozim. Bank nizomiga bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq boshqa qoidalar ham kiritilgan bo'lishi mumkin. Nizomga o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi qonun- laridagi o'zgarishlar munosabati bilan kiritiladi. Aksioner tijorat banklarining nizom fondi qatnashchilaming badallari hisobidan yoki aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan vujudga keltiriladi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idolarining hamma bo'lim- lari va ularning ijroiya organlari, siyosiy tashkilotlar va ixtisoslashgan jamoat fondlaridan tashqari barcha huquqiy va xususiy shaxslar tijorat banklarining muassislar (hissadorlari), aksionerlari bo'lishlari mumkin.

0‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-aprel- dagi 56-sonli Qaroriga asosan, tijorat banklarining kapitallashuvi- ni oshirish maqsadida ularning nizom jamg‘armasiga qo‘yiladigan minimal talablar quyidagicha o‘zgartirildi:

2005- yil 1-iyuldan boshlab

T/r	Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
1.	Xususiy tijorat banklari uchun	1500000 AQSH dollari ekvivalentida
2.	Aksioner tijorat banklari uchun	3000000 AQSH dollari ekvivalentida
3:	Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari uchun	5000000 AQSH dollari ekvivalentida

2006- yil 1-yanvardan boshlab

T/r	Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
1.	Xususiy tijorat banklari uchun	2000000 AQSH dollari ekvivalentida
2.	Aksioner tijorat banklari uchun	4000000 AQSH dollari ekvivalentida
3.	Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari uchun	5000000 AQSH dollari ekvivalentida

2007- yil 1-yanvardan boshlab

T/r	Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
1.	Xususiy tijorat banklari uchun	2500000 AQSH dollari ekvivalentida
2.	Aksioner tijorat banklari uchun	5000000 AQSH dollari ekvivalentida (
3.	Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari uchun	5000000 AQSH dollari ekvivalentida

2008-yil 1-yanvardan boshlab

T/r	Banklarning mulkchilik shakli	Kapitalning talab qilinadigan minimal summasi
1.	Xususiy tijorat banklari uchun	2500000 yevro ekvivalentida
2.	Boshqa barcha turdag'i tijorat banklari uchun	5000000 yevro ekvivalentida

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 1998-yil 2-noyabrdagi 420-qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 2-dekabrdagi 560-raqam bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklari kapitalining yetarligiga qo'yilgan talablar to'g'risida»gi Nizomning 3-bandida Tijorat banklari kapitalining eng kam darajasiga qo'yilgan talab - larga asosan yangi ochilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi miqdorda belgilanadi:

- Toshkent shahrida ochiladigan tijorat banklari uchun — 2,5 mln AQSH dollarini ekvivalentida;
- boshqa aholi yashash joylarida ochiladigan tijorat banklari uchun — 1,25 mln AQSH dollarini ekvivalentida;
- chet el kapitali ishtirokida ochiladigan banklar uchun — 5 mln. AQSH dollarini ekvivalentida shakllantirishi lozim.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risi- dagi amalda qonunlariga muvofiq soliq to'lashadi.

Quyidagi mablag'lari banklarning o'z mablag'lari hisoblanadi:

- nizom fondi;
- zaxiralar va foyda hisobiga vujudga keladigan hamda bankning balansida turadigan boshqa fondlar;
- taqsimlanmagan foyda, aksryachilar yoki paychilar o'rtasida aksiyalarni taqsimlash hisobiga, yoxud pay miqdorini oshirish hisobiga olingan mablag'lar.

Tijorat banklari yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun olinadigan foydadan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilab qo'yilgan tartibda zaxira fondlari tashkil etadi. Tijorat banklari shartnomaga asosida bir-bir- larining mablag'larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joy- lashtirishlari, o'z nizomlarida ko'rsatilgan boshqa o'zaro operatsiya- larni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag' yetishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilishlari mumkin. Banklar bilan mi- jozlar o'rtasidagi munosabat shartnomavifa ega bo'ladi.

Mijozlar o'zlariga kredit va kassa xizmatini ko'rsatadigan bankni mustaqil tanlaydi. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar olib boradi.

Tijorat banklari fond bozorining kelishuvlarida faol va bevosita ishtirok etavermaydi. Masalan, AQSHdagi tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarni o'tkazish, fond birjalariga a'zo bo'lish taqiqlanadi. 1933-yilda qabul qilingan qonunga (Glass-Stigal qonuni) muvofiq, tijorat banklari sanoat kompaniyalarining obligatsiyalari va aksiyalarini chiqarishni tashkil qilishda ishtirok eta olmaydi. Shunga qaramay, qonunda juda ko'p istisnolar mavjud bo'lib, ular bankka pullarni operativ qo'yish, davlat qimmatbaho qog'ozlarini chiqarishni tashkil etish, shtat va mahalliy hokimiyat organlarining obligatsiyalari, shuningdek, turli xalqaro tashkilotlar va federal muassasalar chi-qargan qarz hujjatlari (majburiyatlari) bilan ishslash huquqini beradi. Bulardan tashqari, banklarga o'zlarining mijozlari hisobiga sanoat kompaniyalarining aksiya va obligatsiyalarini sotish, sotib olish kabi brokerlik funksiyalarini bajarishga ruxsat etilgan. Shu bilan birga, Amerika tijorat banklari sanoat kompaniyalari va firmalarning aksiya paketlarining haqiqiy egasi sifatida trast operatsiyalari (qimmatli qog'ozlar portfellarini boshqarish ope- ratsiyalari)ning katta hajmini amalga oshiradi. AQSHda tijorat banklari broker firmalari va investitsion kompaniyalarning asosiy kreditorlari hisoblanadi. AQSHning yettiita yirik investitsion kompaniyalarining 40 % dan 80 % gacha aktivlari tijorat banklari krediti hisobidan ta'minlanadi.

Yaponiyada tijorat banklarining fond birjalariga a'zo bo'lishi taqiqlangan. Lekin ular litsenziya olgan holatda qimmatli qog'oz- larning hamma turini o'zlarining hisoblari bo'yicha yoki mijozlarning topshiriqlari bo'yicha sotish va sotib olish (broker kompaniyalari va birjaga a'zo bo'lган firmalar vositachiligidagi) huquqiga egadir. Bulardan tashqari, tijorat banklari davlatning qimmatli qog'ozlari bilan bo'lган qisqa muddatli operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Uzoq vaqt yapon tijorat banklarining yangi qimmatli qog'ozlar bo'yicha vositachilikni amalga oshirishiga hu-

quqlari bo'limgan. Faqat 1981-yili ularga davlat obligatsiyasi va sanoat kompaniyalari obligatsiyasini birja tashqarisida vositachilik qilishga ruxsat etilgan. Shuningdek, yapon tijorat banklariga mijozlarning qimmatli qog'ozlarini boshqarish man etilgan.

Bank muassasalarining qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalariga aktiv qatnashishiga Germaniya tajribasi yorqin misol bo'la oladi. Bu davlatda qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan hamma operatsiyalarda faqatgina tijorat banklari qatnashish huquqiga ega. Aslida, Germaniya davlatida broker kompaniyalar va fir-malar yo'q. Tijorat banking funksiyalari universalligi mijozlarning talab va ehtiyojlariga yuqori darajada javob beradi. Germaniya-ning qimmatli qog'ozlar bozorini bank muassasalarisiz tasawur qilib bo'lmaydi. Ularning bu bozorda o'rni juda katta.

Banklar katta miqdorda obligatsiyalar chiqaradi, investitsion guruhlarning egalari va yirik investorlik vazifasini bajaradi, ularga qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar hajmining eng katta qismi to'g'ri keladi, bank sindikatlari davlat qarz hujjatlarini chiqarish va tarqatishda katta jonbozlik ko'rsatadi.

Bank obligatsiyalarni chiqarish uchun uchta asosiy shartni bajarishi zarur:

- moliyaviy ko'rsatkichlar proporsiyasini saqlash;
- bank moliyaviy holatining oshkoraligi;
- jami kapital va bank zaxiralarining 8 mln DM darajasidan oshishi.

Obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi ruxsat Moliya vazirligi tomonidan olinishi kerak. U haqidagi xabar esa Federal yustitsiya vazirligi gazetasida bosilib chiqariladi. Odatda, 3 yildan ortiq muddatga chiqarilgan obligatsiyalar GFR fond birjalarida muomalada bo'ladi. Lekin ularni sotish va sotib olish kelishuvlarining ko'p qismi birjadan tashqari aylanmada amalga oshiriladi. Universal tijorat banklari ko'pincha yadro vazifasini bajarib, moliya-bank guruhlarini, bir necha nisbatan mustaqil bo'linmalarni o'z ichiga olgan. Bu mustaqil bo'linmalar, masalan, investitsion fondlar va konsultatsion firmalar bo'lishi mumkin. Mustaqil bo'linmalar daromad olish markazlari hisoblanadi. Aslida guruhning yadrosini tashkil etgan bank, markaziy apparatdan mahalliy va chet el filial-laridan iborat. Banklarning markaziy apparatlari, odatda, fond birjalari bo'lgan katta shaharlarda joylashgan. Rivojlangan mamlakatlarda asosiy daromad manbayi kredit operatsiyalari bo'lib, ikkinchi o'rinda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar turadi.

0'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan, bank bu - tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan to'lov, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalari va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda bank korxona sifatida ham izohlanadi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga o'xshatish mumkinki, zero, tijorat banklari ham korxonalar singari faoliyatini o'z daromadini ko'paytirishga va shu asosda, birinchidan, o'z asoschilari — aksionerlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qi-lishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari, bizning fikrimizcha, shunchaki korxona emas, maxsus korxonadir. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksionerlariga, paychi-lariga foyda olishni ta'minlaydi. Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi.

Aksioner banklar aksioner jamiyat kabi ochiq turdag'i yoki yopiq turdag'i aksioner banklar boiishi mumkin. Aksionerlar safiga kirish aksiyalarni sotib olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Huquqiy va jismoniy shaxslar banklarning aksiyalarini sotib olishi va aksioner boiishlari mumkin.

Ba'zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil qilini-shi mumkin. Bu turdag'i banklarning qatnashchilari ham huquqiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Xususiy banklar — jismoniy shaxslarning pul mablag'lari hisobidan tashkil qilingan banklar hisoblanadi. Bajaradigan operatsiyalariga ko'ra, tijorat banklari — universal va maxsus banklarga bo'linadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, har xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma'lum yo'naliishlarga xizmat ko'rsatib, o'z faoliyatini shu yo'naliishlarda yutuqlarga, samaradorlikka erishishga bag'ishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi banklar, eks-port-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, zamin banklar kirishi mumkin.

Joylashish belgisiga ko'ra, tijorat banklari: xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat banklariga bo'linishi mumkin. Banklar tar- moqlarga xizmat ko'rsatishiga qarab, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqa banklarga bo'linishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning o'rni, ularning iqtisodga ta'siri o'sib bormoqda.

Kredit muassasalari aholi, korxona, tashkilotlar, kompaniya- larning bo'sh pul mablag'larini yig'ish va joylashtirishdan tashqari, kapital jamg'arilishini, harakatlanuvchi kapital yordamida korxonalarining xo'jalik faoliyatini takomillashtirishga ko'makla- shadi va korxonalar faoliyati ustidan nazorat olib boradi. Banklar va uning krediti yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'tasida, ishlab chiqarish va muomala sohasida taqsimlanadi va qayta taq- simlanadi. Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi sohasida qo'shimcha investitsiyaga bo'lgan talablarni moliyalashdirib, banklar xalq xo'- jaligida beqiyos yutuqlarga erishishni ta'minlashi mumkin.

10.3. Tijorat banklarining funksiyalariga qisqacha tavsif

Tijorat banklarining iqtisodiy mavqeyi faoliyat doirasining keng bo'lismiga olib keladi. Tijorat banklari quyidagi asosiy funksiya- larni bajaradi:

1. Vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish.
2. Korxona, tashkilotlar, davlat va aholini kreditlash.
3. Muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari)ni chiqarish.
4. Iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarini amalga oshirish.
5. Moliya-valuta bozorida faoliyat ko'rsatish.
6. Iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmat- larini ko'rsatish.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib, mavjud bo'sh pul daro- madlari va jamg'armalarni yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mab- lag'i egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hiso- bida daromad oladi. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalq xo'jaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlataladi.

Tijorat banklari faoliyatida asosiy o'rinni korxona, tashki- lotlami, aholini, davlatni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalg qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtinchalik foydalanishga beradi. Bank krediti hisobidan xalq xo'jaligining muhim tarmoqlari — sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtirilishi ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat banklarini boshqa moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida, pul massasi oshadi va ssuda bankka qaytarilganda, muomaladagi pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat banki tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob-raqamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum qismini naqd pul shaklida hisobraqamidan olishi mumkin. Bu holda muomaladagi pul massasining miqdori oshadi. Shuning uchun ham, Markaziy bank tijorat banklarining faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan biri hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda, bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan ham shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy ahvolni nazorat qilish jarayonida mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berishi mumkin.

Aksioner tijorat banklarining yuqori organi — aksionerlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Har yili aksionerlarning yig'ilishi nizomdagi va nizom kapitalidagi o'zgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiqlash, bank kengashi tarkibini saylash bankning sho'ba muassasalarini tashkil qilish va bekor qilish kabi masalalarni ko'rib chiqishi mumkin.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vostitachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshq.

Tijorat banklarini ochishga litsenziya (ruxsatnoma)ni Markaziy bank beradi. U tijorat banklari faoliyatini olib borish bo'yicha iqtisodiy normativlar belgilab, ularning bajarilishini nazorat qilib

boradi. Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi nobank kredit tashkilotlarining rivojlanishiga ehtiyoj tug'dirdi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha nobank kredit tashkilotlariga kredit uyushmlari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar kiradi. Bugungi kunda mazkur nobank kredit tashkilotlarining faoliyat yuritishi uchun barcha huquqiy sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular aholiga kichik miqdordagi mikrokreditlar, mikroqarzlar berish, mikrolizing va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. 2009-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 78 ta kredit uyushma, 26 ta mikrokredit tashkiloti va 34 ta lombard tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Bank faoliyatini tashkil qilishning asoslari nimalardan iborat?
2. Tijorat banklarining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
 3. Dastlabki litsenziya tijorat banklarida qanday shartlar asosida beriladi?
4. Asosiy litsenziya tijorat banklarida qanday tadbirlar o'tkazilgandan keyin beriladi?
 5. Tijorat banklarining boshqaruv tizimida nechta organ faoliyat yuritadi?
6. Tijorat banklarining funksiyalari nimalardan iborat?

XT bob. TIJORAT BANKLARINING PASSIV, AKTIV VA BOSHQA OPERATSIYALARI

11.1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar **banklarning passiv operatsiyalari** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv - passiv hisobidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta mavqega ega. Tijorat banklarining passiv operatsiyalarini kreditlash uchun zarur bo'lgan resurslar tashkil qiladi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining to'rt shakli mayjud:

1. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish.
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish.
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish.
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning xususiy mablag'lari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi. Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning xususiy mablag'lari yuzaga keladi va qol-gan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi, jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga bankning nizom kapitali, zaxira kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda, asosan, bank passivlarining 20 %i banklarning xususiy mablag'lariga to'g'ri keladi.

Banklarning xususiy mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning xususiy kapitali egallaydi. Bankning xususiy kapitali tarkibiga yuqorida keltirib o'tilgan kapitalning bir qismi, ya'ni nizom kapitali, tavakkalchiliklarni qoplash uchun tashkil qilingan zaxira fond, taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning xususiy kapitali bank

kreditorlarining manfaatini himoya qilish, bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi fimk-siyalar ni bajaradi.

Bankning nizom kapitali summasi bank nizomida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Bank-larni tashkil qilishning shakllariga qarab, bankning nizom kapitali ham har xil. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'Isa, nizom kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning nizom kapitali miqdori qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida, uning minimal miqdori belgilab beriladi. Bankning nizom kapitali balansining passivida ko'rsatiladi. Nizom jamg'armasi miqdorining oshirilishi bank ak-sionerlari tomonidan umumiy majlisda hal qilinadi.

Banklarning kapitali ularning majburiyatlarini bajarishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bank kreditlari hisobidan banklarning nizom kapitalini tashkil qilish mumkin emas. Nizom kapitalini tashkil qilishda chetdan boshqa pul mablag'larini jalb qilish ham man etiladi. Banklar tashkil qilinganda, nizom kapitalining tarkibi moddiy mablag'lardan va pul mablag'laridan tashkil topadi. Bank faoliyatining boshlang'ich bosqichlarida bankning xususiy mablag'lari hisobidan, birinchi navbatda, bank xarajatlari (yer, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi. Banklarning xususiy mablag'lari uzoq muddatli aktivlarga qo'yilmalar qilishning asosiy manbayi hisoblanadi.

Banklarning aksioner kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin. Bular:

- a) xususiy aksionerlik kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fond hisobidan yuzaga keladi;
- b) har xil ko'zda tutilmagan xarajatlarni va to'lanmagan qarz-larni qoplash uchun tashkil qilingan zaxiralari;
- d) bankning uzoq muddatli majburiyatları (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

Banklarning zaxira kapitali yoki zaxira fondi foydadan ajrat-malar hisobiga hosil bo'ladi va ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan. Taqsimlanmagan foyda — zaxira fondiga ajratmalar va dividendlar to'langanidan so'ng qoladigan

foydaning bir qismidir. Banklarning xususiy mablag'lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar xususiy kapitali hissasi kamayishi ba'zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

AQSHda kattaligi bo'yicha yigirmanchi o'rinda turuvchi «Franklin national bank»ning sinishi sabablaridan biri, bu bankning xususiy kapitali hissasining bank balansida keskin qisqarishi bo'ldi. Xuddi shu sabab, 1979-yil aktivida 250 mln dollar va 44 ming omonatchiga ega bo'lgan AQSHdagi «Dnuverz national bank of Chikago» banki sinishining asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy yoki bank inqirozlari davrida passivlar va ularni joylashtirish sohasida yetarli darajada o'ylab chiqilmagan siyosat banklarning sinishiga olib keladi. 1980-yillar ikkinchi yarmida AQSHda banklarning bankrotlik soni o'sdi. 1984-yilda hukumatning maxsus dasturi orqali AQSHda birinchi o'nlikda turuvchi yirik bank-lardan biri bo'lgan «Kontinental Illinoys» bank sinishining oldi olindi.

Federal zaxira tizimi bo'lgan AQSH Markaziy banki o'z ixtiyoriga olgan bir necha milliard AQSH dollarini muvofiqlashtirib- gina qolmay, depozitlarni sug'urtalash, Federal uyushma va AQSH Moliya vazirligi bilan birga bank to'lov qobiliyatini mustahkam- lash sohasida kafil sifatida chiqdi. Tijorat banklari sinishlarining eng ko'pi 1988-yilga to'g'ri kelgan. Keyinchalik iqtisodiy ko'tarilish tufayli AQSHda tijorat banklari sinishining soni o'zining awalgi holatiga tushgan. Shu tufayli 1994-yilda faqatgina 13 ta tijorat banki singan. Shu bilan birga, muammoli, ya'ni moliyaviy holati be- qaror bo'lgan banklar soni yuqoriligidcha qolmoqda.

Bankning emitentlashgan mablag'lari. Banklar mijozlar mablag'laridan uzoqroq foydalanishni amalga oshirishdan manfaat- dordir. Shu sababli, banklar obligatsiya qarzları, bank veksellari va boshqalarini chiqarish yo'li bilan xususiy resurslari miqdorini ko'paytirib boradi. Obligatsiya qarzları obligatsiyalar ko'rinishida emitentlashadi. Hozirgi davrda chet el amaliyotida ikki valutali obligatsiyalar uchraydi. Bu obligatsiyalar bo'yicha daromadlar obligatsiya egasi ixtiyoriga ko'ra milliy valuta hamda AQSH dollarida yoki boshqa chet el valutasida to'lanishi mumkin.

Bank tomonidan elementlashgan qimmatli qog'ozlarning tur- laridan biri «suzuvchi foiz stavkali» qimmatli qog'ozlardir. Masalan, AQSH 1970-yillar o'rtalarida ikkita yirik tijorat banklari — «Sitibenk» va «Cheyz Manxetten Benk» xolding kompaniyalari

orqali «suzuvchi foiz stavkali» qimmatli qog'ozlar chiqardi. Bu qo'yilmalar bo'yicha foizlar 3 oylik xazina veksellariga nisbatan bir foiz yuqori to'ladi.

Banklar mijozlarning xohishiga qarab, bir yilda ikki marta ularni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Buning uchun mijoz ko'rsatilgan muddatdan bir hafta oldin mablag'larni olishi to'g'ri- sida bankka xabar berishi shart. Bank passivlarida o'tgan asrning 90-yillari davomida bankning xususiy mablag'lari miqdori- ning qisqarishi davom etdi va xorijiy mamlakatlar kabi bizning banklarimizda ham jalb qilingan resurslar salmog'i oshdi. Jalb qilingan mablag'larning yana bir turi bank balansida turgan va ularni qayta sotib olish to'g'risidagi kelishuv asosida sotiladigan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

11.2. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari

Mobilizatsiyalashgan pul mablag'lari banklar mijozlarini kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab- quwatlash uchun foydalanadi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiya- larida asosiy o'rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egal- laydi.

Ssudalar berilishining ta'minotidan kelib chiqib, kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan ta'minlangan kre- ditlarga beriladi.

Banklarning mijozlarga beradigan ssudalari yoki kreditlarning muddatidan kelib chiqib, ular muddatli va onkol kreditlarga (ingl. *on call* — talab bo'yicha) bo'linadi. Ssudalar berilishining ta'minotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar, vek- sellar, fondlar (qimmatli qog'ozlar) va boshqalar bilan ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Veksel operatsiyalari veksellarni qayd yoki hisobga olish bo'yicha operatsiyalar va veksellar bo'yicha ssudalar berish operatsiyalariga bo'linadi.

Veksellarni qayd qilish deganda, bank tomonidan ularni to'lash muddati tugagunga qadar veksellarni sotib olish tushuniladi. O'z navbatida, bank, agarda mablag'lar bilan ta'minlanganlikda qi- yinchilik sezayotgan bo'lsa, Markaziy bankning hududiy boshqar- malarida berilgan veksellarni qayta hisobdan o'tkazishi mumkin. Vekselni hisobga olib, bank uning vaqtinchalik egasi bo'ladi va vek-

selni emitent qilgan yoki uni hisobga olish uchun taqdim qilgan shaxsga ma'lum miqdorda pul to'laydi. Bu operatsiya uchun bank mijozdan qayd etish foizi yoki diskont, deb ataluvchi ma'lum foiz undiradi. Diskont — bu vekselda ko'rsatilgan summa bilan veksel egasiga to'lanadigan summa o'rtaqidagi farq. Ba'zi davlatlarda banklar o'zlarida alohida mijozlarning kreditlash qobiliyatini o'rganuvchi ayrim korxona va shaxslar veksel hisobi limitini o'rnatuvchi hisob bo'yicha qo'mitalarni tashkil etadilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tijorat, moliyaviy va «do's-tona» (bronza) veksellarini farqlash kerak. Tijorat veksellari tovar munosabatlari asosida vujudga keladi. Ular boshqa veksellarga nisbatan ishonchlidir. Ko'pgina veksellar moliyaviy xarakterga ega, ya'ni ular broker yoki makler tomonidan hisob foizini olish uchun muomalaga chiqariladi. «Do'stona veksellari» — bu ikki shaxsning har qanday tovar harakatisiz bankdan mablag' olish uchun bir-birlariga beradigan veksellar. Tadbirkorlar tomonidan chiqarilgan veksellarni «bronza» veksellari, deb ham atashadi.

Bankning aktiv veksel operatsiyalariga aksept va aval operatsiyalar kiradi. Akseptli operatsiyada bank o'zi akseptlashtirayotgan vekselni ishonchli mijozga chiqarish huquqini beradi. Ya'ni berilgan veksel bo'yicha o'z hisobidan to'lovini kafolatlaydi. Shunday aksept kreditdan foydalanayotgan mijoz veksel haqini to'lash uchun tegishli summani bankka to'lash majburiyatini oladi. Xalqaro miqyosda veksellar bilan bog'liq bo'lgan hamma operatsiyalar 1930-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyasi bilan qat'iy belgilanadi.

Veksel bo'yicha beriladigan kreditdan foydalanishning muhim shakli aval hisoblanadi. Bunda veksel bo'yicha haq to'lash bevosita veksel beruvchi bilan amalga oshiriladi. Aval esa haq to'lashni kafolatlaydi. Aksept — aval operatsiyalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaotning o'zida ham aktiv, ham passiv ooera-tsiyalarga tegishli bo'ladi.

Bank avali veksel munosabatlarini hamda ularning boshqa banklardagi hisob-kitobini yengillashtiradi. Chunki yirik avalda hisob va qayta hisoblash mutlaq tartibda amalga oshiriladi. Bir bank tomonidan avallashgan veksellar boshqa bank tomonidan ham hisobga olinadi. «Veksel bo'yicha ssuda» operatsiyasida veksel egasi bo'llib awalgi veksel oluvchi qoladi, bank esa uning ta'minoti ostida mijozga veksel qiymatining 50—70 % miqdorida ssuda beradi.

Banklar aktiv operatsiyalarining muhim turi tovarlar bo'yicha ssudalar, ya'ni tovarlarni garovga qo'yib ssuda olish hisoblanadi.

Hujjatlar, varrantlar (tovarlarni omborda saqlash javobgarligi bilan qilinganligi to'g'risidagi guvohnoma), temiryo'l hujjatlari, konosamentlar (yukni kemaga qabul qilinganligi to'g'risidagi kemachi-lik jamiyatlar guvohnomasi), yuklarni tashish to'g'risidagi hujjat bo'yicha ssudalar olish hisoblanadi.

Tovarlar bo'yicha ssudalar bank tomonidan tovarning to'liq bozor qiymatida emas, balki uning bir qismi (odatda, 50—60 % dan yuqori bo'lmaydi) beriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy muammo, bu — tovarlar realizatsiyasi, chunki ishlab chiqarilgan va jo'natilgan tovar o'z xaridorini topmasligi ham mumkin. Bozor sharoitida kredit munosabatlarining ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan farqi ham shudir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar mo'l-ko'lchiligidagi oddiy talab emas, balki to'lovga qobiliyatli talab zarurdir.

Bozor sharoitida tovar ta'minoti bo'yicha ssuda berayotgan kredit muassasalari tavakkal qiladilar. Agar ssuda o'z muddatida qaytarilmasa, bank tovarlarni xat qilib o'z ixtiyoriga oladi, ularni sotishdan tushgan tushum hisobidan mijozning qarzini qoplaydi. Tovarlar bo'yicha ssudalar ko'pincha chayqovchilik maqsadlarida ishlataladi.

Ko'tarilish davrida, tovarlarga bo'lgan talab o'sganda tadbir- korlar baholarning o'sishini hisobga olib tovarlar realizatsiyasi ni ataylab to'xtatib, tovar zaxiralarini to'playdilar. Bu, xususan, xomashyo tovarlariga ham tegishlidir. Bu holatda ssuda tovarlarning haqiqiy realizatsiyasini tezlatmasdan, balki sekinlashtiradi hamda chayqovchilik va tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarilishining rivojlanishiga olib keladi. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir.

Turli qimmatli qog'ozlar uning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarining ikki turi ko'proq qo'llaniladi. Bular qimmatli qog'ozlarni kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilish yo'li bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan o'z hisobiga sotib olish yo'li bilan operatsiyalar o'tkazish.

Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha ssudalar ularning to'liq bozor kursi qiymati bo'yicha emas, balki ularning ma'lum bir qismi (60—80 %) bo'yicha beriladi. Qimmatli qog'ozlar soxta ka-pitalni ifodalasa-da, ular bo'yicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bog'langan jarayonga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud

bo'lib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli qog'ozlami sotib oladi va bank qimmatli qog'ozlar portfeli vujudga keladi. Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning xarid qilinishidan maqsad — bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik qayta sotish yoki kapitalning uzoq muddatga qo'yilishi yo'l bilan foyda olishdan iborat.

Keyingi yillarda respublikaning ko'pgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini ko'p miqdorda sotib olishdi. Chunki qimmatli qog'ozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta'minoti sifatida ko'chmas mulk, boshqa bank yoki sug'urta tashkilotining sug'urta kafolati ham qabul qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;
- qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatliligini bank tomonidan o'rganib chiqilishi;
- kredit qo'mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kredit berilishi;
- ssuda va u bo'yicha foiz to'lashning bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kredit va qarz oluvchi o'tasidagi majburiyat va huquqlarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maqsadi va obyekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'mino- tining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Ssudani to'lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini mun- tazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi. Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi.

Moliyalashtirish manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o'rni va manziliga qarab, tijorat banklarining kredit portfelini tas- niflash mumkin. Tijorat banklari tasniflashni, asosan, milliy valutada olib boradilar va ba'zi hollarda qayta moliyalashtirish va xususiy mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar, masalan, Milliy bank va shunga o'xshash banklarda qattiq valutada ham ifo- dalanishi mumkin.

Hozirgi vaqtida markazlashtirilgan kreditlar hukumat qaroriga asosan, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valutada beriladi. Qayta moliyalashtirish va bankning o'z mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar mijoz kreditga layoqatli bo'lganda milliy yoki xorijiy valutada berilishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida turli xil tavakkalchiliklar uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko'proq kredit tavakkalchiligi, likvidlilik tavakkalchiligi va foiz stavkasi ta'sir qiladi. Tijorat banklari faoliyatining asosiy qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yo'naltirilgan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu tavakkal-chiliklarning salmog'i ham yuqori bo'ladi. Tasniflangan kreditlarning qaysi guruhga kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998-yil 9-noyabrda tasdiqlangan «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan zaxiralar tashkil qilish va undan foydalanish to'g'risi»dagi nizomga asosan, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha «yxash», «standart», «substandard, «shuhba-li», «umidsiz» yoki «ishonchsiz» kreditlarga tasniflanadi.

Yaxshi kreditlar. Kreditning bunday sifatda baholanishi, mi-jozning aktivlari, ularning holati bo'yicha hech qanday gumon yo'qligidan dalolat beradi. Moliyaviy jihatdan barqaror, xo'jalik aylanmasi yuqori darajada xususiy kapital bilan ta'minlangan, yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga ega, debtor va creditor qarz-larning aylanish muddati qisqa bo'lishi lozim. Bu kredit egalari moliyaviy barqaror xo'jalik subyekti bo'lib, u yuqori darajada ta'minotga ega bo'ladi. Bunda asosiy e'tiborni qarz oluvchining av-valgi faoliyatidagi majburiyatlariga munosabatiga, oson realiza-tsiya qilinuvchi aktivlar va yuqori likv'dli mablag'lardan tashkil topgan ishonchli kredit ta'minotiga qaratish kerak. Ushbu toifadagi kreditlarda qaytarmaslik belgilari mavjud emas, banklar uchun zarar ko'rish imkoniyatlari minimal darajada bo'ladi, kredit ta'minlanganligining garov, kafolat va boshqa sifati, ta'min- langanlikka olingan mol-mulk, garov va boshqalarning tarkibida tez pulga aylanadigan aktivlar va yuqori likvid mablag'lar sahnog'ining ko'pligi e'tiborga olinadi. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik (garov, mol-mulk va boshq.) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga yetarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan, deb baholanishi mumkin.

Kredit bo'yicha barcha hujjatlar qonun bo'yicha rasmiylashti- rilishi va bank zarur bo'lganda kreditni undirib olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur (kreditning qaytarmaslik ehtimoli cheklangan bo'lsa). Kreditning bu guruhida mijozning faoliyatidagi ikki asosiy omilga e'tibor berish zarur. Bular:

- mijozning oldingi faoliyatidagi o'z majburiyatlariga bo'lgan munosabati;
- kredit bo'yicha aniq ta'minlangan (garov, kafolat, mulk va boshq.) bo'lishi va uning to'g'ri rasmiylashtirilganligi.

Standart kreditlar. Bunday kreditlar bo'yicha vaqt-vaqt bilan kreditni o'z vaqtida qaytara olmaslik sharoiti yuzaga keladi. Lekin kreditni belgilangan muddatda to'lay olmaganda, to'lov muddati bir marta uzaytirilishi va kredit bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik davri 30 kundan 60 kungacha, to'liq ta'minlanmagan kreditlar uchun 30 kundan oshmasligi lozim. Olgan krediti standart kredit, deb topilgan mijozlarning moliyaviy holati, odatda, barqaror bo'ladi, lekin sabablar tufayli uning faoliyatida salbiy moliyaviy holat yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Bunday kreditlar qatoriga yaxshi rasmiylashtirilmagan kreditlar, garov, ta'minlanganligi bo'yicha to'g'ri hujjatlashtirilmagan yoki hujjatlar yetarli bo'lmagan kreditlar ham kirishi mumkin. Bu kreditlar bo'yicha 10 % miq- dorida zaxira tashkil qilinishi zarur.

Substandart kreditlar. Bu guruhga kiruvchi kreditlar ularning sifati yetarli darajada emasligini bildiruvchi aniq belgilarga ega bo'ladi. Bu, asosan, kreditlarning bankka qaytib to'lanishida ma'lum kam- chiliklar mavjudligini va qarzni to'lash uchun qo'shimcha man- balarni topish zarurligini ko'rsatadi. Substandart kreditlar qarz oluvchining ishonchli moliyaviy holati va to'lov qobiliyatining yuqoii darajasi bilan himoyalananmagan. Bu kredit kreditning ta'minlanganligini tashkil qiluvchi manbalar ma'lum tavakkalchi- liklar bilan bog'liqligini, kreditning joriy holati bo'yicha yetarli axborotning mavjud emasligi, garov hujjatlarida ma'lum kam- chiliklar mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu kredit bo'yicha 60 kundan 90 kungacha to'lanmagan qarzlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu kreditlar moliyaviy holati barqaror bo'lmay, to'Movga layoqat- liligida kamchiliklar bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Substandart kreditlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun 25 % miqdorida zaxira tashkil qilinadi.

Shubhali kreditlar. Bu kreditlarga yuqorida keltirilgan guruh- lardagi kreditlarning barcha salbiy tomonlarini o'zida ifoda qilgan, to'liq ta'minlanmagan, to'lanish ehtimoli kam bo'lgan kreditlar kiradi. Bu kreditlar bo'yicha olingen kredit yaxshi ta'minlangan bo'lganida asosiy qarz bo'yicha foizlarni to'lash muddati 120 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan bo'lsa, zarar ko'rish imkoniyati yuqori, biroq ushbu kreditlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan omillar mayjudligi sababli ularni yo'qotilgan, deb tasniflanishi vaqtincha to'xtatiladi. Bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 50 % gacha zaxira tashkil qilinishi lozim.

Ishonchsiz kreditlar. Bu kreditlar bo'yicha qarzlarning to'la- nish ehtimoli deyarli yo'q. Agar kredit to'liq ta'minlanmagan bo'lsa, eng kamida bitta muammoli tavsifga ega bo'lsa, to'lov muddati 180 kundan oshgan bo'lsa hamda kreditni «shubhali», deb tasnif- lab bo'lmasa, bunday aktivlar «ishonchsiz», deb hisoblanadi. Bu aktivlar juda past qiymatga ega bo'lib, ularni aktivlar sifatida hisobga olib borish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun banklar bu kreditlarni o'z balanslarida zarar sifatida hisobga olishlari mumkin. Ishonchsiz kreditlar foyda hisobiga, buning uchun foyda yetma- gan hollarda esa, bank sarmoyasi hisobiga balansdan chiqarilishi mumkin. Bank uchun bu kreditlar zarar sifatida tasniflanadi.

Bir yil va undan ortiq muddatda harakatsiz bo'lgan aktivlar, muddati o'tgan va foizlar bo'yicha qarzlar zarar sifatida tavsif- lanishi mumkin. Shu sababli bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 100 % zaxira tashkil qilish lozim bo'ladi.

Tijorat banklarining kredit portfeli berilgan ssudalaming ta'minlanganlik darajasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

- birinchi darajada ta'minlangan;
- boshqa ta'minotga ega bo'lgan;
- to'liq ta'minlanmagan;
- ta'minlanmagan ssudalarga bo'linadi.

Birinchi darajada ta'minlangan kreditlar guruhiga to'liq ta'minlangan kreditlar kiradi. Ular quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati;
 - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kafolati;
 - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki roziligi bilan birinchi sinf xorijiy banklari kafolati;
- erkin ayirboshlanadigan valutadagi garov;
- O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari ko'rini- shidagi garov;

- standartlashtirilgan qimmatbaho metallar qo'yilmalari ko'ri-nishidagi garov.

Boshqa ta'minotga ega bo'lgan ssudalar guruhiga quyidagilar bilan ta'minlangan kreditlar kiradi:

- mol-mulk garovi;
- qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov;
- boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning kafolat xati va boshqalar kiradi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis Olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tuzil-ganligiga bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda MDHga kiruvchi davlatlar tijorat banklarining kredit siyosati mamlakat iqtisodiyoti ni tezroq rivojlanadirishga yo'naltirilgan. Hozirgi vaqtida bu mustaqil davlatlarning banklari aksariyat hollarda vositachilik operatsiyalarini o'tkazish uchun ko'proq qisqa muddatli kreditlar bermoqda. Shu bilan birga, kreditni uzoq muddatga investitsiya qilish banklarga va jamiyatlarga katta foyda berishi mumkin.

MDHga kiruvchi davlatlarning banklari uchun lizing operatsiyalari yangi operatsiyalar turi hisoblanadi. Bu operatsiya turida banklar yoki lizing kompaniyalari ijara berilgan mulkning egasi bo'lib qolaveradi. Lizing operatsiyalarini o'tkazishning bank uchun foydali tomoni shundaki, odatda, ijara uchun to'lov xuddi shu muddatga beriladigan uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasiga nisbatan yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari, bu yerda mijozning to'lov qobiliyatiga ega emasligidan yo'qotish tavakkalchiligi bo'lmaydi. Bitimda ko'rsa- tilgan shartlarning buzilishi yuz bergan hollarda bank ijara berilgan mulkn qaytarishni talab qilishi mumkin. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda lizing operatsiyalari keng tarqalgan. O'zbekiston va boshqa MDH davlatlarida lizing operatsiyalari kam hajmda qo'llaniladi. Hozirgi kunda lizing operatsiyalariga sharoitlar yaratish sohasida ishlar olib borilmoqda.

11.3. Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari

Tijorat banklari o'z faoliyati davomida turli xil xizmatlar ko'r-satadi. Tijorat banklarining bu xizmatlari ular uchun ma'lum daromad olib keladi. Bu daromadlar komission mukofot, o'tkazmalar va yig'imlar shaklida bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda bank xiz-matlarining turlari va miqdori o'sib, bu soha bank faoliyatining

sezilarli yo'nalishiga, ularning daromad manbalaridan biriga ay- lanib bormoqda. O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadi, ba'zi banklar daromadlari tarkibida asosiy o'rinni har xil xizmatlardan keladigan tushumlar tashkil qiladi.

Keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatida ijara yoki lizing (engl. **leasing**— ijara) operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyat turlari keng rivojlanmoqda. Bu operatsiyalarning mohiyati shundaki, banklar mashina-uskuna, jihozlar, transport vositalarini sanoat korxonalariga uzoq muddatli ijaraga beradi va ular bilan lizing shartnomalarini tuzadi. Bu holda bank vositalarni sotib olish uchun sanoat korxonalariga ssuda berish o'rniغا ularni o'zi sotib oladi va iste'molchilarga ijaraga bergen holda egalik huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda bank ssuda foizini emas, balki ijara haqi (lizing to'lovi)ni oladi. Korxonalar uchun esa lizing investitsiya- larni moliyalashtirishning maxsus usullaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlash sharoitida, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va uni kengaytirish uchun likvid mablag'lar hajmining cheklanganligi va ilmiy-texnika taraqqiyoti- ni joriy qilish sharoitida investitsiyalarni optimallashtirish zaru- riyati lizing operatsiyalarining ahamiyatini oshiradi va ularni iqtisodiy faoliyatning muhim vositasiga aylantiradi. Lizing korxonaga kerakli vositalarni shu vaqtning o'zida unchalik katta bo'limgan xarajatlar evaziga olish imkonini beradi. Ijaraga oluvchi vosita (as- bob-uskuna, jihoz va h.k.) sotib olish va moliyalashtirishni bir vaqtida hal qiladi. Lizing usulida iste'molchilarning ilg'or texnologiya- ga tezroq va arzonroq erishishi yengilroq kechadi hamda bu ishlab chiqarish vositalarining ma'naviy eskirishi bilan bog'liq xarajat- lardan qutulish imkonini beradi. Sanoat korxonalar uchun amor- tizatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarish vositalarining yuqori samaradorligi, likvidlikning saqlanishi, xususiy kapital harakati, hisob-kitoblarning o'z vaqtida olib borilishi, o'zaro qarzdorliklarning bo'lmasligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot- larning bozor talablariga javob bera olishi va boshqa omillar ularning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishini ta'minlashning asos- laridan hisoblanadi.

Lizing operatsiyalarida uch subyekt — ijaraga beruvchi, ijaraga oluvchi va mol yetkazib beruvchi ishtirot qiladi. Ijaraga beruvchi, bu — moliyaviy xarakterdagi vazifani bajaruvchi, ixtisoslashgan moliyaviy (lizing) korxona. Lizing, eng awalo, moliyaviy inves-

titsiyalarning vositasi va ishchonchli moliyaviy manbalarni talab qil-gani uchun jahon amaliyotida lizing kompaniyalari banklar tomonidan nazorat qilinadi yoki ularning sho'ba korxonalarini bo'ladi.

Ijaraga oluvchi — ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun vositalarni ijaraga oluvchi ishlab chiqarish yoki savdo korxona-sidir. Mol yetkazib beruvchi tomon lizing shartnomasi obyektni ishlab chiqaruvchi korxona yoki tashkilot bo'lib, u ishlab chiqarish yoki savdo korxonasi sifatida bo'lishi mumkin. Odatda, mol yetkazib beruvchi va ijaraga oluvchi tijorat shartnomasining asosiy shartlarini ishlab chiqadi. Shu bilan bir qatorda, ijaraga beruvchi (bank) moliyalashtirish shartlarini o'rganib chiqadi va ijaraga oluvchi bilan ijara shartnomasini imzolaydi.

Moliyalashtirish masalasini hal qilishda bank mijozning daromad darajasini o'rganib chiqadi. Lizing obyektidan to'g'ri va samarali foydalanish imkoniyatlarini ba'zida mutaxassislar ko'rib chiqishi va qo'shimcha kafolatlar talab etilishi mumkin. Shartnomada lizing operatsiyalari bo'yicha ijara muddati, miqdori, valutasini, ijara haqini to'lash muddati va shartlari, ijaraga olinuvchi vosita-ning (asbob-uskunaning) tarkibi, ishga yaroqliligi bo'yicha maj-buriyatlarini va boshqa ko'rsatkichlar o'z ifodasini topishi lozim.

Lizing munosabatlarni tashkil qilishning majburiy shartlari- dan biri lizing shartnomasi davrida lizing obyektni sug'urtalash hisoblanadi. Lizing qiymati doimiy (har yarim yil, chorak, oy...) ijara to'lovlarining yig'indisidan tashkil topadi. Ijara to'lovining asosiy tashkil etuvchilari amortizatsiya va kredit uchun to'lanadigan foizdir. Bundan tashqari, lizing to'lovlarini tarkibiga, shuningdek, ijara shartnomasida ko'zda tutilgan ijaraga beruvchi xizmatlari ham kiri-tilishi mumkin. Ijara to'lovlarini yig'indi ijaraga beruvchiga o'z xarajatlarini qoplash va daromad olishini ta'minlaydi.

Amaliyotda lizingning bn necha turlari qo'llaniladi. Bular ope-rativ yoki ishlab chiqarish lizingi, moliyaviy lizing va boshqalardir. Operativ lizing ko'proq ishlab chiqarish davri bilan bog'liq bo'lib, obyekt qisqa davrga, ya'ni uning hayotiy yaroqlilik davridan qisqaroq vaqtga ijaraga beriladi. Bu holda obyektning amortizatsiyasi (eski-rishi) to'liq amalgaloshmaydi, ya'ni obyektni yana bir necha marta ijaraga berish imkoniyati saqlanib qolinishadi.

Tijorat banklari va ularning lizing kompaniyalari tomonidan, odatda, ko'proq moliya lizing operatsiyalari o'tkaziladi. Lizingning bu turi eng ko'p tarqalgan lizing shakllaridan. U shartnomaning o'rta va uzoq muddatiligi bilan tavsiflanadi. Bunda amortizatsiya

to'liq bo'lishi yoki ijara obyekti qoldiq bahoda qaytarib berilishi mumkin. Bu haqda ijaraga oluvchi ijara muddati tugashidan oldin e'lon qiladi.

Moliyaviy lizing haqiqatda ijara obyektini uzoq muddatli kreditlash bo'lib, oddiy savdo-sotiqdan (egalik huquqi xarid vaqtida iste'molchiga o'tadi) farq qiladi. Lizing kompaniya asosiy vositalarni ijaraga oluvchi korxonaning ko'rsatmasiga binoan sotib oladi. Uni shu korxonaga uzoq yoki o'rta muddatga (3, 5, 7 yilga) ijara shartnomasiga asosan sotishi va lizing muddati tugagandan keyin qoldiq bahoda sotib olish huquqi bilan ijara shartnomasini tuzishi mumkin.

Tijorat banklari moliyaviy operatsiyalarining yana bir turi bu faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Bu operatsiyalar — butun xo'jalik ko'lamida to'lovlar aylanishini amalga oshirish bilan bog'iq. Faktoring (ingl. **factor**— vositachi) - hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turlaridan bo'lib, mijozning aylanma kapitalini kreditlash bilan muvofiqlashadi. Bunday operatsiyalarni chet ellarda, odatda, maxsus faktoring kompaniyalari amalga oshiradilar. Ular banklar bilan bog'iq yoki ularning ixtisoslashgan sho'balari va kompaniyalari hisoblanadi.

Faktoring operatsiyalarida bank o'z mijozlarining debitorlarga bo'lgan talablarini sotib oladi. Bunda bank talabning 70—90 % ini (foiz darajasi mijozning moliyaviy holati, likvidlik darajasi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda turli xil bo'lishi mumkin) bo'nak tariqasida birdaniga to'lashi, qolgan qismini esa (kredit uchun foizni hisobga olmagan holda) belgilangan mud-datda, debitordan to'lov tushishidan qat'i nazar to'laydi. Hozirgi vaqtida tijorat banklari talablari (da'volari)ni sotib olganda moliyaviy tavakkalchiliklarni aniqlashlari mumkin, chunki ko'pchilik korxonalarning, jujnladan, xorijiy korxonalarning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumotlar olish imkoniyati qisman bo'lsa-da, mavjud. Bu imkoniyat rivojlangan davlatlardagi keng qamrovli yirik banklar o'rtasidagi kompyuter tarmoqlari tufayli yuzaga kelgan. Bunday tizim doirasida banklar o'z mijozlariga buxgalteriya, statistika va boshqa axborotlami taqdim etishga tayyor.

Faktoring mijozlarga xizmat ko'rsatishning universal shakli hisoblanadi. Chunki mijozlar o'z talablari (da'volari) bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish ularning to'lovligini tekshirishdan xoli bo'lishadi. Banklar mol sotib oluvchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi axborotni mijozlariga yetkazishlari, xorijiy davlatlar-

dagi to'Movlar kafolatini o'z zimmasiga olishlari mumkin. Banklar uchun bu operatsiyalar yuqori daromad keltirgani uchun ham ular bu operatsiyalarni bajarishdan manfaatdor hisoblanadilar. Rivojlangan davlatlarda faktoring operatsiyalari mijozning moliyaviy holati, aksionerlik kapitali miqdori, mahsulot turi, ish hajmi va boshqlarga qarab yillik aylanmasining sezilarli qismini tashkil etadi.

Moliyaviy aktivlar miqdorining o'sishi bilan rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining ishonch trasti (ingl. *trust* — ishonch) operatsiyalarining hajmi oshishiga olib kelmoqda. Bankning bu xizmatlari bank bilan mijoz o'rtasida ishonchlilik munosabatlari o'rnatilishi bilan bog'liq. Tijorat banklarining trast bo'-limlari, mijozlar topshirig'i bo'yicha uning nomidan, asosan, mulk egaligi bilan bog'liq va boshqa xizmatlarni bajaradi. Banklar trast operatsiyalarini xususiy korxona va firmalar, shaxslar va boshqa tashkilotlar uchun amalga oshiradi. Trast operatsiyalarini uch turga bo'lish mumkin: dalolatnama, g'amxo'rlik bilan bog'liq operatsiyalar va vositachilik xizmatlari bo'yicha ko'rsatiladigan operatsiyalardir.

Merosni boshqarish bilan bog'liq trast operatsiyalari xususiy shaxslar dalolatnomasi bo'yicha amalga oshirilib, bankning trast bo'limi qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Ularning asosiy- lariga: merosxo'rning merosini sud qarori yoki meros xati asosida toplash, boshqaruv ma'muriy xarajatlarini to'lash, merosxo'rlar o'rtasida merosni bo'lish va shu oila a'zolariga xususiy xizmatlarni ko'rsatish kiradi.

Trast bo'limlari balog'at yoshiba yetmaganlar, mehnatga layo- qatsiz kishilarga otalik, g'amxo'rlik qilish uchun ayrim shaxslar ishonchnomasiga binoan mulkni boshqarish bo'yicha operatsiyalarini bajaradi. Ishonchlilik bo'yicha eng ko'p tarqalgan ope- ratsiyalarga mulkni ishonch asosida boshqarish kiradi. Bunda mulkdor mulkni o'zi ishongan shaxsga beradi. Bu shaxs, o'z navbatida, mulkni mulkdorning manfaati asosida ishlatadi: uni saq- laydi, investitsiya qiladi, shartnomaga muvofiq asosiy summa va daromaddan foydalanadi. Uning asosiy vazifasi mulkni to'g'ri investitsiya qilish va ma'lum miqdordagi daromadni ta'minlashdir. Investitsiya davlat qonuni, shartnomaga va trast bo'lim siyosati asosida amalga oshiriladi.

Vositachilik xizmatlarini tijorat banklarining trast bo'limlari o'z zimmasiga vositachilik vazifasini olish orqali bajaradi. Agar operatsiya

mulk bilan bog'iq bo'lsa, mulk egaligi uning egasi qo'lida saqlanadi. Xizmatlar esa aktivlarni saqlash, boshqarish, yuridik xizmat ko'rsatish va boshqa vositachilik operatsiyalari bilan bog'iq bo'ladi.

Korxona va firmalar bunday xizmatlar uchun o'z tijorat banklarining trast bo'limlariga murojaat qilishadi. Ishonch operatsiya-lariga obligatsiya zayomiga xizmat ko'rsatish (zayom kafolati bo'lib xizmat qiluvchi mulkdan foydalanish huquqining o'tishi bilan birga olib boriluvchi) kiradi. Aksionerlik kompaniyalari bank xiz-matlariga aksiya va obligatsiyalarni, pensiya fondlarini boshqarish (egalik huquqining o'tishi bilan), aksiyalarni ro'yxatdan o'tkazish va boshqalar bilan bog'iq operatsiyalar bo'yicha murojaat qilish-lari mumkin bo'ladi.

Trast bo'limlari depozitariy funksiyasini ham bajaradilar. Masalan, ovoz berishni ishongan aksionerlarning aksiyalarini saqlash (ovozi berish trasti). Kompaniya qayta tashkil topganda, tugatilgan yoki bankrot bo'lganda, bank uni vaqtinchalik boshqarishi mumkin.

Trast operatsiyalarini amalga oshirgani uchun tijorat banklari komission to'lovlar oladi. Merosni boshqarish operatsiyalari bo'yicha komission to'lovlarini or'natish va to'lash qator mamlakatlarda qonun yo'li yoki sud qarori bilan belgilanadi. Vositachilik xizmatlari bo'yicha turlicha to'lovlar ko'lami shartnomaga asosida belgilanadi. Komission to'lovlar trast daromadidan yillik chegir-malar yig'indisi hisobiga tashkil topishi, shartnomaning asosiy summasidan yillik badal va ba'zi hollarda trast shartnomasi tuga-gandan keyin umumiy summadan ajratma shaklida belgilanishi mumkin. Trast operatsiyalarini amalga oshirishda ularning hajmi operatsiyalar bilan bog'iq xarajatlarni qoplab, bankka foya kelti-radigan darajada bo'lishi kerak.

11.4. Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi va likvidliligi

Tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga layoqatliligi haqida. Tijorat bankingliklik tushunchasi — bu bankning barcha mijozlari oldidagi qarz va moliiyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida to'lay olishidir. Bank likvidligi bank o'z kapitalining yetarliligi, uning optimal joylashtirilganligi va balansning aktiv va passiv qismlari-ridagi mablag'larning vaqt oralig'ida muvofiqligi bilan aniqlanadi.

Tijorat bankingliklik uning faoliyati asosini tashkil qiluvchi uch asosiy qism o'rtaсидаги doimiy subyektiv mutanosiblikni

saqlashdan iboratdir. Bular bankning xususiy kapitali, jalb qilingan mablag'lar va joylashtirilgan mabiag'lardir. Bu mutanosiblik esa yuqoridagilarning tarkibiy elementlarini operativ boshqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining moliyaviy holatiga baho berishda ularning foydaliligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatliligiga e'tibor qaratiladi. Aynan shu omillar bankning ahvoli qay darajada ekanligini belgilaydi. Banklarning likvidligi va to'lovga qobiliyatliliqi, nafaqat, bitta bank yoki bank tizimining muvozanatliligini, balki butun bir iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlaydi. Bank faoliyati tizimida eng awalo, banklarning likvidligi va to'lovga qibiliyatliliqi ko'rib chiqiladi, chunki foydalilik faqatgina bankning o'z manfaatini ifodalasa, likvidlik va to'lovga qibiliyatlilik kengroq, ya'ni jamiyat- ning ko'pchilik qatlami manfaatlarini ko'zlaydi.

Bank likvidligi uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida to'la-to'kis bajara olish qobiliyatidir.

«Likvidlik» atamasi lotincha *«Liquidus»* — oquvchan, suyuqlik ma'nosini anglatadi. Shularni hisobga olgan holda jahon banki nazariyasi va amaliyotida likvidlikni «zaxira» yoki «oqim» deb tushuniladi. Likvidlik zaxira shaklida tijorat bankining mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan vaqt mobaynida aktivlar tarkibini ularning hali ishlatilmagan zaxiralariga aylantirish yo'li bilan qoplashni ko'zda tutadi.

Likvidlikning «oqim» shakliga dinamik nuqtayi nazardan qa- raladi, ya'ni tijorat bankining ma'lum vaqt mobaynida yuzaga kelgan noqulay tushib ketishdan aktiv va passivlarning mos modda- larini, qo'shimcha zayom mablag'larini jalb qilish va bank moliyaviy barqarorligini daromadlarni o'stirish yo'li bilan saqlash yo'llari qo'llaniladi. Shunday qilib, har bir tijorat banki o'z likvidlilagini saqlash uchun o'zi harakat qilishi kerak. Bu bank faoliyatini tahlil qilish, prognoz qilish va ustav kapitali, maxsus fondlar va zaxiralar, jalb qilingan mablag'lar, aktiv kredit operatsiyalarini amalga oshi- rishni tashkil qilishda ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat olib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tijorat banki faoliyati davomida uning aksionerlari bo'lgan keng doiradagi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning mulk va boshqa iqtisodiy manfaatlarini ko'zda tutgani uchun tijorat banki faoliyatini yuritishga litsenziya bergen O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklar ishining barqarorligini iqtisodiy hamda ma'muriy usullar yordamida boshqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998-yil 2-no'yabrdagi «Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo‘lgan talablar to‘g‘risida»gi Nizomida likvidlikka bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag‘lari darajasining pasayishini samarali boshqarish deb ta’rif berilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda to‘lovga qobiliyatlilik likvidlikka nisbatan ham keng, ham tor kategoriya sifatida ko‘riladi. Keng kategoriya sifatida o‘rganilganda to‘lovga qobiliyatlilik ichki va tashqi omillar doirasida ko‘rib chiqiladi, likvidlik esa, faqat ichki omillar doirasida qaraladi. Ba‘zi qarashlarga ko‘ra, likvidlik bankning dinamik holatini belgilaydi, to‘lovga qobiliyatlilik esa ma’lum bir sanaga belgilangan to‘g‘ri keluvchi holatni, ya’ni majburiyatlarini qoplay va to‘lay olish qobiliyatini bildiradi.

Umuman, to‘lovga qobiliyatlilik bankning zarur muddatlarda qarz va majburiyatlarini to‘lay olish layoqatini bildiradi. Shuni ta’kidlash lozimki, likvidliliqi bo‘limgan bank to‘lovga layoqatli bo‘la olmaydi. Amalda aynan likvidlik to‘lovga qobiliyatsizlikning asosiy sababi bo‘lib, ularni bankrot va bank tizimining beqarorligiga olib kelishi mumkin.

Tijorat banklarining likvidliligi uning balans tuzilmasi bo‘yicha belgilanib, unda aktivlar passivga doir muddatli majburiyatlarni qoplash uchun o‘z qiymatini tushirmagan holda yo‘qotishlarsiz pul mablag‘lariga aylantirilishi lozim. To‘lovga layoqatsizlik esa faqat balans likvidliliga bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki boshqa bir qator omillarga ham bog‘liqdir.

1983-yilda qabul qilingan va 1993-yilda o‘zgartirishlar kiritilgan bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasi tashabbusi bilan yuzaga kelgan Bazel bitimi bank likvidligi bo‘yicha umumiy qoidalarni belgilab berdi. Ushbu bitimga .muvofig‘likvidlikni tahlil qilish banklarning o‘z majburiyatlarini muddatidan va zarar ko‘rmagan holda bajarish qobiliyatini aniqlash zaruratini ko‘zda tutadi. Banklarning likvidligi hamda to‘lovga qobiliyatliliqi banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga asos hisoblanadi. Bazel bitimi standartida ko‘plab davlatlar o‘z banki tizimi uchun likvid- lilik me’yorlarini ishlab chiqqan.

O‘zbekiston bank tizimida likvidlilikni ta‘minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank va boshqa banklar vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari shaklida

saqlash hisoblanadi. Jahon banki materiallariga ko‘ra, to‘lovga qobiliyatlilik o‘z kapitalining ijobiy kattaligiga bog‘liqdir. Bunga muvofiq to‘lovga qobiliyatlilik bank kapitaliga asoslanadi, ya’ni bank kapitali majburiyatlarni to‘lash kafolatiga ega fond hisoblanadi.

Umumiy likvidlilikni baholashda tijorat banklari asosiy lik- vidlilik, joriy likvidlilik va istiqbolli likvidlilikni bir tizimda tahlil qilishlari lozim.

Bank zarur bo‘lganda yoki moliyaviy bozorda qarzlar olish yoki banklararo bozordan kreditlar olish hisobiga likvidlilikni ta‘minlashi mumkin. Ba‘zi hollarda tijorat banki balansi likvid bo‘la turib, mijozlar talablari bajarilmasligi mumkin. Shuning uchun e’tiborni balans likvidliligiga emas, ko‘proq bank likvidliligiga qa- ratish o‘rinli bo‘ladi.

Tijorat banki barqaror holatining asosi bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligi xizmat qiladi. Bankning moliyaviy barqarorligiga turli ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar ichida bankning moliyaviy bozordagi raqobatdoshligi, doimiy mijozlarning mav- judligi va bank amaliyotlarini o‘tkazish hamda hisobini rasmiy- lashtirishda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash omillari muhim o‘rin tutadi. Bu esa, samaradorlikni oshirishga va bankning ishonchli hamkor sifatida obro‘sining mustahkamlanishiga imkon beradi.

Bankning ichki barqarorligi — bu tijorat banki faoliyatining barqaror, yuqori natijalarни ta‘minlovchi passivlar va aktivlar tarkibining holati va moliyaviy natijalar dinamikasıdır. Ichki barqa- rorlikka erishish asosida ichki va tashqi omillar o‘zgarishiga faol javob berish tamoyili yotadi.

Tijorat bankiga nisbatan tashqi barqarorlik, ushbu bank faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiy muhit barqarorligi bilan belgilanadi. Tashqi barqarorlikka butun mamlakat miqyosidagi bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan boshqarish tizimi orqali erishiladi.

Bankning moliyaviy mustahkamliligi tahlili asosida bank moliyaviy mustahkamligi belgilari, holati o‘zgarishining izchilligini o‘z ichiga olgan trendni tadqiq qilish, uning turli belgilari o‘zgarishlari o‘rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini aniqlash yotadi. Bu moliyaviy mustahkamlik trendini tadqiq qilish uchun bank moliyaviy holatining bir necha yillik ko‘rsatkichlarini taqposlash lozimligini bildiradi. Bu retrospektiv tahlil bilan birgalikda perspektiv tahlilni amalga oshirish mumkinligi va zarurligini, jumladan, moliyaviy holat- ning keyingi davrdagi proqnoz qilishni va moliyaviy mustahkamlik rivojining umumiy trendini aniqlash lozimligini yuzaga keltirdi.

Banklarning moliyaviy mustahkamligini o'rganishdagi bosh- lang'ich jihat Markaziy bankning tijorat banklari faoliyatiga qo'ya- digan tartibga soluvchi talablaridir. Banklarning moliyaviy mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ushbu talablarning samaradorligi mazkur mamlakat iqtisodiyoti, ishlab chiqarish va xizmat so- hasining, jumladan, bank infratuzilmasining rivojlangan mamlakatlarda shakllangan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tartiblarini o'rganish, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tartibini takomillashtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Bankning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

- *retrospektiv tahlil*. Tahlilning ushbu yo'nalishida Markaziy bank tomonidan banklar uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga tijorat banklari tomonidan rioya qilinishini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari va belgi- larini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning ushbu yo'nalishi quyidagi sohalar: likvidlilik, foydalilik, aktivlar sifati, kapitalning yetarlligi va boshqarishning sifati tahlil- laridan iborat;

- *perspektiv tahlil*. Moliyaviy barqarorlikni perspektiv tahlil qilishning maqsadi tijorat banki faoliyati samaradorligini prognoz qilish hisoblanadi.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligini baholash moliyaviy resurslarning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish jarayonida namoyon bo'lувчи moliyaviy holatni tahlil qilishdan boshlanadi. Shunga muvofiq, moliyaviy tahlilning ketma-ketligi, barcha jarayonlarni bosqichma-bosqich ko'rib chiqishni, jumladan, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

To'lovga qobiliyatlilikni, nafaqat, tashqi ko'rinish, balki ma'lum bir vaqtida va moliyaviy mustahkamlikning barcha omillari ta'sirida hosil bo'lgan ma'lum moliyaviy holatning natijasi deb qarash lozim.

Likvidlik keng ma'noda qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi hisoblanadi. Likvidlik iqtisodiyotning barcha sohalari uchun xarakterli bo'lib, shu bilan birga, o'ziga xos bank muammosi hisoblanadi. Chunki pul bir vaqtning o'zida bankning ham aylanma kapitali, ham faoliyati mahsuli bo'lib, korxonalar aktivisi esa asosan natural buyum shaklida mavjud bo'ladi.

Bank likvidligi bu bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini bajara olishi, mijozlarning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi va omonatchilarning depozitlarni qaytarib olish bo'yicha talabla-rini qondira olish qobiliyatidir. Bundan tashqari, likvidlik bankning bozorda xavfsizligi va qarzlarini o'z vaqtida qaytara olishga qo-dirligini oshkor qiladi, bankka aktivlarni foydasiz sotish yoki banklararo bozorda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan foy-dani yo'qotish xavfidan qutulish imkonini beradi.

Bank likvidligining asosiy sharoitlaridan biri, uning aktivlari likvidlidigidir.

Likvid aktivlar — ularning yaxshi ma'lum bo'lgan bozor narxining shakllanishini ta'minlaydigan doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlarning alohida turi bo'lib, banklar ularni qisqa muddat ichida sotib olishga tayyor bo'lgan xaridorni topishi mumkin. Bunday aktivlar qatoriga naqd pullar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, qisqa muddatli (yetti kungacha) banklararo kreditlar kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) davlatlari hukumatlari hamda fond bozori rivojlangan davlatlarining mashhur transmilliy kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari ham yuqori likvidlikka egadir.

Nolikvid aktivlar deb, bozor narxini kotirovka bo'yicha aniqlash mumkin bo'limgan va bu turdag'i aktivlarning xarid narxi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi kelishuv natijasida xususiy tarzda aniqlanadigan aktivlarga aytildi. Bunday aktivlarning qiymati katta miqdordagi o'zgarishlarga uchrab turishi taqqoslashni qiyinlash-tiradi. Bu turdag'i aktivlarga, masalan, kreditlar, qimmatli qog'ozlar bozorida kotirovkaga ega bo'limgan yoki kotirovkasi qiyin bo'lgan qimmatli qog'ozlar, asosiy vositalar va boshqalar kiradi. Tezda naqd pul miqdorini oshirish uchun nolikvid aktivlarni sotish zamr bo'lganda bank ularni zarar ko'rgani holda sotishi mumkin.

Bank likvidligining yana bir jihatи bankning to'lovga qobiliyatliligi bo'lib, uning asosiy belgisi bankning o'z oldida turgan majburiyatlarini o'z vaqtida qondira olish qobiliyatidir.

«Likvidlik» va «to'lovga qobiliyatlilik» mazmuni, omillari va uni ta'minlovchi sabablarga ko'ra, bir-biriga yaqin tushunchalardir. Likvidlik muammosi tashqi jihatdan to'lov majburiyatlarini bajarish jarayonida vujudga keladi va likvid mablag'lar yo'qligi bilan bog'liq qiyinchiliklar tug'ilganda namoyon bo'ladi.

Likvidlik, nafaqat, to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishni na-zarda tutadi, balki o'zining tijorat manfaatlari bilan birga omo-

natchilar tomonidan ishonch bildirilgan mablag'larining saqlanishi ta'minlaydi. Bankning to'lovga qobiliyatligi bankka qo'yilgan to'Movlar bo'yicha talablar ayni vaqtida qondira olish qobiliyatini bildiradi. To'lovga qobiliyatilikni ma'lum moliyaviy holatning natijasi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, to'lovga qobiliyatiliklik vidlikka nisbatan ikkilamchidir. Chunki, bankda to'lovga qobiliyatilik muammosi sodir bo'lishi mumkin, ammo uning likvid balansi, bankning majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishini ta'minlovchi qibiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligi ko'proq bank balansining likvidligi bilan belgilanadi va uning mazmuni, mohiyati aktiv va passiv operatsiyalaming muddati bo'yicha mos kelishidan iborat. Bank balansining likvidligi ssuda va fond operatsiyalariga yo'naltirilgan mablag'laming xatarlilik darajasi, pul bozorining rivojlanish darajasi va boshqa omillarga bog'i bo'ladi.

Bundan tashqari, passivlarning qisqa muddatligi uzoq muddatli qo'yilmalarga ham sarflanishi imkoniyatlarini cheklab qo'y-maydi. Bankning har doim o'z tasarrufida ma'lum miqdorda «be-gona» pullari bo'ladi. Omonatlarning bankka doimiy oqib kelishi bilan birga, ularning qaytarilib olinishi ham doimo sodir bo'lib turadi va bunda bank hisobvaraqlarida doimiy turib qoladigan qarz mablag'lari miqdori barqaror hisoblanadi.

Tijorat banki likvidligini saqlab turish muammosini hal qilish uchun passivlar oqimi harakatchanligi va muddatiga ko'ra aktivlar oqimiga mos kelishi lozim. Shunday qilib, tijorat banki likvidligi bankning ma'lum vaqtdagi to'lovga qobiliyatligini ta'minlovchi va bank likvidligining asosiy omili bo'lgan bank aktivlari va passivlarining nisbati bilan belgilanadi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank passivlari-ning sifatidir. O'zlik va jalb qilingan mablag'lar nisbati bankning ishonchliligi va faoliyat' rivojlanishining ist'qbolini xarakterlab beradi. Jalb qilingan mablag'lar oqimining barqarorligi likvidlik muammosini hosil qilmasdan turib, qisqa muddatli resurslarni uzoq muddatli qo'yilmalarga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Depozitlar bo'yicha ijro muddatining aniqligi balansning likvidligini boshqarish va likvid vositalarga bo'lgan ehtiyojni proqnoz qilish imkoniyatini beradi. Bu esa bank barqarorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Bank likvidligini ta'minlovchi omillardan biri bank tomonidan qarz olish, o'z aktivlarini sotish yo'li bilan yoki o'z majburiyatlarini bajarish uchun mablag' topa olish imkonini beradigan pul bozorining mayjudligidir. O'tgan asrning 60-yillarida bu omilning

roli nihoyatda ortdi. Bunga sabab, erkin muomalada bo'lgan federal depozit sertifikatlari, federal fondlarning qisqa va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari, RYPO bitimlarining keng qo'llanilishi va bu- ning natijasida balansda foyda keltirmaydigan va kam daromadli aktivlarning to'planishi bilan bog'liq bo'lgan foyda yo'qotilishini minimallashtirish imkoniyatiga ega bo'linganligidir.

Tijorat banki moliyaviy barqarorligining yana bir komponenti bank faoliyatining foydaliligidir. Bank foydasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar ishlab chiqarish sohasida xarajatlar o'zgaruvchan kapital va qisman qo'shimcha qiymat hisobidan qoplansa, banklarda esa muomala xarajatlari to'la, faqatgina qo'- shimcha qiymat qismidan qoplanadi.

Foyda olish — bank faoliyati ko'lmini kengaytirish manba- laridan biridir. Agar, bank ishida kapitalga daromad boshqa tijorat tashkilotlariga nisbatan past bo'lsa, kapital qo'llash foydaliroq bo'lgan boshqa sohalarga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, foyda rahbariyat faoliyatini rag'batlantiradi, chunki ular operatsiyalar hajmini oshirish va takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirganliklari uchun foydaning bir qismini mukofot shaklida olishlari mumkin.

Bank foydasining eng muhim funksiyalaridan biri ko'zda tutilmagan yo'qotishlar holati uchun zaxiralar shakllantirishdir. Tijorat banking zararsiz faoliyati uning moliyaviy asosini mus- tahkamlaydi va aksincha uzoq muddat mobaynida zarar bilan faoliyat ko'rsatish bankni bankrotlikka olib borishi mumkin.

Banklar muomala sohasi korxonasi sifatida o'z foydasini bank operatsiyalarining natijasi bo'lgan bank mahsulotini sotish asosida shakllantiradi. Bank faoliyatining foydalilik darajasi bank faoliyati xarakteri, ixtisoslashuvi, uning kapitalining kattaligi, strukturasi va filiallarining mavjudligi hamda mustaqillik darajasiga bog'iq.

Bank faoliyatining foydaliligi rentabellikning muhim ko'r- satkichlari majmuyi bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarga: kapitalga foyda me'yori, yalpi aktivlarning daromadliligi va foydaliligi, sof foiz marja, foizsiz yuk, aktivlar tizimi va «ishlovchi» aktivlar sal- mog'i, passivlar tizimi va to'planadigan passivlar salmog'i, ishlovchi aktivlarning daromadliligi, foizli tashlanma kiradi.

Ichki tahlil nuqtayi nazaridan faoliyatning moliyaviy ishonch- liliyi va rentabellik tahlili juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotida mavjud bo'lib turgan ma'lum darajadagi inflatsiya sharoitida foydalilik tahlilining dolzarbliji yanada oshadi.

Foydani kamaytirishga sabab bo'luvchi omillarga quyidagilar: balansning nolikvidligi, bunda likvidlik kamomadini to'ldirish uchun qo'shimcha kredit resurslarini jalb qilish zarurati tug'iladi; depozitlarning barqaror emasligi; inflatsiyaning o'sishi va bu orqali tartibga soluvchi talablar, jumladan, yuqori majburiy zaxiralalar talabi ta'siri ostida bo'lgan foiz marjasining pastligi; daromad keltiruvchi aktivlarning noqulay strukturasи, jumladan, kam daromad keltiruvchi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, foizsiz ssudalar salmog'ining yuqoriligi va to'lovli passivlar. Masalan, resurslar tarkibida bahosi yuqoriroq bo'lgan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar salmog'ining yuqoriligi; foizsiz daromadlar va foizsiz xarajatlarning salbiy nisbati; ma'muriy-xo'jalik xarajat- larining maqsadga muvofiq bo'limgan yuqori darajasi; kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining yuqoriligi va berilgan kreditlarning foydalanish hamda qaytarilish muddatlarini uzaytirish bilan bog'iq yo'qotishlar; qimmatli qog'ozlar qiyma- tining tushishi; soliqlar darajasining yuqoriligi; muvozanatlash-tirilmagan foiz siyosati; hajmi va miqdori jihatidan o'z kapitali miqdorini chegaralovchi asoslanmagan yuqori darajada xatarli bo'lgan bank faoliyatini yuritish kiradi.

Tijorat banklari likvidligini baholash. Tijorat banklarining likvidligini belgilovchi ko'pgina omillami biz yuqoridagi paragraflarda ko'rib chiqqan edik. Undan tashqari, tijorat banklarining likvidlilik ko'rsatkichlari ma'lum me'yorlar asosida aniqlanadi. Barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozim, ular joriy aktivlarning (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan barcha likvidlik aktivlari, bank qo'yilmalarining bir marta bo'lsa ham muddati uzaytirilgan va yoki awal berilgan ssudalarni to'lash uchun, shuningdek, qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar istisno qilinadi) talab qilib olinguncha majburiyatlar summasi msbatiga va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan holda aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 30 % dan kam bo'lmasligi kerak, ya'ni bankning joriy likvidligi:

bu yerda, **JA** — qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan joriy aktivlar va kreditlar; **OV** — qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan talab qilib olingunga qadar bo'lgan majburiyatlar.

Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti. Bu koeffisiyent bankning yuqori likvid mablag'larining (bular bankning g'aznasidagi naqd pul

mablag'lari va vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar) joriy majburiyatlarga nisbati sifatida aniqlanadi va u bankning joriy to'lov-larni tezkorlik bilan amalga oshira olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga talab qilib olingunga qadar bo'lgan depozitlar bo'yicha majburiyatlar, yaqin orada to'lanishi lozim bo'lgan boshqa banklardan olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlar va boshqalar kiradi. Shunday qilib,

$$M=LA/JM,$$

bu yerda, **LA** — bankning pul shaklidagi aktivlari; **JM** — bankning talab qilib olingunga qadar bo'lgan varaqalar bo'yicha majburiyatlari.

Bu me'yor bank aktivlarining likvid qismi bankning eng noabarqaror resurslarini qanchalik darajada sug'urtalay olish imkonini ko'rsatadi. Shuning uchun maqsadli likvidlilikni banklar har kuni tekshirib borishlari va uning minimal miqdori 0,25 dan kam bo'lmasligini ta'minlashlari lozim.

Qisqa muddatli likvidlilik koeffitsiyenti to'lov muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlarining bankning muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan depozitlari va jalb qilingan mablag'lari va kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni:

$$M=A/D+K,$$

bu yerda, **A** — to'lash muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan bank aktivlari; **D** — muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan jalb qilingan depozitlar va jalb qilingan resurslar; **K** — bank kapitali.

Bu ko'rsatkichning hajmi 1 ga teng bo'lishi zarur.

Undan tashqari, tijorat banklari likvidliliginani aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinishi mumkin.

— Likvid aktivlar (zaxiraning ortiqcha qismi, erkin ayriboshlanadigan valuta, DQMOLari, boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari) /Jami aktivlar.

— Doimiy bo'limgan majburiyatlar (yirik depozitlar/ ma'lum manbalardan olingan qarzlar) /Jami aktivlar.

— Yuqorida keltirilgan barcha ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotni aks ettiradi — ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi bankning resurslar barqaror bo'limgan manbalarga tayanganligi yoki bank portfelidagi yuqori likvidli aktivlar ulushining kamayganligini anglatadi.

— Kreditlar/Depozitlar — depozitlarning, ayniqsa, mayda omonatchilarga tegishli qismi odatda resurslarning barqaror man-

bayidir. Ko'rsatkichning juda yuqori qiymati (80 foizdan ortiq) va/yoki o'sishi dastlabki muammolar bankdan chiqib ketadigan resurslar (banklararo bozorlardan olingen qisqa muddatli qarzlar) manbalariga bo'lgan talabning pastligini bildiradi.

— Garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar /Jami qimmatli qog'ozlar — garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar umumiy ko'r-satkichi bo'lib, u likvidlilikka tezkor talablarni qoplash uchun qo'llanilmaydi.

AQSHda ham tijorat banklari likvidlilikini baholashda bir qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalanaladi. Bular quyida keltirilgan formulalardir:

t – I darajali zaxiralar (Kassa + MBdagi vakillik schotlari)

L_I,
Depozitlar

t – I darajali zaxiralar + II darajali zaxiralar (qimmatli qog'ozlar)

J<2 >
Depozitlar

L_I bank likvidligini ta'minlashi uchun 5—10 % dan yuqori bo'lishi kerak.

L₂ da esa banklar 15—25 % dan yuqori zaxiralar yig'ishlari kerak.

L₃ da kreditlarning umumiy aktivlarga nisbatan salmog'ini topib bank faoliyatiga baho berish mumkin.

Mb , 100%
Umumiyl aktivlar

L₃ ko'rsatkichimiz 60—70 % oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asosiy depozitlar . JQQ %
Umumiyl depozitlar

Bu ko'rsatkich banklarga qo'yilgan depozit qay darajada barqaror ekanligini aniqlab, bank faoliyatiga baho berishda yordam beradi.

L₄ koeffitsiyent 75 % yuqori bo'lishi lozim.

Ko'pgina mamlakatlarda likvidlilik ko'rsatkichlari tijorat banklari balansining aktiv va passiv qismini tahlil qilish asosida baholanadi.

Fransiyada tijorat banklarining likvidlilikini baholashda ish-latiladigan koeffitsiyentlari umumiy talab qilib olingunga qadar

muddatli depozitlarning (3 oygacha bo‘lgani) va boshqa resurslarning aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi. U yerda bu koeffitsiyent- ning hisoboti nazorat organlariga har kvartalda taqdim etiladi. Bu koeffitsiyent 60 % dan kam bo‘lmasligi kerak.

Tijorat banklari likvidliliginin boshqarish. Yuqorida aytildiganidek, likvidlikni boshqarishni bajarish masalasi, talab etiladigan darajasi ushlab turilishi uchun tijorat banki mustaqil ravishda o‘zining faoliyati va talablariga amal qilishi hamma tarmoqlardagi iqtisodiy asos langan siyosatni o‘tkazishi lozim.

Bu maqsadlarda tijorat banki doimo o‘z kapitalini oshirib borishi boshqa korxonalar va tashkilotlardan jalb etilgan mablag⁴ va o‘z mablag'lari o‘rtasidan optimal nisbatni ta'minlashi, bankning oborotida bo‘lgan uzoq muddatli «ishonchli» va «arzon» kredit resurslarini shakllantirishga intilishi kerak. Kredit siyosatini to‘g‘ri ishlab chiqish, kredit resurslarini foyda keltiradigan sohalarga qo'yishi, resurslarini jalb etishda kredit qo'yilmalar hajmi va ularni muddatiga etibor berish, likvid aktivlarning hajmini oshirish bilan bank aktivlarining optimal strukturani shakllantirishiga erishish lozim. Shuningdek, hissadorlarning qonuniy talablarini bajarishga tayyor bo'lishi uchun shu mablag'laming keragidan ortiqcha xarajat qilishiga yo'l qo'ymasligi orqali, bankning daromad va foydasini oshirishiga intilish zarur.

Bank likvidliliginin boshqarish nazariyalari tijorat banklarini tashkil etilishi bilan bir vaqtida paydo bo'ldi. Hozirgi kunda to'rtta asosiy nazariyalar farqlanadi:

1. Tijorat ssudalari nazariyasi.
2. Joydan joyga (aktivlarni) ko'chirish nazariyasi.
3. Kutiladigan daromad nazariyasi.
4. Passivlarni boshqarish nazariyasi.

Birinchi uch nazariya bevosita aktivlarni boshqarish nazariyasi bilan bog'iq. Bank amaliyotida yuqoridagi nazariyalaming barchasi qo'llaniladi, lekin har xil banklarda ularning biriga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Likvidlik holatini boshqarishda ikki yo'nalishni ajratishimiz mumkin:

- *birinchisi*, zaxiralarni doimiy nazorat qilish siyosati. Bu shuni anglatadiki, bankda daromad keltirmaydigan aktivlarni oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak;

- *ikkinchisi*, zaxiralarni bir darajada saqlab turishni qo'llab-quwatlash siyosati, ya'ni majburiy zaxira normalari, jalb qilingan depozitlarga zaxiralar va h.k.

Likvid mablag'larga bo'lgan talabni rejalashtirishda naqd pullarni boshqarish, ya'ni mijozlarning talabini qondirish maqsadida majburiy zaxiralarni bir maromda saqlash lozimdir. Shularni inobatga olgan holda bank kassasidagi pullar kun davomida, ya'ni pul tushum va chiqim bitimlarini amalga oshirish natijasida o'z-garib boradi.

Bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, likvidlilikning yetarli darajasini ta'minlanmasligi bank faoliyatidagi jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday holatning yuzaga kelishi, odatda, bankdagi depozitlarning yo'qotilishiga, bu esa naqd pul mablag'larining kamayishiga va bank aktivlaridaga o'ta likvid qimmatli qog'ozlarning sotilishiga sabab bo'ladi. Bank likvidlilikini boshqa banklardan olingen kreditlar hisobiga ham qondirish mumkin. Ammo boshqa banklar yuqori foiz stavkada kreditlar taqdim etadi yoki berilayotgan kreditlarga qo'shimcha ta'minot qo'yishni talab etishadi. Bu esa, bank oladigan daromadning kamayishiga sabab bo'ladi.

Banklarning likvidlilik muammosini hal qilish uchun likvidlilikni boshqarishni bir qancha strategiyalari mavjuddir.

Bular:

1. Aktivlar hisobiga likvidlilikni ta'minlash strategiyasi (aktivlarni boshqarish orqali likvidlilikni boshqarish). Bu strategiyaga muvofiq bank aktivlarni tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarga joy-lashtirishni nazarda tutadi. Agar, likvid mablag'larga talab yuzaga keladigan bo'lsa, bank naqd pullarga bo'lgan talabni qondirguncha o'z aktivlarini sotadi. Odatda, likvidlilikni boshqarishning ushbu strategiyasi aktivlarning transformatsiyasi deb ataladi, chunki pul ko'rinishida bo'limgan aktivlar naqd pulga aylanishi hisobiga likvid mablag'lar yuzaga keladi.

Likvid aktivlar uch xususiyatga ega bo'lishi lozim:

- tez pulga aylanishi uchun o'z bozoriga ega bo'lishi lozim;
- bozorlarda barqaror bahoga ega bo'lishi;
- sotuvchi minimal risk orqali birlamchi investitsiyani qoplay olish imkoniyatining bo'lishi.

Aktivlarni boshqarish orqali likvidlilikni boshqarish strategiyasi, odatda, mayda banklar faoliyatida qo'llaniladi, chunki ushbu likvidlilikni boshqarish metodi qarz likvid mablag'lari orqali aktivlarni transformatsiyalash strategiyasi likvidlilikni boshqarishning arzon yo'li hisoblanmaydi. Aktivlarni sotilishi bankning kelgusi daro-madlarini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ko'p aktivlarning sotilishi qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladi operatsiyalarda bro-

kerlarga to‘lanadigan komission xarajatlar bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, naqd pul mablag‘lariga ega bo‘lish maqsadida aktivlarning sotilishi bank balansining yomonlashuviga olib keladi, ammo bu aktivlar (misol uchun davlat qisqa muddatli obligatsiyalari)ni mavjud bo‘lishi bankning moliyaviy faoliyati barqarorligidan dalolat beradi. Aktivlarning sotilishi lozim bo‘lgan paytda bozorda qimmatli qog‘ozlarning bahosi tushayotgan davrga to‘g‘ri kelishi bank kapitalining yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bank boshqaruvchilari kelgusi davr daromadlarini muqobil qiymatini minimallashtirish uchun, birinchi navbatda, minimal foyda salohiyatiga ega bo‘lgan aktivlar sotilishini ta‘minlab berishi kerak. Xullas, likvid aktivlarning salmog‘i oshib borgan sari, bankning daromadlari qisqarishiga olib keladi.

2. Pul mablag‘lariga talabni qondirish uchun likvid qarz mablag‘laridan foydalanish strategiyasi (passivlarni boshqarish). Ko‘pgina yirik banklar likvid mablag‘larning manbasi sifatida ko‘proq pul bozoridagi qarz mablag‘laridan foydalanishadi. Odatda, bu strategiyani passivlarni boshqarish, deb ataladi. Bunda tijorat banklari o‘zlarining likvid mablag‘larga bo‘lgan talablarini yirik miqdordagi depozit sertifikatlarini va boshqa banklardan olingan kredit mablag‘lari orqali ta‘minlashadi. Passivlarni boshqarish strategiyasi orqali ma’lum bir muddat uchun qarz mablag‘lari hisobiga likvidlilik ta‘minlanadi. Bu strategiyani yirik banklar amalga oshirishining asosiy sababi shundaki, banklarning o‘z mablag‘lariga nisbatan majburiyatlarining ortishi va bank balansida tez pulga aylana oladigan aktivlarning yetarli darajada bo‘lmasligi, bankning to‘lovga layoqatsiz bo‘lish riski yuzaga kelishi mumkin hamda bank likvid mablag‘larga bo‘lgan talabini qondira olmay qolishi mumkin.

3. Aktiv va passivlarni boshqarish qarz likvid mablag‘larini boshqarish strategiyasining tavakkalligini va aktivlarda likvid mablag‘larning yuqori bahosini hisobga olgan holda banklar likvidlilikni boshqarishning aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasini tanlaydilar. Bu strategiga muvofiq likvid mablag‘larga kutilayotgan talabning bir qismi tez sotiladigan qimmatli qog‘ozlar va boshqa banklardagi depozit ko‘rinishlarida saqlanadi, shu paytda likvid mablag‘larga bo‘lgan boshqa talablar bank-korrespondentlar bilan ochilgan kredit liniyalari va boshqa mablag‘lar orqali qondiriladi. Kutilmaganda yuzaga keladigan likvid mablag‘larga talablar qisqa muddatli kreditlar orqali qoplanadi.

Tijorat banklari likvidliligin samarali boshqarishda bank va uning atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi, aniq ifodalangan va hujjatlashtirilgan likvidlikni boshqarish siyosatining mavjudligi:

- bankning turli bo'linmalarining muvofiqlashtirilganligi;
- bank likvidlik holatining monitoringi vazifalari yuklangan bo'linmaning mavjudligi;
- ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda bankning aktiv va passiv holatlarini tahlil qilish uchun axborot tizimining mavjudligi yetakchi omillaridan hisoblanadi.

Likvidlilikni boshqarishda bank likvidlilikni boshqarish siyosatini ishlab chiqish va likvidlikni boshqarish bo'yicha qarorlar bank kengashida doimo muhokama qilib borilishi va zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozim. Tijorat banklarining tarkibiy bo'linmalari:

- bank likvidlik holatining har kunlik kuzatuvi;
- rahbariyatga bankning likvidlikka munosabati to'g'risida kundalik hisobotlarni tayyorlash, bunda likvidlikni qisqa muddatli rejalashtirish ham hisobga olinishi kerak;
- barcha bank bo'limlaridan kerakli bo'lgan axborotlarni olish vakolatiga ega bo'lishi lozim.

Kundalik hisobotlar yetti kunlik davr ichida likvidlikning qisqa muddatli kamayishini yoki ortiqchaligani aks ettirish uchun yetarli darajada batafsil bo'lishi hamda mablag'larni jalb etish va investitsiyalash bo'yicha talab qilingan tavsiyanomalar bilan ta'minlashi lozim. Ushbu bo'linma ma'lum davr ichida (oy, chorak, yil yakun- lari bo'yicha) bank boshqaruvi kengashiga bankning likvidlik pozi- tsiyasi holati to'g'risida umumlashgan hisobotlar taqdim etishi kerak.

Tijorat banklari likvidliligin baholashda bankning joriy likvidlilik holati va mablag'larga kelajakda bo'ladigan ehtiyojini yetarli darajada baholash uchun:

- moliyaviy resurslarning eng yirik manbalari, tarmoq va geografik hudud bo'yicha resurslar manbalarining jamlanganligi;
- asosiy nomuvofiqliklarni aniqlash uchun aktivlar va passivlarni to'lash jadvali;
- likvid aktivlar va depozitlarning oldingi trendlari (dinami- kasini aks ettiruvchi jadvallar);
- balansdan tashqari majburiyatlar;
- berilishi kutilayotgan kreditlar;
- aktivlarning daromadliligi va jalb qilingan resurslarning qiymati;

- iqtisodiyotning ahvoli, shu jumladan, asosiy iqtisodiy indikatorlar va foiz stavkalarining o'zgarishi taxminlari.

Toiq axborot va ma'lumotlar berilishi lozim.

Bank likvidliligini boshqarishning samarali usuli aktiv va passivlami boshqarishni o'z ichiga oladi.

Balansning aktiv qismida bank likvidligini boshqarish uchun sotilishi oson bo'lgan aksiyalarni, ya'ni DQMONi xarid qilish yoki ularga egalik qilish, yoxud zaxiralarni ko'proq tashkil qilish va sotilishi qiyinchilik tug'dirmaydigan pul mablag'lari aylantirish ko'p vaqt ni olmaydigan qisqa muddatli qo'yilmalarni amalga oshirish yo'li bilan erishish mumkin.

Banklarning likvidliligini boshqarishda:

- joriy likvidlik holati;
- resurslarga bo'lgan talabning davriy o'zgarib turishi;
- resurslarga bo'lgan talablarning mo'ljallanayotgan o'zgarishlari;
- resurslar manbalari. Rahbariyat banklararo bozorda aktivlarni sotish va xarid qilishni yoki boshqa manbalarni tanlashi lozim;
- resurslarning qiymati;
- aktivlarning sifati kabi omillarni inobatga olish lozim.

Bank aktivlarning sifati ham bank likvidliligiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki bankda muammoli kreditlar, muddati o'tgan, foyda keltirmaydigan kreditlar salmog'ining yuqoriligi, pul mablag'lari harakatining kamligi bank likvidligining tushib ketishiga olib keladi.

Bank faoliyatining barqaror va likvid bo'lishi uning resurslarining manbalari va hajmiga, resurslarni tashkil qilishda diversifikatsiya usulidan foydalanganligiga ham bog'iq. Agar tijorat banki resurslarining asosiy qismini sañoqli yirik korxonalar mablag'lari yoki davlatning mablag'lari hisobidan tashkil qiladigan bo'lsa, bankning shu subyektlar depozitlariga qaramligini ko'rsatadi va subyektlar tomonidan turli xil budget to'lovlarini amalga oshirish, ish haqi to'lash bo'yicha depozitdan mablag'lar olishi bankning likvidlilik riski shuncha yuqori bo'lishiga olib keladi.

Undan tashqari, bank likvidliliği bankning kapitali va foyda-liligin hisobga olgan holda bankning umumiyligi moliyaviy holati ham ta'sir ko'rsatadi.

Bankning moliyaviy holati yomon bo'lsa, talab qilinayotgan vositalarni yuqori narxda olish yoki banklararo bozorga kira olmasligi mumkin.

Balansdan tashqari majburiyatlar va shartnomalar, jumladan, ishlamayotgan kredit liniyalar, akkreditivlar, qimmatli qog'ozlar

va valuta sotib olish uchun tuzilgan kelishuvlarning mavjudligi ham bank likvidliliga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tijorat banklarining likvidligini boshqarishda banklararo kreditlarning muddati 1 kundan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Foiz stavkalari kontragent banklar o'ttasidagi bitim asosida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi yoki DQMOLari bo'yicha stavkalarni asos qilib olgan holda belgilanishi kerak.

Ta'minotga ega bo'lмаган banklararo kredit bitimlarini tuz- ganda bir qarz oluvchiga beriladigan qarz me'yorlariga amal qilish kerak. Faqatgina overnayt operatsiyalari bundan mustasno, ular bo'yicha limit chegarasi bank kapitalining 25 % atrofida o'rnatiladi.

Banklararo kreditlarning ta'minoti sifatida DQMOLari kabi yuqori likvidli va oson sotiluvchi qimmatli qog'ozlar qabul qilinishi mumkin. Ta'minot sifatida topshirilgan qimmatli qog'ozlar uchinchi shaxsning (tijorat banki yoki Markaziy bankda) eskrou hisobvarag'ida joylashtirilishi yoki Markaziy bank daftarlariда ularning garovga olinganligi belgilanishi kerak.

Repo operatsiyalari da qo'llaniluvchi qimmatli qog'ozlar oson sotiluvchi va likvid vositalar, ya'ni DQMOLari ko'rinishida bo'lishi kerak. Agar banklar boshqa qimmatli qog'ozlarni afzal deb bilsa, u holda qarz beruvchi tomon ularning yuqori likvidlik talablariga javob berishiga ishonch hosil qilishi va ularni o'zlarida saqlanishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari, tomonlar qimmatli qog'ozlarni uchinchi tomonda saqlash haqida kelishib olishi mumkin.

Repo operatsiyalari Markaziy bank talablariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Kelishuvda har bir tomonning hu- quq va majburiyatları ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Kredit beruvchi tomon qimmatli qog'ozlarning to'lov muddatiga qarab garov qiymatining kredit qiymatidan kamida 10 % ga yuqori bo'lismeni ta'minlashi kerak. To'lov muddati qancha yaqin bo'lsa, marja shunchalik katta bo'lishi zarur.

Ta'minot sifatida DQMOLaridan foydalanilgan holda garov qiymatini, joriy diskont asosida aniqlash to'g'riroq bo'ladi. Kuponli qimmatli qog'ozlar qiymati ularning bozor narxi hamda hisob- langan foizlar miqdorida aniqlanadi.

Hozirgi vaqtida garov turi bo'yicha ma'lum cheklovlardan o'rnatilmagan bo'lsa-da, banklar bozorda kotirovka qilinmaydigan qimmatli qog'ozlar va asosiy vositalar kabi garovning nolikvid shakllarini qo'llashda o'zlarining zimmalaridagi xatarni anglashlari lozim. Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining cheklanganligi va

likvidligi korxonalar aksiyalarini garov sifatida qo'llanilishiga im- kon bermaydi. Shu tufayli, davlat qimmatli qog'ozlardan tashqari boshqa qimmatli qog'ozlar garovi asosida berilgan kredit «ta'minlangan» bitim deb hisoblanmaydi.

Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarishning bank likvidliliga ta'siri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy tus olib bormoqda. Chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bank rivojlanishining asosiy manbayidir.

Bank foydasining o'sib borishiga bir necha xil omillar mavjud bo'lib, bular: bankning rentabelligi, vaqtinchalik bo'sh mablag'lari ning samarali ishlatalishi, turli xil pulli xizmatlar ko'rsatish doira-sini kengaytirish, foyda keltirmaydigan aktivlarni kamaytirish, foyda keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish va boshqa omillar hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichida tijorat banklarining asosiy ish tamoyillaridan biri — yuqori darajada foyda olishga yo'naltirilgan, qaratilgan bo'ladi. Biroq, bularning faoliyati doimo foyda ko'rish bilan bog'iq bo'lmasdan, ular foyliyatida zarar ko'rish ehtimoli ham uchrab tuishi mumkin. Banklar faoliyati ijobiy bo'lgan hollarda, ularning foyda olish va salbiy faoliyat natijasida banklarning zarar ko'rish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. Yuqorida aytilgan foyda keltiruvchi zaxiralarni amalda tatbiq qilish jarayonida bankning ish faoliyati iqtisodiy jihatdan tavakkal bilan bog'iq bo'ladi.

Aktivlarni boshqarish deganda, o'z va jalb qilingan mablag'larni joylashtirish tartibi vayo'llari tushuniladi. Tijorat banklariga qo'llanilsa, bu — naqd pullar, investitsiyalar, ssudalar va boshqa aktivlarga taqsimlashdir. Mablag'larni joylashtirishda asosiy diqqat qimmatli qog'ozlarga, investitsiyalar va ssuda operatsiyalariga qaratiladi. Mablag'larning aniq yechimi shunday aktivlarni «sotib olishi» kerakki, u bankka eng ko'p daromad olib kelsin. Biroq, tijorat banklarida fondlarni boshqarish qator omillar orqali qiyinlashmoqda.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning ko'pchilik qismi mijozlarning birinchi talabi bilan to'lanishi kerak yoki ogohlantirish muddati juda qisqa bo'ladi. Shuning uchun bankni oqilona boshqarishni birinchi darajali shartlaridan biri bu — jamg'armachilar talablarini qondirish xususiyatini ta'minlash hisoblanadi. Ikkinchi shart — bank mijozlarining kreditga bo'lgan talabini qondira oladigan

yeterli mablag'larga ega bo'lish. Bunday kredit bera olish bank tijorat faoliyatining asosiy turidir. Mijozlarning kreditga bo'lgan talablarini qondira olmaslik bank tomonidan foydali operatsiyalarni yo'qotishiga, pirovardida esa sinish ehtimoliga olib keladi.

Banklarning mamlakatning asosiy pul massasini yetkazib beruvchi sifatidagi roli ularga jamiyat oldida katta mas'uliyat yuklaydi. Jamiyatning bank sistemasining to'lovga layoqatliligi, likvidliligi va barqarorligi to'g'risida ishonchszilikka sababi bo'Imasligi kerak, jamg'armachilar esa istalgan bank ishonchli ekanligiga imoni komil bo'lishi kerak. Bank jamg'armachilari va uning aksiya ushlovchilari maqsadlarini bir-biriga taqqoslab bo'lmaydi. Shuning uchun bank o'z mablag'larini joylashtirayotganida hal etadigan asosiy masalalardan biri bu likvidlilik va foydalilik o'rta sidagi mu-nosabatdir. Bir tomonidan bank boshqaruvi mablag'larni qimmatli qog'ozlarga joylashtirish orqali yuqori daromad olishga ko'z tutayotgan aksiyadorlarning bosimini his etsa, ikkinchi tomondan, bank boshqaruvi bunday faoliyat bank likvidliliginini sezilarli darajada yomonlashtirishini, bu esa jamg'armachilarga o'z mablag'larini ololmasligini va eski mijozlarning kreditga bo'lgan talabini qondira ololmasligini aniq biladi.

Bank mablag'larini turli aktivlarga joylashtirish yuqori likvidlilik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqadi. «Likvidlik — daromadlilik» dilemasini yechishga urinishlari aktivlarni boshqarishda 3 usulni keltirib chi-qardi. Bu metodlardan birortasini ham yetuk deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning har birining diqqatga sazovor va kamchilik tomonlari mavjud. Ular bir metoddan alohida tijorat banking aniq muammolarini yechish uchun qo'llash mumkin bo'lgan elementlar mavjud. Qo'llanish nuqtayi nazaridan sodda bo'lgan metod — bu umumiy fond mablag'lari metodidir (*root-of-funds approach*). Bu metodni ko'pgina banklar mablag'lar ko'p bo'lgan davrda qo'l-lashadi. Tijorat bank boshqaruvchisi joylashtirilishi uchun javobgar bo'lgan mablag'lar turli manbalardan: talab qilib olinguncha qo'-yilmalar, jamg'arma, muddatli qo'yilmalar, shuningdek, bank o'z kapitalidan kelib tushadi. Ko'rib chiqilayotgan metod asosida bu resurslarni birlashtirish g'oyasi yotadi. So'ngra mablag'lar to'plami mos hisoblangan aktivlar turlari (ssudalar, davlat qimmatli qo'g'ozlari, kassadagi naqd pul va h.k.) o'rta sidagi taqsimlanadi. Umumiy fond mablag'lari metodida ma'lum aktiv operatsiyani amalga

oshirishda mablag'lar qaysi manbadan kelib tushganligi ahamiyat kasb etmaydi, agarda ularning joylashtirilishi bank o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga yordam bersa. Bu metod sxematik ravishda 1-chizmada ko'rsatilgan.

Bu metod bank boshqaruvidan likvidlilik va daromadlilik prinsiplarini teng amal qilishini talab etadi. Shuning uchun mablag'lar shu prinsipga mos keladigan aktiv operatsiyalar turlariga joylashtiriladi.

Mablag'lar manbayi

Mablag'larni joylashtirish


4-chizma. Umumiy fond mablag'lari modeli yordamida aktivlarni boshqarish.

Mablag'larni joylashtirish orqali operativ bo'lim boshliqlariga likvidlilik va daromadlilik nisbatlari muammolarini hal etishga ko'mak beruvchi ma'lum prioritetlar asosida amalga oshiriladi. Bu prioritetlar bank ixtiyoridagi mablag'ning qaysi qismi daromad keltirish uchun birinchi yoki ikkinchi galdagi zaxiralarga joylashtirilishi, ssuda yoki qimmatli qog'ozlar sotib olishga ishlatalishini ko'rsatib beradi. Mablag'larni yer uchastkalariga, imoratva ko'ch- mas mulkka investitsiyalash odatda alohida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi metodning vujudga kelishi — aktivlarni taqsimlash yoki mablag'larni konversiyalash (*asset allocation or consersion of funds approach*) — birinchi metod ba'zi kamchiliklarni bartaraf

etish bilan bog'liq. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, umumiylondan mablag'lari pozitsiyasidan mablag'larni joylashtirishda haddan ziyod diqqat likvidlikka berilib, talab qilinguncha qo'yilmalar va asosiy kapital bo'yicha likvidlikka bo'lgan talab hisobga olinmaydi. Ko'pgina namoyondalar fikrlari bo'yicha, bu kamchilik Amerika tijorat banklarining foyda normasi qisqarishining o'sib borishiga sabab bo'ldi.

Bu vaqt ichida talab qilinguncha qo'yilmalarga nisbatan kam-roq likvidlilikni talab etuvchi muddatli va jamg'arma qo'yilmalar yuqori templar bilan o'sib bordi. Aktivlarni taqsimlash metodi umumiylondan mablag'lari metodi kamchiligin yengish imkonini berdi. Bu metod bankka zarur bo'lgan likvid mablag'lar miqdori fondlarni jalb qilish manbalariga bog'liqligini belgilab berdi. Sxematik ravishda bu 2-chizmada ko'rsatilgan.



5-chizma. Aktivlarni taqsimlash modeli yordamida aktivlarni boshqarish.

Bu metod orqali mablag'lari manbalarini majburiy zaxiralalar va ularning aylanish tezligi normalariga mos chegaralashga harakat qilinadi. Bu metodning asosiy ustun tarafi bu likvid mablag'lari va ssudalar hamda investitsiyalarga qo'shimcha mablag'lari qo'yish qismining qisqartirilishi va bu natijada foyda normasining ko'tarilishiga olib kelishidir. Aktivlarni taqsimlash metodining tarafidorlari foyda normasining oshishi oshiqcha likvid aktivlarni bar-taraf etish hisobiga amalga oshiriladi.

Lekin bu metod ham uning samaradorligini pasayishiga olib keladigan kamchiliklarga ega. Uning kamchiliklaridan biri, bu metod mablag'lar manbalari ularni qaysi yo'lida qo'llashdan qat'i nazar mustaqil deb taxminlaydi, amalda esa bunday emas. Masalan, bankir amaliyotchilar ishchan firmalardan ko'p qo'yilma jalg qilishga harakat qiladilar. Chunki, bu firmalar odatda shu bankdan qarz oladilar. Bundan shu kelib chiqadiki, yangi qo'yilmalarni jalg qilish bilan birlgilikda bank yangi qo'yilmachilar tomonidan bo'lgan kredit zayavkalarining bir qismini qoniqtirish majburiyatini oladi. Bu esa, yangi qo'yilmalarning bir qismi shu qo'yilma egalarini kreditlash uchun yo'naltirilishi kerakligini anglatadi.

Ko'rib chiqilgan ikki metod birmuncha soddalashtirilgandir. Ularning qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiluvchi normativ yo'rinqomalar kompleksi sifatida emas, balki aktivlarni boshqarish bilan bog'Iiq muammolarni yechish usullarini aniqlashda bank boshqaruviiga yordam bemvchi umumiy sxema chegarasida qarash kerak. Ko'rib chiqilgan ikki metod aktiv va passivlar turli moddalari o'rtasidagi bog'liqlikni analiz qilishning ilmiy boshqarish sodda usullariga to'g'ri keladi.

Boshqarish va tahlil qilishning uch usuli ilmiy metod, shuningdek, EO'Mni qo'llash bilan bog'Iiq. Bu metod nisbatan murak- kab matematik metodlar va EO'M orqali boshqarish muammo- lariga yondashishni kasb etadi.

Endi tijorat bankini aktivlari va passivlarini aniq misolda ko'rib chiqamiz.

Tijorat banklari aktivlarini to'rt toifaga bo'lish mumkin: kas- sadagi naqd pul va unga tenglashtirilgan mablag'lar, qimmatli qo- g'ozlarga investitsiyalar; ssudalar, imorat va uskunalar. Buni 5-jadvaldan ko'rshimiz mumkin.

5-jadval

Aksionerlik tijorat banki aktivlari tarkibi (mln AQSH dollarida)

Aktivlar moddasi	Summa	Umumiy aktivga nisbatan, % da
Kassa va unga tenglashtirilgan mablag'lar	628	17,4
Markaziy bankdagi zaxira mablag'lar	326	8,9
Banklararo operatsiyalar	456	12,6

Ssuda va zayomlar	1884	51,9
Ko'chmas mulk va asosiy vositalar	210	5,8
Boshqa aktivlar	125	3,4
Jami aktivlar	3629	100

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, bank balansining aktivida asosiy o'rinni berilgan ssuda va zayomlar egallab turibdi (51,9 %). Chunki bankning asosiy daromad manbayi shu modda hisoblanadi. Keyingi o'rinda esa, likvidlilik nuqtayi nazaridan eng likvid hisoblangan aktiv moddasi: «Kassa va unga teng- lashtirilgan mablag'lari» (17,4 %) turibdi va h.k.

Agar, aktivlar tarkibini bank faoliyatidagi asosiy turlari bo'yicha guruhshtirsak, u holda quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Bank aktivlar operatsiyalarida asosiy o'rinni kredit operatsiyalari egallaydi. Ularning ulushi 19,9 % dan 83,25 % gachani tashkil etadi.

Bank aktivlarida ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar egallaydi (2,15 % dan 23,87 % gacha).

Uchinchi o'rinda — kassa aktivlari (0,2% dan 12,94 % gacha).

Boshqa aktivlar ulushi hisob-kitob xususiyatiidan kelib chiqib bank operatsiyalarida juda ham keng spektrni egallaydi (2 % dan 78 % gacha).

Endi tijorat banklarini passiv operatsiyalarini ko'rib chiqamiz. Passiv operatsiyalar tijorat banklari uchun muhim rol o'ynaydilar. Ular yordamidagina banldar pul bozorlarida kredit resurslariga ega bo'lishadi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining, asosan, to'rt shakli mavjud:

- qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslarni yig'ish;

- foyda hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;

- boshqa kreditorlarning mablag'lariни jalb qilish;

- depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lari va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi. Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga bankning ustav kapitali, zaxira kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Banklarni tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar, bank aksiyadorlik jamiyatni tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralan- maydi.

Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklarining kredit resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning asosiysi talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli va jamg'arma qo'yilmalarga bo'li- nuvchi depozitlardir.

Muddatli depozit schotlar qat'iy o'rnatgan muddatga ega bo'lib, u bo'yicha egalariga o'rnatilgan foiz to'lanadi. Muddatli depozit schotlarida saqlanuvchi pul mablag'lariga talab qilinguncha depozitlarga nisbatan majburiy zaxiralarga pastroq norma belgilanadi. Mijozlar uchun muddatli depozit schotlarining yaxshi tomoni ular bo'yicha yuqori foiz olinishidir, bank uchun esa likvidlilikni kam zaxira bilan ushlab turish mumkinligi. Muddatli depozitlarning mijozlar uchun kamchiligi, uning past likvidliligi va muddatli depozit schotlaridagi mablag'larni hisob- kitob va joriy to'lov larga ishlatib bo'lmasligidir. Talab qilib olinguncha depozitlar schotlarida saqlanuvchi mablag'lar xarakte- ridan kelib chiqib tasniflanadi: turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitob, joriy, budjet schotlaridagi mablag'lar; turli fondlarni saqlash bo'yicha maxsus schotlardagi mablag'lar, kapital qo'yilmalar uchun mo'ljallangan korxonalarining o'z mablag'lari; boshqa banklar bilan hisoblashish bo'yicha korrespondentlik schotlaridagi mablag'lar, mahalliy budjet mablag'lari.

Jamg'arma qo'yilmalar ularning hisoblash xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagilarga bo'linadi: muddatli, qo'shimcha qo'yish bilan muddatli, yutuqli, pul-buyum yutuqli; shartli; jamg'arma sertifikatlar va boshqalar.

Endi tijorat bankining passivi tarkibini ko'rib chiqamiz.

Aksionerlik tijorat bankining passivi tarkibi (mln AQSH dollarida)

Majburiyatlar va aksionerlik kapitali	Summa	Umumiyligi nisbatiga nisbatan, % da
Davlat va Markaziy bank depozitlari	965	26,6
Mijozlar depozitlari	623	17,2
Banklar va boshqa kredit muassasalari depozitlari	342	9,4
Davlatlararo kreditlar	1075	29,6
Boshqa majburiyatlar	53	1,5
Aksiyadorlik kapitali	3058	84,3
Nominal aksiyadorlik kapitali	364	10,0
Qo'shimcha kapital	20	0,5
Taqsimlanmagan foyda	187	5,2
Jami aksionerlik kapitali	571	15,7
Jami majburiyatlar va aksionerlik kapitali	3629	100,0

Yuqorida keltirilgan (6-jadvalga qarang) tijorat bankining passivlari strukturasida davlat va Markaziy bank depozitlari asosiy o'rinni egallab turibdi (26,6 %). Ikkinci va uchinchi o'rirlarda esa, mos ravishda, davlatlararo kreditlar (29,6 %) va mijozlar depozitlari (17,2 %) egallab turibdi va h.k.

Bank aktivlarining qiymatini to'g'ri hisoblash va ulardan keladigan daromadlarni to'g'ri hisob-kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunga kelib banklar mablag'larni shakllantirish va daromadni ortishining yangi manbalariga murojaat qilmoqdalar, ya'ni aktivlarni sekyuritizatsiyalash va kafolatli kredit xatlarini chiqarishdir. Banklar bunday daromad va zaxiralalar manbalariga, asosan, ular banklar faoliyatini tartibga solish va jahon moliya bozoridagi investorlar muomalasini o'zgartirishga yordam bergenligi uchun murojaat qilishadi. Bunday tartibga solishning yangi normalari uzoq muddatli kapitalning pozitsiyasini mustahkamlashni talab etadi.

Ko‘pgina bankirlar shuni angladilarki, «kapital-aktivlar» munosa- batini samarali yaxshilash vositasi bo‘lib balansdan tashqari aktivlarni sotish hamda aktivlarni qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali paketlashtirish va aktivlarni o‘zini zaxirada saqlash hisoblanadi.

11. 5. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari, nafaqat, mamlakat ichkarisida, balki boshqa mamlakatlar bilan ham turli xil operatsiyalarni olib boradi. Tijorat banklarining boshqa mamlakatlar bilan olib bomvchi operatsiyalari ularning xalqaro operatsiyalari, deb yuritiladi. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari o‘z ichiga xalqaro savdoda ishtirok qiluvchilar o‘rtasidagi mu- nosabatlarni, ssuda kapitali bozorida investitsiya faoliyatini yurituvchi, turizm, xorijiy qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish, valuta ayrboshlash, chek, veksel, inkassatsiya uchun bank ak- septlarini qabul qilish bilan shug‘ullanuvchi mijozlar tomonidan talab qilinadigan xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro operatsiyalardan bankka tushadigan daromadning eng asosiy qismini kredit berishdan tushadigan daromadlar tashkil qiladi. Xalqaro savdoni bank tomonidan kreditlash tovar va tovar hujjatlarini garovga olish asosida kredit berish, veksel bo‘yicha kredit va aksept kreditlarni, bank ssudalarini berish shaklida amalga oshiriladi. Tashqi savdoni kreditlashning yangi shakllariga lizing, faktoring va forfeytirlash kabilarni kiritish mumkin. O‘rta va uzoq muddatli xalqaro bank kreditlari yevro-kredit shaklida ham beriladi.

Banklar xalqaro operatsiyalarining yana bir turi bu valuta operatsiyalari hisoblanadi. Bankning bir valutani boshqa valutaga almashtirishi valuta operatsiyalari deyiladi. Ularni amalga oshirish zaruriyati mavjudligining asosiy sababi xalqaro savdo, xalqaro kredit va xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarda yagona to‘lov vosi- tasiga ega bo‘lish zaairligi hisoblanadi.

Turli xil valuta operatsiyalari yig‘indisi jahon ssuda kapitali bozorining asosiy qismlaridan biri bo‘lgan valuta bozorini hosil qiladi. Valuta bozorida xorijiy valutaga talab va taklif mujassamdash- tililadi. Taklif sotilgan tovar va xizmatlar uchun daromad olgan eksport qiluvchidan, talab esa sotib olingan tovar va xizmatlarni to‘lash uchun xorijiy valutaga muhtoj import qiluvchilardan kelib chiqadi. Valuta operatsiyalari asosini tovarlar va xizmatlar, kapital va kreditlarning xalqaro harakati tashkil etadi.

Valuta bozorida operatsiyalarni maxsus banklar, kompaniya- lar va jismoniy shaxslar amalga oshiradi. Birja ichida va undan tash- qaridaga valuta bozorlari bir-biridan farq qiladi. Valuta operatsiyalarining ko'philigi birjadan tashqaridagi bozorlarda tijorat banklari orqali amalga oshiriladi.

Banklar bir-biri bilan (bevosita yoki brokerlar orqali), mijoz- lari bilan valuta operatsiyalarini xalqaro banklararo valuta bozorida va birjalarda olib boradi. Valuta shartnomalarining asosiy qismi xalqaro banklararo valuta bozorida tijorat banklari o'rtaida im- zolanadi. Valuta cheklovlar yo'q yoki sezilarli bo'lмаган davlatlarda (AQSH, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Gonkong, BAA va boshq.) valuta muomalalarini ixtiyoriy bank amalga oshirishi mumkin. Milliy valuta konvertirlanmagan davlatlarda valuta operatsiyalarini faqatgina davlat ruxsat bergen banklar amalga oshiradi.

Bankning valuta bozoridagi faolligi bankning yirikligiga, uning obro'siga, xorijiy bo'limlari va filiallari tarmoqlarining rivojlan- ganlik darajasiga, EHM bilan ta'minlanganligiga, telefon va tele- graf aloqalarining rivojlanganligiga bog'iq. Valuta operatsiyalarining asosiy qismi yirik tijorat banklariga to'g'ri keladi. Ular valutani sotish, sotib olish, xalqaro hisob-kitoblarni bajarish bilan birga, xorijiy valuta zaxiralarini saqlaydi va valuta kurslarini aniqlaydi. Boshqa banklar ularga kotirovka bo'yicha murojaat qiladi va o'z mijozlari uchun valuta sotib oladi.

Ko'pgina mamlakatlarda (Yaponiya, GFR, Fransiya, Ttaliya, Avstraliya, Niderlandiya) yaxshi taraqqiy qilgan maxsus valuta birjalari mavjud. 70-yillardan boshlab, fond va tovar birjalarida valuta bilan savdo qilish keng tarqalgan.

Banklar tomonidan valuta operatsiyalari bankning xususiy mablag'lari hisobiga yoki mijozlar hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Valuta operatsiyalari xorijiy valutada ifodalangan naqdsiz to'lov vositalari: bank depozitlari, cheklar, veksellar, o'tkazmalar hisobiga amalga oshiriladi. Naqd xorijiy valutasi hisobiga amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmi ancha kichik hisoblanadi.

Tijorat banklarining xalqaro hisob-kitob operatsiyalarida turli hisob shakllari qo'llanishi mumkin. Bular qatoriga bank buyrug'iga asosan, pul o'tkazish (o'tkazma turi), bank cheki, bank vekseli, akkreditiv, inkasso shakllari va boshqalarni kiritish mumkin.

O'tkazma, bu — bankning o'z mijozining talabi, uning mablag'i hisobidan to'lanishi zarur bo'lgan summani olishi zarur bo'lgan xorijiy korxona (benefisiar)ga mablag'nii pochta yoki

telegraf yo'li bilan o'tkazib qo'yish to'g'risidagi boshqa mamlakatdagi bank-korrespondentga bergan buyrug'i. Valuta olishning eng tez va ishonchli vositasi telegraf o'tkazmasidir. Bank-korrespondentlar tomonidan maxsus kodning qo'llanishi valuta mablag'lari bo'yicha zarar keltirish va o'z mijozlariga mablag'larni o'tkazishda bank tomonidan xatolarga yo'l qo'yilishidan saqlaydi. O'tkazmada bank ikki operatsiyani bir vaqtning o'zida bajaradi: milliy valuta hisobiga mijoziga xorijiy valutani sotadi va xorijiy valutani chet elga o'tkazib beradi.

Bank cheki — bankning xorijiy bank korrespondentga ma'lum miqdordagi pulni chek egasiga uning shu bankda mavjud bo'lgan korrespondentlik varaqasidan to'lash to'g'risidagi yozma buyrug'i.

Bank vekseli — o'tkazma veksel (tratta) bo'lib, bank tomonidan xorijiy bank korrespondentiga to'lash uchun beriladi.

Xalqaro hisob-kitoblar deganda, biz talablar va majburiyatlar bo'yicha to'lovlarini muvofiqlashtirish tizimini tushunamiz. Xalqaro hisob-kitoblar tijorat bank-korrespondentlari orqali o'tkazma, cheklar, veksellar, o'zaro talab va majburiyatlarni tenglashtirib voz kechish yo'li bilan naqd valutasiz amalga oshiriladi.

Xalqaro hisob-kitoblar shakllarining ba'zilari o'tkazilish yo'llari bilan ichki hisob-kitoblarga o'xshash bo'lsa-da, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

- **birinchidan**, odatda, ular huijat tarzida, ya'ni moliya (cheq, veksel) va tijorat (konosament) hujjatlari yordamida amalga oshadi;

- **ikkinchidan**, xalqaro hisob-kitoblar unifikatsiyalashgan (bir shaklga keltirilgan). Bunday hisob-kitoblarni amalga oshirishda aksariyat mamlakatlar banklari, jumladan, MDH veksel va chek konvensiyalariga amal qiladi. Jenevada 1930 va 1931-yilda qabul qilingan va Parij xalqaro savdo palatasi e'lon qilgan «Hujjatli akkreditivlar bo'yicha unifikatsiyalashgan qoida va an'analar» va «Inkasso bo'yicha unifikatsiyalashgan qoidalar»ga muvofiq xalqaro miqyosda hisob-kitob operatsiyalari olib boriladi. Bu hujjatlarga tashqi savdo aloqalarida bankka akkreditiv to'g'risida buyruq berilganda va inkasso topshirinomalari berilganda murojaat etish lozim bo'ladi.

Klassik va eng keng tarqalgan hujjatli hisob-kitoblar shakli hujjatli akkreditiv va hujjatli inkasso hisoblanadi.

Akkreditiv — bank (bank emitent) majburiyati bo'lib, mol sotib oluvchi (import qiluvchi) ko'rsatmasiga binoan mol sotuv-

chi (eksport qiluvchi) varag‘iga mablag‘ni o‘tkazish yoki trattani tegishli summada (xizmat yoki tovar) akseptlashni sotuvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatga muvofiq amalga oshirishni ifodalaydi. Akkreditiv shaklidagi hisob-kitoblarda bir qancha banklar ishtirok etishi mumkin: akkreditivni ochuvchi bank emitent; sotuvchiga akkreditiv ochilgani to‘g‘risida xabar beruvchi bank; akkreditivni to‘lovchi yoki trattani akseptlovchi bank. Shu bilan birga, bank emitentdan boshqa banklar o‘rnida bir bankning o‘zi ham ishtirok etishi mumkin.

Akkreditiv operatsiyalari to‘rt asosiy bosqichni bosib o‘tadi:

- **Birinchi bosqich.** Import qiluvchi tovar jo‘natilishga tayyorligi to‘g‘risida xabar olgandan keyin o‘z bankiga (bank emitent) eksport qiluvchi bankida ma’lum summa va muddatga akkreditiv ochish topshirig‘ini beradi. Akkreditiv ochish topshirig‘M bilan birga akkreditiv berilishi uchun talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatiladi;

- **ikkinchi bosqich.** Bank emitentga tegishli bankda akkreditiv ochiladi va eksport qiluvchiga bu haqda xabar qilinadi, zarur bo‘lsa, akkreditiv ochilganligi tasdiqlanadi;

- **uchinchi bosqich.** Tovarni jo‘natgan eksport qiluvchi bankka talab etilgan hujjatlarni taqdim etadi va tovar uchun tegishli to‘lovni oladi (odatda, u eksport qiluvchining hisobraqamiga o‘tkaziladi);

- **to‘rtinchi bosqich.** Eksport qiluvchi banki tovar hujjatlarini bank emitentga yuboradi. U, o‘z navbatida, bu hujjatlarni import qiluvchiga taqdim etadi va akkreditiv summasini qoplaydi (import qiluvchi bu summani to‘lab beradi).

Majburiyat turiga ko‘ra, bank akkreditivi «chaqirib olinadigan» va «chaqirib olinmaydigan» bo‘ladi. «Chaqirib olinadigan» akkreditiv muddatdan ilgari import qiluvchi yoki bank emitent ko‘rsatmasiga binoan bekor qilinishi mumkin. Bunday akkreditiv eksport qiluvchi manfaatlariga javob bermaydi va amaliyotda kam uchraydi. «Chaqirilmaydigan» akkreditiv eksport qiluvchi ruxsa- tisiz bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin emas. U bank emitentning eksport qiluvchiga to‘lovni amalga oshirish yoki trattani akseptlashning qat‘iy majburiyatini oladi. «Chaqirilmaydigan» akkreditiv qo‘llanilishi jihatidan eksport qiluvchi uchun afzal hisoblanadi. Agar bank emitent akkreditivni ochuvchi bankka valuta qoplamasini jo‘natsa, akkreditiv ta’minlangan, aks holda, ta’minlanmagan hisoblanadi.

Hujjatli inkasso operatsiyasida eksport qiluvchi o‘z bankiga inkasso topshiriqnomasini beradi va tashqi savdo shartnomasida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim qilish bilan import qiluvchidan ma‘lum valuta miqdorini olish lozimligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, eksport qiluvchi o‘z banki orqali import qiluvchi bankiga inkassatsiya uchun hujjatlarni jo‘natadi. Inkassatsiya opera- tsiyasi to‘rt asosiy bosqichda o‘tadi:

- ***birinchi bosqich.*** Eksport qiluvchi o‘z bankiga inkasso topshiriqnomasi va unga ilova qilingan hujjatlarni beradi;
- ***ikkinchi bosqich.*** Eksport qiluvchi banki import qiluvchi mamlakatdagi bank-korrespondentga inkasso topshiriqnomasi va hujjatlarni yuboradi;
- ***uchinchchi bosqich.*** Bank-korrespondent import qiluvchiga hujjatlarni taqdim etadi va inkasso topshiriqnomasida ko‘rsatilgan summani oladi yoki trattani akseptlaydi;
- ***to‘rtinchi bosqich.*** Olingan to‘lov miqdori import qiluvchi banki eksportyor bankiga, undan esa eksport qiluvchi schotiga o’tkaziladi.

Valuta operatsiyalarini valutalar o‘rtasidagi nisbatni aniqlamasdan va ularni almashtirmsandan o‘tkazish mumkin emas. Bu nisbatlar valuta «kotirovka»lari yordamida amalga oshiriladi. Valuta kotirovkasi deganda, almashtirish uchun taqdim etilgan valutalar kursini va ular orasidagi nisbatni o‘rnatish tushuniladi.

Valuta kotirovkasi rasmiy va bozor kotirovkasiga bo‘linadi. Rasmiy valuta kotirovkasini davlat amalga oshiradi (asosan, Markaziy bank). Rasmiy valuta kursidan davlat valuta operatsiyalarida, bojxona ishlarida, to‘lov balansini tuzishda foydalilaniladi.

Valuta kursini aniqlash usullari valuta tizimlarining xususiyatlariga ko‘ra, turli mamlakatlarda turlicha. Qattiq valuta cheklavlari mavjud davlatlarda valuta kursi ikki usulda o‘rnatilishi mumkin. **Birinchisi**, sof boshqaruv usuli — hukumat yoki Markaziy bank talab va taklifdan qat’i nazar, milliy valuta kursini belgilaydi. Bunda valuta kursi boshqa valuta yoki bir qancha valutalar (valuta savati)ga nisbatan belgilanadi. Shu bilan birga, ko‘pchilik Markaziy banklar turli operatsiyalarda turlicha valuta kurslarini belgilaydi.

Ikkinchisi Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Ruminiya kabi davlatlarda ko‘proq qoilaniladi. Bu usulda Markaziy bank rasmiy valuta kursini birja kursi darajasida belgilaydi va birja kursi-

ning rasmiy valuta kursiga nisbatan o‘zgarish chegarasini belgilab beradi. Valuta kursining shu o‘zgarish chegarasini belgilab berish bank ishida valuta koridori, deb ham yuritiladi. Amaliyotda valutaning birja kursining rasmiy kursga nisbatan o‘zgarish xavfi ku- zatilsa, Markaziy bank valuta intervensiyasini amalga oshiradi, ya’ni xorijiy valutani sotadi yoki sotib oladi.

Valuta cheklovleri yo‘q yoki sezilmas darajada bo‘lgan davlatlarda Markaziy bank talab va taklif (milliy valutaning erkin suzib yurishida) hamda valuta intervensiysi (boshqariluvchi kurs)dan kelib chiqqan holda valuta kursini belgilaydi. Valuta birjalari faoliyat ko‘rsatuvchi davlatlarda valuta kursi qariyb har bir birja makleri va Markaziy bank tomonidan valutani sotish va sotib olishga berilgan arizalar, Markaziy bank intervensiysi siyosati bo‘yicha faoliyatini inobatga olgan holda o‘rnataladi.

Bozor kotirovkasi talab va taklif asosida birjaga oid bo‘lмаган valuta bozorida amalga oshiriladi.

Qattiq valuta cheklovleri mayjud mamlakatlarda bozor kotirovkasi deyarli qo‘llanilmaydi. Hamma operatsiyalar rasmiy kurs bo‘yicha amalga oshadi. Valuta cheklovleri deyarli yo‘q (sezilarsiz) yoki yo‘q mamlakatlarda bozor kursini bir-biri bilan doimiy mu- loqotda bo‘lgan yirik tijorat banklari o‘rnataladi. Bu banklarni mar- ket-meykerlar deb ataydilar. Boshqa banklar kotirovka yuzasidan ularga murojaat qilishadi. Banklararo valuta kotirovkalar market - meykerlar tomonidan har bir valuta bo‘yicha mavjud bo‘lgan yoki kutilayotgan talab va taklifni taqqoslash (bu operatsiya amaliyotda fiksing, deb ataladi) asosida belgilanadi.

Valuta birjasi yo‘q davlatlarda valuta bozori qatnashchilari banklararo kurslardan foydalanadi. Banklararo bozordagi o‘rtacha kurs bank mijozlari uchun valuta kursini o‘rnatishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Valuta birjalari maviud davlatlarda banklararo ko- tirovkalar banklarning to‘lov aylanishi, to‘lovga layoqatliligin hisobga olgan holda, rasmiy birja kotirovkalar atrofida o‘zgarib turishi mumkin. Bunday banklarda rasmiy birja kotirovkasi ularning mijozlari uchun valuta kurslarining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Erkin valuta bozorida uning har bir elementlari (birjadagi va undan tashqaridagi) bir-biriga ta’sir etadi va ulardagagi valuta kotirovkalar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Valuta bozorida valutani kotirovka qilishning ikki usuli mavjud: **to ‘g‘riva egri**. Ko‘pgina davlatlarda to‘g‘ri kotirovka qo‘llaniladi. Bu usulning mohiyati shundaki, xorijiy valuta birligining kursi

to'g'ridan to'g'ri milliy valutada ifodalanadi. Egri kotirovkada mih liy valuta birligi ma'lum miqdordagi xorijiy valutada ifodalanadi. Bu usul (egri kotirovka) Buyuk Britaniyada, 1987-yildan esa qisman AQSHda qo'llaniladi. Banklararo valuta bozorlarida valuta kursining kotirovkasi ko'proq AQSH dollariga nisbatan belgilanadi. Bu hoi dollarning xalqaro to'lovlardagi ko'p qo'llanilishi va zaxira vositasi sifatida saqlanishi bilan bog'iqliq. Savdo-sanoat sohasida faoliyat olib boruvchi mijozlar uchun valuta kotirovkalarini amalga oshirish kross-kursga asoslanadi.

Kross-kursda ikki valutaning kursga asoslangan nisbati uchinchi valutaga qiyosan aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki so'mning yapon iyeniga nisbatan kursini aniq-lamoqchi deylik. Bu holda iyenning so'mga nisbatan kursi dollarga asoslangan holda aniqlanadi. Aytaylik, 1250 so'm — 1 dollar; 1 dollar — 125 yapon iyeni desak, u holda kross-kursda 1 yapon iyeni necha so'm turadi? Demak, $1 \text{ yapon iyeni} = 1250 \text{ so'm} \cdot 1\text{T}/M25 = 0,1 \text{ so'm yoki } 10 \text{ yapon iyeni } 100 \text{ so'mga teng.}$

O'tgan asrning 70-yillari oxiridan boshlab, G'arbiy Yevropada valutalarini sotish va sotib olishda Amerika dollaridan ko'ra Germaniya Federativ Respublikasining markasi ko'p qo'llanila boshladi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarda Germaniya markasi obro'sining oshishiga olib keldi. Ko'pgina valutasi konvertatsiya qo'llanmaydigan, valuta cheklowlari mavjud bo'lgan davlatlarda rasmiy valuta bozori bilan birga norasmiy valuta bozori, ya'ni qora bozor ham mavjud.

Banklar valutalar kotirovkasini o'tkazganda, valuta bo'yicha sotuvchi kursini va sotib oluvchi kursini belgilaydi. Valutani kotirovka qiluvchi bank valuta bitimini doimo o'zi uchun qulay bo'lgan kurs bo'yicha tuzadi. Banklar doimo xorijiy valutani sotib olgani-dan (sotib oluvchi kursi yoki sotib olish kursi) ko'ra qimmat (sotuvchi kursi yoki sotilish kursi) sotadi. Masalan, Nyu-York va London valuta birjalaridan dollarning funt sterlingga to'g'ri kotirovkasi amalga oshiriladigan bo'lса, 1 funt sterling = 1,502 dollar — sotib olish kursi; 1 funt sterling = 1,5060 dollar — sotish kursi. Nyu-York banki Angliya valutasini arzonga (1,502 dollar) sotib oladi va qimmatga sotadi. To'g'ri kotirovkada sotuvchi kursi doimo sotib oluvchilar kursidan yuqori bo'ladi. O'rtadagi farq maija deyiladi va bankning foydasini tashkil qiladi.

Hamma banklar ham bozor (oldin aytib o'tganimizdek, market-meykerda)da aktiv valuta kotirovkasini olib bora olmasligi

mumkin. Buning uchun banklar ma'lum miqdorda valuta zaxiralariga ega bo'lishi lozim. Banklarning valuta bitiinlari sal- mog'i ular faoliyatining salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, jahonda yirik banklardan biri bo'lgan «Doyche Bank», «Barklays Bank» kabi banklarning valuta bitimlarining kam summasi 10—15 mln dollarni tashkil qilsa, ba'zi bir kichik banklarning valuta bitimining eng yuqori hajmi 3—5 mln dollarni tashkil qilishi mumkin. Marja hajmi turli omillarga bog'liqdir. Odatda, beqaror konyunktura davrida, valuta kurslaridagi farqdan zarar ko'rish ehtimoli yuqori davrlarda marja oshadi. Marja miqdoriga shartnomaga hajmi ham ta'sir etadi: u kichik bo'lsa, marja yuqori bo'ladi. Rasmiy axborotnomalarda valuta sotish va sotib olish bo'yicha yoki har ikki kurs, ulardan biri yoki o'rtacha kurs ko'rsatilishi mumkin. O'rtacha kurs — sotuvchi va sotib oluvchi kurslarining o'rta arifmetigi. Sotuvchi o'rtacha kursi sotuvchi va o'rtacha kursning o'rta arifmetik qiymati. Xaridor o'rtacha kursi — xaridor va o'rtacha kursning o'rta arifmetik qiymati.

Xalqaro to'lov aylanmasida xorijiy valuta naqd emas, balki naqdsiz holatda amal qiladi. Tabiiyki, turli xil to'lov vositalari kurslari turlicha, chunki ularning ishonchlilik va valuta tavakkalchiligi darajalari turlichadir. Telegraf o'tkazmasi bo'yicha valuta kursi eng yuqoridir. Chunki unda xorijiy valuta shu zahoti yoki kelasi kuni to'lanadi. Bu operatsiya valuta tavakkalchiligini deyarli chetlab o'tish imkonini beradi. Odatda, ularning kurslari rasmiy bulleten va kotirovka jadvallarida e'lon qilinadi. Boshqa to'lov vositalari kursi shu asosida aniqlanadi.

Valuta bozorida turli turdag'i shartnomalar amal qiladi. Ularning ko'pchiligi spot shartlari asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, bitimni imzolash va bajarish vaqtлari qariyb mos keladi. Bitimning bunday turida valuta sotuvchidan sotib oluvchiga shartnomaga imzolanishi bilanoq (ko'pi bilan ikki ish kuni ichida) yetkaziladi. Spot shartnomalariga jami valuta shartnomalarining 90 % i to'g'ri keladi.

Ikkinci valuta shartnomasi turi - muddatli shartnomalar. Bunday shartnomalarning ikki xususiyati bor. **Birinchidan**, shartnomalar imzolanishi va bajarilishi orasida ma'lum vaqt oralig'i mavjud: bir haftadan olti, o'n ikki oygacha. **Ikkinchidan**, valuta kursi shartnomalar imzolangan davrda belgilangani bo'yicha qabul qilinadi. Valuta kurslari o'zgarishlari unga ta'sir etmaydi. Muddatli shartnomalar valuta tavakkalchiliklaridan sug'urtalash yoki valuta chayqov-

chiligi maqsadida amalga oshiriladi. Eksport qiluvchi o‘zini xorijiy valuta kursining tushishidan sug‘urtlash maqsadida kelgusi valuta daromadini muddatli kurs bo‘yicha sotishi mumkin. Import qiluvchi xorijiy valuta kursi oshishidan o‘zini sug‘urtlash maqsadida kelgusi valuta tushumini ma‘lum muddatga muddatli kurs bo‘yicha sotishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarda valuta bozorlarida valuta kursining o‘zgarishiga qarab ishlovchi valutachilar faoliyatni to‘g‘risida qis-qacha to‘xtalib o‘tish mumkin. Bu valutachilarning asosiy maqsadi valuta bozorlarida valuta kurslarining o‘zgarishi asosida katta foyda olishdan iborat. Valuta kursining oshishi yoki pasayishiga qarab faoliyat ko‘rsatuvchilar xalqaro amaliyotda «ayiqlar» va «buqalar», deb ataladi. Ular faoliyatining mohiyati quyidagilardan iborat. Agar amaliyotda valuta kursi tushishi kutilsa, valuta kursi pasayishiga o‘ynovchilar valutani shartnomaga tuzilgan davr (muddatli kurs) kursi bilan sotish to‘g‘risida muddatli shartnomaga tuza-dilar. Agar bu muddatda valuta kursi tushsa, «ayiqlar» valutani bozordan pasaygan kursda sotib olib, uni muddatli kurs bo‘yicha oldingi shartnomada ko‘rsatilgan yuqori kurs bo‘yicha sotadilar va kurslar o‘rtasidagi farq miqdorida foyda oladilar.

Valuta kursining ko‘tarilishiga o‘ynovchilar («buqalar») esa valuta kursi oshishi kutilganda, valutani keyinchalik shartnomaga tuzilgan vaqtdagi kurs bo‘yicha sotib olishga kelishilgan muddatli shartnomaga tuzishadi. Kurs oshganda esa valutani muddatli shartnomada belgilangan (oldingi) narx bo‘yicha sotib olib, oshgan yuqori narxda sotib foyda ko‘rishadi.

Banklar tomonidan amalga oshiriladigan muddatli operatsiyalar forward operatsiyalari, deb yuritiladi. Forward operatsiyalari - dagi valuta kursi spot shartnomasi bo‘yicha kursdan farqlanadi. U mukofot va chegirma (skidka) usuli bilan o‘rnataladi. Mukofot forward kursi spot kursidan mukofot miqdoriga ko‘pligini bildiradi. Forward marjasini, ya’ni spot va forward orasidagi farq jahon kapitali bozoridagi depozitlarning foiz stavkalariga bog‘liq bo‘ladi. Depozit foizi kichik davlatlarda valuta kursi mukofot bilan, katta davlatlarda valuta kursi chegirma bilan belgilanadi.

Kassa va forward operatsiyalarini muvofiqiashtiruvchi valuta shartnomalaridan biri svop shartnomasidir. Bu shartnomasi ikki valuta savdo-sotig‘ini darhol amalga oshirish sharti (spot), shu bilan birga, unga qarshi muddatli shartnomani tuzishni anglatadi. Masalan, dollarni markaga spot shartida sotish va shu zahoti uni

sotib olish bo'yicha muddatli shartnomani tuzish yoki unga teskari operatsiya dollarni markaga sotib olish spot shartnomasi va uni sotish bo'yicha muddatli shartnomani tuzish kiradi.

Forvard shartnomasi turlaridan biri opsiyon shartnomasidir. Opsiion shartnomasining o'ziga xos xususiyati bu sotib oluvchining valutani emas, balki uni sotib olish huquqini sotib olishidir. Bunda sotuvchi ma'lum valutani ma'lum miqdorda sotish yoki sotib olish majburiyatini oladi. Sotib oluvchi esa shu miqdordagi valutani sotish yoki sotib olish huquqidan foydalanmaslik huquqiga ham ega. U bu uchun sotuvchiga opsiyon mukofot to'laydi. Agar sotib oluvchi o'z huquqidan foydalanmasa, u mukofot sum- masida zarar ko'radi.

Spot, forvard va opsiyon shartnomalar banklararo bozorlarda va birjalarda amalga oshiriladi. Birjada amalga oshiriladigan ixtisoslashgan shartnomalarga fyuchers shartnomalari kiradi. Fyu-chers operatsiyalari fyuchers shartnomalarini sotish va sotib olish bo'yicha tuziladi. Fyuchers operatsiyasi valutani sotib olish yoki unga qaramaqarshi operatsiya bilan tugaydi. Fyuchers operatsiya-sining natijasi bu yutqazgan tomonning yutgan tomonga shartnoma tuzilgan va amalga oshirilgan vaqt orasidagi kurs farqini to'lashidir. Bu farqni birjaning hisob-kitob (kliring) palatasi to'lab beradi. Fyuchers shartnomalari imzolanishi bilan birjaning hisoblash markazida ro'yxatdan o'tadi.

Fyuchers va boshqa muddatli shartnomalarning maqsadi valuta operatsiyalarini xedjirlash yoki chayqovchilik asosida foyda olish- dir. Banklar o'z mijozlarining valuta tavakkalchiliklarini o'z zimmasiga olsalar (forvard operatsiya o'tkazganda), unga teskari fyuchers bitimi yordamida bu tavakkalchiliklarni kamaytiradi (yo'qo-tadi)lar. Fyuchers bitimi tugaganda esa, ular real tovarlar bitimi- dan ko'rgan zararni, valuta kursi orasidagi farqdan olgan daromadi hisobidan qoplash imkoniyatiga ega bo'lleshadi.

Valuta kursi orasidagi farq tufayli foyda olish maqsadida banklar valuta arbitrajini o'tkazishadi. Bu valutani sotish yoki sotib olish bo'lib, keyinchalik teskari bitim orqali valuta kurslaridagi farq yordamida foyda olish maqsadida arbitraj o'tkazishni ifodalaydi. Arbitraj ikki xil — joylashuvga ko'ra va vaqtli bo'ladi. Joy-lashuvga ko'ra, arbitraj banklarning turli valuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valuta tavakkalchiligi bilan bog'iq emas, chunki valuta savdosi bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Masalan, bank vakili Gonkongda valutani sotib oladi (so-

tadi) va shu vaqtning o‘zida u o‘zining Nyu-Yorkdagi korrespon- denti orqali shu valutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o‘tishi bilan valuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valuta arbitraji spot va forward sharoitida amalga oshirilishi mumkin va bu turdag'i operatsiyalarda valuta tavakkal-chiliklari mavjud bo'ladi.

Bank valuta operatsiyalarini bajarganda, unga xususiy valuta resurslarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valutalar bo'yicha majburiyat va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valutalarni sotish va sotib olish jarayonida valutalar bo'yicha talab va majburiyatlar nisbiy holati banklarning valuta holati deyiladi. Valuta bo'yicha majburiyatlar va talablar teng bo'lgan holat yopiq, teng bo'limgani ochiq valuta holati deyiladi.

Ochiq valuta pozitsiyasida — bank valuta bo'yicha qarshi bi-timni amalga oshirganda valuta kursining o'zgarishi natijasida oldingi sotgan valutasiga nisbatan kam valuta olishi, ya'ni zarar ko'rishi mumkin. Shuning uchun bu holatda valuta kursining o'zgarishi valuta tavakkalchiligining vujudga kelishiga olib keladi. Ochiq valuta holati uzoq yoki qisqa bo'lishi mumkin.

Qisqa valuta holatida sotilgan valuta bo'yicha majburiyatlar sotib olingan valuta bo'yicha talablardan oshadi, ya'ni xorijiy valutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'ladi. Uzoq valuta holatida esa, aksincha, xorijiy valutani sotib olish uni sotishdan yuqori bo'ladi, ya'ni sotib olingan valuta bo'yicha talablar uni sotish majburiyatlaridan ko'p bo'ladi. Bu holatlarni quyidagi misollar bilan batafsil tushuntirish mumkin. Masalan, ertalab bankda yapon iyeni va funt sterling bo'yicha yopiq valuta holati bo'lsin. Bank ochilishi bilan mijoz bankka unga funt sterling sotish to'g'risida murojaat qilsin. Agar shu paytda 1 funt sterling — 172 iyena bo'lsa, bu bank mijozga valuta kursi bo'yicha 1 million funt sterling sotsin. Bunda bank ochiq valuta holatiga ega bo'ladi.

Angliya funt sterlingi bo'yicha qisqa valuta holati — 1000000 funt sterling;

Yaponiya iyeni bo'yicha uzoq valuta holati = 172000000 yapon iyeni.

Banklar har bir valuta holati bo'yicha tavakkalchilik darajasini belgilashadi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida valuta ho- latini doimiy ravishda nazorat qilish uchun ular bilan bog'liq jarayonlar EHMLarga kiritilib, undagi ma'lumotlar bo'yicha valuta tavakkalchiliklarining oldini olish choralar ko'rib boriladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik va jismoniy shaxslar pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga, jamg'armalarga jalb qilish deganda nimani tushunasiz va u qanday ope-ratsiyalarga kiradi?
2. Depozitlar nima va ular hajmining kengaytirish yo'llari?
3. Qanday operatsiyalar passiv operatsiyalar deyiladi?
4. Passiv operatsiyalarining shakllari va ularga misollar keltiring.
5. Bank aktiv operatsiyalarining mazmuni va bank faoliyatidagi ahamiyati.
6. Aktiv operatsiyalarining qanday turi mavjud va ularga ta'rif bering.
7. Kredit portfelidagi kreditlarning tasnifi bo'yicha turlari.
8. Qanday operatsiyalar bankning boshqa aktiv operatsiyalari tarkibiga kiritiladi?
9. Banklarning visitachilik operatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
10. Banklarning ishonch operatsiyalari nima va ularning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
11. Bank faoliyatida aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishning ahamiyati.
12. Tijorat banklarining likvidliliqi deganda nimani tushunasiz va u qanday ataladi?
13. Tijorat banklari to'lovga layoqatliligi va uning ko'satkichlari.
14. Tijorat bankingin to'lovga layoqatliligi qanday aniqlanadi?
15. Daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan daromadlar va ularni te'riflang.
16. Banklarning likvidlilik darajasi qanday aniqlanadi?
17. Tijorat banklar likvidliliqi va to'lovga layoqatliligiga ta'sir qiluvchi omillar.
18. Tijorat banklarining aktivlari va ularning xavf-xatari.
19. Tijorat banklarining daromadlarini sanang.
20. Tijorat banklarining xarajatlarini keltiring.
21. Tijorat banklarining daromadlarini oshirish imkoniyatlari bormi?

XII bob. XALQARO VALUTA MUNOSABATLARI

12.1. Xalqaro iqtisodiy aloqalar — valuta munosabatlarining asosi sifatida

Valuta munosabatlarining ba'zi bir unsurlari Qadimgi Rimda veksellar asosida va bir mamlakat pulini ikkinchi bir mamlakat- nikiga almashtirib berish zaminida vujudga kelgan. Valuta munosabatlari rivojlanishining keyingi bosqichi Qadimgi Lionda va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlarida o'tkaziladigan tratta operatsiyalarining rivojlanishi hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlari- ning rivojlanishi, jahon bozorining barpo bo'lishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va jahon xo'jalik tizimi rivojlanishi xalqaro valuta munosabatlari rivojlanishining asosidir.

Valuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir bo'lagi hisoblanib, uning holati milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, siyosiy ahvolga, mamlakatning iqtisodiy potensialiga, uning jahondagi o'rni va boshqa omillarga bog'iq bo'ladi.

12.2. Valuta tizimi va uning asosiy elementlari

Valuta tizimi davlatlararo bitim yoki milliy qonunlarga mu- vofiq valuta munosabatlarni tashkil qilish va boshqarish shakl- larini o'z ichiga oladi. Valuta tizimining quyidagi turlari mavjud. Bular — milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valuta tizimlari.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti o'rtasidagi integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida valuta tizimi jahon xo'jalik aloqalarida muhim va mustaqil o'rin tuta boshlayapti. Valuta tizimi mamlakatning iqtisodiy holatiga bevosita ta'sir etadi (ya'ni ishlab chiqarish omillari, sur'atlari, narx, ish haqi va boshqalarga). Milliy, jahon va xalqaro (mintaqaviy) valuta tizimlari tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

Milliy valuta tizimi — tarixan yuzaga kelgan bo'lib, alohida olingan davlatning valuta munosabatlarni qonun asosida tashkil qilish va boshqarish munosabatlarni o'z ichiga oladi. Milliy valuta tizimining elementlari milliy valuta, valuta zaxiralari hajmi va tarkibi,

valuta pariteti va milliy valuta kursi, valutani konvertirlash shartlari, mamlakat valuta munosabatlarini boshqaruvchi milliy mahkamalar va tashkilotlar maqomi, valuta va oltin milliy bozor- larining faoliyat yuritish shartlari, valuta nazorati, valutaviy chek- lanishlar boryo‘qligi qoidalari, xalqaro kredit vositalarini milliy pul aylanishida qo‘llash qoidalari va boshqalar hisoblanadi. Milliy valuta tizimi mamlakat pul tizimining asosiy qismini tashkil qiladi.

Mintaqaviy valuta tizimi elementlari tegishli shartnoma shartlari asosida aniqlanadi.

Jahon valuta tizimi quyidagi elementlarni, ya’ni xalqaro to‘lov vositalarining ma’lum bir yig‘indisi, valuta kurslari va valuta pariteti, konvertirlash shartlari, xalqaro hisob-kitob shakllari, xalqaro valuta va oltin bozorlari rejimi, xalqaro va milliy bank tashkilotlari, xalqaro kredit vositalarini muomalada qo‘llash qoidalarini, valuta cheklavlarni davlatlararo boshqarish usullari va boshqalarini o‘z ichiga oladi.

Xalqaro va mintaqaviy valuta tizimlarining asosi xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo hisoblanadi. Jahon valuta tizimi valuta instrumentlari (vositalari)ning amal qilishini ta’minlovchi xalqaro kredit-moliya muassasalarini va xalqaro bitim hamda davlat huquqiy me’yorlari majmualarini o‘z ichiga oladi.

Mintaqaviy valuta tizimi rivojlangan davlatlarning jahon valuta tizimi chegarasida tashkil etiladi. Masalan, Yevropa valuta tizimi — YVT bir qator Yevropa davlatlarining valuta sohasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari shakli sifatida namoyon bo‘ladi va faoliyat ko’rsatadi.

Valuta mexanizmi samaradorligi, davlatning va xalqaro valuta-moliya muassasalarining valuta, pul va oltin bozorlariga aralashish darajasi iqtisodiy o‘sish, davlatning tashqi iqtisodiy strategiyasiga ta’sir etadi. Valuta tizimi ahamiyatining o‘sishi rivojlangan mamlakatlarning milliy va mahalliy doirada valuta sohasida davlat monopolistik boshqaruvining yangi usuli va vositalarini izlashga maj- bur etmoqda.

Jahon valuta tizimi (JVT) va uning evolutsiyasi. Rivojlangan davlatlarning valuta tizimi, nafaqat, ular o‘rtasidagi pul hisob- kitob munosabatlarini, balki ichki pul muomalasining katta qismini ham o‘z ichiga oladi. JVT oltin standartga asoslangan tizim- dan asta-sekin maqsadli boshqariladigan, qog‘oz-kredit pullariga asoslanadigan tizimga aylandi. Shu bilan birga, uning rivojlanishi (o‘n yilliklar farqi bilan) milliy pul tizimining rivojlanish bos-

qichlarini takrorlaydi. Ichki iqtisodiyotda pul tizimi oltin tanga standartidan oltin quyma va oltin deviz, undan kredit-qog'oz pul muomalasiga o'tdi va oxirgi bosqichda ko'proq e'tibor kredit vositalariga qaratiladigan bo'ldi.

Jahon miqyosida bu holat keyinroq maxsus shakllarda namoyon bo'ldi. Bunda oltin tanga standarti mutlaqo bo'lмаган, oltin quyma standarti asrlar davomida mavjud bo'lgan; oltin bilan bir qatorda yordamchi kredit pullari veksel, chek va boshqa ko'ri-nishda rivojlangan. Ammo XX asr boshiga kelib, bu tizim xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi shakliga javob bermay qoldi. Bu davrning eng asosiy belgilaridan biri kapitalni eksport qilish — JVTning yangi oltin standart shakllari bilan qarama-qarshilikka uchradi. Bundan tashqari, oltin zaxiralari tez rivojlanib borayotgan davlatlar xazinasida to'plana bordi. Shuning uchun ham, davlatlar o'rtasida yangi boshqariladigan valuta tizimi zarur edi. O'tgan asrning 30-yillari ikkinchi yarmida oltin standart shakllari o'rniqa qog'oz-kredit pul muomalasi keldi. U davlatga emissiya mexanizmidan iqtisodiyotni boshqarish vositasi sifatida foydalanish imkonini berardi.

Jahon valuta tizimi rivojlanishining muhim bosqichi II jahon urushidan keyin boshlandi. II jahon urushi oltin zaxiralarining yangi taqsimotiga olib keldi: barcha davlatlarning deyarli 4/5 oltin zaxiralari AQSHda to'plandi. Dollarning JVTda yetakchi o'rinn-daligi, oltin deviz standartining oltin dollar shaklini olganligidan dalolat berardi. Bu holat rasmiy ravishda 1944-yil iyulda Bretton-vuddagi (AQSH) BMT Konferensiyasida tasdiqlangandi. Unda urushdan keyingi Jahon valuta tizimiga asos solindi.

JVTning tashkiliy va faoliyat tamoyillari quyidagilar qilib belgilandi:

- oltin JVTning asosi sifatida tan olindi;
- dollar va funt sterlingga xalqaro hisob-kitoblarda va chet el valuta zaxiralarida asosiy o'rinn berildi va ularni oltin o'rniqa taqdim etilishi mumkinligi tasdiqlandi;
- dollarga nisbatan barcha mamlakat valutalarining qat'iy pari-teti o'rnatildi, dollar orqali esa oltinning va chet el valutalarining bir-biriga nisbatan bahosi aniqlanadigan bo'ldi;
- valuta kursining dollar paritetiga nisbatan tebranishi 1 % darajasida belgilandi;
- JVTni boshqarish maqsadida Xalqaro valuta fondi (XVF) va Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki (XRTB) tashkil etildi;

- valuta cheklovi tizimi bekor qilinib, milliy valuta konveratsiyasi tiklandi.

Bu shaklda tuzilgan, II jahon urushidan keyingi JVT xalqaro valuta-moliya munosabatlaridagi tartibsizlikni yo'qotishga imkon berdi. Ammo Brettonvud tizimining qarama-qarshiligi — tartibsiz bozor (oltin standart) va boshqariladigan dollar tizimi bo'yicha ish yuritish quyidagilarga olib keldi:

- o'zgarmas oltin narxi va narxi o'suvchi tovar va xizmatlar orasida farq yuzaga kelishiga;

AQSHdan ko'p miqdordagi kapitalning boshqa davlatlarga oqib ketishiga (1957—1971 -yillarda 54,2 mlrd dollar miqdorida to'g'ri investitsiyalar tarzida AQSHdan boshqa davlatlarga oqib o'tgan);

- chet ellardagi katta harbiy xarajatlarga;
- AQSHning to'lov balansi taqchil boiishiga (uning miqdori 1953—1972-yillarda 69 mlrd dollarni tashkil qilgan);
- dollarning real kursi va uning oltin pariteti orasida uzulish- ning bo'lishiga va boshqalar.

Bundan tashqari, 60-yillarning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa va Yaponiya AQSHdan o'z oltin zaxiralari va eksport hajmi bo'yicha ikki baravar oshib ketdi. Natijada, hatto oltin deviz standarti tayanadigan umumiqtisodiy asos o'z umrini tugatdi. Oltin, dollar standartining buzilishi valuta bozorlarida dollarning «tushishi» va «valuta isitmasi» iboralari tarzida o'z aksini topdi.

Shuning uchun 1970-yilda XVF chegarasida maxsus hisob va to'lov birligi (SDR) kiritildi va u a'zo davlatlarning valuta zaxiralarini to'ldirish uchun mo'ljallangandi. SDR jahon pulining bir qator funksiyalarini bajaradigan bo'ldi. U XVF a'zolarining kvotalariga proporsional tarzda taqsimlanadi, shuning uchun uning asosiy qismi (2/3 dan 3/4 gacha) rivojlangan davlatlarga, 1/4 qismi rivojlanayotganlariga to'g'ri keladi. SDR ning boshlang'ich kursi AQSH dollarining rasmiy oltin miqdoriga tenglashtirilgan. Keyinchalik uning qobiliyati 16 valuta savati bo'yicha, hozirda esa 5 asosiy milliy valuta bo'yicha aniqlanadi. SDR JVTning asosiy zaxira vositasiga aylanmoqda.

AQSH ikki marta dollar devalvatsiyasini o'tkazdi (1971 va 1973-yilda). Natijada oltinning rasmiy kursi — troya unsiyasi 42,22 dollargacha qilib belgilab berildi. Bu davrda ko'pchilik rivojlangan davlatlar o'z valuta kursini ma'lum darajada ushlab turish (dollarga nisbatan) majburiyatlaridan voz kechdi. 1973-yil-

dan oltin maxsus oltin va tovar birjalaridagi narx asosida sotiladigan va sotib olinadigan bo'ldi. Oltin narxi JVTga bevosita ta'sir o'tkazmaydigan bo'ldi. Bu sharoitda xalqaro valuta munosabatlarini qayta tashkil qilish muammosi vujudga keldi. 1976-yil yanvarda XVFning vaqtli qo'mitasi XVF nizomiga bir qator o'zgarishlarni kiritdi. Bu o'zgarishlar XVT faoliyatini rasmiy ravishda qayta taqsimlashni bildirardi (Yamayka kelishuvi, 1976—1978). Valuta munosabatlari mexanizmidagi o'zgarishlar 1978-yil 1-apreldan kuchga kirdi va u quyidagilardan tarkib topgandi:

— oltinning rasmiy narxi bekor qilindi (XVFning mavjud oltin zaxirasi 33 % ining 1/6 qismini ochiq auksionlarda sotib va yana 1/6 qismini a'zo davlatlarga tarqatish yo'li bilan hisobdan chiqarishgandi).

SDR JVTning asosiy zaxira aktiviga rasmiy ravishda aylan- tirildi. Valuta kurslarining «suzuvchi» tizimi qonunlashtirildi. A'zo davlatlar o'z valuta paritetini SDR yoki boshqa chet el valutasida ifodalay olishi mumkin edi (ammo oltinda emas).

Xalqaro valuta boshqarish sohasi kengaytirildi. Buning uchun XVF qoshida iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha a'zo- davlatlar vazirlari darajasida qo'mita tashkil etildi. Tashkil topgan valuta tizimi ko'p jihatdan XX asrning 70-yillaridagi jahon xo'ja- ligining o'zgargan sharoitlariga javob berardi.

Mintaqaviy valuta tizimi (MVT). G'arbiy Yevropa valuta integratsiyasining chuqurlashuvi Yevropa valuta tizimining (YVT) vujudga kelishiga olib keldi. Bu valuta tizimi mintaqaviy valuta tizimi (MVT) bo'lib, u JVTining elementlaridan biridir.

YVT 1979-yili tashkil etildi. Bu MVTning asosiy belgisi YKY mexanizmidir. YKY — maxsus Yevropa hisob birligi bo'lib, GFR (1/3 qismi) markasi boshchiligidagi G'arbiy Yevropaning 10 mam- lakati valutasining «savati»ga asoslangandir. SDRdan farqli ravishda YKY bank va firmalarning xususiy operatsiyalarida qo'llaniladi. Milliy valutalar kvotasi — YKYning tashkil etuvchi- lari — mamlakatning iqtisodiy potensiali bilan aniqlanadi va har 5 yilda qayta ko'rib chiqiladi. «Savat»ni qayta ko'rib chiqishda hamma aktiv va passivlar yangi kurs bo'yicha qayta baholanadi. Oxirgi marta YKY 1989-yilda belgilangan bo'lib, valutalar ulushi (% larda): GFR markasi — 30,1; Fransiya franki — 19,0; Golland guldeni — 9,4; Belgiya franki — 7,6; Ispaniya pesetasi — 5,3 va boshqalar — 5,45 ni tashkil qilgan.

YI chegarasida yagona pul birligiga o'tilishi YKYni asosiy valuta aylantiradi. Yamayka valuta tizimidan farqli ravishda, YVT oltindan YKYning ta'minoti sifatida qisman foydalanadi va a'zo mamlakatlarning rasmiy oltin dollar zaxiralarining 20 % ini birlashtiradi. Valuta kurslari rejimi valutalarning belgilangan chegarada suzishiga asoslangan (asosiy kursdan 2,25 %, Italiyada be-qarorlik tufayli 6 %).

YVT mamlakatlارаро mintaqaviy valuta boshqarishini Yevropa valuta hamkorligi fondi (YVXF) orqali amalga oshiradi. U Markaziy banklarga qisqa va o'rta muddatli kreditlarni valuta intervensiysi bilan bog'iq to'lov balansi taqchilligini qoplash uchun beradi. Valuta sohasida yagona pul asosi — jahon puli mavjud emas. Erkin konvertatsiya qilish va kapital oqib o'tishi sharoitida mamlakatlarda ichki pul muomalasi va xalqaro to'lov aylanmasi o'rtasidagi chegaralar yo'qolmoqda.

Milliy va xalqaro pul-kredit bozorining birgalashishi an'anasi milliy pul-kredit bozorlarining o'ziga xosligi, ixtisosligini saqlagan holda rivojlanmoqda. Hatto AQSH, GFR, Angliya, Shveysariya va boshqa bozorlarda operatsiyalarni erkinlashtirgan davlatlarda ham xalqaro va milliy kapital bozorlari farq qilmoqda. Masalan, AQSHning yevrodollar va milliy kapital bozorlarini olaylik. AQSHda sotuvga qo'yilgan rezident va rezident bo'limganlarning obligatsiyalari ro'yxatdan o'tishi lozim. Bunday holat xalqaro bozorda mavjud emas. Bundan tashqari, xalqaro bozorda chiqarilganiga bir oy bo'limgan qimmatli qog'ozlar AQSHning investor-lariga taqdim etilishi mumkin emas. Boshqa ko'pchilik davlatlarda bunday holatlar erkinroq namoyon bo'ladi (Fransiya, Belgiya, Italiya, Yaponiya va boshq.).

Valuta sohasining xalqaro ayirboshlash munosabatlardagi mavqeyining oshish an'anasi JVT rivojining hamma bosqichlarida (oltin standartdan boshlab) kuzatiladi. Milliy xo'jalik jahon xo'jalik aloqalariga qanchalik ko'p jalb etilgan bo'lsa, mahalliy qo'mitalar iqtisodiyotni tashqi nomaqbul ta'sirlardan xoli etishga harakat qiladi. Bu ziddiyat har bir davlatning oltin standartdan boshlab, to hozirgi kungacha bo'lgan evolutsiyasini belgilab berdi. Masalan, oltin standart davridagi oltinning tartibsiz oqimi (davlatlar o'rtasida) oxir-oqibatda ularning ishlab chiqaruvchi kuchlariga salbiy ta'sir etdi. 1929—1933-yilgi iqtisodiy krizis valuta mexa-nizmining oltin standart davridagi holatiga putur yetkazdi: erkin valuta almashinuvni qattiq valuta cheklowlari bilan almashdi, valuta

bloklari va zonalari tashkil topdi, baynalmilallahuv jarayoni to‘xtatildi. Brettonvudda tuzilgan xalqaro hisob-kitoblar modeli valuta mexanizmini tiklashga qaratilgan qadam bo‘ldi. U aniq belgilangan tamoyillar asosida ish yuritar, uning ustidan nazoratni XVF o‘z bo‘yniga olgandi.

Brettonvud valuta mexanizmi XX asrning 70-yillari boshigacha faoliyat yuritdi, u milliy manfaatlarni xalqaro majburiyatlar bilan birlashtirdi: davlatlarning nisbiy mustaqilligi (ichki iqtisodiy siyosatni O‘tkazish sohasida) xalqaro kredit tizimi ishtiroki bilan ta’milanardi. U o‘z ichiga XVF krediti, zayomlar to‘g‘risida bosh kelishuv (1961-yil), Markaziy banklar o‘rtasidagi svop kreditlari va boshqalarini olar edi.

O‘tgan asrning 70-yillari boshida rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti shunday chegaraga yaqinlashdiki, bunda keyingi iqtisodiy o‘sish butun bazasini yangilash, valuta ta’minotining samaradorligini oshirishni talab etardi. Shuning uchun 1971 — 1973-yillar- dagi «suzuvchi» valuta kurslarining kiritilishi JVT evolutsiyasining qonuniy bosqichi edi. Hozirgi suzuvchi valuta kurslari tizimi asosida xalqaro hisob-kitob tizimida chuqr tarkibiy o‘zgarishlar bo‘Mishiga olib keladi. Ular, nafaqat, moliyaviy operatsiyalar hajmining o‘sishida (ular savdo operatsiyalari bilan 10:1 nisbatni tashkil etishdi), balki moliyaviy oqimlar harakatining davlat budjeti, soliq va kredit siyosatidagi farqlarda o‘z aksini topadi. Va shu munosabat ‘bilan mamlakatlar o‘z milliy valutasi kursini mustaqil belgilash imkonini oldilar. Shunday qilib, hozirgi valuta tizimida, xalqaro va baynalmilallik o‘rtasidagi nisbat milliy omillar tomoniga hal bo‘ldi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab, YVTni valuta hamjamiyatiga aylantirish yo‘llari to‘g‘risidagi bahs faollashdi. Bu «Chegarasiz Yevropa» yoki «Yevropa-92», deb nom olgan jarayon bilan bog‘liq edi. Masala yagona YT valuta siyosatiga asta- sekinlik bilan o‘tish ustida borardi. Valuta integratsiyasi istiqbol- lari muhokama qilinganda asosiy e’tibor Yevropa Markaziy banki hamjamiyatning yagona valutasi va valuta hamjamiyati harakat yo‘llariga qaratilgandi.

Birinchi masala bo‘yicha ko‘pchilik Yevropa Markaziy banki ahamiyati AQSH Federal zaxira tizimi modelidek tuzish kerak, degan xulosaga keldi. Bunda hududiy zaxira banklari ancha mustaqil bo‘lib, Markaziy boshqarish mahkamasi esa ularning faoliyatini tartibga soladi, boshqaradi. Yangi Markaziy bank uchun nom ham berildi— «Yevrofed».

YTning yangi Markaziy banki masalasi bilan birligida yagona valutani tashkil qilish muammosi ham bor. YKYning rolini oshirish uchun eng asosiy qadamlardan biri «rasmiy» va «xususiy» YKY orasidagi farqni yo‘qotish, YVT markaziy kurslarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashdir. Ko’rsatilgan chora-tadbir-lar yagona valuta siyosatiga ega. YT Valuta ittifoqining tuzilishini bildirar edi. Bu niyat 1991-yil Maastrichtda (Gollandiya)gi YT a’zolarining iqtisodiy va Moliya vazirliklari yig‘ilishida tasdiqlanib, Valuta iqtisodiy hamjamiyatini (VIH) tuzishning uch bosqichli rejasi tuzildi.

Rivojlangan mamlakatlar valuta siyosati yagona va o‘zaro bog’Iiq dunyoda amal qiladi. Shuning uchun uchinchi davlatlar omili unga qanday darajada ta’sir etishini aniqlash lozim. So‘z, asosan, rivojlanayotgan davlatlar to‘g‘risida bormoqda. Ko‘pchilik Sharqiy Yevropa va MDH davlatlari o‘zida g‘arbning valuta siyosati ta’sirini sezmoqda. Hali xalqaro valuta munosabatlarda ishtirok etishning muqobil shakllarini qollash yo’llarini izlash lozim. Bunda esa rivojlanayotgan mamlakatlar malakasi qo‘l keladi.

Rivojlanayotgan davlatlarga g‘arb valuta siyosati ta’siri haqida so‘z borganda, shu davlatlar rasmiy invaluta zaxiralarining 95 % olti davlat valutasiga to‘g‘ri keladi: AQSH dollari (67,5 %), GFR markasi, yapon iyenasi, funt sterling, Shveysariya va Fransiya franki. 90 % ga yaqin rivojlanayotgan mamlakatlar o‘z pul birligining AQSH dollari, Fransiya franki, SDRga nisbatan o‘zgarmas kursini ushlab turibdi. G‘arb davlatlari foiz stavkasining xalqaro va milliy kapital bozoridagi darajasi rivojlanayotgan davlatlarning tashqi qarzlari bo‘yicha to‘lovlariga ta’sir etadi.

Yuqoridagi misollardan ma’lum bo‘ldiki, rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning milliy valuta ko’rsatkichlarining barqarorlashuvidan manfaatdor. Bunda asosiy konvertirlanadigan valutalarning milliy valutani siqib chiqarish jarayoni kuzatiladi. Boz ustiga rivojlangan davlatlar valuta siyosatining rivojlanayotgan davlatlar valuta siyosatiga kirib borishi kuzatiladi. Bu jarayon, albatta, rezidentlarga chet el valutasida shartnomalar tuzish ruxsat etilgan davlatlardagina amalga oshadi.

Valuta o‘rin almashinuvining eng salbiy oqibatlaridan biri milliy budget, pul va kurs siyosati ta’sirchanligining kamayishidir. Ammo bu rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning passiv obyekti, degani emas.

12.3. Valuta kursi va unga ta'sir qiluvchi omillar, valuta kurslarining turlari

Valuta kursining kelib chiqishi mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining muhim va ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan xalqaro savdoni rivojlantirish bilan bog'liq. Valuta kursi xalqaro savdoning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish bilan ichki iqtisodiyotga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunga sabab, valuta kursi holati bilan mamlakat iqtisodiyoti barcha sohalarining holati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Valuta kursi, asosan, kapital va kredit harakatida, tovar va xizmatlar savdosida valutalarni o'zaro ayirboshlash kabi jarayonlarni amalga oshiradi. Masalan, eksport qiluvchi chet el valutasi- dan olgan tushumini o'z milliy valutasiga aylantiradi, chunki boshqa davlatning valutasi uning o'z davlatida qonuniy ravishda xarid qilish va to'lash vositasi sifatida amal qila olmaydi. Import qiluvchi chet- dan sotib olgan tovarlarni to'lovni amalga oshirish uchun milliy valutada olgan tushumini chet el valutasiga almashtiradi. Juhon bozori va milliy bozor narxlarini hamda turli mamlakatlarning milliy va chel el valutasida ifodalangan qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslaydi.

Shuningdek, firma va banklarning chet el valutasida mavjud bo'lgan davriy qayta baholash va boshqa jarayonlar uchun. Valuta kursi — bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro pul birliklarida (SDR, YKY) ifodalangan bahosi. Tashqi jihatdan valuta kursi jahon bozoridagi talab va taklif asosida aniqlangan bir valutani boshqa bir valutaga nisbatan hisoblab chiqilgan koeffitsiyenti sifatida namoyon bo'ladi. Ammo valuta kursining qiymat asosi valutani xarid qilish qobiliyati hisoblanadi. Bu iqtisodiy tushuncha tovar ishlab chiqarishda ishtirok etib, tovar ishlab chiqaruvchilar bilan jahon bozori o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy sharoitlarining barcha jihatlarini ifodalaydi. Bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligiga taqqoslanishi ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan qiymat munosabatlariga asoslanadi. Ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar valuta kursi yordamida tovar va xizmatlarning milliy narxlarini boshqa davlatlar narxlari bilan solish-tiradi. Bunday solishtirish natijasida ishlab chiqarishni mamlakat

ichkarisida rivojlantirish yoki chet elga investitsiya qilishni rivojlantirishga asoslangan foydalilik darajasi yuzaga keladi.

Valuta kursi boshqa iqtisodiy tushunchalar bilan uzbek bo'lgan iqtisodiy surʼati bilan ayirboshlash jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillar: Valuta kursining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Bu omillar iqtisodiy, siyosiy, struktura, huquqiy yoki psixologik xarakterga ega bo'lib, valuta kursiga to'g'ri yoki teskari ta'sir ko'rsatadi. Valuta kursi siga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Valuta kursining dinamikasini bevosita aniqlovchi yoki xalqaro iqtisodiy ayirboshlash jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillar:

- xalqaro ayirboshlashda qatnashuvchi mamlakatlar yalpi milliy mahsulotining (YMM) to'lov balansi;
- pulning ichki va tashqi taklifl;
- foiz stavkalari.

Bu ko'rsatilgan omillarni sabab (uyushgan) sifatida ko'rsatish mumkin.

2. Sabab (uyushgan) omillarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi va valuta kursini o'rnatish mexanizmida boshqaruvchi sifatida ta'sir etuvchi omillar.

3. Iqtisodiy tizimning dinamik tizim tangligidan chiqib ketishi natijasida yuzaga keladigan omillar:

- iqtisodiy tanglikning namoyon bo'lishi;
- davlat budjeti taqchilligi;
- nazoratsiz emissiya;
- inflatsiya;
- ichki va tashqi baholar o'rta sidagi farq;
- monopol ishlab chiqarish;
- pullarning xorijiy valuta funksiyasini bajarishi:
 - a) to'liq hajmda to'lov vositasi;
 - b) jamg'arish vositasi;
 - d) kapitalning chetga oqib ketishi;
- investitsiyani qisqartirish;
- ishlab chiqarish hajmining pasayishi.
- resurslar aylanmasida qatnashmaslik;
- iste'molchilar foydalarining pasayishi;
- valuta birjasidagi o'yin;
- tovarlarning «yuvilishi»;
- demping baholaridan foydalanish orqali ayrim firmalarning olib borayotgan tashqi savdo faoliyati.

4. Siyosiy omillar:

- mamlakat pul tizimiga bevosita o'zgarish kirituvchi siyosiy qarorlar;
 - boshqaruv tuzilmasining barqarorlik darajasi;
 - iqtisodiy tizimni boshqarishda ishonchlilik darajasi;
 - iqtisodiy va siyosiy struktura vakillatining bir-birini tushuna olish darajasi;
 - qonunlarning bajariHsh darajasi;
 - iqtisodiyotda davlat ulushining miqdori;
 - mamlakatdagi siyosiy kuchlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar darajasi;
- iqtisodiyotni ko'tarish bo'yicha aniq ishlangan dastuming yo'qligi;
- aholining boshqaruv strukturasiga ishonchlilik darajasi;
- xususiy kapitalning himoyalanganlik darajasi.

Qonuniy me'yorlarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valutasining kursini, qimmatli qog'ozlar kursini yoxud tovarlar bahosining o'rnatilishi, qisqacha qilib aytganda, valuta kursini o'rnatish — kotirovkalash, deb ataladi. Jahon amaliyotida kotirovkalashning ikki usuli mavjud:

- **to'g'ri kotirovka.** Agar xorijiy valuta birligining bahosi milliy valutada ko'rsatilsa, ya'ni milliy valutada xorijiy valutaning bir birligiga to'g'ri keladigan miqdorda ko'rsatilsa, to'g'ri kotirovka, deb ataladi. Bunday kotirovka hozirgi vaqtida jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda;
- **egri (teskari) kotirovka.** Bunda bir birlik milliy valutaning xorijiy valutalardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valutaning xorijiy valutadagi bahosi ko'rsatiladi.

Buyuk Britaniyada funt sterling, Avstraliya dollari va YKYning kursi teskari kotirovkalash yordamida o'rnatiladi. Agarda ikki valuta o'rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valutaga nisbatan olingen kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni «kross-kurs» deb ataladi.

Masalan, 1 AQSH dollari = 30,00 Rossiya mbli;

1 AQSH dollari = 5,00 Ukraina grivnasi;

1 Ukraina grivnasi = 6,00 Rossiya mbli.

Ko'rinish turibdiki, (kross-kurs) yuqorida keltirilgan nisbat Ukraina grivnasining Rossiya rubliga nisbatan aniqlangan kross- kursidir. Ushbu misolda AQSH dollari uchinchi valuta sifatida gavdalanadi. Juhon amaliyotida, asosan, uchinchi valuta sifatida AQSH dollari qo'llaniladi, ya'ni barcha valutalar jahon ayrbosh- lashida aynan shu valutaga nisbatan kotirovka qilinadi.

Kross-kursdan foydalanish ancha og‘ir va tavakkaldir. Ammo ularni qo‘llash quyidagi ikki holatda zarur va foydalidir: Sizning talabingizdagi valutaga ega bo‘lgan sotuvchilarda Sizning valutangizga talab mavjud emas (masalan, so‘mni Yaponiya iyenasiga almashtirish kerak. Bu yerda uchinchi valuta AQSH dollari bo‘lsin. Yaponiya iyenasi sotayotganlar ichida Sizning valutangizni sotib olishni xohlaydiganlar yo‘q).

Oldi-sotdi bitimlарини amalgа oshirishda valuta bozorida quyidagi valuta kurslarining ko‘rinishlaridan foydalilanadi: Spot-kurs — bu naqd (kassa) bitimlarning kursidir. Spot-kurs — bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtда o‘rnatilgan baho bo‘yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Bunda valutani valuta bitimi tuzilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi. «Forward» kurs—bu muddatli valuta bitimlarning kursi. Forward kursi valutani kelajakda aniq bir kunga yetkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o‘zida ifoda etadi.

Forward bitimlari, odatda, valuta kurslarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni bartaraf qilish maqsadida ishlatalidi. Bitim tuzilayotgan paytda forward kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo‘yicha valuta sotiladi yoki sotib olinadi. Agar shartnoma muddati tugagan kunda kurs shartnoma kursi- dan farq qilsa, unda bir tomon foyda ko‘radi, ikkinchi tomon esa zarar ko‘radi. Masalan, Siz 2008-yil 1-yanvarda IS—965 so‘m kursida sotib olish bitimini tuzdingiz. Ammo 2008-yil 1-iyunda 1 \$—970 so‘mni tashkil etdi, natijada Siz har bir dollarga 5 so‘m miqdorida qo‘srimcha foyda ko‘rdingiz. Agar 1-iyunda 1 \$—963 so‘mni tashkil etsa, unda har bir dollardan 2 so‘mdan zarar ko‘rasiz.

Muddatli bitimlar bo‘yicha valuta kurslari (report) ustama yoki dastxat metodi bo‘yicha kotirovka qilinadi va «autrayt» kurslari, deb ataladi.

Forward kurs + Spot kurs + Ustama Forward kurs + Spot kurs — Diskont.

Misol.

Bitim summasi — 1 mln.

Bitim muddati — 90 kun.

Bitim valutasidagi kreditning % stavkasi (USD) — 3,5 %. Baholovchi valutadagi depozitlarga to‘lanadigan % stavkasi — 5,5 %. Spot kurs = 1,5210-1,5220.

$$\begin{array}{l} \text{S K F S F B M} \quad 1,5210-(5,5-3,5)90 \\ \text{Ustama yoki/diskont} = \dots = \dots \\ (360-100) + (\text{BVKS-BM}) (360 \cdot 100) + (3,5 \cdot 90) \end{array}$$

36315

Forvard kurs = $1,5210 + 0,0075 = 1,5285$ (ustama).

Bu yerda, **SK** — spot kurs; **FSF** — depozitga to‘lanadigan va kredit bo‘yicha olinadigan foiz stavkalari o‘rtasidagi farq; **BM** — bitim muddati; **BVKS** — bitim valutasidagi kreditning foiz stavkasi; **360** — yildagi kun lar soni.

Ustama yoki diskont ekanligini foiz stavkalari o‘rtasidagi farq- dan bilish mumkin. Agar valuta bitimi bo‘yicha foiz stavkasi baho- lovchi valutaning foiz stavkasidan past bo’lsa, bu valuta yuqori kursda kotirovka qilinadi va chiqqan ko’rsatkich ustama sifatida so- tiladi. Agar valuta bitimining foiz stavkasi yuqori bo’lsa, bu ko'r- satkich diskont bo'ladi. Agar milliy valutadagi depozitlarning % stavkasi bitim valutasidagi kreditlarning foiz stavkasidan yuqori bo’lsa, olingan natija diskont hisoblanadi, aksincha bo’lsa, ustama hisoblanadi.

Banklar valuta operatsiyalarini amalgalashirishda valutani sotish va sotib olish kursini o‘rnatadi. Bu kurslar sotuvchining va xaridorning kursi, deb ataladi.

Sotuvchi kursi — bankning valutani sotish kursi.

Xaridor kursi — bankning valutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o‘rtasidagi farq marja, deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma’lum darajada foyda olishga sarflanadi.

Valutaning eng muhim xarakteristikasi uning konvertirlanganligidir. Konvertirlanganlik darajasiga ko’ra, valuta kursi uchga bo’linadi:

- erkin «suzib» yumvchi;
- cheklangan darajada «suzib»yuavvchi;
- qayd etilgan valuta kurslari.

Valuta kursi tovar bahosi kabi shu guruhlarga bo’linadi. Erkin «suzib» yuruvchi valuta kursi ma’lum valutaga bo’lgan bozor tala- bi va taklifi ta’sirida o’zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSFİ dollari, Yaponiya iyenasi, Angliya funt sterlingi. Shu bois, bu valutalar jahon valuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

Cheklangan darajada «suzib» yumvchi valuta kurslarining o‘zgarishi ayrim valutalar yoki bir guruh valutalar (valuta savati)

kursi o‘zgarishiga bog‘Iiq. Misol uchun «uchinchidunyo»ning ko‘pchilik mamlakatlari o‘z valutalarini AQSH dollariga, Yevropa mamlakatlarining yevrosiga va boshqa xorijiy valutalarga bog’lashadi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar valuta kurslarini valuta savatiga nisbatan hisoblashadi. YKY ham xuddi shunday tartibda hisoblanadi. Cheklangan darajada «suzib» yuruvchi valuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o‘z valutalarining tebranish chegarasini o‘zlari hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan kelishib olishadi.

Qayd etilgan valuta kursi — bu xorijiy valutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o‘rnatilgan bahosi bo‘lib, unga valuta bozorlaridagi talab va taklifning o‘zgarishi ta’sir qilmaydi. Hozirgi vaqtida qayd etilgan valuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiy tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishini kuchli xorijiy raqobatchilaridan himoya qilish va quwatlash maqsadida qo’llaniladi.

Real samarali ayirboshlash kursi dinamikasida pasayish sodir bo‘ladi. Agar 2000—2002-yillarda real samarali ayirboshlash kursi dinamikasida keskin pasayish sodir bo‘lgan bo‘lsa, 2003-yil- dan boshlab kurs ancha barqarorlashdi. 2003-yil davomida real samarali ayirboshlash kursi 12,1% ga pasaygan va 2004-yilning dastlabki yarim yilda 6,6 % ga pasaydi. Milliy valuta real almashinuv kursining barqarorlashuvi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qattiq monetar siyosati natijasidir.

Real samarali ayirboshlash kursi (1994-yil dekabr = 100 %)

M a n b a : O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, International Financial Statistics (IFS), IMF.

Barcha mamlakatlar ma'lum muddatda o'z valutalari kurslari to'g'risidagi axborotni e'lon qilib borishadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi valuta birjasi ish yakunlari matbuotda, televideniyeda e'lon qilinadi. Bunda nominal valuta kursi belgilanadi. Lekin kuchayib borayotgan inflatsiya jahon bozorida milliy mahsulotga bo'lgan talabni, uni raqobatbardoshligini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o'rtasidagi nisbatini ham bilish kerak bo'ladi. Ya'ni milliy valutaning real almashtirish kursini hisoblab chiqish kerak.

Real valuta kursini hisoblashni O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqariladigan gazlama misolida ko'rsatish mumkin. Masalan, 1 m gazlamaning bahosi respublikamizda 1000 so'm, Rossiyada 35 rubl. Valutalarning amaldagi nisbati 1 Rossiya rubli = 35 so'm yoki 1 so'm = 0,028 Rossiya rubli bo'lganda, 1 m o'zbek gazla-masining bahosi Rossiya rublida 0,028-1000—28 rubl turadi. Bunday holda O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqarilgan 1 m gazlama baholari nisbati teng:

$$0, \quad - \frac{028-1000}{35} = \frac{28}{35} = 0,7 \text{ ga teng bo'lib.}$$

Demak, ushbu nisbat o'zbek gazlamasining bahosi Rossiya gazlamasi bahosidan 0,7 marta arzon ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, real valutadagi bahosiga va nominal almashtirish kursiga bog'iq bo'lib, quyidagi tenglik bilan izohlanadi:

- real kurs = nominal kurs (hamda o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan xorijiy tovarlar bahosi).

Bu tenglikni umumiy ko'rinishda shunday yozish mumkin: real valuta kursining nominal valuta kursi baholar darajasi nisbatlari past valuta kursida milliy tovarlar nisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan qimmatroq turadi.

Shuning uchun eksport o'sib boradi, import esa qisqarib boradi va, aksincha, yuqori real valuta kursida milliy tovarlar nisbatan qimmatroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import o'sib, eksport qisqarib boradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Valuta tizimining asosiy elementlari.
2. Yamayka valuta tizimining asosi nima?
3. Parij valuta tizimining asosi nima?
4. Yevrovaluta tizimining tashkil topishi.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., «O'zbekiston», 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2003.
5. O'zbekiston Respublikasining «Kredit uyushmalar to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2003.
6. O'zbekiston Respublikasining «Valutani tartibga solish to'g'-risida»gi Qonuni (yangi tahrir). T., «O'zbekiston», 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2006.
8. O'zbekiston Respublikasining «Mikrokredit tashkilotlari to'g'-risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2007.
9. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2007.
10. O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi Qonuni. T., «O'zbekiston», 2007.
11. **I.A. Karimov.** O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xosyo'li. T., «O'zbekiston», 1993.
12. **I.A. Karimov.** O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995.
13. **I.A. Karimov.** O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
14. **I.A. Karimov.** O'zbekiston: buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998.
15. **I.A. Karimov.** Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash — bizning oliy maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 1998.
16. **I.A. Karimov.** Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya, moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T., «O'zbekiston», 2005.

17. **LA. Karimov.** Mamlakatimiztaraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish — barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. T., «0‘zbekiston», 2007.

18.1. **A. Karimov.** Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, 0‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. T., «0‘zbe- kiston», 2009.

19.1. **A. Karimov.** Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. T., «0‘zbekiston», 2010.

20. **Л.В.Аверьянова.** Международные банковские расчеты. М., «Экономика», 1998.

21. **В.И. Алексеева.** Банковское кредитование. М., «ИНКО-М», 1998.

22. **Sh. Z. Abdullayeva.** Bank risklari fani bo‘yicha magistratura tinglovchilar uchun muammoli ma’ruzalar to‘plami. T., «Iqtisod- moliya», 2001.

23. **Sh.Z. Abdullayeva.** Bank risklari va kreditlash. T., «Moliya», 2003.

24. **Sh.Z. Abdullayeva.** Xalqaro valuta-kredit munosabatlari. Darslik. T., «Tqtisod-moliya», 2006.

25. **Sh.Z. Abdullayeva, A. Omonov.** Tijorat banklari kapitalini bosh- qarish. T., «Iqtisod-moliya», 2006.

26. **Sh.Z. Abdullayeva.** Pul, kredit va banklar. T., «Iqtisod-moliya», 2007.

27. **Sh.Z. Abdullayeva, Z.B. Safarova.** Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. T., «Iqtisod-moliya», 2008.

28. **Sh.Z. Abdullayeva.** Bank ishi. Darslik. T., TMI, 2010.

29. **Sh.Z. Abdullayeva va boshq.** Bank resurslari va ularni bosh- qarish. T., «Iqtisod-moliya», 2010.

30. Банки и банковское дело. М., «Омега», 2007.

31. Банкноты стран мира: денежное обращение. М., «Прогресс», 2007.

32. **А.Г. Баталов.** Банковская конкуренция. М., «Экономика», 2007.

33. **А.В. Беляков.** Банковские риски. Учет и управления. М., «Наука и техника», 2009.

34. Банки и банковское дело. Учебник для вузов. М., «Финансы и статистика», 2010.

35. **О.И. Ловргин.** Банки и банковское дело. М., «Финансы», 2010.

36. **О.И. Ловргин и др.** Банковское дело. М., «Финансы и статистика» 2010

M U N D A R I J A	Kirish	3
I bob. Pulning zarurligi va mohiyati		
1.1. Tovar ishlab chiqarish va pulning zarurligi	6	
1.....	2	
Pulning mohiyati va uning xususiyatlari.....	8	
1.3.Pulning turlari.....	9	
II bob. Pulning funksiyalari va roli		
2.1. Pulning funksiyalari va ularga tavsif.....	14	
2.2. Pul funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligi	23	
III bob. Pul aylanmasi va uning tuzilishi		
3.1. Pul aylanmasiga tavsifnoma va uning tuzilishi	26	
3.2. Naqd pulsiz pul aylanmasi, uni tashkil qilish tamoyillari va naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari	31	
3.3. Naqd pul aylanmasi va uning xususiyatlari.....	60	
3.4. Pul muomalasi qonuni	63	
3.5. Pul agregatlari va pulni tartibga solishning amaliyotda qo‘llanilishi	64	
IV bob. Pul nazariyasi		
4.1. Pul nazariyasi to‘g‘risida umumiy tushuncha	68	
4.2. Pulning metallik nazariyasi	69	
4.3. Pulning nominallik nazariyasi	71	
4.4. Pulning miqdoriy nazariyasi	73	
4.5. Pul nazariyasining yangicha talqin qilinishi	74	
V bob. Inflatsiya va pul muomalasini barqarorlashtirish usullari		
5.1. Inflatsiya, uning mazmuni, kelib chiqish sabablari va shakllari	78	
5.2. Inflatsiyaning turlari va toifalari	81	
5.3. Pul muomalasini barqarorlashtirish va inflatsiyani bartaraf qilish yo‘llari	87	
5.4. Pul islohotlari va uning pul muomalasini barqarorlashtirishdagi o‘rni	93	
VI bob. O‘zbekiston Respublikasining pul tizimi		
6.1. Pul tizimi va uning asosiy elementlari	97	
6.2. O‘zbekiston Respublikasida pul tizimi va uning rivojlanish tarixi	100	
6.3. O‘zbekiston Respublikasida mustaqil pul tizimining joriy qilinishi	103	
6.4. Pul tizimining barqarorligi va milliy valutaning konvertabelligini ta’minlash yo‘llari.....	106	

7.1. Fondlar aylanishining o‘ziga xos xususiyatlari va kredit zarurligining boshqa omillari	108
7.2. Kreditning mohiyati va uning funksiyalari	114
7.3. Kreditlash tamoyillari	121
7.4. Kreditning shakkllari va turlari, ularning tavsiyi	129
7.5. Kredit va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati	140

VIII bob. Banklar va bank tizimi

8.1. Banklarning kelib chiqishi va uning mohiyati.....	144
8.2. Banklarning funksiyalari	146
8.3. Kredit tizimi va uning tuzilishi.....	147
8.4. Markaziy bank, uning vazifalari va funksiyalari	151
8.5. Davlatning oltin-valuta zaxiralarni boshqarish funksiyasi	152

IXbob. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning shakllanish bosqichlari

9.1. O‘zbekistonda zamonaviy bank tizimining tashkil qilinishi	157
9.2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari	164
9.3. Markaziy bank faoliyatining xususiyatlari.....	167

X bob. Tijorat banklari va ularning funksiyalari

10.1. Bank faoliyatini tashkil qilishning iqtisodiy va huquqiy asoslari	173
10.2. Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi	179
10.3. Tijorat banklarining funksiyalariga qisqacha tavslif	180

XI bob. Tijorat banklarining passiv, aktiv va boshqa operatsiyalari

11.1. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari	183
11.2. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari	186
11.3. Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari.....	193
11.4. Tijorat banklarining to‘lovg‘a layoqatliligi va likvidliligi	198
11.5. Tijorat banklarining xalqaro operatsiyalari	223

XII bob. Xalqaro valuta munosabatlari

12.1. Xalqaro iqtisodiy aloqlar — valuta munosabatlarining asosi sifatida	235
12.2. Valuta tizimi va uning asosiy elementlari	235
12.3. Valuta kursi va unga ta’sir qiluvchi omillar, valuta kurslarining turlari.....	243

Foydalilanigan adabiyotlar

PUL MUOMALASI VA KREDIT

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv go‘llanma To‘ldirilgan va qayta

ishlangan 4-nashri

Toshkent - «ILM ZIYO» - 20! 1

Muharrir **I. Usmonov** Badiiy
muharrir **Sh. Odilov** Texnik
muharrir **F. Samadov** Musahhih
M. Ibrohimova

Noshirik litsenziyasi At № 166, 23.12.2009-y.
2011 -yil 23-oktabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90[‘]/₁₆.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosnia tabog[‘]i 16,0.
Nashrtabog[‘]i 15,0. 2168 nusxa. Buyurtma № 53[^]
Bahozi shartnomaga asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy. Shartnomा № 38
— 2011.

0[‘]zbekiston Matbuot va axborot agentligining G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, Shayxontohur ko‘chasi, 86-
uy.